

# ИЖТИМОЙ

**муҳит ва таълим жараёнида  
хулқ-атвор шаклланишининг  
педагогик ва психологик жиҳатлари**



ЁШЛАРГА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК  
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МАРКАЗИ

**«ИЖТИМОЙ МУҲИТ ВА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА  
ХУЛҚ-АТВОР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПЕДАГОГИК  
ВА ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ»**

МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ  
2-ҚИСМ

*(2023-йил 11-февраль)*

Ижтимоий муҳит ва таълим жараёнида хулқ-атвор шаклланишининг педагогик ва психологик жиҳатлари / Мақолалар тўплами. – Тошкент, 11.02.2023 й. – 320 бет.

Мазкур тўплам ижтимоий муҳит ва таълим жараёнида хулқ-атвор шаклланишининг педагогик ва психологик жиҳатлари, ёшларда салбий ўзгаришларни келтириб чиқарувчи ташқи таъсирларнинг ижтимоий, педагогик ва психологик жиҳатлари” мавзусига бағишлаб ўтказилган Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари асосида тайёрланган. Ушбу тўпламда психология ва педагогиканинг назарий, методологик ҳамда умумпсихологик масалалари, ижтимоий-маънавий ўзгаришлар, ёшларнинг ижтимоий-психологик муаммолари, унинг сабаб ва ечимлари, ёшларнинг хулқ-атвори ва дунёқарашида кузатилаётган ўзгаришлар, ижтимоий-психологик таъсирлар, ижтимоий-психологик муаммоларнинг ёшлар руҳиятида намоён бўлиш хусусиятларини илмий тадқиқ этиш бўйича олиб борилаётган изланишларнинг долзарб йўналишлари, бу борада йиғилган маълумотлар ва улардан амалиётда фойдаланиш имкониятлари юзасидан амалий билимлар тақдим этилади.

Мақолалар тўплами соҳа мутахассислари, маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга масъул ходимлар, педагоглар, амалиётчи психологлар, психология таълим йўналиши талабалари, тадқиқотчилар, бошқа турдош йўналишлар вакилларига мўлжалланган. Мазкур тўплам жамият илмий-маърифий ҳаётини янада такомиллаштиришга, соҳадаги тадқиқотларни жадаллаштиришга хизмат қилади.

#### **ТАШКИЛОТЧИ:**

**Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази**

#### **ТАҲРИР КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИ:**

**ЗЕБО КАСИМОВА** – ЎзХИА, пед. фанлари номзоди, профессор, кафедра мудири  
**МАРҒУБА МИРҚОСИМОВА** – ЎзХИА, педагогика фанлари доктори, профессор  
**АБДИМУМИН РАСУЛОВ** – ЎзМУ, психология фанлари доктори, профессор  
**БАҲРОМ ФАРФИЕВ** – ЎзХИА, социология фанлари доктори, доцент  
**ХЎЖАГЕЛДИ АЛИМОВ** – ЎзХИА, психология фанлари номзоди, доцент  
**ШОИРА ДУСМУХАМЕДОВА** – ЎзХИА, психология фанлари номзоди, доцент  
**МИРМУҲСИН АКРАМОВ** – ЎзХИА, психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.  
**ФЕРУЗА РАСУЛОВА** – ЎзХИА, психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.  
**НАРГИЗА ҒАЙИБОВА** – ЎзХИА, психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.  
**ДОНО КАЛАНДАРОВА** – ЎзХИА, фалсафа фанлари бўйича PhD  
**АЗАМАТ НАЗАРОВ** – ЎзХИА, катта ўқитувчи  
**МУШТАРИЙ ИСАЕВА** – ЎзХИА, стажёр ўқитувчи  
**САРВАР ҚАХХОРОВ** – ЎзХИА, таянч докторант, психолог  
**МАЪРУФ КУБАЕВ** – ЎзХИА, таянч докторант, психолог

«Ижтимоий муҳит ва таълим жараёнида хулқ-атвор шаклланишининг педагогик ва психологик жиҳатлари» мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференциясини ўтказиш Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази Илмий-психологик Кенгашининг 2022 йил 10 ноябрдаги 01-04/05 сонли мажлис баёни билан мақулланган.

Тўпламда келтирилган маълумотларнинг ҳолислиги ва ишончлилигига мақола муаллифлари масъулдирлар.

## БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Кайinnaзарова Сарбиназ Бисенбаевна  
Тошкент вилояти Ангрен шаҳар 18-мактаб психологи*

Комилликка эришишнинг жисмоний, ахлокий таркиблари аввалом бор бошланғич синф ўқувчилари томонидан эгалланади. Бошланғич синф ўқувчилари 6-10 ёшли болалардан иборат бўлиб, у мактаб таълимига боғчада тарбияланаётганида таёрланади. Бунда у мактабда ўқувчиларга қўйилаётган ҳар қил талаблар билан танишади, фан асосларини ўрганиш учун биологик ва психологик жиҳатдан таёр бўлади.

Таълимга психологик тайёргарлик деганда, боланинг объектив ва субъектив жиҳатдан мактаб талабига муносиблиги назарда тutilади. У мактаб таълимига аввал психологик жиҳатдан тайёрланади. Бинобарин, унинг психикаси билим олишига етарли даражада ривожланади. Шу ёшдаги бола идрокининг Уткирлиги, равшанлиги, софлиги, аниқлиги, ўзининг қизиқувчанлиги, дилкашлиги, ишонувчанлиги, ҳаёлининг ёрқинлиги, хотирасининг кучлилиги, тафаккурининг яққоллиги билан бошқа ёшдаги болалардан ажралиб туради. Мактаб таълимига тайёрланаётган болада диққат нисбатан узоқ муддатли ва шартли барқарор бўлади. Бола диққатининг хусусиятлари роли ва сюжетли ўйинларда, расм чизиш ва қуриш-яшаш машғулотларида, лой ҳамда пластилиндан ўйинчоқлар тайёрлашда, ўзгалар нутқини идрок қилиш ва тушунишда, математик амалларни ечишда, ҳикоя тинглаш ва тузишда кўринади. Бола ўз диққатини муайян объектга йўналтириш, тўплаш, тақсимлаш бўйича маълум даражада кўникмага эга бўлиб, ўз диққатини бошқариш ва керакли пайтда тўплашга интилади. Унинг хотираси қизиқарли, ажойиб-ғаройиб, кишини таажжубга соладиган маълумот ва ҳодисаларни пухта эсда олиб қолиш, эсда сақлаш, эсга тушириш имкониятига эга бўлади. Шу давргача бевосита катталар раҳбарлигида у ки бу ахборотларни ўзлаштириб келган бўлса, энди ўз хоҳиш-иродаси билан зарур маълумотлар тўплашга, ўз олдига аниқ мақсад ва вазифа қўйишга ҳаракат қилади. Боланинг ана шу фаоллиги хотирасининг

муайян даражада ривожланганини билдиради. У ҳикоя ва эртақларни эсда қолдириш учун кўп такрорлаши, ёд олишнинг энг қўлай йўл ва усулларида фойдаланиши таълим жараёнида унга жуда қўл келади. Биринчи синф ўқувчиси кўпинча яққол образли хотирага суяниб билиш фаолиятини ташкил этса ҳам, бу иш хотиранинг бошқа турларини инкор қилмайди, аксинча, таълим сўз-мантик хотирасини тақоза этади. Сўз-мантик хотирасининг мавжудлиги маъносини тушуниб эсда олиб қолиш жараёнининг самарадорлиги орттиришга кенг имконият яратади. Болада шу даврга келиб, ўқиш, билим олиш ҳақида тўғри тасаввур шаклланади. У мактаб жамоаси азоларининг маъсулиятли вазифаларини англайди ва уларга итоат қилишга, уларнинг кўрсатмаларини бажаришга мойил бўлади. Лекин болалар ҳаммаси бир хил эмаслиги сабаблари улар ўртасида муҳим фарқлар вужудга келади. Баъзи бола мактабга бутун вужуди билан талпинади, ўқишга қанча вақт қолганлигини узлуксиз санайди, ўқув ашёларини олдинроқ таёрлаб қўйишга ҳаракат қилади. Кичик ёшдаги ўқувчи болада ихтиёрий эсда қолдириш ҳам кучая боради. Бошланғич мактаб ўқувчиси эсда қолдириш усуллари эгаллайди-кўп марта такрорлаб қуруқ эсда қолдиришдан актив эсда қолдириш усулларига ўтади. Боланинг таълимга (ўқувга) идроклилиги унинг мактабда ўқишга таёргарлигини белгилайдиган ўсишининг энг муҳим кўрсаткичидир. Ўқув фаолиятидаги дастлабки қадам ўқувчининг бола нималарни билишини ва нималарни уддалай олиши аниқлашидан, унинг ҳамма билим ва малакаларини ўқишдаги биринчи қадам учун зарур бўлган системага солишдан бошланади. Кичик ёшдаги ўқувчи боланинг янги материални ўзлаштиришида унинг ақлий иш-ҳаракатлари тараққийсида ўзаро маҳкам бағланган бир неча босқични белгилаб қўйиш мумкин. 1-синф болаларининг ўйинларида мактаб тематикасига кўп ўрин, 2-синф болаларининг ўйинларида озроқ ўрин берилади, 2-синф ўқувчиларида эса мактаб тематикасидаги ўйинлар борган сари камая боради. Болаларнинг билишга қизиқишлари оша бориши туфайли улар бошқа, янги ўйинларга кўчадилар. 3-синф ўқувчиларининг ҳаракатлари спорт ўйинларида тобора чаққон, эпчил, ҳамжиҳат бўла боради. Жамоа ўйини ривожлана бошлайди. Ўйиннинг мураккаблашуви туфайли ўз хатти-ҳаракатларини бошқа ўйин қатнашчиларнинг ҳаракатларини

бошқа ўйин қатнашчиларининг ҳаракатлари билан мослаштира билиш талаб қилинади. Жамоага бўйсуниб, жамоада ҳаракат қилиш, жамоа шарафи учун курашиш, ўртоқни қўллаш, келишиб ва биргаликда ҳаракат қилиш маҳорати оша боради. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг муҳим хусусиятларидан бири улардаги ўқувчи шахсига ишонч ҳисси ва юксак эҳтиромидир. Шунинг учун ҳам ўқувчининг болага тарбиявий таъсир кўрсатиш имконияти жуда каттадир. Бола ўқитувчини ақлу идрок соҳиби, зийрак, сезгир, меҳрибон, ҳатто, донишманд инсон деб билади. Шу сабабли болалар ўқитувчининг ҳар бир сўзини қонун сифатида қабул қиладилар. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар идрокининг салбий хусусияти объектларни бир-биридан фарқлашдаги заифликдир. Улар кўпинча ўрганиладиган материални ноаниқ, ҳатто, нотўғри идрок қиладилар, бунинг оқибатида айнан ўхшаш ҳарфлар, сўзлар, нарсалар тасвири, шакли, фазовий жойлашувининг фарқини тўла тасаввур қила олмайдилар. Масалан, «қ» билан «к» ҳарфларини, «ўқиш» билан «уқиш» сўзларини «айлана» билан «доира» шакллари, «кесма» билан «туғри чизиқ» аломатларини бир-биридан фарқламайдилар. Баъзан эса улар катталарнинг идрок кўлами қамраб олмайдиган нарсаларни пайқайдилар. Тажрибадан маълумки болаларда ихтиёрсиз диққат дурустгина ривожланган бўлади. Чунки таълим жараёнида ихтиёрсиз диққатнинг ўсиши учун муҳим шарт-шароитлар мавжуддир. Биринчи ва иккинчи синф ўқувчилари диққатининг ўзига хос хусусиятлардан бири унинг етарлича барқарор эмаслигидир. Шунинг учун улар диққатларини муайян нарсаларга қарата олмайдилар ва объектда узоқроқ тута олмайдилар. Қатор тадқиқотлар биринчи ва иккинчи синф ўқувчилари дарсда фақат 30-35 дақиқа диққат билан ўтириши, ўз диққатини муайян объектга тўплаши ва уни ушлаб туриши мумкинлигини кўрсатади. Шунинг учун машғулотларда қисқа танаффуслар ўтказиб туриш мақсадга мувофиқдир. Маълумки, ўқувчиларнинг психологик хусусиятлари ҳар ҳил бўлиб, бир ўқувчига муваффақият билан қўлланган тарбиявий таъсир воситаси бошқа бирига қўлланилганди кутилган натижани бермаслиги мумкин. Тарбиявий тадбирлар ўқувчиларга яккама-якка ёндашиб амалга оширилса, яхшироқ самарага эришилиши, шубҳасиздир.



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Baratova Baxriya Suvonovna*  
*Qarshi shahar 8-maktab amaliyotchi psixologi*

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol etib tatbiyalash eng murakkab hamda shu bilan birga ma'suliyatli vazifalardan bin sanaladi. Bu o'rinda pedagogik bilimlar bilan bir qatorda psixologik fanlarning ham o'rni katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'limning barcha turlarini amalga oshirish jarayonida psixologik xizmat, jamoada psixologik munosabatlar kabi ta'lim bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarni o'rganish va tadqiq qilish masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

Ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib individual o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu hislatlarning shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi.

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmat tizimining ilmiy va amaliy vazifalari turli mamlakatlarda turlicha joriy etilmoqda. Bizning umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda psixologik xizmat tizimi o'ziga xos usulda joriy etildi va dastlabki eksperimental tadqiqotlar olib borilmoqda.

Maktabda ta'lim olayotgan har bir bolaning iqtidorini, individual imkoniyatlarini va boshqa bir qator shaxsiy sifatlarim batafsil o'rganmay, tahlil qilmay turib, mazkur o'quvchining kelajagini pedagogik jihatdan to'g'ri baholab bo'lmaydi. O'quvchilarning faolligini ta'minlashda bugungi kunda psixologik xizmat tizimi tomonidan bartaraf qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud.

Bolalarni ruhiy va intellektual tayyorgarligi asosida maktabga qabtil qilish shunday masalalardan biridir.

Bola shaxsini to'g'ri tushunish va uning harakatlarini tahlil qila olish zarur. «Har bir shaxs qaytarilmas temperamentdir», -degan edi fizioiog olim LP.Pavlov. Qolaversa, har

bir insonning o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Ibn Sino, Farobiy va Beruniy ham o'z zamonlarida alohida qayd etib o'tganlar. Chunonchi, o'qituvchi bola shaxsini tarbiyalash uchun, dastavval uning «Betakror olamiga» kira olish va unga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzmog'i va qollamog'i lozim.

Psixologik xizmatning amumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'limi maktablarida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, ularda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish;

2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik-pedagogik o'rganilishini ta'minlash:

3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish:

Bugun bolani har tomonlama rivojlantiradigan, uni fikrlashga o'rgatadigan, qobiliyatining asta-sekin o'sib borishiga imkoniyat yaratadigan, tafakkurning yangi-yangi qirralarini ochadigan pedagogik usullar va maxsus psixologik xizmat tizimi mavjud bo'lgan taqdirdagina ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin,

Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologik xizmatni tashkil etish hamda uni har tomonlama rivojlantirib borish kelajak avlod taraqqiyoriga ulkan zamin hozirlaydi. Bu esa, o'z navbatida psixologik xizmatning ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini o'rganib chiqish kerakligini talab etadi.



## ОИЛАДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ПСИХОЛОГИЯСИ

*Мансурова Чарос Насруллаевна  
Қашқадарё вилояти Китоб тумани 45-мактаб психологи*

Мустақиллигимизнинг дастлабки йилларидан бошлаб, аҳоли саломатлигини, айниқса, оналик ва болаликни, ёшларни, оилани ижтимоий муҳофаза қилиш масалалари ҳукуматимиз сиёсатида марказий ўринни эгаллаб келмоқда. Бу бежиз эмас, албатта - ҳозир биз инсоният тарихида унутилмас бўлган бир даврда – илм-фан, техника, умуман цивилизация кучли тараққий этган ХХІ асрда яшамокдамиз ва қолаверса, юртимизда ҳуқуқий демократик фуқаролик жамиятини барпо этиш жараёни кечмоқда. Умумжаҳон ҳамжамияти билан турли йўналишларда ҳамкорлик қилиш, олдимизда турган ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий ҳамда сиёсий масалалар ечимини халқимиз фаровонлигини таъминлаш нуктаи назаридан мўътадил равишда амалга ошириш вазифалари фуқароларимизнинг, оила ва келажак авлоднинг ҳар томонлама баркамол (ҳам жисмонан, ҳам маънавий жиҳатдан соғлом), доно, илғор фикрли ва заковатли бўлишини тақозо этади.

Бугунги кунда соғлом турмуш тарзининг негизи ҳисобланган психик саломатлик - қисқа муддат давомида йирик тадқиқотлар соҳасига айланиб улгургани айтиш ҳақиқатдир. Мазкур ҳолатни қуйидаги рақамлар исботлаб турганини қайд этишимиз лозим. Агар 1975 йили АҚШда психик саломатликни муҳофазасига оид 200 дастур татбиқ этилган бўлса, 1990 йилга келиб бундай дастурлар 5000 га ортган. Ҳозирги кунда улар салмоқли иқтисодий самарадорликни кўрсатмоқда [1]. Айтиш пайтда АҚШдаги психологларнинг ҳар ўн нафаридан биттаси психик саломатликнинг у ёки бу муаммоси билан шуғулланмоқда, шунингдек, инглиз забон психологик журналларда чоп этилаётган ҳар учта мақоладан биттаси ушбу соҳанинг турли жиҳатлари билан боғлиқлигини эътироф этиш жоиз [2].

Соғлом турмуш тарзи ҳақида сўз борар экан, унинг энг аввало инсон тани ва вужудининг бетоб бўлишига сабаб бўлувчи зарарли одатлардан фориғ бўлишни

тасаввур қилишга ўрганиб қолганмиз. Бу атама, энг аввало, соғлиқни сақлаш ходимлари фаолияти билан боғлиқ тарзда тушунтирилади. Аммо, соғлом турмуш тарзини шакллантиришда - тан ва вужуд, ақл ҳамда идрок бевосита одамники, унга боғлиқ бўлгани учун ҳам инсон руҳияти қонуниятлари ва сирларини ўрганувчи фан бўлмиш психологиянинг унга алоқаси бор. Шунга кўра, психология фанида соғлом турмуш тарзи психологияси тушунчаси мавжудки, у соғлом турмуш тарзига энг аввало, инсон онги ва тафаккурининг инъикоси сифатида қарайди. Демак, ҳар биримиз учун сув ва ҳаводек зарур бўлган соғлигимизни таъминлаш ва бунга эришиш учун соғлом турмуш тарзига одат қилиш нафақат тиббиёт ходимлари, балки психологларнинг, психология фанининг ҳам изланиш предмети сифатида намоён бўлади.

Шу маънода, психология соғлом турмуш тарзини шакллантиришда инсон феъли, хулқ-атвори ва турли психологик ҳолатлари нуқтаи назаридан ўрганганда: асосан, ҳар биримиз гуёки сирдек туюлган руҳиятимизнинг ўзимизни соғ-саломат, бешикаст ва тетик ҳис қилишимизга алоқадор қандай жиҳатлари борлигини, уни бошқариш орқали ўз бойлигимиз – саломатлигимизни сақлаш борасида кўлимизда қандай имкониятлар мавжудлигини, соғлом турмуш тарзи психологиясини шакллантириш ҳар биримизга ўз руҳий ҳолатимизни бошқариш, онгу-шууримизда рўй бераётган ўзгаришларни вақтида илғаш орқали уни мўтадил тутиш, ўзгарувчан шарт-шароитларга мослашиш йўллари, бу борадаги профилактикани ўрганадиган фан ҳамда фойдали амалиёт сифатида тобора ҳаётимизга дадил кириб келмоқда.

Қолаверса, соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг психологик жиҳатларига - инсон феъл-атворини; соғлом турмуш тарзига нисбатан шахснинг муносабатини; соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик омилларини; шахснинг индивидуал-психологик хусусиятларини; шахс ўсиб-ўлғайган оила муҳитнинг таъсири, яъни ташқи омилларни киритиш мумкин.

Манбаларда таъкидланишича, тиббиёт ходимлари турли омилларни ҳисобга олган ҳолда соғлом турмуш тарзининг йўналишларини белгилаганлар ва унга риоя этиб яшашни тавсия этадилар [3]. Айтиш лозимки, инсон саломатлиги нафақат

биологик омилларга, балки яшаётган ижтимоий муҳит, шахснинг ўзи, атрофидаги инсонлар билан ўзаро мулоқотига ҳам боғлиқ. Инсоний муносабатлар эса, аввало, оиладан, оила муҳитидан бошланади. Соғлом турмуш тарзига амал қилиб яшаш кўникмаси инсонда бирдан пайдо бўлиб қолмайди, у ўзига хос малака ҳам талаб этгани боис илк болалик чоғлариданок, унга оилада ўргатиб бориш лозим бўлади. Бу ота-она зиммасидаги энг муҳим, масъулиятли вазифалардан биридир. Барча ота-оналар фарзандларини тарбиялар эканлар, доимо огоҳ бўлишга, сергак туришга интиладилар. Бу эътибор боланинг барча нарсалари етарли бўлиши, сиҳат-саломатлиги жойидалиги, дарсларига мунтазам қатнашишини назорат қилиш каби меъёрлар билан чегараланиб қолиши мумкин эмас. Энг аввало, инсоннинг асосий ҳаёти ўтадиган маскан - оиланинг турмуш тарзи соғлом бўлмоғи даркор[4].

Оила энг мураккаб гуруҳлардан ҳисобланади. У нафақат жиддий ёндошувни, оила қураётганлар бир-бирларини синчковлик билан ўрганиб чиқишини, балки кейинчалик ҳам бутун ҳаёт давомида деярли ҳар куни, керак бўлса ҳар соатда умр йўлдошлар бир-бирларига бўлган муносабатлари хусусида чуқур фикр юритишларини талаб қилади. Шундагина оила бахтли, соғлом ва узок давом этади. Шунга кўра, муваффақиятли оила моделини (модулини) яратиш учун соғлом турмуш тарзини белгиловчи барча жиҳатларнинг андозаларини аниқлаб чиқиш керак. Аввалига бўлажак турмуш ўртоқларнинг ҳар бири учун алоҳида, сўнг ушбу андозаларни амалий бажарилишига кўмаклашувчи механизмларни топиш даркор, яъни фаровон оилани яратиш йўлларини аниқлаш зарур, бошқача қилиб айтганда, алгоритмларни ишлаб чиқиш лозим. Бунда маънавий; психологик; жисмоний; тиббий жиҳатлар инобатга олинishi лозим.

Маънавий жиҳатлар меъёрлари - эркаклар учун ҳам, аёллар учун ҳам бир хил, яъни оила фаровонлигини таъминловчи ижобий фазилатларга асосланган бўлиши зарур: билим даражаси, ўқимишлилик даражаси, масъулият, дунёқарашнинг бир бирига мослиги, маданияти, такомиллаштишга интилиш туйғуси.

Психологик жиҳатлар меъёрлари - қуйидаги фазилатларда намоён бўлиши мумкин; толерантлик, яъни ҳамжиҳатликда, жон қуярликда, оқилаликда, одоб-

ахлоқда ва хушмуомалаликда. Аёллар эса бокиралик, мулойимликни шакллантиришлари лозим, ҳамиша ўзиникини уқтиришга интилишдан қочишлари керак. Руҳий меъёрларни шакллантирувчи алгоритм бевосита маънавий алгоритм билан боғлиқ ва кўп жиҳатдан ёшларнинг таълим-тарбиясига бориб тақалади.

Жисмоний жиҳатлар меъёрлари - жисмонан комиллика интилиш, тренажёр заллар, фитнес клубларга бориб туришга ундовчи ҳаракатларда ўз аксини топади, яъни жисмоний соғломлашиш нуқтаи назаридан ҳаёт тарзи фалсафасини тараққий эттириш омилларини ҳисобга олиш зарур.

Тиббий жиҳатлар меъёрлари - авваламбор турли касалликларни аниқлаш, айниқса наслдан наслга ўтувчи ёки ижтимоий хасталиклар (туберкулёз, ОИВ/ОИТС, жинсий йўл билан юқадиган касалликлар)ни аниқлашга йўналтирилган бўлиши лозим. Лекин бошқа томондан ёндошадиган бўлсак, ижобий меъёрлар бўлажак турмуш ўртоқларнинг ўз саломатлигига масъулиятли бўлишларига даъват этиши шарт. Хўш, муваффақиятли оила қуриш меъёрлар белгиланган натижаларга қандай қилиб эришиш мумкин? Соғлом турмуш тарзи психологиясини шикллантириш йўллари ҳамда механизмлари ёки алгоритмлари бир тизимга асосланган, бир мақсадга йўналтирилган ва ўсиб бораётган авлод тарбиясидаги босқичма-босқичлик асосида белгиланади. Жараёнга давлат, нодавлат ҳамда жамоат ташкилотларини, энг муҳими таълим муассасаларини жалб қилган ҳолда ижобий натижага эришиш мумкин. Боғчалардан бошлаб, мактаб, лицейлар, коллеж ҳамда Олий ўқув юртларида ҳам жамоат ташкилоти тариқасидаги аҳамияти муҳимлиги сезилиши лозим, чунки айнан маҳалла оилада фаровонликни шакллантиришга таъсир ўтказади. Шу билан бир қаторда ёшлар ўртасида ижобий меъёрларни шакллантиришда халқимизнинг анъаналари, менталитетимиз, урф-одатларимиз ва ҳар бир оиланинг авлоддан авлодга ўтиб келаётган анъаналарига асосланиш керак. Аждодларга бўлган эҳтиром ёш авлод тарбиясида катта малҳамдир.

Ёшлар орасида маънавиятни шакллантириш - мураккаб ва кўп қиррали, у ёки бу оиланинг ўзига ҳосликлари, атроф-муҳит ҳамда шароитларидан келиб чиққан ҳолда, ёндошувни талаб қиладиган жараён. Мамлакатимизда ёш авлод

тарбиясида маънавият масаласига жуда катта аҳамият берилади. “Маънавият-маърифат” марказлари, “Оила илмий-амалий тадқиқот” марказлари ва маҳаллалар самарали фаолият юритибгина қолмай, ёш авлод тарбиясидаги маънавият масаласи давлат миқёсидаги мавқега эга ва барча таълим муассасаларида ёшларнинг маънан комил бўлиб вояга етишлари учун жавобгар бўлиши зарур.

### **Адабиётлар**

1. Bennet, G. (1987) The Wound and the Doctor: Healing Technology and Power in Modern Medicine. London: Seeker & Warburg.
2. Borril, C. S., Wall, M. A., West, G. E., et al (1996) Mental Health of the Workforce in NHS Trusts. Leeds: Institute of Work Psychology, University of Sheffield & Department of Psychology, University of Leeds.
3. Обидов А. О., Новиков Ю.В. Соғлигимиз ўз қўлимизда. Тошкент. “Медицина” 1989.
4. В.М.Шапиро Л.Н.Башмакова. Здоровый образ жизни. Пособие для учителей. Алмата. 2003.

## O'SPIRINLIK DAVRIDA STRESS HOLATI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Batirova Nilufar Egamberganovna*

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo'layotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko'p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. O'z navatiga ko'ra o'spirinlik davri xam udan mustasno emas. Bu kabi muammolar insonlarning yosh davrlar psixologiyasiga ko'ra har xil namoyon bo'ladi. Olimning talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarsa, bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig'ida o'sish davri o'smir oldi yoshidan iborat bolib, toki 12-13 yoshga qadar davom etadi. Bu davr olimlar tili bilan aytganda yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hamohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishidan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib boradi.

Psixologik zo'riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib, oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Hissiy zo'riqishlarning namoyon bo'lishi har bir shaxs uchun turlicha bo'ladi. Kimdadir kayfiyat yoki hayajon bo'lsa, kimdadir stres va tushkunlik ko'rinishida o'tadi. Kun tartibining buzilishi, uyquning qisqarishi, ish vaqtining tungi davrga o'tib qolishi, foydali odatlardan voz kechish, hissiy zo'riqishlarni bartaraf etishning mos keluvchi usullarini topa olmaslikda ko'rinadi. Ijtimoiy rollarga xos vazifalardagi buzilishlar, yaqinlar va do'stlar bilan munosabatga yetarlicha vaqt yetishmasligi, nizolarning kuchayishi, muloqot davomida sezgirlikning pasayishi, ijtimoiy qoidalarga zid xulq-atvor belgilarining ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uzoq muddat hissiy zoriqishda bo'lgan o'spirin ijtimoiy me'yor va standartlarga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Hatto o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor



bermasligi mumkin. Bunda muhim ob'ektlar ustida diqqatning to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'ish kuzatiladi.

Ongning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni cheklaydi.

Bu salbiy ko'rsatkichlarni bartaraf etish eng katta vazifalardan biridir. Psixologiya fanining markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funksiyalarni bajarish orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'spirinlik davrida psixologik muammolarni bartaraf etish hamda tarbiyalash masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan. Bugungi kunda kelajak avlodga ta'sir qilayotgan hamda uning kechinmalarini o'zgartiradigan ichki va tashqi omillarni ko'z oldimizga keltirish juda qiyin. Shunday qilib stress o'zi nima?

Stress – inglizcha (stress) so'zidan olingan bo'lib, asabiylik, keskinlik degan ma'nolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tug'ilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur bo'lganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Stressning psixologik ta'rifiga kora affektiv holatga yaqin turadi. Stress kishining o'ta faol yoki o'ta sust harakatida ifodalanadi. Hissiy zo'riqish holatida individning hatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchliligi yoki o'jizligiga jiddiy ravishda bog'liqdir. (Masalan, imtihon oldidagi holat). His-tuyg'ularning hissiyot (emotsiyalar), kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilariga ham ega bo'ladi. Yuzning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, kabilar shular jumlasiga kiradi. Kishi o'zining qahr-g'azabini tevarak atrofdagilarga qo'llarini musht qilishi, ko'zlarini chimirib qarash, do'q – po'pisali ohang bilan namoyish qiladi.

Stressning sodir bo'lishiga asosan ikki yo'nalishdagi omillar sabab bo'ladi: Ish faoliyatidan qoniqmaslik stressga sabab bo'luvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. O'spirin undan nima kutilayotganligini, bu ishni qanday qilish kerakligi va bu ish qanday baholanishini bilsagina xotirjam ishlaydi. Ish qobiliyati va omadsizlik inson salomatligiga

qattiq taʼsir koʻrsatadi. Haddan tashqari koʻp ish yoki, aksincha, ishsizlik xam stressga olib keladi. Bunday sabablar tufayli sodir boʻlgan asabiylashish eng koʻp tarqalgandir. Tekshirishlar shuni koʻrsatadiki, ish qancha qiziqarli boʻlsa, inson shuncha kam bezovtalanadi, kam betob boʻladi. Yana bu sabablarga qoʻshimcha yomon ish sharoitlari, ish jarayonida odamlarning bir-biriga asossiz talablarni qoʻyishi, oʻquvsiz ota-onaningning oʻquvsiz muomalasi, demotivlashtirishning ustuvor ekanligi va boshqalar ham stressni vujudga keltiradi. Xullas oʻspirinlik davrida stressni bartaraf etish, uning tasir doirasini kamaytirish eng muhim choradir. Eng avvalo nazorat koʻproq natija beradi. Stressni bartarafetishda asosan inson sabr-qanoatli boʻlish, har qanday mushkul vaziyatga tayyor boʻlish, oʻzini chalgʻitish lozim. Mashakqatli mehnatni yaxshi dam bilan birga olib borish, hech boʻlmasa bir oz orom olish, tinchlanish kerak. Ishda xush feʼl, tavozelik boʻlish, oʻzaro hurmat va xushmuomalali inson boʻlish lozim.

Stressni bartaraf etish uchun birinchi navbatda shaxs psixologik jihatdan tashqi taʼsirlarga nisbatan ongli munosabat (psixologik immunitet)ni shakllantira olishi zarur.

1. Har qanday stress holatini yengish uchun uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va xolisona baholash darkor.

2. Yuz bergan stress holatini bartaraf etish uchun aniq yoʻl-yoʻriq izlab topish kerak.

3. Biror muammo va tashvishga duchor boʻlsangiz, bu haqda kamroq oʻylashga va doimo nima bilandir band bolishga harakat qiling. Mehnat sizning qalbingizdan behalovatlik tuygʻusini siqib chiqaradi.

4. Arzimagan narsalarni deb asabingizni yeb tugatmang. Hayotda nima muhim va nomuhimligini anglab oling. Arzimas narsalarning aksariyati umringizni qisqartiradi.

Stress holatiga tushgan shaxs xuddi shu stressga qarshi quyidagi usul va vositalarni qoʻllash yaxshi natija beradi:

a) stress holatiga nisbatan antistress kayfiyatini shakllantirish (roʻy bergan vaziyat, holat, emotsiyalarga nisbatan oʻz ruhiyatidagi munosabatni oʻzgartirish);

b) koʻproq jismoniy mashqlar bilan shugʻullanish (badantarbiya, sport turi, jismoniy mehnat);

v) o'z-o'zini bo'shashtirish (rasslabneniya) tananing oyoq uchi qismidan to qo'l barmoqlarigacha bo'shashishga erishish ;

g) autotrening (O'z-o'zini ishontirish )

d) relaksatsiya (o'z-o'zini yengillashtirish) orqali stress holatiga barham berish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Stress,nafaqat o'spirinlik,balki barcha yosh davrlarida xam shaxs taraqqiyotiga muxim to'siq bo'luvchi omildir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov"Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y.
3. T.Sodiqova "Sevib qolgan qizning onasiga maslaxat" qo'llanma. Toshkent 2018.

## **HULQI OG'ISHGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH, ULAR BILAN KORREKSIYA ISHLARINI OLIB BORISH**

*Imanova Umida Madumarovna  
Angren shahar 15-maktab amaliyotchi psixologi*

Deviant xulq-atvor- bu me'yorlardan og'ish jarayonini yuzaga keltiruvchi shaxs yoki shaxslarning me'yordan chekinuvchi xulq-atvordir. Ushbu xulq-atvorning shakllanishiga asosan notog'ri tarbiya sabab bo'ladi. Chunki ko'pincha ota-onalar o'z farzandlarini boshqalardan ko'ra, chiroyliroq, aqlliyoq, yaxshiroq deb hisoblashadi va ko'pincha tushunib tushunmay buni bola ongiga singdirishdir, natijada bola o'zini boshqalardan ustun qo'ya boshlaudi. Deviant xulq-atvorning rivojlanishiga oilasida ichuvchi va chekuvchilar mavjud bo'lsa, onaning oilada ustun bo'lishi, bolaga noto'g'ri tarbiya berilishidan yuzaga keladi.Bundan tashqari tarbiyasi qiyin bolalar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri ularda o'qishga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo'lishidir.

Odatda bunday munosabatning paydo bo'lishiga boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan o'quv faoliyati usuli, malakalari to'la tarkib topmaganligi sababli nisbiy bilim olish bilan qanoat hosil qilish, o'zlashtirish qobiliyatining sust rivojlanganligi, muayyan vaziyatlarda xukm va xulosa chiqarishda qiyinchilikka duch kelish, o'qituvchilar tomonidan o'quvchiga ob'ektiv baho berilmasligi, o'qituvchi tomonidan bolaning individual-psixologik va intellektual imkoniyatiga etarlicha e'tibor berilmasligi, o'qitish saviyasining pastligi, darslarning qiziqarsiz o'tilishi, o'quvchining sinf jamoasi bilan yaxshi aloqada bo'lmasligi va boshqalar. O'quvchi bilan jamoa fikrining mos kelmasligi uning jamoa ichida o'z o'rnini borgan sari yo'qotib borishiga sabab bo'ladi. Jamoa a'zolari bunday o'quvchining qarashlarini vaqti-vaqti bilan hisobga olishlari yaxshi natija berishi mumkin. O'quvchining fikr va qiziqishlarini jamoaning qo'llab quvvatlamasligi yoki beparvoligi uni qonunbuzarlikka undaydi va giyohvandlik kabi salbiy holatlarning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Natijada bola uchun kelajak rejalarining poymol bo'lish xavfi tug'ilib, o'qishdan va jamoadan yuz o'g'irgan o'smir o'z kelajagini, orzu-umidlarini maktab va tengdoshlari faoliyatiga bog'lashdan ko'ra, yangi "do'stlari" bilan aloqa qilishni afzal ko'radi va boshqa kishilardan najot izlaydi. Buning natijasida o'smir nosog'lom xulqli bolalar to'ldasiga tushib qoladi va ular xulq –atvoriga xos bo'lgan xarakterga ega bo'ladi. Bundan tashqari, oilaviy sharoitning salbiy ta'siri ham tarbiyasi og'ir o'smirlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ayrim oilalarda bola uchun zaruriy imkoniyatlar mavjud emasligi sababli bola nohush holat bilan yolg'iz kurash olib borish kechinmalari bilan yashaydi. O'smir dunyosida oilaviy sharoitga nisbatan paydo bo'lgan norozilik hissi kundan kun avj olib, ichki qo'zg'olonga aylanib boradi. Bundan tashqari, ota-ona o'rtasidagi munosabatlarning nosog'lomligi, ba'zi ota-onalarning spirtli ichimliklarga ruju qo'yishlari ham bolaning ruhiy dunyosiga ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha, o'quvchilardagi tarbiyasi qiyinlik oiladagi va ta'lim tizimidagi pedagogik qarovsizlik natijasida yuzaga keladi. Pedagogik qarovsizlik quyidagi darajalarda tavsiflanadi:

1.Past. hatti-harakat, xulq-atvordagi beqarorlik. O'z "men"iga ortiqcha baho berish. Asosan yoshiga xos bo'lgan xarakter belgilarining ustunlik qilishi.

2.Oʻrta. Kattalar va tengqurlari bilan aloqaning buzilishi. Oʻqish va mehnatga qiziqmaslik, nizolar egoistik yoʻnalishga asoslanishi. Pedagogik taʼsir choralari toʻgʻri qabul qilingan holda unga amal qilmaslik.

3.YUqori. Salbiy xarakter xususiyatlari yaqqol namoyon boʻladi. huquqbuzarlik oshkora qilinadi. Kattalar bilan oʻzaro munosabatda tajovuzkor boʻladi. Oʻzlari toʻgʻri deb qabul qilgan “ahloq normalari”ni oqlashga urinadilar. Ular huquqbuzarlik chegaralarini tushunib etmaydilar.

4.Kriminal. Voyaga etmagan huquqbuzarlar boʻlib, ularning hulq-atvorini boshqarib boʻlmaydi. Bundaylar har qanday tarbiya vositalariga qarshilik koʻrsatadilar. Hatti harakatlarida tajovuzkorlik koʻproq uchraydi. Ular oʻzlarining huquqbuzarlik motivlarini oʻzlari belgilagan “ahloqiy meʼyorlar” bilan oʻlchaydilar, natijada jinoyatga qoʻl uradilar Mazkur deviant xulq-atvori bor oʻquvchilarni aniqlash uchun avvalo sinf rahbarlar koʻmagidan foydalanishimiz zarur. Aniqlab olingandan soʻng ular bilan ishlash va ularni korreksiyalash uchun suhbat, interviyu va xulqi oʻgishganlikni aniqlash metodikalaridan foydalanildi. Maʼlumki, xulq-atvorida ogʻish yuzaga kelgan oʻquvchilarni ijobiy tomonga oʻzgartirish uchun metodikalardan tashqari turli qiziqarli mashgʻulotlardan foydalanish mumkin. Masalan, “Eshit va top!”, “Tangram” va “Ranglar” kabi mashgʻulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Deviant xulq-atvorli oʻquvchilar bilan ishlashda ularning ularga taʼsir qiluvchi omillarni oʻrganish va shunga qarab zarur metodika va mashgʻulotlardan foydalanish zarur. Deviant xulq-atvorga ega oʻquvchilar bilan maktab amaliyotchi psixologi korreksion ishlarni jadal ravishda amalga oshirishi uning qiziqishlari, qobiliyatini aniqlab maktabda tashkil etilgan tadbirlarga faol jalb qilib uni qatnashishini taʼminlay olsa tengdoshlariga va oʻziga boʻlgan munosabatni ijobiylashishiga erisha oladi. Zero, farzand tarbiyasiga uchta eng muhim omil taʼsir qiladi 1-omil bolaning ona qornidagi emrional davrda yuzaga kelgan vaziyatlar; 2-omil oila muhiti; 3-omil atrof muhitdir. Mazkur 3 omil bolaning tarbiyalanganlik darajasini koʻrsatib beradi.

Oilada tarbiyaning kamchiliklari tarbiyadagi qiyinchiliklari ota-onalar munosabatidagi muammolar orqali yuzaga keladi. Farzand ona qornida rivojlanayotgan vaqtda atrofdagi har bir voqeaga nisbatan munosabat biladiradi yaʼni hamma voqeaga taʼsirchan boʻladi.

Bola tarbiyaning 25%ini ona qondida bo'lgan vaqtda oladi, shuning uchun ona o'z vujudidagi homilani avaylab tarbiyalashi va uning uchun jiddiy e'tibor qaratishi zarur.

Farzand tug'ilgandan boshlab oilada farzand tarbiyasi uchun oiladagi barcha oila a'zolar javobgardir. Shunday ekan farzand tarbiyasini eng oliy maqsad sifatida qabul qilgan holda oilada ota-onaning o'zi bolaga namuna bo'la olishi juda muhim jarayondir.

Bola tarbiyasini ijobiy yoki salbiy tomonga yo'naltirilishiga atrof-muhit, sinfdosh do'stlar hamda yaqin dugonalariga ham bog'liqdir. Chunki bola ulg'aygan sari atrof-muhitdagi insonlarga taqlid qila boshlaydi, buning natijasida o'quvchining o'zini tutishi, fanlarga va oila a'zolariga bo'lgan munosabati ham o'zgarishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, deviant xulq atvorga ega o'quvchilar bilan ishlashda o'quvchining o'zi bilan, oila a'zolari bilan hamda atrofidagi do'stlari bilan interviyu metodini qo'llagan holda ishlarni tashkil qilish hamda o'quvchining temperamenti, xarakter husussiyatlarini hamda qobiliyatlarini aniqlab reja asosida korreksion ishlar tashkil qilish, maktab tadbirlariga faol jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

## INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA OILA VA MAKTABNING HAMKORLIGI, JAMOATCHILIKNING O'RNI

*Sharipova Shaxnoza Ro'zmamatovna*  
29-son umumiy o'rta ta'lim maktabi – Xorazm viloyati Xonqa tumani

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida oila va maktabning hamkorligidagi vazifalari, jamoatchilikning o'rnini o'ziga xosligi xususida fikr yuritilgan.

**Abstract.** This article discusses the role of family and school in the process of inclusive education, and the role of the public.

**Kalitlar soʻzlar:** inklyuziv, oilaviy diagnostika, profilaktik funktsiya, kompensatsiya.

**Key words:** inclusive, family diagnosis, preventive function, compensation.

Oila jamiyatning ajralmas zarur qismidir. Unda inson dunyoga keladi. Shu paytda oila insoniyatning uzluksiz naslini davom ettiruvchi boʻlib qolaveradi. Shundan kelib, oila ikkita ulkan ijtimoiy vazifani farzandlarni dunyoga keltirish hamda ularga toʻgʻri tarbiya berishni yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyatga ega. Chunki oilada katta yoki kichik narsa boʻlmaydi. Hamma narsa, xatto eng oddiy boʻlib koʻringan oilaviy munosabatlar bolaga katta taʼsir koʻrsatadi.

Nogiron bolalari boʻlgan oila alohida eʼtibor obʼektidir. Bunday oila haqida maʼlumot olgandan soʻng, uni taqdim etish rejasini tuzib, ota-onalar uchun bunday bolaga qanday gʻamxoʻrlik qilish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Har bir nogiron bola uchun pediatr bilan birgalikda rehabilitatsiya rejasi tuziladi. Koʻpincha bola bilan ijtimoiy oʻqituvchi, psixolog, nevropatolog, neyropsikiyatr, logoped, massaj terapevti, defektolog va fizik terapiya boʻyicha oʻqituvchi ishlaydi.

Nogiron bolalarni tarbiyalayotgan oilalar bilan ishlashning muhim yoʻnalishi - bu nogiron bolalarning ota-onalarining jamoat birlashmalarini yaratish, bunday uyushmalarning mavjudligi, birinchi navbatda, ota-onalarda ularning yolgʻiz emasligiga ishonchni kuchaytiradi, ikkinchidan, yordamga, tushunishga, umidga umid tugʻdiradi. bilim, tajriba, foydali maʼlumotlar bilan oʻzaro boyitish; oʻxshash "baxtsizlikdagi hamkasblar" bilan muloqot doirasini kengaytiradi. Boshqa tomondan, bir muncha vaqt oʻtgach, "baxtsizlikdagi hamkasblar" doirasidagi ushbu muloqot ijtimoiy dunyoni "biznikiga" va "biznikiga" boʻlinishiga turtki beradi, bu esa oʻz navbatida ularni jamiyatning qolgan qismidan ajratishga olib keladi.

Nogiron bolaning rivojlanishi koʻp jihatdan oilaviy farovonlikka, uning jismoniy va maʼnaviy rivojlanishida ota-onalarning ishtirokiga va turli xil taʼlim taʼsiriga bogʻliq. Oddiy sharoitlarda bola manba hisoblanadi katta raqam uning harakatchanligi, koʻngil ochishi va hokazolar tufayli ogohlantiruvchi vositalar. Nogiron bola ham oʻqituvchisi uchun bitmas-tuganmas manba boʻlib, faqat ularning sifati birinchi holatga qaraganda butunlay boshqacha. Nogiron bola koʻproq mexanik ishni, bir xil parvarish va nazoratni



talab qiladi, va boladan javob, quvonchli qoniqish juda kam, bu bir tomonlama charchoqqa, hatto charchashga olib keladi. Biz oilada majburiyatlarni bo'lishishga harakat qilishimiz kerak, va jamiyat o'z hissasini qo'shishi kerak.

Oilalar inklyuziv maktablarni tanlaydilar, shunda ularning farzandlari odatda rivojlanayotgan tengdoshlari bilan o'zaro aloqalarini kengaytirishi hamda boshqa ota-onalar va o'qituvchilar bilan bog'lanish imkoniyatini yaratishi mumkin. Nogiron bolani tarbiyalashda oilaning sa'y-harakatlari uchun maktab o'qituvchilari tomonidan berilgan yuqori ijobiy baho oila va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Buning uchun, avvalambor, hissiy aloqa, ishonch, hurmat va qabul, ota-onalarning ko'magi va ularning fikrlarini hisobga olish kerak.

Oila bilan maslahat, profilaktika va tarbiyaviy ishlar hamkorlik g'oyasiga asoslanadi, uning ta'lim qobiliyatini oshiradi, ota-ona va bola o'rtasida uyg'un munosabatlarni o'rnatadi. Ushbu ishning maqsadi - ota-onalarning ta'lim jarayonida oilaning roliga bo'lgan psixologik munosabatlarini o'zgartirish; bola bilan munosabatlar uslubini o'zgartirish; oilaning pedagogik imkoniyatlaridan kengroq foydalanish. Bundan tashqari, ijtimoiy ish talabalar va ota-onalarni ularning huquqlari va majburiyatlari, qonunchilik hujjatlari bilan tanishtiriladi. O'qituvchilar nogiron bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga nogironlikni ro'yxatdan o'tkazish va bolalarni o'qitish uchun maxsus vositalarni (tiflo va karlar uchun uskunalar) sotib olishda aniq amaliy yordam ko'rsatadilar. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchi bolalar va kattalar o'rtasida bog'lovchi bo'lib xizmat qiladi, ta'lim muassasasida ijtimoiy va psixologik farovonlik muhitini yaratadi, ota-onalar va jamoatchilikni ijtimoiy ahamiyatga ega tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga jalb qiladi.

Oila bilan ishlashning asosiy maqsadi - barcha oila a'zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek, bola va uning atrofini turli xil omillarning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilinadi.

*Oila bilan uyushgan hamkorlik jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:*

- yordam so'rovlarini o'rganish va tavsifi;
- oila yashaydigan sharoitlarni tekshirish;

- oilaning umumiy muammolariga oydinlik kiritish va uning xususiyatlari, boshqalardan farqi;

- oilaning maqsadlari va umidlarini aniqlashtirish;

- javob berish shakllarini kuzatish (ular jim, gapirish, janjal, tajovuzkor o'zini tutish, ishonmaslik va h.k.);

- ushbu oilaga allaqachon yordam bergan va hozirda yordam berayotganlarni o'rganish;

- uning a'zolari oilasidan chiqib ketishning ta'siri;

- oilaning o'tmishini o'rganish;

- oila a'zolarining shaxsiy xususiyatlarini o'rganish.

Oilaviy diagnostika - bu oilaga yordam va qo'llab-quvvatlash tizimi asoslanadigan doimiy komponent.

Oila bilan ishlashning asosiy funktsiyalari:

- *Xavfsizlik va himoya funktsiyasi.* Bu bolalar hayoti xavfsizligini ta'minlash, ularning tashqi tahdidlardan xavfsizligini ta'minlash, bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini huquqiy himoya qilish va unga shoshilinch yordam ko'rsatishga qaratilgan.

- *Profilaktik funktsiya.* O'qituvchilar boshqa muassasa va tashkilotlar bilan hamkorlikda nochor oilalarni erta aniqlash, oiladagi nizolarni hal qilishda o'z vaqtida yordam berish, oilaviy ta'lim sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berish, malakali huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha ish olib bormoqdalar.

- *Qayta tiklash funktsiyasi.* Oiladagi bolalarning yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha choralar ko'rgan holda, o'qituvchilar bolaning ijtimoiy mavqeini tiklashga, uning ijtimoiylashuvning asosiy institutlari bilan aloqalarini mustahkamlashga, ularning funktsional etishmovchiligini engishga tayyor oilalarning sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

- *Tuzatish va rivojlanish funktsiyasi.* Kompleks diagnostika asosida bolalar va uning oilasi bilan tibbiy-ijtimoiy, psixologik-pedagogik ishlarning chora-tadbirlar tizimi belgilanadi.

- *Sog'lomlashtirish funktsiyasi* bolaning sog'lig'ini mustahkamlash bo'yicha qo'llab-quvvatlash va tavsiyalarni o'z zimmasiga oladi.

- *Kompensatsiya funktsiyasi.* Bu biologik oilani almashtirish usullarini topishdan iborat, agar bolani undan begonalashtirishni engib o'tish imkonsiz bo'lsa.

Mutaxassislarning oilalari bilan faoliyati asoslanadi *uchta yo'nalish*: tarbiyaviy, psixologik va vositachilik.

*Ta'lim yo'nalishi.* Ota-onalarga ta'lim va tarbiya berishda yordamni o'z ichiga oladi. Ta'limga ko'maklashish ota-onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirish va ularning ta'lim olishiga qaratilgan. Ta'limda yordam oilaning ta'lim salohiyatini mustahkamlash maqsadida maxsus ta'lim vaziyatlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalish oilalarga yordam berishning pedagogik modelidan foydalanishga asoslangan.

*Psixologik yo'nalish...* Ijtimoiy va psixologik yordam va tuzatishni o'z ichiga oladi. O'qituvchi pozitsiyasining bunday ko'magi oilada qulay psixologik muhitni yaratishga qaratilgan. Psixolog bilan ittifoqda qo'llab-quvvatlash eng samarali bo'ladi.

*Vositachi yo'nalishi...* Ushbu sohada quyidagi tarkibiy qismlar mavjud: tashkil etish, muvofiqlashtirish va ma'lumotlarga yordam berish. Tashkilotga yordam oilaviy bo'sh vaqtni tashkil qilishdan iborat (shu jumladan, oila a'zolari bayramlar, yarmarkalar, ko'rgazmalar va boshqalarni tashkil qilish va o'tkazishda). Muvofiqlashtiruvchi yordam turli bo'limlar, ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash markazlari bilan oilaviy aloqalarni o'rnatish va yangilashga qaratilgan. Axborot yordami oilalarni ijtimoiy himoya masalalari to'g'risida xabardor qilishga qaratilgan.

Oilaviy ish usullari:

*Ishontirish usuli* - ota-onalarni ularning ijtimoiy bo'lmagan xatti-harakatlari oqibatlariga ishontirishga yordam beradi. Ushbu usul yordamida ota-onalarning o'zlari ushbu vaziyatdan chiqish yo'lini izlashni boshlashlarini ta'minlash mumkin.

*Kuzatish usuli* - oilada tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun ko'proq materiallar to'plashga yordam beradi. Ijtimoiy o'qituvchi bolaning muloqotini, oilada, maktabda, sinfda, tengdoshlari bilan o'zini tutishini va bo'sh vaqtini kuzatadi.

*Suhbat usuli* - ota-onalar bilan ishlashda, maxfiy muhitda, oiladagi muammolarning sabablarini aniqlashga va ularni hal qilish usullarini belgilashga imkon beradigan eng keng tarqalgan usullardan biri.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning maqsadi nafaqat alohida oilalar bilan samarali hamkorlik qilish, balki barcha oilalar bilan o'zaro munosabatlarning innovatsion usullarini topishdir. Inklyuziv maktablarda o'qituvchilar oilalar va maktabni bir-biriga bog'laydigan va natijada barcha bolalarga o'rganish va muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan samarali maktab va oila hamkorligini rivojlantiradilar. O'rta va yuqori daromadli oilalarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan ko'plab hamkorlik dasturlaridan farqli o'laroq, inklyuziv maktab ishchilari barcha oilalarni hisobga olishadi va barcha daromadli oilalarga maktab hayotida ishtirok etishlariga imkon beradigan ish usullaridan foydalanadilar.

Shunga muvofiq — Oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning quyidagi vazifalari belgilab qo'yilgan: - oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vataniga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxor bo'lishni ta'minlashi shakllantiriladi.

## МАКТАБ YOSHIDAGI EGIZAKLARNING O'QISHDAGI KAMCHILIKLARNI KORREKTSIYALASH YO'LLARI

*Ibaydullayev Ibrohimjon Orif o'g'li*  
*Jizzax vil Sharof Rashidov tumani 6-son MTT psixologi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada egizaklar psixologiyasining o'ziga xosligi hamda maktab davrida egizaklarning moslashish jarayonidagi nazariy va amaliy jihatlarini psixologlar tomonidan o'rganganlik darajasi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zi:** xulq-atvor, monozigota, dizigota, nutq, diqqat, tortinchoklik, xafagarchilik, jaxldorlik hissiyotlar, qobiliyat.

**Annotation.** This article discusses the specificity of the psychology of twins and the degree to which psychologists have studied the theoretical and practical aspects of the adaptation process of twins in school.

**Keywords:** behavior, monozygote, dizygote, speech, attention, shyness, resentment, anger, feelings, ability.

Maktab yoshida egizaklarda ijtimoiy moslashuvning buzilishi bilan bog'liq muammolarga uchraymiz. Maktabda ular nafaqat ota onalariga nisbatan balki bu hamma bolaning muammosi bo'libgina qolmasdan bir birlariga nisbatan ham psixologik va fiziologik mustaqil bo'lishlari kerakligini anglatadi. Buning natijasida egizaklar o'qishning birinchi yilida yomonroq o'qishadi, ammo keyin yaxshi tomonga o'zgaradi. 13-15 yoshda Dizigota egizaklarda va 16-18 yoshda monozigotalarda bir xil baho olish tendentsiyasi mavjud. V.V Semenov shuni aytadiki Monozigota egizaklarda bir xil baho olish tendentsiyasi mavjud. Bu paytning o'zida Dizigotalarda bunday tendentsiya yo'q. Bundan tashqari egizaklar juda tez charchashadi, bu diqqatning pasayishi va ishchanlikning pasayishi bilan kuzatiladi. Bu esa keyinchalik o'zlashtirilmaslikka olib keladi. Bolani o'qishni yaxshi o'qiy olmasligini aniqlash uchun avval o'sha bolani o'qish yoki o'qiy olmasligi aniqlash kerak.<sup>1</sup> Avstraliyada o'tkazilgan tajribalar shuni

---

<sup>1</sup> Сергиенко Е.А., Рязанова Т.Б., Виленская Г.А., Дозорцева А.В., Развитие близнецов и особенности их воспитания, М.: Институт психологии РАН, 2000.

ko'rsatadiki egizak bo'lgan o'g'il bolalarning o'qish va yozish qobiliyati yaxshi bo'lmagan yolg'iz tug'ilganlardan quyidagilar asosida farq qiladi. Nutq rivojlanishida ortda qolishadi yoki ortga qolishgan. Ularga yozish ham, o'qish ham hisob kitob ham qiyinchilik tug'diradi. O'qish paytida simetrik harflarni adashtiradi o'xshash holat qizlar o'rtasida ham aniqlandi. Muammo ularning biron bir ishni qilolmaslikda emas, balki bu ishni qilishni xoxlamayotganlikda yoki tezda yengilishida. O'qishda ushlanishi bo'lgan egizaklar ko'pincha ishga ehtiyotsiz muomilaga bo'ladi. Ular vaqtlarni soatga qarab xato aytishgan yoki ikkilik sonlarni hisoblay olishmagan. Ularning qobiliyatini rivojlantirishdagi asosiy masala bu ularni savollarga o'ylab turib javob berishga o'rgatishdir. Bu asosiy muammolarni hal qilgandan keyin o'qishni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni uyushtirish mumkin. Ayrimlar hisoblashadiki egizaklarning o'qishni yaxshi bilmaslik bu ularning lateralizatsiyasining yaxshi rivojlanmaganligi bilan bog'liq ya'ni ikkita qo'lning ishlata olishi faqat bitta qo'lini emas. Egizaklar orasida chapaqaylar yoki bittasi o'ng qo'l ikkinchisi chapaqaylar shuning uchun buni o'qishdagi buzilishga ag'darish oson. Avstraliyada o'tkazilgan natijalar shuni ko'rsatadiki egizaklar orosida chapaqaylik ularning o'qishlari bilan bog'liq emas ekan. Bu shuni anglatmaydiki egizaklar orasidagi lateralizatsiya o'qishdagi o'zgarishlarga ta'sir etmaydi. Avstraliya va B.Britaniya maktablarida egizaklarning o'zlashtirish darajasi haqida so'rovlar o'tkazilgan. Avstraliyada keng so'rovlar o'tkazilgan. 10 yoshli o'g'il bola egizaklar yolg'iz tug'ilgan tengqurlaridan o'qish va yozishda jiddiy ortga qolar ekanlar, kamroq ortga qolish esa qiz bola egizaklarda quzatilar ekan. 14 yoshda esa qiz bolalar o'g'il bolalardan tashqari o'z tengqurlarini yolg'iz tug'ilganlarga yetib olisharkan. 70% dan ko'proq qizlar o'sha yoshda avstraliya jamiyatida yashab qolish uchun yetarli o'qish va yozish qobiliyatiga ega bo'larkan. O'g'il bolalarda bu ko'rsatgich 40% tashkil qilgan ekan. Alohida uzoq bo'lmagan egizaklar bilan alohida shug'ullanish samaliroq uzoqroq egizaklarning ikkalasi bilan barobar shug'ullanishdan ko'ra.<sup>2</sup> Bu shuni anglatadiki biron bir kishi qolgan bolalar bilan shug'ullanish kerak. Ayrim oilalar bunga yechim topishadi

---

<sup>2</sup> Зырянова Н.М. Близнецы. – М., 2006.

ota ona har bir egizak bilan alohida shug'ullanishadi. Hattoki boshqa qarindoshlarni ham yordamga chaqirishadi. Bunday vaziyatlarda ehtiyotkor bo'lish kerak.

O'qishni rivojlantirish muammosi egizaklarning o'zlariga baho berishlariga ta'sir qiladi. Boshlang'ich maktabdagi o'qish egizaklarning atrovdagilar bilan bir birlari bilan musobaqalashiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, odatda maktab o'quvchilari uy vazifasi uchun haftasiga 130 soat sarflaydilar lekin egizaklar oilasida bu soatlar o'sishi mumkin. Ko'pchilik egizagi bor ota onalar uy vazifalarni bajarish jarayonlarida o'zlaridan nimalarnidir qo'shib bajarishmoqda. O'qishni rivojlantirish muammosi egizaklarning o'zlariga baho berishlariga ta'sir qiladi. Boshlang'ich maktabdagi o'qish egizaklarning atrovdagilar bilan bir birlari bilan musobaqalashiga turtki bo'ladi. Bunda ular bir sinfda o'qiydimi yoqmi ahamiyati yo'q. Agar egizaklarning biri yaxshi o'qisa buni hamma ko'radi. Lekin o'qish musobaqaga asos bo'lmasligi kerak. Egizaklar tushunishlari kerakki ular o'qishni o'rganar ekan yangi ma'lumotlar olish uchun o'zini egizagiga ko'p o'qish bo'yicha uchib ketish uchun emas. Bolada yaxshi o'qish qobiliyatini rivojlantirish keyin ish 'isoblanadi. O'qishni yaxshi bilmaydigan bolalar oson tushkunlikka tushishadi. Ular o'zlarining o'qish uslubini va rivojlanish tezliklarini baholashni o'rganishlari kerak. boshqalarni o'zlariga tenglashtirishdan ko'ra.

Egizaklarning psixologik asoslarini bilish zarur, ayniksa , bir tuxumli va xar xil tuxumli egizaklarni ajrata olish kerak. Agar egizaklar paralel sinfda o'qisalar unda o'qituvchilar ularning o'kishiga ketma- ket karashlari kerak. Agar egizaklardan biri boshqa sinfda bo'lsa unda o'qituvchi o'zining diqqatini bir joyga jamlashi kerak. O'kishni endi boshlagan o'quvchi egizaklar tortinchoklik, xafagarchilik jaxldorlik hissiyotlarini xis kilishadi. Ko'p o'qituvchilar bolalarni bir birlariga yordam berishlarini yukori baholashadi. Egizak farzandni dunyoga keltirgan ba'zi ota onalarning kuzatuvlariga ko'ra tushlik kilayotgan paytda egizaklar oshxonada dars qilishsa ularning o'zlarini tutishlarini va uy vazifasiga bo'lgan munosabatlarini shunday izoxlashdi: Bir egizak uy vazifasini bajarsayu ikkinchisi uni ko'chirsa bu ikkalasiga xam foyda keltirmasligi mumkin. Ammo bir biriga yordam berish usuli musobaqalashishni kamaytirishga imkon berishi mumkin. Mabodo bir egizak ikkinchi egizakning qo'shish va ko'paytirish vazifasiga yordam bersa



ikkinchi egizakning matematikadan olgan yaxshi bahosi uchun xursand bo'lib yuradi .Tajribalar natijalari shuni ko'rsatyaptiki, odatda maktab o'quvchilari uy vazifasi uchun xaftasiga 130 soat sarflasalar, egizaklar oilasida bu soatlar o'sishi mumkin. Chunki egizak farzandi bor ota onalar farzandlari uchun beriladigan uy vazifasi muammosini o'zlari bir narsalarni uylab topib xal kilishlari kerak bo'ladi. Egizaklarni biz ko'pincha bir fanga qiziqishadi deb uylaymiz. Birok maktablarda o'tkazilgan so'rovlar natijasida kuyidagi xulosaga keldik yani egizaklardan biri matematika fanidan yaxshi o'zlashtirsa sherigi esa buning aksi. Egizaklar tasviriy san'atga sheriyatga bazilari esa texnika sohalarda qiziqishadi. Bu ularning tabiatlariga bog'lik. Monozigotali egizaklarning aksariyati bir faoliyat bilan doimiy shug'ullana olmaydilar. Dizigotali egizaklar esa aloxida faoliyatda bo'la turib uzok vakt davom etishini ko'rishimiz mumkin. Egizaklar kurashayotganda oraga ko'shilish vaziyatni chigallashtirishi mumkin. Ko'pchilik munosabatlarda ikkita tomon bo'ladi biri karor kabul kiladi ikkinchisi unga jon deb rozi bo'ladi va unga ergashadi. Egizaklarda shunday ko'prok biri kuchli va talabchan bo'ladi ikkinchisi yumshok va xotirjam buladi. Agarda yon bosuvchi egizak o'zining shaxsiy karorlarini kabul kila olsa bu hakida xavotirlanmaslik kerak. O'qituvchilar egizaklarning birini ikkinchi yilga koldirish yoki bir sinfga ko'tarish yo guruh sardori kilish masalasiga juda extiyotkorlik bilan yondashishlari kerak. Bunday xolatlarda egizaklarning ijtimoiy - psixologik bog'liklarini bilish kerak. Egizak o'smirlarda munosabatlari o'rtasida muammolar yuzaga kelishi mumkin chunki xar biri o'zini topish uchun va uni tan olishlari uchun xarakat kiladi. Monozigota va Dizigotali egizaklari o'rtasidagi munosabatlar har xil xuddi bir jinsli va xar xil jinsli egizaklar o'rtasida singari. Ko'pchilik egizaklarga yordam kerak bo'lmasa ham , egizaklar o'rtasida ko'zga ko'rinadigan farq bo'lsa , ularga albatta yordam berish kerak. Egizaklar o'z paytida yordam ololmayotganligiga o'qituvchi va ota onalar amin bo'lishlari kerak; Maktabda egizaklarning bir biriga qattiq bog'liqligini hurmat kilishlari kerak va albatta har biriga buyuk kobiliyat rivojlanishi uchun sharoit yaratish kerak.

### **Foydalangan adabiyot ro'yxati**

1. Зырянова Н.М. Близнецы. – М., 2006.

2. Сергиенко Е.А., Рязанова Т.Б., Виленская Г.А., Дозорцева А.В., Развитие близнецов и особенности их воспитания, М.: Институт психологии РАН, 2000.
3. Тойирова Ш. И., Тойирова Л. И. Психологическая роль геронтологии в республике Узбекистан //Инклюзивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. – 2020. – С. 202-205.
4. Тойирова Ш. Ўзбек oilаларда эгизак фарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психологик муаммолар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 122-125.

## **Ўқувчи ёшларда ахлоқий ҳис-туйғуларни шакллантиришда мактаб ва oilанинг ўрни**

*Усманова Зухра Хайруллаевна  
Самарқанд вилояти Жомбой тумани 46-мактаб психологи*

Ўқувчи-ёшларда ахлоқий ҳис-туйғуни шакллантириш инсон камолотининг асосини ташкил этади. Чунки, ахлоқий ҳис-туйғу кишининг хатти-харакатида, одобида, ички кечинмаларида ва айниқса, инсонларнинг бир-бирига бўлган ғамхўрликларида, хурмат қилишларида, билимларида, ҳис-туйғуларида, хулқ-атворида, наъмунали фаолиятида намоён бўлади. Ахлоқий ҳис-туйғу тузилишининг асосини инсон фаолитяи ташкил этади. Чунки, фаолият – бу инсоннинг ўраб турган дунёга бўлган муносабатини ўзига хос хусусиятлари, бир мақсадга қаратилган ҳаёт мазмунидаги ўзгариш лар, тузатиш кабиларни ташкил этади. Фаолиятнинг асосий иш тури меҳнат бўлиб, у инсоннинг жисмоний ва маънавий ривожланишида муҳим роль ўйнайди. Меҳнат инсоннинг мулоқот ўқиш фаолиятлари билан чамбарчас боғлиқ.

Фаолиятнинг мазмуни шарт-шароитлари, воситалари ўзгариб бориши натижасида ҳар бир инсоннинг ахлоқий онги, ахлоқий ҳис-туйғуи такомиллашиб

боради. Демак, фаолиятни тўғри ташкил этиш натижасида ўқувчиларнинг фаоллигига иш режаларининг аниқ бўлишига, кўзланган мақсадига, хатти-харакатларининг намунали бўлишига эришиш мумкин. Албатта бунда унинг юриш-туриши, турмуш тарзи, мустақиллиги намоён бўлади. Ахлоқий ҳис-туйғуни ташкил топишида ҳар бир ўқувчининг ўзига хос фаолиятини шакллантириш ва унга раҳбарлик ва назорат қилиш ўқитувчининг асосий вазифасидир. Чунки, бунинг натижасида ўқувчида мустақиллик, масъулият, интизом каби сифатлар ривожланади. Ўқувчиларда юриш-туришни бошқара олиш, фойдали ташаббус, қатъиятли бўлиш, кўзланган мақсадга эришиш каби ахлоқий-иродавий ҳислатлар шаклланади. Ўқувчи - ёшларнинг фаолиятини ривожлантириш ўқитувчидан ижодий ёндашишни талаб этади. Чунки, ўқитувчи ўз ўқувчиларининг фаолиятида уларни кузатади, ижобий тажрибаларини оммалаштиради. Ўқувчиларда мустақиллик, ташаббускорлик, ишга ижодий ёндашиш каби хусусиятларни намоён бўлишига, уларнинг қобилиятларини оширишга ёрдам беради. Ўқувчиларнинг ахлоқий ҳис-туйғуни шакллантиришнинг асосий йўналишлари ва мақсадларни амалга оширади. Ўқитувчи ўз ўқувчилари нинг фаолиятини ташкил этишда ҳамиша қувонч, мамнуният туйғусини ифода этиши билан бирга, ахлоқий эътиқодни тарбиялайди.

Ўқувчиларнинг ахлоқий ҳис-туйғуни шакллантиришда меҳнат фаолияти, таълим жараёни, ўқувчилар жамоаси муҳим воситалар бўлиб қолмоғи керак. Чунки, жамоа фаолиятида ўқувчиларда одамларга нисбатан меҳрибонлик, ғамхўрлик, меҳр туйғулари шаклланади. Ахлоқий ҳис-туйғуни шакллантириш бу ўз-ўзини бошқариш, ўз-ўзига доимо қараш ва камчиликларни ўзидан қидириш, ўз-ўзига талабчан бўлиш; ҳамма жойда аниқ ишларни бажариш, ўз-ўзини тарбиялаш ва бунда кучли ва кучсиз томонларни аниқлаш, ахлоқий тарбияланганлигини, билимларни яхши эгаллаганлиги, ахлоқий туйғуларнинг ривожланганлиги, мақсадга интилиш, довураклик ва ҳал қилувчанлик, талабчанлик, ташаббускорлик ва мустақиллик, ўз-ўзини идора қилиш ва тута билиш ташкил этади.

Ахлоқий билимлар инсоннинг фаолиятида маънавий кўникма ва малакаларни шакллантиради. Демак, ахлоқий ҳис-туйғуни шакллантириш

Ўқувчиларнинг мактабда турли ижтимоий фанлар асосларини эгаллаши борасида пайдо бўлади. Натижада ўқувчида ахлоқий билимлар ривожланади. Ахлоқий билим орқали ахлоқий маданиятга эришилади. Ҳаётда, тажрибада билимлилик билан билимсизлик ахлоқий ҳис-туйғуни баробар эмаслигини кўп учратиш мумкин. Билим – ўқувчи ёшларнинг ахлоқий нормаларида алоқа ва муносабатларида намоён бўлади. Ўқувчи ёшларнинг ахлоқий ҳис-туйғуини шакллантиришда таълим-тарбия жараёнининг мазмуни, шакл ва методларини такомиллаштириш алоҳида роль ўйнайди. Бу ўқитувчининг билим савиясига педагогик маҳоратига, санъаткорлигига боғлиқ. Ўқувчиларнинг дарсларда олган билимлари уларнинг турмушида, хулқ-атворида жамиятдаги кишиларга муносабатида намоён бўлади.

Ахлоқий билим ҳар бир шахсни, маданият, инсоният, маърифат дунёсиги олиб киради. Ахлоқий билим кишиларни ҳар ерда азиз ва ҳурматли қилади. Ахлоқий ҳис-туйғу тузулишида ахлоқий ҳис-туйғулар асосий ўринни эгаллайди. Ахлоқий ҳис-туйғулар шахснинг маънавий фаолиятида, воқеа ва ҳодисаларда, ахлоқий жараёнида намоён бўлади. Ахлоқий ҳис-туйғулар инсонларнинг ўз-ўзига, жамиятга, ҳаётга бўлган муносабатларида намоён бўлади. Демак ахлоқий ҳис-туйғулар ўзининг келиб чиқиши ва аҳамияти билан ижтимоий ҳарактерга эга. Ахлоқий ҳис-туйғулар ўз мазмунига кўра ахлоқий ишонч, ахлоқий онг билан чамбарчас боғлиқдир. Ахлоқий ҳис-туйғулар жараёнида интилиш, яхши кўриш, бурч, масъулият, ор номус каби ҳислар камол топади. Шунини айтиш керакки, ахлоқий ҳис-туйғуни шакллантириш ҳар бир кишининг шахс сифатида ривожланишида муҳим аҳамиятга эга. Инсон ўзини билиш ёки англашида, бошқаришида фақатгина унинг билими ёки одоби етарли эмас, ҳис-туйғулар киши фаолиятига нисбатан аниқ билимларни қўллашга суянишни тақозо қилади. Таълим жараёни меҳнат фаолияти ўқувчилар жамоаси ахлоқий ҳис-туйғуларни шакллантиришнинг асосий воситалари ҳисобланади. Ўқувчиларнинг ахлоқий ҳис-туйғуларини тарбиялашда соғлом муҳит, завқли вазиятни вужудга келтириш муҳимдир.

Шуни айтиш керакки, ахлоқий ҳис-туйғу кишининг ҳоҳиши ва иродасида, турмушида, жамиятдаги вазиятда, ўқитувчи талабларини амалга оширишда, ўқувчиларнинг ўз ўрни ва мавқеини англашда ифодаланиш билан бирга ахлоқий онгнинг асоисни ташкил этади. Бу ўринда айниқса ўқитувчилар ўқувчилар билан ўтказилган мулоқотлари муҳим аҳамиятга эга. Ўқувчилар ўз ўқитувчилари билан мулоқотга киришар эканлар, ўз онгила кишиларнинг ахлоқий ҳис-туйғуларини, хулқларидаги муайян намуналарни тасаввур қиладилар. Ўқитувчиларнинг фикри, кечинмаси, кўрсатмаси, хулқи ва хатти-ҳаракати таъсири остида ўқувчиларнинг ахлоқий ҳис туйғулари жараёнида ахлоқий ҳис-туйғуни шакллантириш туйғулари кучайиши ёки аксинча сусайиши мумкин.

Ахлоқий ҳис-туйғуни шаклланишида кишининг хулқ - атори муҳим ўрин эгаллайди. Хулқ - атор ахлоқий ҳис-туйғуининг муҳим қисми бўлиб, у тадбир ва интизомда, ҳаёт нормаларини бажаришда, жамиятга, меҳнатга, одамларга нисбатан билдириладиган ахлоқий муносабатда намоён бўлади.

Ўқувчининг хулқ-атор маданиятини шакллантириш ўқитувчидан ахлоқий тарбия ишларини олиб боришни талаб қиладди. Албатта бунда ўқитувчи хулқ- атор маданиятини тарбиялашда унинг ахлоқий онгига, синф жамоасига асосланиши керак. Шу билан бирга ўқувчи фаолиятини тўғрини ташкил эта билиш ҳам хулқ – атор маданиятини тарбиялашда самарали натижалар беради. Албатта бунда юқори синф ўқувчиларида хулқ – аторни тарбиялаш, уларни назорат қилиш, хатти-ҳаракатларига алоҳида аҳамият бериш билан бирга, доимий талбчан бўлиш мақсадга мувофиқдир.

Шахсни ахлоқий ҳис-туйғуини шакллантиришда маънавий онг билан хулқ - атор ўртасида, яъни сўз билан иш ўртасида бирлик бўлишга эриши зарур, лекин бу бирлик ўз-ўзидан вужудга келмайди, балки тинимсиз тарбиявий ишларни амалга оширишни талаб қиладди.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ўқувчиларнинг хулқ-атори ахлоқий тушунчаларни билиш билан белгиланмайди. Чунки ахлоқий билим, ҳис-туйғулар, хулқ-атор ўқувчи хулқида намоён бўлади. Доно халқимизнинг “хулқ” ақлли киши учун улуғлик ва фазилатдир, “Хулқи йўқ” нақллари бежиз айтилмаган.

Демак, ўз хулқини одоб билан қуроллантирилган, қўлини эса тўғрилиқка одатлаштирган кишигина камолотга эришиши мумкин. Камолотга эришган инсон яхшилик билан ёмонликни фарқини билади, фойда билан зарар ўртасидаги тафовутни англайди, ўз фаолиятида ёмон ҳислатлардан ҳоли бўлади, чиройли фазилатларини англайди.

## **GIPERAKTIV O‘SMIRLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDAGI MUAMMOLARINI PSIXOLOGIK TALQIN ETISH**

*Norqobilova Surayyo G‘ulom qizi  
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi doktoranti*

DEHB bilan og‘rigan odamlar odatda impulsiv, tartibsiz, tajovuzkor, haddan tashqari sezgir, shiddatli, hissiy yoki halokatli xatti-harakatlarni namoyish etadilar. Ular o‘zlarining ijtimoiy muhitidagi boshqalar bilan - ota-onalari, aka-ukalari, o‘qituvchilari, do‘stlari, hamkasblari, turmush o‘rtoqlari/sheriklari bilan ijtimoiy munosabatlari ko‘pincha tushunmovchiliklar va anglashinmovchiliklar bilan to‘la. DEHB bo‘lgan odamlarning o‘z xatti-harakatlarini va o‘zgalarga reaksiyalarini shuningdek, o‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyati pasayadi. Bu esa munosabatlarning haddan tashqari keskinlashishiga va zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

DEHB bilan og‘rigan odamlar ko‘pincha diqqatsizlik, impulsivlik va giperaktivlik natijasida ijtimoiy qiyinchiliklar, ijtimoiy rad etilish va shaxslararo munosabatlar muammolarini boshdan kechiradilar. Bunday salbiy shaxslararo oqibatlar hissiy og‘riq va azob-uqubatlarni keltirib chiqaradi. Ular shuningdek, kayfiyat buzilishi va tashvish, sarosima rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

DEHB bilan og‘rigan odamlarning ijtimoiy vaziyatlarda ko‘pincha qiyinchiliklarga duch kelish sabablarini tushunish qiyin emas. Tengdoshlar va kattalar bilan

muvaffaqiyatli muloqot qilish bola rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biridir, ammo DEHB bilan og‘rigan bolalarning 50-60 foizi tengdoshlari bilan munosabatlarda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Amerikaliklarning 25 foizdan ortig‘i surunkali yolg‘izlikni boshdan kechiradi. Faqatgina DEHB bo‘lgan kattalarda bu ko‘rsatkich ancha yuqori ekanligini taxmin qilish mumkin.

Boshqalar bilan samarali muloqot qilish uchun inson diqqatli, mas‘uliyatli va impulsiv xatti-harakatlarni nazorat qila olishi kerak. DEHB bo‘lgan kattalar ko‘pincha diqqatsiz va unutulchan bo‘lib, odatda impulsni nazorat qilmaydi. DEHB “ko‘rinmas nogironlik” bo‘lgani sababli, ko‘pincha bunday buzilish haqida ma‘lumotga ega bo‘lmaganlar DEHB belgilaridan kelib chiquvchi ijtimoiy jihatdan nomaqbul xatti-harakatlarni ko‘pincha boshqa sabablarga bog‘liq deb qayd etgan. Ya‘ni, odamlar ko‘pincha bunday xatti-harakatni va uni sodir etgan odamni qo‘pol, o‘zini o‘zi o‘ylaydigan, mas‘uliyatsiz, dangasa, odobsiz va boshqa ko‘plab salbiy xususiyatlarga ega deb biladilar. Vaqt o‘tishi bilan bu salbiy yorliqlar DEHB bilan kasallangan odamni ijtimoiy stigmatizatsiya qilishga olib keladi. Ijtimoiy rad etilish DEHB bilan og‘rigan ko‘plab bolalar va kattalarning hayotida hissiy og‘riqni keltirib chiqaradi va hayot davomida tartibsizlik va o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahoni pasayishiga sabab bo‘ladi. O‘zaro munosabatlar va nikohlarda nomaqbul ijtimoiy xatti-harakatlar DEHB bo‘lmagan sherik yoki turmush o‘rtog‘ini g‘azablantirishi mumkin, ular oxir-oqibat yonib ketishlari va munosabatlar yoki nikohdan sovlashga olib keladi.

DEHB bilan og‘rigan odamlarga, ularning yaqinlariga va do‘stlariga DEHB va uning ijtimoiy ko‘nikmalar va shaxslararo xulq-atvorga qanday ta‘sir qilishi haqida ma‘lumot berish nizolar va ayblovlarni yengillashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, DEHB bilan og‘rigan odam ijtimoiy ko‘nikmalarda iloji boricha malakali bo‘lish uchun strategiyalarni o‘rganishi kerak. Tegishli skrining, davolanish va ta‘lim bilan DEHB bo‘lgan odamlar boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o‘rganishlari mumkin, bu ularning ijtimoiy hayotini yaxshilaydi.

**DEHB va ijtimoiy ko‘nikmalarni egallash.** Ijtimoiy ko‘nikmalarga odatda tasodifiy o‘zlashtirish orqali erishiladi: odamlarni kuzatish, boshqalarning xatti-harakatlarini takrorlash, mashq qilish va fikr-mulohazalarni qabul qilish. Aksariyat



odamlar uchun bu jarayon erta bolalikdan boshlanadi. Ijtimoiy ko‘nikmalar kattalar o‘yinlari va boshqa bolalar faoliyati orqali amalga oshiriladi va mustahkamlanadi. Ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning nozik tomonlari kuzatish va tengdoshlarning fikr-mulohazalari orqali aniqlanadi. DEHB bo‘lgan bolalar ko‘pincha bu detallarni o‘tkazib yuborishadi. Ular mos keladigan narsalarni olishlari mumkin, ammo ijtimoiy kutishlar haqida umumiy tasavvurga ega emaslar. Afsuski, ular katta bo‘lganlarida ko‘pincha “nimadir” yetishmayotganini anglaydilar, lekin bu “narsa” nima ekanligiga hech qachon ishonch hosil qila olmaydilar.

Ijtimoiy tan olinishga yuqoriga yoki pastga harakatlanuvchi spiral sifatida qarash mumkin. Tegishli ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan odamlar, ular bilan muloqotda bo‘lganlar tomonidan ko‘proq tan olinadi va yanada yaxshi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. DEHB bo‘lgan odamlarda spiral ko‘pincha pastga tushadi. Ularning ijtimoiy ko‘nikmalarining yetishmasligi tengdoshlari tomonidan rad etilishiga olib keladi, bu esa ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini cheklaydi, natijada ko‘proq rad etilishga olib keladi va hokazo. Ijtimoiy jazo rad etish, qochish va boshqa shaxsga nisbatan noroziligini bildirishning boshqacha, unchalik murakkab bo‘lmagan usullarini o‘z ichiga oladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, odamlar ko‘pincha huquqbuzarga ijtimoiy zo‘ravonlikning mohiyatini bildirmaydilar. Ijtimoiy ko‘nikmalarda xatoga yo‘l qo‘yilayotganligini ko‘rsatish ko‘pincha sotsial jihatdan nomaqbul deb hisoblanadi. Shunday qilib, odamlar ko‘pincha o‘zlarining ijtimoiy ko‘nikmalarini yaxshilashga harakat qilib, qaysi sohalarni yaxshilash kerakligini tushunmaydilar va ko‘pincha yolg‘iz qoladilar.

**DEHB bo‘lgan bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari tahlili.** Tadqiqotchilar DEHB bilan og‘rigan bolalarning ijtimoiy muammolariga tengdoshlari bilan munosabatlarning buzilishi, do‘stlar orttirish va do‘stlikni saqlashdagi qiyinchiliklar va tegishli ijtimoiy xatti-harakatlardagi kamchiliklarni kiritgan. Uzoq muddatli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu muammolar o‘smirlik va balog‘at yoshida saqlanib qoladi va DEHB bo‘lgan kattalarning ijtimoiy moslashuviga to‘sqinlik qiladi.

Dastlab, DEHB bo'lgan bolalardagi bu qiyinchiliklar bolalar tegishli ijtimoiy xatti-harakatlarga ega bo'lmasligi uchun tegishli ijtimoiy ko'nikmalarning yetishmasligi sifatida kontseptsiyalangan. Ushbu modelga asoslanib, odatda bolalar guruhlarida o'tkaziladigan ijtimoiy ko'nikmalarga o'rgatish keng tarqalgan davolash metodlaridan biriga aylandi. Oddiy ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish guruhida terapevt muayyan ijtimoiy xatti-harakatlarni maqsad qilib qo'yadi, og'zaki ko'rsatmalar beradi va maqsadli xatti-harakatni ko'rsatadi va bolalarni maqsadli xatti-harakatlar orqali bir-biri bilan rol o'ynashga o'rgatadi. Terapevt, shuningdek, ijobiy fikr bildiradi va tegishli ijtimoiy xatti-harakatlardan foydalanish uchun guruhni bir-biriga ijobiy fikr bildirishga undaydi. Bolalarga olingan ko'nikmalarni kundalik hayotda qo'llash tavsiya etiladi.

Yaqinda DEHB miyaning ijro etuvchi yoki nazorat qilish funktsiyalaridagi buzilish sifatida qayta ta'riflandi. Ushbu kontseptsiyadan kelib chiqadiki, DEHB bilan og'rgan odamning ijtimoiy tanqisligi birinchi navbatda ijtimoiy ko'nikmalarning yetishmasligi natijasi bo'lishi mumkin emas, balki allaqachon olingan ijtimoiy ko'nikmalardan ishonchli foydalanish samaradorligining yetishmasligidir. Ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish ko'nikmalarning yetishmasligi muammosini hal qiladi, lekin mavjud ko'nikmalardan samarasiz foydalanish muammosini hal qilmaydi. Dori-darmonlar miyaning ijro etuvchi funktsiyasida to'g'ridan-to'g'ri o'zgarishlarni keltirib chiqaradi va shuning uchun DEHB bilan og'rgan bolalarga yangi olingan ijtimoiy ko'nikmalardan ishonchliroq foydalanishga yordam beradi. Tadqiqotchilar, shuningdek, DEHB bilan og'rgan bolalarga o'rganganlarini turli sharoitlarda ishonchli tarzda qo'llashlariga yordam beradigan ijtimoiy ko'nikmalarni o'qitishga komponentlar qo'shdilar. Ushbu maqsadga erishish uchun ota-onalar va o'qituvchilar DEHB bo'lgan bolalarni uyda va maktabda yangi olingan ijtimoiy ko'nikmalardan foydalanishga undash va mustahkamlashga o'rgatiladi.

### Adabiyotlar

1. J Am Acad Child Adolesc Psychiatry. 2001 Nov;40(11):1285-92. doi: 10.1097/00004583-200111000-00008
2. [C L Bagwell<sup>1</sup>](#), [B S Molina](#), [W E Pelham Jr](#), [B Hoza](#) PMID: 11699802.DOI: [10.1097/00004583-200111000-00008](#)

3. [Anne F Klassen](#)<sup>1</sup>, [Anton Miller](#), [Stuart Fine](#) PMID: 15520087

DOI: [10.1542/peds.2004-0844](#)

## ЎҚУВЧИ ЁШЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ОТА-ОНАЛАР ВА ЯҚИН КАТТАЛАРНИНГ ФАОЛЛИГИНИ ҲАМДА РОЛИНИ ОШИРИШ

*Саидова Хушида Равшановна*  
*Нишон тумани 11-мактаб психологи*

Оилавий ҳаёт муаммоси, оила аъзолари ўртасидаги муносабат, фарзанд тарбияси давлат аҳамиятига эга бўлган муҳим масаладир.

Баъзан болаларнинг ёмон қилиқларини, ота-оналарини ҳурмат қилмаганликларини кўрсак, одатда ғазабланамиз, уларни тартибга чақириб қўямиз, аммо биз шундай пайтларда бир адолатсизликка йўл қўямиз: болада юз берган ёмон хулқ-атворда ота-онанинг ҳам айби борми-йўқми, бу ёғи билан ишимиз бўлмай қолади. Баъзи бир ота-оналар фарзандларининг уст-бошлари, ейиш-ичишлари ғамини ейишади-ю, лекин афсуски, маънавий ва жисмоний этиёжларини аввал боғчага, кейин мактабга ҳавола қилиб қўйиб, фарзанд тарбиясидаги бениҳоя катта бурчларини ҳис қилмайдилар. Бошқа бир ота-оналар эса болаларини ёшликдан талтайтириб, танти қилиб ўстирадилар, меҳнатда тарбияламай, ўз ихтиёрларини ўзларига ташлаб қўядилар. Уларнинг хулқ-атворларига, ўқиш-ўрганишларига, юриш-туришларига бепарво қарайдилар.

Халқимизда: ҳар ким экканини ўради: буғдой эккан-буғдой, арпа эккан-арпа ўради, деган мақол бор, бу мақолни ҳамма эшитган бўлиши мумкин, лекин кўпинча, бола ҳам ота-онасидан олган тарбиясига қараб ўсади.

Бола тарбияси қонуниятларини билмаган ё вақтида бола тарбиясига эътибор бермаган ота-оналар бир кун панд ейдилар, ўғил-қизларидан яхши оқибат кўрмайдилар. Шундай ҳоллар рўй бермаслиги учун боланинг дунёга келиши

биланок уни тўғри тарбиялаш, педагогика фанининг шу соҳадаги тавсияларига эътибор бериш зарур.

Мазкур мақолани тайёрлашимда ҳаётий кузатишлар, ота-оналар билан ўтказилган суҳбатлар, йиғилишлар, кўздан кечирилган фактлар асос қилиб олинган.

Ўзбек оиласининг энг муҳим вазифаси – фарзандларини давримизга муносиб кишилар жамиятнинг баркамол кадрлари қилиб тарбиялашдир. Ота-оналар фарзандларининг тарбияси учун жамият, давлат олдида жавобгар эканликларини яхши тушуниб олишлари лозим. Боланинг хулқ-атвори, ирода ва характер сифатлари, фикрлари аввало оилада таркиб топа бошлайди. Унинг қобилиятлари ҳам, яхши одат, кўникма ва малакалари ҳам, оилада ҳосил қилинади. Мактаб таълими жараёнида эса боланинг шахси билан алоқадор бўлган юқоридаги ҳамма хусусиятлар маълум система воситасида янада такомиллашиб боради. Болалар мактабгача тарбия муассасаларида тарбияланган тақдирда ҳам оила тарбиясининг аҳамияти камаймайди. Болалар мактабга қатнай бошлагандан кейин ҳам оила тарбия масалаларини бўйнидан соқит қила олмайди.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси Президентининг ёшларга бўлган эътибори, чексиз ғамхўрликлари туфайли мамлакатимизда ота-оналарнинг бола тарбиясини тўғри амалга оширишлари учун барча шарт-шароитлар яратиб берилган. Болалар учун бизда уйда хусусий боғчаларнинг очилиши, боғчаларнинг кенг, замонавий ва ҳозирги давр талаблари асосида йўлга қўйилганлигидан ҳаммамиз гувоҳмиз. Мактаблар, дам олиш оромгохлари ва санаторийлар очиб қўйилган, улар учун миллионлаб нусхада китоблар, газета ва журналлар чиқарилмоқда. Малакали педагог ва тарбиячиларнинг янги-янги кадрлари тайёрлаб борилмоқда. Улар болада илм-фанга мухаббат, маънавий ахлоқ ва дунёқараш асосларини тарбияламоқдалар.

Мактаблар, ўрта ва олий ўқув юртлари ота-оналарни педагогик билимлар билан қуроллантиришда – оилада бола тарбиясининг ўзига хос хусусиятлари, тарбия жараёни ва унинг қонуниятлари ҳақидаги билимларни сингдиришда катта фаолият кўрсатмоқда.

Биз деярли ҳаммамиз, касбимиздан, жамиятда тутган ўрнимиздан, ишимиз кўп ё озлигидан, шахсий сифатларимиздан қатъий назар, **Ота** ва **Она** деган юксак номга эгамиз. Бу ном эса, албатта, катта масъулият юклайди. Иш кунимиз тугагандан сўнг биз ўз уйимизга – бола-чақа ёнига шошиламиз. Бу ерда бизни фақат ҳордиқ чиқариш, хонадондаги ва турмушимиздаги қувончларгина эмас, балки, шу билан бирга, хилма-хил ота-оналик ташвишлари ҳам кутиб туради.

Тарбия кўп соҳали ва узоқ давом этадиган жараёндир. Болани ўраб олган шароитнинг ҳаммаси-одамлар, нарсалар, ҳодисалар унинг онгида, хулқ-атворида маълум тус олдиради, уни ўзгартиради ва ўстиради. Ота-оналик бурчи эса ана шу ўсишни онгли равишда, зийраклик билан бошқаришдир.

Ёшлар тарбияси – ҳаётий зарур масаладир. Ўтмишнинг буюк донишманд мутафаккирлари ўз давридаги ижтимоий даврнинг сиёсий, иқтисодий ва маънавий асослари қандай бўлишидан қатъи назар, бола тарбияси масаласига биринчи даражали иш деб қараганлар ва уни ҳаёт тақозоси воситасида ҳал этганлар.

Дарҳақиқат, бола тарбияси ниҳоятда нозик, мураккаб чуқур педагогик ва психологик билимларни талаб қилувчи санъатдир.

Маълумки, ҳар бир ота-она фарзандининг соғлом, одобли, билимдон, меҳнатсевар ва умуман давримиз талаблари даражасидаги инсон бўлиб етишишини истайди. Аммо ота-она фарзандини яхши тарбиялаши учун фақат ҳоҳиш, истакнинг бир ўзигина кифоя қилмайди. Бунинг учун тарбия қилишнинг нозик томонларини ва қонуниятларини билиш керак. Муайян ҳар бир ҳолда бола билан қандай муносабатда бўлиш, унга қандай ёрдам қилиш тўғрисида ота-оналар кўпинча ўйланиб оладилар.

Таълим-тарбия тўғрисидаги билимлар ота-оналарга ўз болаларини яхшироқ билиб олишларига ёрдам беради.

Кўпчилик ота-оналар ўз боламни яхши биламан, деб ўйлайдилар. Афсуски, баъзан улар янглишадилар. Ўз боламни биламан, дейишнинг маъноси нимада? Болани билиш, биринчи навбатда, унинг қандай ўсаётганлиги ва камол топиб бораётганлигини билиш, унинг талаблари, қизиқишларини, лаёқатини, феъл-атвори, хулқи, одатлари, кимлар билан дўстлигини билиш ва мана шу жиҳатдан

уларга диққат–эътибор билан қараш демакдир. Ана шуларни билгандагина боланинг қизишларини лозим бўлган йўлга осонлик билан ўз вақтида буриб юбориш, ёмон хулқлардан болани тийиш, унинг вақтини лозим бўлган нарсалар билан банд қилиш мумкин бўлади.

Бола тарбияси ва яхши, қобил фарзанд ҳақида сўз кетганда кўпинча “яхши одамнинг фарзанди”, “отасининг боласи-да” ёки “онасига тортибди” каби сўзларни эшитамиз. Ҳақиқатдан ҳам шундай. Ақил ва ҳамжихат оилада ўсган, яхши ота-она тарбиясини кўрган ўил-қиз ҳам ота-онасига тортиб, тартибли бўлиб етишади, чунки бола инсонга хос энг яхши фазилатларни ўзининг отаси ва онаси сиймосида кўрган, уни ўзига сингдиришга ҳаракат қилган. Бундай оилаларда ота-она бола учун ахлоқий намуна бўлади. Айрим оилаларда болаларга ёшлиқданок нотўғри тарбия берилади. Болага қўйиладиган тарбиявий талабларда ҳар хиллик сезилиб қолади. Баъзан англамай қилинган ҳатти-ҳаракатлар бола тарбиясига салбий таъсир кўрсатади, баъзи оилаларда эса сўз билан ҳатти-ҳаракат бирлиги мезони бузилади. Натижада, ана шундай оилада тарбияланаётган бола ғоятда тартибсиз, эрка, танти, ишёқмас, қайсар бўлиб қолади. Бундай болалар қайта тарбияланишга муҳтож бўладилар.

Бир қанча оилаларнинг бола тарбияси соҳасидаги тажрибаларини кузатиш ва ўрганиш бизни шундай хулосага олиб келдики, айрим оилаларда бола тарбиясида йўл қўйилаётган хатоларнинг сабаблари асосан, қуйидагилар иборат.

1. Бола тарбиясида жамиятимиз қўядиган талабларни ҳисобга ола билмайдилар.
2. Ота-оналарнинг қўпчилиги болаларга яхши тарбия бериш ниятида бўлсалар ҳам, лекин бола тарбиясининг ўзига хос қонуниятларини билмаганлари туфайли, хатога йўл қўядилар.
3. Айрим ота-оналар бола тарбиясидаги ўз бурч ва масъулиятларини тўла тушуниб етмайдилар.
4. Боланинг майли ва хотирини ҳисобга олиб, уни оқилона йўлга сола билмайдилар.
5. Баъзи ота-оналар иш билан банд эканликларини важ қилиб, ўз болаларининг тарбияси билан шуғулланмайдилар.

Мен юқорида ота-оналар томонидан бола тарбиясида йўл қўйилаётган камчиликларни умумлаштирган ҳолда баён этдим.

Хулоса қилиб айтганда, оилада бола тарбияси ҳозирги кунимизнинг муҳим талабларидан биридир. Фарзанди тарбиясига эътибор бермаслик ва ёки фарзанднинг тарбиясини ўз ҳолига ташлаб қўйиш, бу соҳадаги ўз вазифаларига бир томонлама қараш ота-она бурчини, жамият олдидаги бурчини ҳис қилмасликдир. Ҳар бир ота ва онанинг жамиятимиз олдидаги бурчини адо этиши учун ўз фарзанди тарбияси билан асосли равишда шуғулланиши, бунинг учун эса тарбия ишининг ўзига хос томонлари, унинг қонуниятлари, боланинг психологик ва ёш хусусиятлари, жисмоний ва физиологик ривож қонуниятларидан хабардор бўлиши талаб этилади. Тарбия соҳасида муваффақият қозониш кўпинча шуларга боғлиқдир.

Дарҳақиқат, савия ва онг ўсиб бормоқда, бироқ ана шу ўсишнинг ижобий бўлишига тўсқинлик қилаётган муаммоларни ҳал этишга тайёрмизми?! Нега энди ёш авлод дунёқарашининг шаклланишида айрим ножўя ҳаракатлар вужудга келмоқда?!

Тан олиш керак, жамиятимизда ёш авлоднинг жисмоний ривожланишига бугун жуда катта аҳамият берилмоқда, бироқ унинг психологик саломатлигига, руҳий ривожланишига педагог ва психологлар, қолаверса ота-оналар томонидан етарлича эътибор берилгани йўқ

Агар инсоннинг эътиқоди, маънавий баркамоллиги, руҳий турғунлигига эътибор берилмас экан, бундай инсон онгини осонлик билан заҳарлаш мумкин.

Фарзанд омадли, ўзига ишонган, одоб-ахлоқли, ўқимишли бўлиб етишиши учун қандай йўл тутмоқ керак? Катта педагогик ва психологик таълим мажмуасида озгина қаттиққўллик ва темир интизомни қўшинг. Бу мажмуани меҳр ва мақтов билан сайқалланг. Ана шундай мажмуани қўллаган ҳолда вояга етказинг.

#### 1. Фарзандингизга меҳр беринг.

Сиз фарзандингизни ҳеч қандай шартсиз, қатий қоидаларсиз, беғараз севасиз. Бу табиий ҳол. Лекин бундай севги, меҳр доимо назорат остида тутилиши лозим. “Инсоннинг туйғулари билан ўйнашиб бўлмайди”. Болага нисбатан, ҳатто жазо



сифатида ҳам, меҳрни камайтириш ёки уни меҳрдан маҳрум қилишга ҳеч бир ота-онанинг ҳаққи йўқ. Ҳар доим бир даражада яхши кўришингизни фарзандингиз билиши шарт. Ана шундагина унинг сизга бўлган ишончи янада мустаҳкамланади, ёнингизда ўзини доимо ҳимояланган ҳис қилади. Меҳр, илиқлик, умид ва ишонч бола учун сув ва ҳаво каби асосий ҳаёт эҳтиёжларидан ҳисобланади. Бундай эҳтиёжлар тўла қондирилганда, таълим ва тарбияда ҳеч қандай муаммога дуч келинмайди.

2. Фарзандингизга ишонинг.
3. Иродасини мустаҳкамланг.
4. Унга машғулотлар топиб беринг.
5. Интизомни сақланг.
6. Ўзингизни кимлигингизни тушуна олинг.

Агар биз фарзандларимизга тўғри тарбия берсак, бўш вақтларини тўғри тақсимласак, мактабга келиб-кетишини назорат қилсак, китоб ўқишга ундасак, манимча кўп натижаларга эришамиз.

Ҳурматли ота-оналар фарзандларимиз келажагига лоқайд бўлмайлик.

**Устоз ўқувчиларини ўз фарзандидек тарбиялайди.**

**Фарзандингиз келажаги Сизнинг қўлингизда!**

## O'QUVCHI YOSHLARNI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

*Boratova Nasiba Ismoilovna*  
*Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar 22-maktab psixologi*

Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda uzluksiz ta'lim jarayoni muhim o'rin egallaydi. Shu jihatdan e'tibor berilsa, ta'lim-tarbiya ishlarining samarali natijasi sifatida yoshlarning islohotlardagi ishtirokining faollashuvini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham ularning tarbiyasiga, shaxs sifatida shakllanishiga, ijtimoiy hayotga tayyorgarliklarida uzluksiz ta'limning o'rniga alohida e'tibor berilmoqda. Ma'lum oilada tarbiyalanayotgan bolada ajdodlariga xos iste'dod nishonasi aks etganda, aynan shu iste'dodning shakllanishida muhim rol o'ynagan, uning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratgan oila muhitini nazoratdan chetda qoldirmaslik lozim. Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma'naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog'liq.

Mikromuhit o'zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Mikromuhit - bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lib, oila, maktab, do'stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud. Mavjud ijtimoiy muhit insonning o'sib borayotgan ongiga ta'sir etadi. Ijtimoiy tuzum darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning shaxsga nisbatan ongli ta'siri ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu ta'sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta'sirlarning barchasi bilan bog'liq holda shaxs rivojlanishiga ta'sir etadi. O'quvchilardagi asosiy psixologik o'zgarish. O'quvchi o'zini asta-sekin katta odam deb his qila boshlaydi, lekin ko'p odat va xususiyatlari bolalarcha bo'lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o'smirlikdagi asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o'smirda o'ziga, atrof muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyani yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini

kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta orientatsiya qila boshlaydi. O'quvchi o'z huquqlari doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni xohlaydi. Kattalar va o'smirlar orasidagi zididiatlarning sababi – kattalarda ularga nisbatan bolalarcha munosabatning saqlanib qolishidir. O'quvchining mustaqillik darajasi haqidagi tasavvurlar kattalar va o'smirlarda turlicha. Kattalar bu yoshda o'smirlarga o'z yonidan joy berishni o'rganishlari lozim. Shu sababli o'smirning tengqurlari bilan munosabati yangi specifik funkciyani bajara boshlaydi, ya'ni bu munosabatlarda o'smir amalda kattalar axloq normalarini o'zlashtira boshlaydi. O'quvchilar uchun tengdoshlari bilan ijtimoiy muloqot etakchi faoliyat bo'lib qoladi.

Ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo'lgan o'quvchilarni bir necha shartli guruhlariga ajratish mumkin:

- orsiz, subutsiz o'quvchilar;
- mustaqil fikrga ega bo'lmaganlar;
- shaxsiy talab va ehtiyojlarini qondirish uchun qonunbuzarlik yo'liga kirgan o'quvchilar;
- injiq tabiatli o'quvchilar.

Ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo'lgan o'quvchilarni yuzaga keltiruvchi sabablar quyidagilar:

- shaxsning biologik kamchiliklari;
- psixik rivojlanishdagi kamchiliklar;
- shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar;
- bilish faoliyatidagi kamchiliklar;
- maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar;
- maktabdan tashqari muhitdagi kamchiliklar

Savol tug'iladi: nima uchun yoshlar o'z joniga qasd qilmoqda? Nahotki o'lim barcha muammolardan xalos bo'lishning yagona chorasi sifatida ko'rinadigan bo'lib qolgan?

O'z joniga qasd qilishga irodasizlik, bilimsizlik, mo'rt tarbiya, noto'g'ri yoki butunlay olib borilmayotgan targ'ibot, turli kino va seriallardagi shu kabi sahnalar va hokazolar undayotgandek. So'nggi vaqtlarda nafaqat xorij o'lkalarida, balki

O'zbekistonda ham o'zini osib qo'ygani, yoqib yuborgani xususida xabarlar elas-elas qulog'imizga chalinmoqda. Xususan, Xorazm viloyatida, Qoraqalpog'iston Respublikasida, Farg'ona vodiysida shunday holatlar qayd etildi. jamiyatlardagi o'z joniga qasd qilishdek muammoning bir qancha sabablari va ularning yechimiga doir fikrlar keltirilgan.

**Sabablar:**

- dinsizlik;
- ma'rifatsizlik;
- to'qchilik;
- yo'qchilik;
- shahvoniy, nafsoniy sevgi;
- o'z joniga qasd qilishni muammoning yechimi sifatida ko'rish;
- o'limning haqiqati, qabr azobi, oxirat, qayta tirilish, qiyomat va do'zaxdagi azob-uqubatlardan bexabarlik;
- ruhiy hastalik.

Ojizlik va irodaning zaifligi muammolarni hal etishda o'limdan boshqa yo'llar borligi haqida o'ylashdan cheklab qo'yadi. O'zini qiynayotgan savolga kimdan javob olishi, yaqinlari, tanigan-bilganlaridan qaysi biri unga yordam qo'lini cho'zishi mumkinligini bilmaydi. Go'yoki uni hech kim tushunmaydi, tuyg'ulari bilan hisoblashmaydi ham, o'zini yolg'iz va keraksiz, qo'lidan hech nima kelmaydigan ojiz insondek his etadi. O'lim haqidagi tinimsiz xayollar ongini butunlay mavh etib, shu yo'l bilangina barcha iztiroblaridan xalos bo'lishiga qattiq ishona boshlaydi. Inson mutlaqo dinsiz bo'lishi ham mumkin yoki o'zini dindor hisoblasa-da, aslida dinning mohiyatini tushunmasligi ham mumkin. Chunki dindorlik nafaqat o'z joniga qasd qilish, balki boshqaning joniga qasd qilish, hattoki oddiy hayvonlarning joniga ham noo'rin qasd qilishni man etadi. Ya'ni ularni besabab o'ldirishni qattiq qoralaydi va bunday jinoyatlarni qilganlarga alohida jazolar belgilaydi. Qolaversa, din insonni yumshoq ko'ngilli, mehribon, rahmdil, shafqatli, kamtar, hokisor va beozor qilib qo'yadi. Shuning uchun ham haqiqiy dindor jinoyat sodir etmaydi. Aksincha, ayrim dinsizlar o'z joniga qasd qilishni oddiy ermak yoki jasorat deb o'ylaydi. Keyingi paytlarda internet sahifalarida paydo

bo'lgan “Ko'k kit” degan o'yin aynan shuning dalilidir. Birgina shu o'yin sababli dunyoda qanchadan-qancha yoshlar o'z joniga qasd qildi. Afsuski, bizning yurtimizda ham mazkur o'yin domiga tushib o'z joniga qasd qilganlar yo'q emas. Shuning uchun ham odob-axloqqa oid ma'lumotlarni ko'proq tarqatish, yoshlar ongiga singdirish kerak. Eng asosiysi, mazkur vazifani o'z ishining ustasi bo'lmish haqiqiy mutaxassislariga topshirish kerak. Toki gapi bilan qiladigan ishi bir xil bo'lsin, tirik namuna bo'la olsun. Aks holda kutilgan natijaga erishish emas, balki mutlaqo teskari natija berishi mumkin. Hozirgi yoshlar anoyi emas, ular tezda haqiqiy murabbiy, muallim va ustozni soxtasidan ajrata biladilar. Ularga eng og'ir lahzalarda ham tushkunlikka tushmasdan, kurashgan va oxir-oqibat maqsadiga erishgan qahramonlarning hayotini ibrat qilib ko'rsataylik, o'zimiz ham ularga namuna bo'laylik!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: o'quv metodik qo'llanma. T., 2004.
2. Nishonova E.T. Bolalar psixik taraqqiyoti muammolari bo'yicha psixologik maslahatlar berish. T., 1997.
3. Yodgorova G.T. Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishlash. T., 2007.
4. G'oziev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., 1994.
5. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya: darslik. I, II kitob. T., 2002.

## **BOLA TARBIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Soxibnazarova Maxsuda Mahmudovna  
Abu Ali ibn Sino nomli Zomin jamoat salomatligi texnikumi  
Psixologiya va Pedagogika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Jamiyatda o'sib kelayotgan har bir yosh avlodning ertangi kuni qanday kelishi, hamda uning ham jismoniy ham ma'naviy jihatdan yetuklik darajasiga ko'tarilishi uning psixologiyasiga bog'liq. Shuning uchun ham hozirda bolalarni oilada qanday muhitda tarbiya topayotganligi barchamiz uchun juda dolzarb mavzudir.

**Kalit so'zlar:** Psixika, go'daklik, bolalik, yetuklik, qarilik, genetik psixologiya, emperik usul.

Ijtimoiy hayotimizdagi o'zgarishlar mustaqil respublikamizdagi demokratiyaning tantanasi, huquqiy davlat tizimiga intilish psixologiyaning qonuniyatlari va ilmiy materiallarini o'rganish hamda ulardan turmushda foydalanishni talab qiladi. Psixologiya fani tarmoqlaridan biri – bolalar psixologiyasi. Bolalar psixologiyasida bolaning tug'ilgan paytidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar psixik jihatdan taraqqiy etishi qonuniyatlarini va shaxsiy psixologik xususiyatlarning tarkib topishini o'rganadigan fandir. Bola inson sifatida tashqi jihatdan katta yoshli odamlarga o'xshasa ham, o'zining psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarning mazmuni jihatidan katta yoshli odamlardan keskin farq qiladi. Hozirgi davrda butun dunyoda boshqa fanlar bilan aloqadorlikda psixologiya fani ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Bir necha yillardan buyon psixologiyani bir nechta tarmoqlarga bo'lib o'rganib kelinmoqda. Shulardan biri “Bolalar psixologiyasi”dir. Bolalar psixologiyasi - psixologiya fanining alohida tarmog'i bo'lib, u turli yosh davrlarida bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini, shuningdek, bir yosh bosqichida boshqasiga o'tish qonuniyatlarini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi fanining asosiy e'tibori tug'ilgandan yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongning qanday rivojlanishiga qaratilgan. D.B.Elkonin yozganidek, bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetulik davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, uning qonuniyatlarini bolalar psixologiyasi tadqiq etadi. Bolalik - ontogenezninig dastlabki davrlarini belgilash uchun (tug'ilgandan o'smirlikkacha bo'lgan davrni belgilash uchun) qo'llanadigan tushuncha. Yosh davrlarining an'anaviy tasnifiga ko'ra bolalik - go'daklik (tug'ulgandan 1 yoshgacha), ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha), maktabgacha yosh (3 yoshdan 6-7 yoshgacha) va kichik maktab yoshi (6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha) davrlarni o'z ichiga oladi. Bolalik - jadal psixik taraqqiyot davridir. Bolalar psixologiyasi fanining yosh psixologiyasi tarkibidagi o'zni. Bolalar psixologiyasi - yosh psixologiyasi fanining bo'limlaridan biridir. Yosh psixologiyasi, shu jumladan, bolalar psixologiyasining psixologiya fanidagi boshqa tarmoqlaridan farqi shundaki, u psixik hodisalarning o'zini

eslash, balki rivojlanishi va yosli bilan bog'liq ravishda o'zgarishini tadqiq etadi. Yosh psixologiyasining bugungi kundagi eng muhim muammolari quyidagilardan iborat: a) turli psixofiziologik funksiyalarning yoshga oid me'yorlarini ilmiy jihatdan asoslab berish; b) individ, shaxsning yetuklik mezonlari va na'munalarini aniqlash; c) hayotning turli bosqichlarida insonning real va potensial imkoniyatlari qanday bo'lishini aniqlash; d) inson hayotining dastlabki bosqichlari uning kelgusidagi taraqqiyotida qanday rol o'ynashini tushinish va ilmiy bashorat qilish. Ushbu muammolarni hal etish uchun inson hayotining har bir bosqichida bolalikda, o'spirinlikda, yetuklik va qarilikda uning psixikasidagi o'zgarishlarni chuqur o'rganish talab etiladi. Ayrim o'rinlarda bolalar psixologiyasiga sinonim sifatida "genetik psixologiya" tushunchasi ishlatilmoqda. Bu holatni to'g'ri deb baholash mumkni emas. Chunki genetik psixologiya psixik jarayonlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasining predmeti esa faqat psixik jarayonlar taraqqiyoti bilangina cheklanib qolmaydi. Bolalar yoshiga, shaxsiga va rivojlanish bosqichiga qarab turli xil jismoniy va hissiy ehtiyojlarga ega. Rivojlanish psixologiyasi, pediatriya va nevrologiya fanlari bo'yicha o'nlab yillar davomida olib borilgan izlanishlar dastlabki besh yil bolaning natijalari uchun juda muhim ekanligiga asoslandi. Bola ulg'aygach, ular atrof-muhitni o'rganish, og'zaki va mulohaza yuritish ko'nikmalarini o'rganishadi, boshqalar bilan muloqot qilish va oxiroqibat o'z oilalaridan mustaqillikni himoya qilish bosqichlariga o'tishadi. So'nggi bir necha o'n yilliklar ichida balog'at yoshi pasaymoqda va bu bolalikning tobora erta yakunlanishiga olib kelmoqda. Ham genetik, ham atrof-muhit omillari balog'at boshlanishiga ta'sir qiladi va kuzatuvchilarning fikricha, jinsiy balog'atga yetish vaqti qaysidir darajada bolalikni baholashni anglatishi mumkin va balog'at yoshining tezlashish o'lchov bo'lishi mumkin. Bola rivojlanishini tushunish bu - bolalarni tug'ilishdan o'spirinlik davriga qadar bo'lgan tezkor jismoniy va ruhiy o'zgarishlar ko'pincha ota-onalar va yaqinlarni ularga qanday qilib eng yaxshi tarzda jalb qilish va qanday yordam berish kerakligi haqida savol tug'diradi. Bolaning rivojlanish jarayoni sezgi ongidan va nozik vosita ko'nikmalaridan tortib, til va ijtimoiylashuvigacha bo'lgan hamma narsani o'z ichiga oladi. Rivojlanishning rivojlanishiga bolaning irsiy tarkibi, atrof-muhit va bilim qobiliyatlari kuchli ta'sir qiladi. Ota-onalar va tibbiyot mutaxassislari ko'pincha



rivojlanish bosqichlarini, masalan bola gapirishni yoki o'qishni o'rganishni o'rganib, o'z tengdoshlariga nisbatan o'sishini kuzatish uchun foydalanadilar. Ushbu bosqichlar ba'zi holatlarda bolada har qanday nogironlik yoki xatti-harakatlardagi muammolarni aniqlashga yordam beradi, shuning uchun ularni erta hal qilish mumkin, ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ko'rsatkichlar bolaning yakuniy qobiliyatiga ta'sir etmasligi mumkin. Bolalar yoshiga, shaxsiga va rivojlanish bosqichiga qarab turli xil jismoniy va hissiy ehtiyojlarga ega. Ota-onalar va tibbiyot mutaxassisleri ko'pincha rivojlanish bosqichlarini, masalan bola gapirishni yoki o'qishni o'rganishni o'rganib, o'z tengdoshlariga nisbatan o'sishini kuzatish uchun foydalanadilar. Ushbu bosqichlar ba'zi holatlarda bolada har qanday nogironlik yoki xatti-harakatlardagi muammolarni aniqlashga yordam beradi, shuning uchun ularni erta hal qilish mumkin, ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ko'rsatkichlar bolaning yakuniy qobiliyatiga ta'sir etmasligi mumkin. Bolalar psixologiyasini tahlil qilishda bir nechta olimlar ham ilmiy ishlar olib borishgan. Jumladan, L. S. Vigotskiy – metodologik psixolog, ko'p yillar davomida bola psixikasini o'rganishda emperik usullardan foydalanish programmasi ustida ish olib brogan. Uning konsersiyasini ma'naviy-tarixiy deb atash mumkin chunki ong va psixik jarayonlarga interpretatsiyani faqatgina ularning rivojlanishi va qurilishi orqali berish mumkin edi. Uning asosiy g'oyasi, yuqori psixik funksiyalarning rivojlanishini tasdiqlash bilan bog'liq edi. Ular yosh bolada kattalar bilan muloqot davomida rivojlanadi. Uning fikricha rivojlanish, ma'naviy belgilarni ya'ni ularning ichida eng soddasi so'zlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, ota-onalar bolalarga psixologik jihatdan yordam va ko'mak berishsa ular jamiyatda o'z so'zi va o'rniga ega bo'ladigan yetuk shaxs bo'lib yetishishadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatimizning ertangi kunini belgilab beradigan eng muhim ma'naviy kuchdir. Uni har tomonlama qo'llab quvvatlash va amalgam oshirish uchun albatta birinchi navbatda har bir oilada o'ziga xos psixologik muhit va sharoit yaratish lozim. Shundagina jamiyatda o'sib kelayotan har bir yosh avlod ertangi kelajakda albatta o'z o'rniga ega bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi,

2010. 75-b. 2. Nishanova Z.T., Flalimova G., Turg'unboyeva A.G'., Xasranboyeva M. Bolalar psixologiyasi va psixodagnostikasi; T-2017 195-b.
3. By Kendra Cherry, Medically reviewed by Aron Janssen, MD. Child Psychology and Development on November 19, 2019.
4. By Kendra Cherry. Fact checked by Emily Swaim. How to Become a Child Psychologist Updated on March 10.
5. By Kendra Cherry Steven Gans, MD 2020, Child Development Theories and Examples Medically reviewed by Updated on January 04, 2020.

## SHAXSDA ALTURISTIK XULQ-ATVOR TENDENSIYALARINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

*Kamolova Zuhra Tufli qizi*  
*Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tuman 95-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Maqolada alturizm haqida malumot va uning namoyon bo'lish shakllari, alturistik xulq-atvorni shakllanishida oilaviy tarbiyaning ta'siri, shaxsda alturizm shaxs xususiyatlarini shakllanishida oila va oilaviy munosabatlarning ahamiyati, alturistik shaxslarning qadriyatlar tizimi, shaxsning alturistik yo'nalishini tarbiyalash uchun eng maqbul usul va vositalari haqida yoritilgan.

**Key words:** alturizm, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy-psixologik yo'nalganlik, empatiya, hamdardlik.

### KIRISH

Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va psixologik omil vazifasini o'taydi. Inson shaxsi oilada shakllanadi. Oila muhabbat, o'zaro hurmat, birdamlik va mehribonlikning emotsional manbaidir. Aynan shu qadriyatlarga har bir millat, jamiyat suyanadi. Prezidentimiz

SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik –xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy –ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”. Erkin jamiyatning, oilaning moddiy hayot sharoitlari o‘zgarishi o‘z-o‘zidan ma'naviy kamolotga olib kelmaydi. Oila farovonligi –milliy farovonlik asosidir. Xalqimizning eng qimmatli an'analari: halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllanadi. Oila “millat sharafini” yuqori martabaga ko‘taradigan zaminu vosita hisoblanadi. Jamiyat taqaraqqiyoti bevosita farzandlarning oilada oladigan tarbiyasiga bog‘liqdir. Shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, insoniy fazilatlar aynan oilada shakllanadi. O‘z navbatida oilaviy munosabatlar madaniyati shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi birinchi omil bo‘lib, oilaviy muhitning ham jismonan ham ma'nan sog‘lom bo‘lishi jamiyat taraqqiyotiga, undagi mavjud muammolarni hal etishga ijobiy yoki salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishi asosi oiladan boshlanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Inson xulq-atvorida alturistik tendensiyalarning mavjudligi muammosi falsafiy va axloqiy, sotsiologik va eksperimental psixologik tadqiqotlar orasida muhim o‘rin tutadi. Birgalikdagi faoliyat odamlarga rivojlanishning dastlabki ibtidoiy jamoa tuzumida tabiat kuchlariga qarshi turish va muloqot orqali ijtimoiy ongni shakllantirish imkonini berdi.

Bu insonning dunyoga munosabat doirasini kengaytirib, uni nafaqat o‘zini, balki o‘z qabiladoshlarini ham himoya qilishga undadi. Ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot jarayonida asta-sekin jamiyatda xususiy mulkni shakllanishi natijasida ijtimoiy tabaqalanish insonlarda xudbinlik va shafqatsizlik kabi xulq-atvor shakllari paydo bo‘ldi va hozirgi kungacha zamonaviy jamiyatda mavjud va rivojlanmoqda. Katta psixologik lug‘atda alturizm tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi “Alturizm (lot. alter —boshqa)-axloqiy tamoyil bo‘lib, unga ko‘ra, boshqaning manfaatlari va shaxsi uning “men”i va uning yaxshiligidan ko‘ra axloqiy jihatdan muhimroqdir. Alturizm – egoizmga(xudbinlik) qarama-qarshidir”. Turli nazariy yo‘nalishlar vakillari alturizmga

turlicha ta'rif beradilar "Alturizm boshqalarga muhabbat va g'amxo'rlik" (E. Fromm), Alturizm shaxsning o'z manfa'atlar bo'lmaganda boshqalarning farovonligiga intilish" (D. Kempbell),'' Alturizm shaxsning o'zidagi egoistik manfaatlari bilan bog'liq bo'lmagan ongli ravishda kimgadir yordam berish motivi (D. Mayers, X. Hexauzen), Alturistik xulq tavsifida tadqiqotchilar motiv,xulq,qadriyatlar tizimi, intilish, mayllar,ehtiyojlar ijtimoiy me'yor va mezon kabi tushunchalar tavsifi asosida ta'rif beradilar.

Shaxsda alturizm shaxs xususiyatlarini shakllanishida oila va oilaviy munosabatlarning ahamiyati yuqori bo'lib ota-onalarning tarbiyasi natijasida bola o'zining birinchi hayotiy tajribasini, atrofdagi voqelik borasidagi bilimlarni, ijtimoiy hayot malaka ko'nikmalarini va odatlarini o'zlashtiradi. Ota-onalarning umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lgan kuchli axloqiy tamoyillarga ega bo'lishi farzandlar ruhiyatida ushbu jihatlarni shakllanishiga asos bo'ladi. (London, 1970; Oliner, Oliner, 1988; Rosenham, 1970). Ayni paytda, rus psixologi A. A. Moiseevaning (2007) ta'kidlashicha, ko'plab zamonaviy ota-onalar, umuman olganda, alturizmning zarurati va qiymatini tan olgan holda, o'z farzandlari bilan muloqot qilishda fidoyilik bilan bog'liq tarbiyaviy ta'sirlariga etarlicha ahamiyat ko'rsatmaydi. Ushbu ota onalar agar bolalarda alturistik shaxs xususiyatlari shakllansa mustaqil xayotda ko'plab muammolarga duch kelib , baxtsiz bo'ladilar chunki ularning o'zlarida xech nima qolmaydi deb xisoblaydilar. A. A. Moiseeva shaxsda alturistik shaxs xususiyatlarini tarbiyalash uchun eng muhim bo'lgan ijtimoiy omillardan biri bo'lib oilada o'zaro ishonch va hurmat va g'amxo'rlikka asoslangan emotsional yaqin shaxslararo munosabatlar asosida shakllanishini aniqladilar. Alturizm shaxs xususiyati yuqori darajada shakllangan oilalarda bolalarda alturizmni shakllanishida ota onalar tomonidan ko'proq rag'batlantirish, bolani turli ijtimoiy vaziyatlarda qo'llab quvvatlash,bola shaxsi va individulligini hurmat qilish kuzatiladi. Tadqiqotlar jarayonida alturistik shaxs xususiyatlari past darajada shakllangan ota-onalar oilada bolani jazolash, o'zaro qo'llab quvvatlash yordam berish xususiyatlarini shakllanishiga to'sqinlik qilish, bolaning fikri, istak va ehtiyojlarini e'tiborga olmaslik, moddiy mukofotlarni afzal ko'rish kabi munosabatlar namoyon bo'ladi. Majburlash,qo'rqitish, shaxsini xo'rlash

bolada altruizm xususiyatini shakllanishiga keskin to'sqinlik qiluvchi omillardan biri sanaladi. Alturistik xususiyatlarni shakllanishda akalar va opalarning emotsional yaqin munosabatlari katta ahamiyat kasb etishi A.A Moiseeva tadqiqotlarida aniqlangan. Shu bilan birga, muallif alturistik ta'lim murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini ogohlantiradi, shuning uchun taklif qilingan tavsiyalar tez natija bermaydi, balki individual yondashuv va uzoq muddatli izchil qo'llashni talab qiladi. Oilada shaxsda altristik shaxs xususiyatlarini o'rganish bo'yicha o'rganilgan ilmiy nazariy manbalar asosida quyidagi xulosalarni keltiramiz:

1. Shaxsning alturistik yo'nalishining ijtimoiy-psixologik yo'nalganligi mazmuni oiladagi ijobiy yaqin emotsional munosabatlar va atrof-muhitning tarbiyaviy ijtimoiy ta'sirining insonparvarlik yo'nalganligi natijasida shakllanadi.

2. Shaxsning alturistik yo'nalishi odamlarga xayrixohlik, hamdardlik munosabatda namoyon bo'lib, boshqalarga foydalilik, ijtimoiy adolat va barqarorlikka intilish qadriyatlarida namoyon bo'ladi.

3. Shaxs xulq-atvorining alturistik tendensiyalarining rivojlanishi ijtimoiy ahamiyatga ega xulq-atvor bilan bo'lishi shaxsiy xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq holda sodir bo'ladi. Alturizmning empatiya, hamdardlik va boshqa odamlarni tushunish gamoyillikda namoyon bo'ladi. Alturistik shaxs yuqori meyoriy xulq-atvor burch, odilona va vijdonlilik hissi mavjudligini anglatadi; ishonchlilik, ya'ni, ochiqlik va muloyimlik, hasaddan xolilik; bag'rikenglik; xayrixo'lik; odamlar bilan munosabatlarda barqarorlikka intilish. Yuqori alturistik shaxslar o'zlarining qobiliyatlariga nisbatan atrofdagilarning qobiliyatlarini ortiqcha baholaydilar.

4. Altrustik shaxslarga xudbinlik, xavotirlanish, salbiy axloqiy xislatlar boshqalarga nisbatan past darajada shakllangan, ularga qaysarlik, xudbinlik, avtoritar munosabatlar xos emas.

5. Alturistik shaxslarning qadriyatlar tizimida ijtimoiy adolat, mas'uliyat, chidamlilik shaxs xususiyatlari yetakchi o'rinni egallaydi. Asotsial xulq atvor o'z manfaatlarini afzal ko'rish, xudbinlik kabi shaxs xususiyatlari alturistik shaxslarga xos emas.

6. Shaxsning alturistikyo‘nalishini tarbiyalash uchun eng maqbul usul va vositalaridan biri oilaviy munosabatlarning o‘zaro ishonch-hurmat va emotsional yaqin munosabatlarga asoslanishidir. Aksincha bola ehtiyojlariga undagi fikr va muloxazalarga befarqlik,uning shaxsi va individualligini inkor etish, tahdidlar, tajovuzkor majburlash, alturistik shaxs xususiyatlarini shakllanishga to‘sqinlik ko‘rsatadi.Bolalarda shaxsini shakllanishida alturizm xususiyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan va oilaviy tarbiya uslublarining ajralmas qismi bo‘lgan jazo va mukofotlar metodi hisoblanadi. Jazo, tahqirlash va tahdidlar altristik xulq-atvorining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Alturistik bolalarning ota-onalari jazoning ekstremal shakllaridan voz kechishni afzal ko‘radilar va mukofotlardan maqtov va bolani qo‘llab-quvvatlash usullarini tanlashadi. Past alturistik shaxslarning ota-onalari, aksincha, moddiy mukofotlarni va haddan tashqari kuchli jazolarni afzal ko‘radilar.

### XULOSA

Tadqiqotlarda shaxsning alturistik yo‘nalishini shakllantirish oilaning tarkibi, oiladagi bolalar soni, eng muhimi, ular o‘rtasida emotsional yaqin munosabatlar bilan bog‘liqligi aniqlangan. Xususan,sibling munosabatlari jarayonida bola aka-uka va opa-singillar tomonidan o‘zaro yordam ko‘rsatishi alturistik shaxs xususiyatlarini shakllanishda ijobiy rol o‘ynaydi.Alturistik yo‘nalishga ega bo‘lgan bolalarning ota-onalari o‘z farzandlarining yordam harakatlariga ijobiy munosabatda bo‘lishadi. Ushbu toifadagi ota-onalar nafaqat o‘z farzandlarini muhtojlarga yordam berishga undashadi, balki o‘zlari ham xuddi shunday xatti-harakatlarni namoyish etib namuna bo‘ladilar.

### References:

- 1.SH. Mirziyoev “ Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz Toshkent Uzbekiston 2017 b 312
- 2.Варга А.Я. Системная семейная психотерапия: Курс лекций. —СПб.: Речь, 2001, —144 с.
- 3.Изард К.Э Психология эмоций / Пер. с англ. СПб.: Изд-во «Питер», 2000.- 464 с.

4.Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учебное пособие. -М.: Гардарики, 2004. 320 с.

5.Каримова В. М. Оила психологияси Тошкент 2007

6.Куницына В.Н. Проекция детства во взрослость: стиль семейных отношений в детстве и его влияние на формирование личности ребенка/В сб. Социально-психологические проблемы общения и взаимодействия людей.-СПб.: Речь,2006.—С.

7.МоисееваА.А. Теоретические аспекты определения моделей альтруистического поведения. -Ученые записки ИНПО, выпуск 5,книга2, В.Новгород, 2003.

## ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O‘QUV FAOLIYATIDA NATIJAGA ERISHISH MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TAHLILI

*Xolturaev Asqarjon Panjiyevich*  
*Termiz davlat Pedagogika Instituti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Maqolada ijtimoiy-gumanitar ilmiy bilimlarning turli yo‘nalishlari bo‘yicha O‘smir o‘quvchilarning natijaga erishish jarayoni-bu ularni bilimga undash jarayonlari, usullari va vositalari, faoliyati, ta‘lim mazmunini faol rivojlantirishdir.

Ushbu maqola , O‘smir o‘quvchilarning natijaga erishish ko‘nikmalari, ijodiy faoliyati, o‘z-o‘zini rivojlantirish masalalarining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari, ko‘pchilik tadqiqotchilar diqqat e‘tiboridan chetda qolgan. Shuning uchun ham, o‘quv faoliyati jarayonida natijaga erishish masalasi unga yaqin bo‘lgan tushunchalar orqali o‘rganiladi.

### **Kalit so‘z**

O‘smir, o‘quvchilar uchun o‘quv faoliyati,o‘quv jarayoni, O‘quv jarayonini tashkil etish.



## Abstract

In the article, the process of achieving results of adolescent students in different directions of social and humanitarian scientific knowledge is the processes, methods and means of motivating them to knowledge, activities, active development of educational content.

This article is about the socio-psychological conditions of adolescent students' achievement skills, creative activity, and self-development issues, which have been neglected by most researchers. Therefore, in the process of educational activity, the issue of achieving results is studied through concepts close to it.

## Key word

Organization of educational activities, educational process, educational process for teenagers, students.

## Asosiy tuzulishi

Natijaga erishish o‘smir o‘quvchining mutaxassisga aylanishi, uning o‘zi haqidagi, kasbiy va ijtimoiy muxitdagi mavqei haqidagi tasavvurlarining o‘zgarishi, qolaversa, yangi kasbiy sifatlarni o‘zida tarkib toptirishi, keng ma’noda aytadigan bo‘lsak shaxsning natijaga erishish darajasini anglashi bilan hamoxanglikda kechadigan jarayondir. Natijaga erishish inqirozlari davrida kasbiy sifatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

V.Yu.Alekseevning xulosalariga ko‘ra, o‘quv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va uning psixologik shart-sharoitlarida quyidagilar ajratiladi<sup>3</sup>:

– o‘quv jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun, o‘zini fiziologik va psixologik zo‘riqlashlarga duchor qilishga imkon beruvchi eng yuqori motivatsiya;

– o‘qitish va sug‘urtalash bilan birq qatorda, o‘quv faoliyati muvaffaqiyatlari uchun shart bo‘lgan sensorimotor malakalarni yaxshi rivojlantirish<sup>4</sup>;

---

<sup>3</sup>Алексеев В.Ю. Интегральная характеристика соревновательной надежности юных учеников / В.Ю. Алексеев, В.В. Маркелов // Физ. культура: воспитание, образование, тренировка. – 2015. – № 4. – С.41 - 43

<sup>4</sup>Бабушкин Г.Д. Формирование спортивной мотивации / Г.Д. Бабушкин, Е.Г. Бабушкин. - Омск: СибГАФК, 2000. – С.53.

– o‘smir o‘quvchilarning eng muhim irodaviy sifatlari, ob‘ektiv va sub‘ektiv xarakterdagi qiyinchiliklarni doimiy ravishda yengib o‘tish istagi<sup>5</sup>;

– o‘yin faoliyati, kuchli hissiy energiya va boshqalar kechinmalarning mavjudligi. Yuqorida qayd etilgan o‘quv faoliyatining o‘ziga xos omillari alohida mazmun kasb etib, ularni tahlil etish natijaga erishish bilan bog‘liq qator psixologik omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tasniflardan o‘laroq, o‘smir o‘quvchilarning shaxsiy hayot yo‘li va o‘quv faoliyatining individual uslubi masalalari T.B.Maksimova tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Muallifning fikricha, o‘smir o‘quvchi shaxsidagi natijaga erishish va o‘zini o‘zi tarbiyalash ko‘nikmasi, keyinchalik unda ijodkorlik sifatlarining o‘shishiga keng imkon beradi<sup>6</sup>. Darhaqiqat, o‘smir o‘quvchi shaxsidagi natijaga erishish xususiyati bu ta‘lim–tarbiya jarayonida muvaffaqiyatni, samaradorlikni ta‘minlovchi asosiy psixologik mezonlardan biri sanaladi.

Yosh davrlar psixologiyasi bilan bog‘liq ayrim adabiyotlarda keltirilishicha, o‘quv faoliyatida yuqori natijalarga erishishni belgilovchi tamoyillarga quyidagilar kiradi<sup>7</sup> :

– insonparvarlik tamoyili – o‘qituvchi, psixolog va o‘smir o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va ijobiy munosabatlar, o‘smir o‘quvchi huquqlariga hurmat ko‘rsatish, o‘quv faoliyati talablariga so‘zsiz rioya qilish;

– o‘quv faoliyati jarayonining to‘g‘ri tashkil etilganligi, undagi tartiblilik va uzluksizlik tamoyili<sup>8</sup>.

– o‘quv faoliyati ishtirokchilarining ijtimoiy faolligi, o‘quv faoliyati ochiqlik va axborot muhitining shaffofligi tamoyili va boshqalar. Demak, o‘smir o‘quvchining yuqori natijalari va yuksak natijalarga erishishning psixologik shartlari sifatida, o‘qituvchi va o‘smir o‘quvchining vazifalarga bo‘lgan munosabati va ijtimoiy faollik xususiyatlari kabilar kiritiladi.

---

<sup>5</sup>Бармин А.Г. Психологические условия регуляции учительной деятельности (на примере волейбола): Дисс.... канд. психол. наук: 19.00.01 / А.Г. Бармин. - Тверь, 2001. – С.77.

<sup>6</sup>Максимова Т. В. Смысл жизни и индивидуальный стиль педагогической деятельности. // Мир психологии, 2001, №2 (26), С. 114-121.

<sup>7</sup>Психология и современный спорт: Сборник научных работ психологов спорта социалистических стран. - М.: Физкультура и спорт, 2019. – С.58.

<sup>8</sup> Сафонов В. К. Психология в спорте. Теория и практика / В.К. Сафонов. - М.: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2013. – С.78.

P.V.Kondratevga ko‘ra, umumo‘rta ta’lim maktablarining o‘smir o‘quvchilari o‘zlarida quyidagi kasbiy qobiliyatlarni shakllantira olgan bo‘lishlari kerak<sup>9</sup>:

1. Bilish qobiliyati;
2. Tushuntira olish qobiliyati;
3. Kuzatuvchanlik qobiliyati;
4. Nutq qobiliyati;
5. Tashkilotchilik qobiliyati;
6. To‘g‘ri muomala qila olish qobiliyati;
7. Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati;
8. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati va boshqalar.

Yuqoridagi keltirilgan tasniflardan shu narsa ma’lumki, o‘quv faoliyati nafaqat, fanga oid bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish shuningdek, inson shaxsiga xos ko‘plab psixologik bilimlar tizimini o‘rganishni ham nazarda tutadigan mezon sanaladi.

Mazkur masalada tadqiqotchi S.S.Kosinov shunday deydi: “O‘smir o‘quvchilarning o‘quv faoliyatida natijaga erishish jarayonida asosiy shartlari biri bu nafaqat, ma’lum bir shaxslilik sifat va ko‘nikmalarni shakllantirish orqali balki, mazkur sifatlarni muntazam optimallashtirish, o‘quv faoliyatga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi<sup>10</sup>. O‘quv faoliyatida yuqori natijalarga erishish va ulkan muvaffaqiyatlar qozonishning asosiy omillari yoki motivatorlari ham farqlanib, B.J.Krettiga ko‘ra, yuqori natijalarga erishish quyidagi psixologik sifatlar orqali amalga oshadi:

- Stressli vaziyatlarni eng olish qobiliyati;
- Mukammallikka intilish istagi;
- Ijtimoiy mavqe’ini oshirish istagi;
- O‘quv faoliyati jamoasining haqiqiy a’zosi bo‘lish ishtiyoqi;
- Yuqori darajada rivojlangan altruizm hissi.

<sup>9</sup>Кондратьев П.В. Проблема развития личности учителя. // Актуальные проблемы психологического знания. 2006, № 1, С. 83-90.

<sup>10</sup>Косинов С. С. Спорт в системе социальной мобильности и жизненной самореализации молодежи в России : монография / С. С. Косинов ; под ред. П. С. Самыгина. – Москва : РУСАЙНС, 2018. – С.88.

Hozirgi kunda psixologiya fani erishayotgan yutuqlaridan kelib chiqib, ta'lim jarayonining eng qisqacha ta'rifini quyidagicha berish mumkin: ta'lim jarayoni o'ziga xos boshqaruv jarayoni hisoblanib, bunda ta'lim ob'ektlariga maqsadli yo'naltirilgan holda ta'sir ko'rsatiladi. Ma'lum ma'noda ta'kidlash mumkinki, ta'lim berish jarayonida bilimlar tashkil qilinadi va uzatiladi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun pedagogik jihatdan maxsus ta'lim modellari amalga oshiriladi. O'smir o'quvchilarda natijaga erishish ko'nikmasini faollashtirish hamda shakllantirishning psixologik usullarini ishlab chiqish holati, ilk bor XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to'g'ri keladi.

Demak, o'qituvchi va o'smir o'quvchining oila a'zolari, musoboqalarda eng yuqori natijalarga erishishni belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Ta'kid joizki, o'quv faoliyatida yuqori natijalarga erishish nafaqat yaratilgan qulay shart-sharoitlarga balki, davogarda shakllangan muvaffaqiyat motivatsiya darajasi ham uzviy bog'liq sanaladi. Bu borada mashhur rus psixologi Ye.P.Ilin tomonidan ilgari surilgan yondashuv ham o'ta ahamiyatli sanaladi. Muallifning fikricha, o'smir o'quvchilarning muvaffaqiyat motivatsiyasiga ta'sir etuvchi ichki sabablar quyidagi sifatlar bilan bog'liq sanaladi<sup>11</sup>:

– O'z-o'zini takomillashtirishga intilish (o'z salomatligini yaxshilash, jismoniy imkoniyatini oshirish va irodaviy sifatlarni rivojlantirish);

– O'zini namoyon qilish va o'zini o'zi tasdiqlash istagi – boshqalardan kam bo'lmaslik, jamoatchilik e'tirofiga tushishga intilish;

– A'zolik motivatsiyasi – o'zini sinfdoshlari va jamoa a'zosi sifatida his qilish, o'smir o'quvchilar bilan yaqin aloqada bo'lish, mamlakatlar bo'ylab sayohat qilish istagi yoki yangi taassurotlar olish ehtiyoji<sup>12</sup>;

– O'z-o'zini takomillashtirish–bu nafaqat o'zida jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan, iroda sifatlari, intellekt, sotsial intellekt, emotsional intellekt, ijodiy qobiliyatlar kabilarni o'zida rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mazkur birinchi fasl yuzasidan quyidagicha xulosa qilish mumkinki, o'quv faoliyatida yuqori natijalarga erishish harakati zamirida, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari ham aks etib, u o'z qobiliyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga intilish va ma'lum bir malakalarga ega bo'lish istagi kabilarda ham aniq namoyon bo'ladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Maslou A. Motivatsiya i lichnost / A. Maslou. – SPb.: Piter, 2008.
  2. Rodjers K. Freyberg Dj. Svoboda uchitsya M.: Smysl, 2002..
  3. Parsons T. Struktura sotsialnogo deystviya / Gl.
  4. Persone T. O strukture sotsialnogo deystviya. M.: Akademicheskiy Proekt, 2000
  5. Maccelland D. Power: The inner experience. -New York: Irvington, 2009
- Serova L.K. Psixologiya lichnosti / L.K. Serova. – M.: Sovetskiy sport, 2007.
- Yakovlev B.P. Osnovy psixologii / B.P. Yakovlev. - M.: Sovetskiy sport, 2014.

## **MEKTEPTE INKLYUZIV BILIMLENDIRIWDIŇ ORNÍ HÁM AHMIYETI**

*Bekbosinova Gulzira*

*Qaraqalpağıstan Respublikasi Qaraózek rayonu 1-sanlı UBB mekteptin psixologi*

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2018-jıl 5-sentyabr degi “Xalıq bilimlendiriwi sistemasında basqarıwdıń jańa principlerin engiziw ilajları tuwrısında”gi PQ-3931-sanlı qararına tiykar bilimlendiriwge ayrıqsha mútajlikleri bolǵan balalardıń social kepilliklerin támiyinleytuǵın ilajlar natiyjeliligin jáne de asırıw, olardıń bilimlendiriw-tárbiya (sonday-aq, inklyuziv bilimlendiriw-tárbiya) alıwına xızmet etetuǵın ortalıǵın jaratıw boyınsha ayrıqsha wazıypalar belgilep ótilgen.

Inklyuziv bilimlendiriw sistemasın engiziw boyınsha qatar normativlik-huqıqıy hújjetler qabıllandı.

Ushu hujjetlerde jamiyetimizdin bir bolegi bolgan arnawli jardemge mutaj balalardi social qollap-quwatlaw, olarga bilimlendiriw-tarbiya beriw, olardin saw balalar qatarinan orin alip oz qabileti, mumkinshiliklerin korsete aliwina, ruwxıy jetilisiwine qaratilgan ilajlar belgilep berilgen.

Qaraqalpağıstan respublikası Qaraózek rayonu xalıq bilimlendiriw bólimine qaraslı 1-sanlı ulıwma orta bilim beriw mektebinde 2021-2022 oqıw jılınan baslap inklyuziv klasına bir oqıwshı qabıl etildi basında bul oqıwshınıń mektepke maslasıwı júda qıyın boldı, sebebi bul oqıwshınıń kesellik turi (mikrocifaliya) bolıp mektepte hesh kim menen sóylespiytuğun hatteki sabaq waqtında uyqılap qalatuğun edi, biraq bizler jeńilmesten hareket etiwdi toqtatpadıq, ata-anası menen birgelikte klass basshısı mektep psixologi birlesken halda oqıwshınıń qızıǵıwshılıǵın qáiletin úyrenip arnawlı metodikalardan paydalanǵan halda oqıwshı menen kóbirek islesiwdi dawam ettik.

Búgingi kúnde bul oqıwshımız teńlesleri menen birge qarım-qatnası jaqsı óz pikirini tolıq jetkere aladı, házirde bul oqıwshınıń dıqqatı, oylawı, qıyal etiwı normada bolıp, hátte shet-tili, álipbe súwret sabaqlarına qızıǵıwshılıǵı joqarı, háriplerdi ózlestire almasada kórsetilgen súwretler arqalı tanıydı, reńlerdi ajratıp qoyadı, aldınları hájetxanaǵa, awqatlanıwǵa tek ustazı yaki anası menen barsa, házirde teńles dosları menen barıp qaytadı, ózine tiyisli oqıw quralların hám basqada zatlardı ajratıp aladı, sáwbetleskenimizde doslarınıń atların aytıp, shańaraq aǵzalrı haqqında maǵlıwmat bere aladı .

Házirde bizler bul oqıwshımızdaǵı ózgerislerdi kórip kásibimizge degen súyispenshiligimiz jánede asıp atır desem asıra aytqan bolmayman. Sebebi bul oqıwshımızdın ata-anası tárepinen bildirilip atırǵan minnetdarshılıqları sheksiz.

Sonın ushunda men óz ámelyatımda inklyuziv oqıtıwdın áhmiyetin sinap kórgen halda ayırıqsha bilimlendiriwge mutajlikleri bolgan balalardı saw balalar qatarında ulıwma bilim beriw mekteplerinde oqıtıw abzallıǵı boyınsha kásipleslerime keń túrde jarıtıp bergim keldi.

Inklyuziv bilimlendiriw sistemasın rawajlandırıwdın maqseti — bilim alıw ushın teń mumkinshilikti támiyinlew hám barlıq balalardıń individual qásiyetlerinen, aldınǵı bilimlendiriw jetiskenliklerinen, tili, mádeniyatı, ata-analardıń social hám ekonomikalıq

jaǵdayınan qaramastan bilimlendiriwde tabısqa jetiwi ushın zárúr shárt-shárayatlardı jaratıw bolıp tabıladı.

Ayrıqsha bilimlendiriwge mútajligi bolǵan dep qabıl etilgen balalar, olardıń social jaǵdayı, olardıń bilim alıw máselesi házirgi kúnde dúnya kólemindegi eń aktual máselelerinen biri bolıp qalıp atır. Sebebi mashqalanıń tiyisli túrde unamlı sheshiminiń tabılıwı insaniyat keleshegin, perzentlerimizdiń párawan turmıs keshiriwiniń zárúrli faktorlarınan biri bolıp tabıladı.

Usı waqıtta bul jaǵday dúnya jámiyetshiliginiń dıqqat orayında turıp, aldın alıw ilajların tabıw menen bir qatarda, imkanyatı sheklengen bolıp yamasa arttırılǵan balalardı jámiyette, sociallıq ómirde óz ornın tabıwı ushın zárúr bolǵan ilajlar ústinde jumıs alıp barılmaqta. Onıń ushın pútkil dıqqat itibar olarǵa dáslepki jásınada arnawlı jantasıwlar arqalı óz teńlesleri arasında sapalı bilim alıwın támiyinlew máselesi keskin ko'tirilgan. Atap aytqanda Respublikamızda da bul boyınsha izbe-iz jumıs alıp barılmaqta. Burıńǵı sovet dáwirinde fizikalıq hám psixik rıqojlanıwında kemshiligi bolǵan balalar bilimlendiriwine munasábeti, olardı tek arnawlı sharayatlarda, tek ózine uqsáǵanlar arasındǵana bilim alıwı múmkin degen jantasıwdıń aqımıetsiz ekenligi tán alınıp, olardıń ulıwma tárzde sow salamat teńlesleri qatarında bilim alıwı boyınsha ilimiy izertlewler alıp barılmaqta.

Olar ushın qolay hám de sapalı bilim beriwdi támiyinlew, mámleketimizdiń siyasatı dárejesindegi máseleler qatarından orın alǵan

Mayıplıq ayıp emes, perzentińiz mayıp tuwıldıma? Hesh ókinbeń! Siz hám perzentińiz mámleketimiz qorgawında. Respublikamızda házirgi kúnde mayıplıǵı bolǵan Ayırıqsha mútajlikli balalar bilimlendiriwine zamanagóy jantasıw, olardıń bilimlendiriwine Ayırıqsha itibar barǵan sayın kúsheyip barıp atır. Bunı biz mámleketimiz basshısınıń qatar párman hám qararlarında ayqın kórip barıp atırımız.

Ózbekstan Respublikası ministrler Mákemesiniń 2021-jıl 12-oktyabr kúni “Ayırıqsha bilimlendiriw mútajlikleri bolǵan balalarǵa bilim beriwge tiyisli normativlik-huqıqıy hújjetlerdi tastıyıqlaw tuwrısında”ǵı №-638-sanlı qararı. Odan tısqarı 2021-jıl 21-dekabr “Mayıplıǵı bolǵan shaxslardı hár tárepleme qollap-quwatlaw, olardıń bandligiga kómeklesiw hám de social aktivligin jáne de asırıwǵa tiyisli qosımsha ilajlar



tuwrısında”gi PQ-57-sanlı, 2021-jıl 4-oktyabr degi “Balalardı qollap-quwatlaw jámiyetlik fondı iskerligin shólkemlestiriw ilajları tuwrısında” PQ-5255-sanlı Qararları qabıllandı. Bilimlendiriw tarawına kirip kelgen bul jónelisti engiziw nızam tiykarda ámelge asırılıp atır. Bul bolsa respublikamızning bilimlendiriw sistemasın rawajlandırıw dağı aqılğa say hám izbe-iz jol tutıw esaplanadı.

Inklyuziv bilimlendiriw degenimiz ne? Respublikamızda házirgi kúnge shekem ayırıqsha bilimlendiriwge mútaj (gereń, hásiz esitiwshi, aqli zayıp, háreketi sheklengen, kózi azzi , hásiz kóriwshi) balalar ushın arnawlı mektep-internatlar ámelde bolıp olar tek sol mektep-internatlarda bilim alıwı múmkin edi.

Endi Ózbekstanda bilimlendiriw sistemasına zaman talabına juwap beretuğın, jáhán kóleminde eń aktual dep sanalıp kiyatırğan inklyuziv bilimlendiriw 2021-2022-oqıw jılınan engizildi hám soğan qaray barlıq ata-analar ayırıqsha mútajligi bolğan perzentleriniń bilim alıwı ushın ózleri maqul dep tapqan bilimlendiriw orayına beriwge haqılı bolıp tabıladı. Qalalarda hám de rayonlarında jaylasqan ulıwma bilim beriw mekteplerinde inklyuziv bilimlendiriwde engiziw hám Qaraqalpaqstan Respublikası, hám Tashkent qalasında jaylasqan ulıwma bilim beriw mekteplerinde ayırıqsha bilimlendiriwge mútajlikleri bolğan balalar ushın baslangısh tayansh korreksion klassları ashılıp atır.

Inklyuziv bilimlendiriw klasslarında jámi oqıwshılar sanı 30 dan aspağan halda ayırıqsha bilimlendiriw mútajlikleri bolğan oqıwshılar sanı 3 den aspaı kerek. Bul klaslarda ulıwma orta bilim beriw programmaları boyınsha galabalıq tárzde oqıtıp atırğan oqıwshılar menen birge arnawlı (korreksion) programmalar tiykarında oqıtıp atır.

Inklyuziv bilimlendiriw klaslarına tek birdey medicinalıq keselligi bolğan oqıwshılar qabıl etiledi. Mekteplerde inklyuziv bilimlendiriw klassları sanı bir parallel 2-klastan artıq bolmağan halda shólkemlestiriledi.

Inklyuziv bilimlendiriwdiń maqseti - Ayırıqsha bilimlendiriwge mútajlikleri bolğan oqıwshılar ushın mektepte arnawlı qural hám metodlardı qóllaw arqalı arnawlı pedagoglardı qosqan halda tosıqsız maslastırılğan bilimlendiriw ortalıgın jaratıw, sapalı ulıwma orta bilim beriwdi támiyinlewden ibarat.

Inklyuziv bilimlendiriwdiń wazıypaları tómendegilerden ibarat, rawajlanıwdıń túrli múmkinshiliklerine iye bolǵan oqıwshılar ushın hár qanday kemsitiwlerdiń aldın alǵan halda, barlıq balalarǵa teń munasábette bolıwdı támiyinleytuǵın birden-bir maslastırılǵan social ortalıqtı jaratıw;

- jámiyetshilik hám de bilimlendiriw procesiniń barlıq qatnasıwshılarında ayrıqsha bilimlendiriw mútajlikleri bolǵan oqıwshılar máselelerine salıstırǵanda tolerantlıq munasábetin qalıplestiriw;

- bilimlendiriw processinde saw balalar menen bir qatarda ayrıqsha bilimlendiriw mútajlikleri bolǵan balalardıń intellektual jáne social potenciallerin rawajlandırıw;

barlıq oqıwshılar ushın mámleketlik bilimlendiriw standartlarına muwapıq ulıwma orta bilim beriw programmaların ózlestiriw ushın múmkinshilik jaratıw;

- oqıwshılardıń hár tárepleme rawajlanıwı, emotsional-shıdamlılıqlıq tarawı, biliw iskerligin aktivlestiriw, social kónlikpe hám potencialın qalıplestiriw ushın shárt-shárayatlar jaratıw;

- Ayrıqsha bilimlendiriwge mútajlikleri bolǵan balalardı tárbiyalawda ata-analarǵa máslahátler beriw hám de ata-analardı perzentlerine bilimlendiriw-tárbiya beriw, pedagogikalıq texnologiyalar, bilimlendiriw-tárbiya metod hám quralların qollaw barısında bilim darejesin asırıw, olardı psixologiyalıq -pedagogikalıq tárepten qollap-quwatlaw.

Mekteptiń inklyuziv oqıtıw klasları hám baslanǵısh tayansh korreksion klaslardıń birinshi klasına oqıwshılar jeti jasqa tolıq tolǵan jılda qabıl etiledi.

Ayrıqsha bilimlendiriw mútajlikleri bolǵan balalardıń bilimlendiriw alıw huqıqın támiyinlew maqsetinde ulıwma bilim beriw mektepleri ushın belgilengen jas norması eki jılǵa asqan balalardı qabıllawǵa ruxsat etiledi. Yaǵnıy 9 jaslı balanı da 1-klasqa qabıllaw múmkin.

Oqıwshılardı inklyuziv oqıtıw klasları hám baslanǵısh tayansh korreksion klaslarǵa qabıllaw, aymaqlıq xalıq bilimlendiriwi basqarması janında dúzilgen psixologiyalıq-medicinalıq-pedagogikalıq komissiya (keyingi orınlarda-psixologiyalıq-medicinalıq-pedagogikalıq komissiya) juwmaǵına kóre, ata-analar yamasa olardıń ornın basıwshı shaxslar razılıǵı menen ámelge asırıladı.

Psixologiyalıq-medicinalıq-pedagogikalıq komissiya jollanbası oqıwshılardı inklyuziv bilimlendiriw klasları hám baslanǵısh tayansh korreksion klaslarǵa qabıl etiliwine tiykar esaplanadı.

Inklyuziv oqıtıw klass hám baslanǵısh tayansh korreksion klaslarǵa basqada ayaqlardan kelip oqıw qálewın bildirgen oqıwshılar oqıw ushın qabıl etip atırǵan mektep aymaqtıń psixologiyalıq-medicinalıq-pedagogikalıq komissiyası jollaması tiykarında qabıl etiledi.

Oqıwshılardı inklyuziv oqıtıw klaslarına hám baslanǵısh tayansh korreksion klasslarǵa qabıllaw oqıw jılı baslanǵansha hám de oqıw jılı dawamında ámelge asırıladı hám mektep direktorınıń buyırǵı menen rásmiylestiriledi.

Inklyuziv bilimlendiriw klasları hám baslanǵısh tayansh korrekcion klasslarǵa jiberilgen hár bir oqıwshıǵa ata-anaları yamasa olardıń ornın basıwshı shaxslar tárepinen jeke hújjetler rásmiylestiriledi hám mektep administraciyaına usınıs etiledi.

Oqıwshınıń jeke hújjetlerine tómendegi hújjetler boladı:

Ata-anaları yamasa olardıń ornın basıwshı adamnıń arzası;

Psixologiyalıq-medicinalıq-pedagogikalıq komissiya juwmaǵı;

bilim alǵanlıǵı tuwrısındaǵı hújjetler (bilimlendiriw mákemelerinde oqıtıp atırǵan balalar ushın);

oqıw ornınan bilimlendiriwdiń múddeti, oqıw pánlerin ózlestiriwi hám oqıwshıǵa jalǵız tártipte kómek beriw boyınsha ámelge asırılǵan ilajlardıń tolıq analizi sáwlelendirilgen maǵlıwmatnama hám minezleme (bilimlendiriw mákemelerinde oqıtıp atırǵan balalar ushın);

oqıwshınıń jasaw ornındaǵı emlewxana bas vrashı tárepinen qol qoyılǵan, onıń rawajlanıwı tariyxınan tolıq kóshirme.

## ЁШЛАР ТАРБИЯСИ УЧУН МАСЪУЛМИЗ

*Ҳасанова Садоқат Чориевна  
Тошкент шаҳар Яккасарой тумани 172-мактаб психологи*

Ўзбекистон эркин демократик мамлакат сифатида бағрини дунёда кенг очар экан, унинг ҳудудида, фуқароларнинг онгу тафаккурида жаҳондаги кўплаб ижобий янгиликлар билан бирга, ер юзининг у ёхуд бу бурчагида пайдо бўлиб тарқалаётган қатор иллатлар ҳам ёпирилиб киришга муттасил ҳаракат қилмоқда. Ана шундай иллатлар сифатида одам савдоси, гиёҳвандлик, ичкиликбозлик сингари инсонни тубанликка бошловчи жиддий ҳавф-хатарларни кўриш мумкин.

Дунё тарихидан биламизки, миллоддан аввалги даврларда дунёни ларзага келтирган Рим империяси ҳудудида Миср ва бошқа ўлкаларда жангу жадаллар вақтида босиб олинган ҳудудларда яшовчи қишлоқ одамларини қул сифатида бозорларга олиб чиқиб, уларни ҳайвон сингари сотиб юборишган. Мана шундай бечора қулар иштирокида Гладиаторлар жанги ташкил этилиб катта майдонда шавқатсизларча қонли жанглار уюштиришган. Бундай жанглар бой задогонлар томонидан завқ-шавқ билан томоша қилинган. Албатта, инсониятнинг маданий юксалиши натижасида қарашлар ўзгариб, бу шармандали ҳолатларга аллақачон барҳам берилган. Бундан кейин одамнинг қул қилиб сотилиши жиноят ҳисобланиб, амалдаги қонунлар асосида таъқиқланган.

Афсуски, ҳозирги кунда дунёнинг турли бурчакларида яширинча қонунга ҳилоф равишда яширин тўдалар, гуруҳлар, марказлар пайдо бўлиб, улар мана шу машъум савдони маданийлашган шаклда қайта ташкил қилишга ҳаракат қилмоқда. Бу маккор кирдикор эгаларининг қармоқ тўрига кўпроқ ҳали яхши ёмоннинг, дўст-душманнинг фарқига бормайдиган осон йўл билан пул топиш илинжида ёшлар, ҳаттоки, ўспиринлар илиниб қолмоқда. Дунёнинг бир чеккасида озгина меҳнат қилиб катта даромад эвазига эркин ҳаёт кечириш мумкинлиги тўғрисидаги қуруқ чўпчакларни турли мақомларда такрорлайдиган бундай гуруҳлар бизнинг осойишта юртимизга ҳам ўз соясини ташлашга ҳаракат қиляпти. Энг хатарлиси,

бундай кимсаларга шерик булаётган ва уларга ёрдам бераётганлар ҳам оз бўлсада, учраб турибди. Бу кимсалар ҳаётни тушунмаган тажрибаси йўқ ёшларни турли ваъда ва алдовлар билан хорижга олиб кетиб, бошқа бир ғараз ниятли тубан кишиларга сотиб юборишдек жинойатларини содир қилиш ҳоллари ҳам учрамоқда.

Ёшларимиз ҳаётига хавф соладиган иллатлардан яна бири – бу ичкиликбозлик ва гиёҳвандликдир. Афсуски ҳозирги даврда, ҳатто ўсмир ёшлар, аёллар ўртасида ҳам ичкиликбозликка ружу қўяётганлар учраб турибди. Инсон туғилганидан ичувчи, кашанда ёки гиёҳванд бўлиб туғилмайди. Тўйлар, ҳар хил маросимлар, фарзандининг дунёга келиши, туғилган кунлар ёки ошна-оғайниларнинг гап-гаштаклари, битирув оқшомларида спиртли ичимликларнинг ҳаддан ортив ошкора танаввул қилинаётгани, ичкиликбозликни томир отиб кетишига сабаб бўлмоқда. Халқимизда шундай нақл бор “Қуш уясида кўрганини қилади” демак тўйларда, туғилган кун, ўтириш базмларда ота-оналар бир бирига қадах сўзларни айтишиб, “беозоргина” шиша ичидаги оғуни фарзандлари ёнида бемалол ичишаётганини кузатиб турган ўспирин ёшларда қандай таъсир қилиши барчага маълум.

Спиртли ичимликлару, наркотик моддалар қулига айланиб қолган инсон на оиласи учун, на жамият учун фойда келтиради, улар ўзи билиб-билмасдан катта тубанлик сари кетганлигини баъзан сезмай ҳам қолади.

Ҳар қандай жамиятнинг иқтисодий, маданий ва маънавий тараққиётига зарба берувчи иллатлардан яна бири “гиёҳвандлик”. Гиёҳвандлик ҳам ичкиликбозлик сингари инсон саломатлигининг ашаддий кушандасидир. “Гиёҳванд деганлари – наша қорадори кўкнори, героин ва шунга ўхшаш наркотикларни исьтемом қилишга одатланган одам. Бундай одамларни ўз исми билан эмас, балки банги, нашаванд, кўкнори” деб аташади. Наша гиёҳини исьтемом қилувчилар эса “бангилар” деб аталиб, бу эса инсоннинг одамийлик хусусиятларидан маҳрум этади. Бундай дардга мубтало бўлганлар одам ўлдириш, ўғрилиқ, қароқчилик қилишдан ҳам қайтмайди.

Гиёҳвандлик, ичкилик каби иллатларнинг яна бир хавфли томони шундаки, уларнинг қайси турини исьтемом қилишдан қатъи назар, ҳаммаси ҳам наслга ёмон таъсир этади, гиёҳванд аёл ёки эркекнинг фарзандлари ногирон, майиб-мажруҳ,

ақли заиф, жисмонан носоғлом бўлиб туғилади, Инсон маънавиятини, ўзлигини емирувчи бу иллатлар домига тушиб қолган кимсалардан ҳамма ўзини олиб қочади, уларнинг қисмати умидсизлик ва ёлғизликка маҳкум бўлади.

Мамлакатимизда жаҳондаги ривожланган мамлакатлар қатори биринчилардан бўлиб, билиб билмай юқоридаги ҳолатларга тушиб қолган инсонларга беғараз ёрдам бериш, уларни соғлом ҳаётга қайтариш мақсадида Республика реобилизация маркази ташкил қилинганлиги, ушбу иллатларнинг тарқалишини олдини олиш борасида қатор қонун ва қонун олди ҳужжатларни қабул қилинётганлиги бу иллатларга қарши курашаётгани одамни кўнглини тинчлантиради, лекин бу билан чегараланиб қолмасдан барча инсонлар ёшу, кекса бараварига огоҳ ва ҳушёр бўлиб, бу каби салбий иллатларни олдини олишга бараварига ҳамжиҳатлик билан курашишимиз керак. Биз ўқитувчилар ўқувчилар онги ва қалбига бу иллатларни охири яхшиликка олиб келмаслигини, уларни бу иллатларга қарши курашиш, қалбида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, бу каби жирканч иллатларга нафрат туйғуларини қалбида жо қилиб боришимиз лозим. Шундай экан, ёшларимизни Ватанга муҳаббат, катталарга ҳурмат, кичикларга иззатда бўлиш, ҳаёт неъматларидан баҳраманд бўлиб, соғ-саломат ҳаёт кечириш, эзгулик ва яратувчанлик йўлида хизмат қилиб бориш каби олижаноб фазилатларни ўргатиб бормоғимиз барчамизнинг бурчимиз.

## INTERNATIONAL EVALUATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING SPECIFICATIONS OF PROGRAMS AND STANDARDS

*Saidova Mashhura G'ulom qizi,  
Kuchkarova Dilfuza Dilmurod qizi  
students of Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region,  
Scientific advisor: Ablakulova Orzigul Ulug'bek qizi  
teacher of Tashkent Region Chirchik State Pedagogical Institute*

### ANNOTATION

This article is an international assessment of online teaching of foreign languages in our country programs and standards, including IELTS, CEFR, PISA, specifics of international programs and standards such as ICILS, PIRSL, TIMSS and how effective they are in the application process, as well as the quality of education improving the quality and results achieved in international education through the youth of Uzbekistan tried to shed light on.

**Keywords:** International assessment programs and standards, PISA, PIRSL, IELTS, quality and efficiency, GMAT.

### INTRODUCTION

The future of our planet, the well-being of our children, what kind of person they are due to maturity. Our main task is to develop the potential of young people to create the necessary conditions for its manifestation. Foreign of the President of the Republic of Uzbekistan in the Republic of Uzbekistan taking language learning activities to a qualitatively new level Resolution No. PQ-5117 of May 19, 2021 "On Measures to Exit" as well as organizational work to promote the study of foreign languages adopt a decision of the Cabinet of Ministers for the effective implementation of measures done.

### METHODOLOGY

Within the framework of the implementation of the national program through this decision complex system of language teaching, ie harmoniously developed, educated, modern it is safe to say that a system has been created for the formation of a thinking young generation and the further integration of the republic into the world community.



This is the most important thing the decision is great not only for the current younger generation but for all language learners is of great importance in teaching foreign language learners online international evaluation programs and standards also play a very important role. What is this that is, in overcoming the shortcomings and problems in teaching foreign languages online and key and leading to increase efficiency along with its strengths plays a role. International assessment programs and standards are world - renowned assessments systems, they have high melting and efficiency in teaching foreign languages has a special place for identification.

Implemented by the President in the renewing new Uzbekistan to the huge economic growth rates as a result of the ongoing reforms qualified personnel and leading specialists in all fields increasing demand further. This in itself is the interest of our students in the lessons to improve the quality of education and the attention of teachers to comprehensive education requires strengthening. The above requirements are very important for the education system development of education and science, as in most foreign countries advanced to improve the quality of education through assessment and monitoring means that experiences need to be brought into the field.

### **ANALYSIS AND RESULTS**

Participation in international research on education quality assessment National reforming the education system, the content of education, training of teachers and their improvement of professional development programs and by specialists helps to create a new generation of textbooks. This is through international programs the results of the research show the quality of education in the country and its international standards allows you to draw conclusions about the place of the account. International research has a positive impact on the quality of national research in education shows.

National based on high economic efficiency at the level of international standards allows you to create an evaluation system. High by international standards creating a national evaluation system based on economic efficiency. International, involving leading experts from various organizations in Uzbekistan monitoring by our local experts through participation in research the culture of research will be developed, and the assessment of the quality of education will be brought into line with international standards. National

education quality control at the level of quality of control materials used in international research allows you to develop. So what evaluation programs are available? They are:

PISA is an international program for assessing student achievement, PISA (English - Program for International Student Assessment) - in different countries 15 literacy of older students (reading, mathematics, natural sciences) and a program that assesses the ability to apply knowledge in practice. This program is every 3 years times. Originally developed in 1997 and first in 2000 an increase in the price of PISA by 50 points is an annual Gross Domestic Product (GDP) by 1%. The quality of students' knowledge in PISA monitoring is defined in 5 areas. The quality of students' knowledge in PISA monitoring is defined in 5 directions.

PIRLS is an international study that measures the level of reading and comprehension of a text.

TIMSS is an international school that studies the quality of mathematics and exact sciences in school monitoring. ICILS is like an international study on computer and information literacy. There are a number of international programs that improve the quality of education in developed countries It is widely used as a criterion for further development the GMAT (The Graduate Management Admission Test) is in English standardized computerized test, MBA to these business schools when applying to programs or other undergraduate programs in management preparation of candidates for further training in business and management allows you to objectively assess the level. IELTS, TOEFL IBT, GMAT, GRE, SAT International programs such as are also very important in teaching foreign languages online helps to overcome the achievements and shortcomings. Currently from GMAT used by more than 2,500 business schools around the world. Pass the GMAT potential centers are spread all over the world and all year round for applicants is open during. GMAT features include: speech, writing and a general education test that tests mathematical skills. The challenge is the test is submitted in English and therefore requires a high level of knowledge of English does. To test the skills required in GMAT management designed.

However, this does not require special knowledge and narrow specialization areas the peculiarity of the GMAT test is that its results can be used to determine human potential in the process of studying in a business school success can be predicted.

### **CONCLUSION**

Improving the quality of education in the state at this crucial time of acceleration and increase its effectiveness to further strengthen its future and as a text is equal to the drying of the foundation. Program more international reviews the uniqueness and high results obtained after testing is the whole world of this system how important it is for countries to apply it in their education systems indicates that.

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. 2017.22-sentabr
2. "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori.
- 3.WWW.CHISTENKOESCHOOL.RU
4. The GMAT Exam Advantage". The Official GMAT Web Site.
5. "GMAC Statistics". gmac.com. Archived from the original on May 4, 2012.
6. "GMAT™ Accepting Universities & Schools". Graduate Management Admission Council. Retrieved July 19, 2019.
7. "The GMAT Advantage". Archived from the original on July 15, 2013. Retrieved June 6, 2012

## SOG'LOM OILA VA SOG'LOM BOLA TARBIYASI

*Isakova Arofatxon*

*Qoqon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,*

*Nabiyeva Maftunaxon Valijon qizi*

*Qoqon davlat pedagogika instituti, 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sog'lom oila va sog'lom bola tarbiyasiga oid fikrlar va sog'lom oila va sg'lom bola tarbiyasining mazmuni, sog'lom muhitni afzaliklari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'lom oila, sog'lom bola, sog'lom muhit, shaxsiy gigiyena, inson salomatligi.

**Аннотация:** В данной статье описаны мысли о воспитании здоровой семьи и здорового ребенка, смысл воспитания здоровой семьи и здорового ребенка, а также преимущества здоровой окружающей среды.

**Ключевые слова:** здоровая семья, здоровый ребенок, здоровая окружающая среда, личная гигиена, здоровье человека.

**Annotation:** This article describes thoughts about raising a healthy family and a healthy child, the meaning of raising a healthy family and a healthy child, and the benefits of a healthy environment.

**Keywords:** healthy family, healthy child, healthy environment, personal hygiene, human health.

Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan shug'ullanmagan mamlakat inqirozga yuz tutadi. Mamlakat o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklarini ishlab chiqarib, to'xtovsiz ravishda yuksaltirib borishlari lozim.

Hech kimga sir emas, sog'lom onadan sog'lom bola tug'iladi. Avlodlarimiz salomatligini ta'minlash uchun, avvalo ona o'zini asrab avaylamog'i zarur. Ya'ni urf odatlarimizga ko'ra ona chilla saqlamog'i, yosh bo'shangan ona va bolani asrab avaylamog'i va bolani ona suti bilan boqmog'i kerak.

Shaxsiy gigiyena qoidalariga to'liq amal qilish, toza ovqatlanish, jon jismini, turar joyini ozoda tutish salomatlik garovidir. Har bir ayol uchun, qiz bola uchun tibbiy savodxonlik hayotiy ehtiyojdir. Shu ehtiyojni qondirish maqsadida umumtalim maktablari, oliy o'quv yurtlarida tibbiyot asoslari o'quv kurslarini tashkil etish, xotin qizlar uchun maslahatxonalarda maxsus dasturlar asosida tibbiy bilimlar berishni yo'lga qo'yish, shaxsiy gigiyen qoidalari, bo'lajak onalar, homilador ayollar, yosh onalar, o'smir qizlar uchun kichik kichik hajmdagi turli risolalar metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularga yetkazish, matbuot, ommaviy axborot vositalari va turli shakldagi tadbirlardan foydalanish ko'zlangan natijani beradi.

Sog'lom oila va sog'lom bola tarbiyasining mamunini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

| <b>Sog'lom oila tarbiyasi</b>                               | <b>Sog'lom bola tarbiyasi</b>                                            |
|-------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|
| Sog'lom turmush tarzining shakllanganligi                   | Ota-ona bolasiga tarbiyasi orqali o'rnak bo'lishi                        |
| Oila byudjetini to'g'ri taqsimlanganligi                    | Bolani halollik, rostgo'ylikka o'rgatish                                 |
| Oilada tarbiyani yetakchi o'rinda turishi                   | Hamma farzandlarga birdek g'amxo'r, mehribon bo'lish                     |
| Oilada bir biriga bo'lgan ishonch, hurmatni shakllanganligi | Bolani tarbiyalash ota-onaning asosiy maqsad va vazifasi bo'lmog'i zarur |

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish uy-joy sharoitini yaxshilash, oila budjetini to'g'ri taqsimlash, to'g'ri va sifatli ovqatlanish, spirtli ichimliklar, giyohvandlik, chekishni qat'iyan man etish, muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, sanitariya gigiyena qoidalariga rioya qilish, ma'naviy intellektual shaxs bo'lishni talab qiladi. Oilani moddiy imkoniyatlarini yaratish, ota-onalarning ongliligi, ma'naviyati darajasi farzandlarni jismonan soglom, ma'nan boy qilib o'stirishga imkoniyat yaratadi.

Sog'lom muhit- ulg'ayayotgan har bir shaxsda ijobiy sifatlar shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Sog'lom muhitning saqlanishi ko'p omillarga bog'liq. Masalan: oila boshliqlarining o'zari yaxshi munosabati, xonadon qariyalariga hurmat, e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabati, to'g'ri tarbiyalanganligi, ota-onaning bola tarbiyasiga birdek mas'ulligi kabilar shular jumlasidandir.

Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa demak,o'sha oiladagi, o'sha jamiyat bo'g'inidagi sog'lom muhitga putur yetadi. Manfaatlar umumiy bo'lgan ahil oilada yaxshi odat an'analar vujudga keladi.Sog'lom muhit deganda biz nafaqat jismoniy sog'likni ,balki ruhiy, aqliy ,jinsiy, ma'naviy sog'lom muhitni tushunmog'imiz zarur. Inson tug'ilibdiki unga har xil omillar ta'sir ko'rsatib keladi. Bu ta'sirlar bolaga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatadi.Biz to'g'ri deb bilgan tarbiya ham turli hil yo'nalishga ega . Masalan biz bolaga o'ta qattiq e'tibor ko'rsatish yoki uni e'tiborsiz qoldirish ham jiddiy oqibatlarga olib keladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra inson fe'l-atvorining 80% u 5(besh) yoshgacha bo'lgan davrida shakllanib ulguradi ekan.Ayni shu davrda ota-onaning tarbiyadagi e'tibori,oilaviy muhitning sog'lomligi har bir bola kamolotida katta ahamiyatga ega.

Inson salomatligining 10-15% sog'liqni saqlash tashkilotiga 50-55% esa tashqi muhitga bog'liq ekan.

Xulosa qilib, kelajak poydevori bo'lgan bolalarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda sog'lom muhitning quyidagi afzalliklarini keltirib aytish joiz:

- bolaning ruhiy, aqliy, jinsiy, ma'naviy, aqliy kamolatida sog'lom muhit ta'minlanadi;
- bolaning oiladagi tarbiyaviy iqlim meyori normal bo'ladi;
- bolalarda avlodlar salomatligi ta'minlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>
2. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi ( I.Sh.Alqarov, R.Mamatqulova, H.D.Norqulov) 68-83-bet
3. **Feruza Aminovna Turakulova. Humanity pedagogy and technology of holistic approach.** Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915Vol. 10, Issue 12, Dec. (2022)

## О КРЕАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

*Дилфуза Саминовна Мирзалиева  
преподаватель кафедры языков Кокандского государственного  
педагогического института*

*Аннотация. В этой статье рассматривается вопрос креативного (творческого) подхода к обучению, соблюдая его нравственные стороны, которые определяют мастерство педагога.*

*Ключевые слова: креативная деятельность, творческий подход, способность, профессиональное обучение, наблюдательность.*

*Abstract. This article discusses the issue of a creative (creative) approach to learning, observing its moral aspects, which determine the skill of a teacher*

*Keywords: creative activity, creative approach, ability, vocational training, observation*

Современное образование требует от преподавателя вложить все усилия для обучения своему предмету, а также подходить к деятельности креативно, т.е. творчески.

Способность к педагогической деятельности можно обнаружить в том, как быстро идет профессиональное обучение, насколько глубоко и прочно будущий педагог овладевает приёмами и способами педагогической деятельности. По-видимому, проверку своих способностей следует начать с коммуникативности, т.е. способности общаться. Такой способностью овладевает каждый человек, но выражена она по-разному. Для учителей низкий уровень коммуникативности разрушает среду профессиональной деятельности, создает барьеры, препятствующие взаимодействию со школьниками. Итак, следует проанализировать, испытываете ли вы желание находиться в обществе, среди других людей (т.е. есть ли расположенность к людям).

Общительность включает в себя не только желание и потребность в общении, но и способность испытывать удовлетворение от процесса коммуникации. Доброжелательность и ощущение удовлетворения от работы с детьми, с людьми



вообще сохраняет работоспособность, создает подпитку творческому самочувствию. Общительности помогают развитые перцептивные способности, среди них - профессиональная зоркость, наблюдательность. Как может учитель принять целесообразное решение, если он не умеет быстро и верно фиксировать внутреннее состояние учащихся по мельчайшим внешним проявлениям, отличать подлинную внимательность от симуляции внимания, понимать мотивы поступков. Способность наблюдать - сложное качество. Оно проявляется не только в умении видеть, слышать, но и в наличии интереса к тому, на что направлено ваше внимание, а также в интенсивной работе ума по переработке информации. Как развивается наблюдательность? Мы видим то, что хотим видеть. Отсюда начало в искренней заинтересованности. Наблюдение – это и анализ, - отсюда постоянные вопросы к себе, для осмысления воспринимаемых явлений. Быть мастером – значит предугадывать ход педагогического процесса, возможные осложнения, как бы овладеть педагогическим чутьём. Для педагога очень важно, анализировать, предугадывать, опираясь не только на логические построения, но и на эмпатию - способность педагога идентифицировать, (условно отождествлять) себя с учеником, встать на его позицию, разделять его интересы и заботы, радости и огорчения.

*Динамизм* – это способность к убеждению и внушению, это внутренняя энергия гибкости и инициатива в разнообразии воздействий.

Яркими иллюстрациями владения этими способностями является деятельность педагогов-новаторов. На уроках они энергичны, их позиция, инициатива, их слова способны проникать в глубины сознания и подсознания. Динамизм связан с эмоциональной устойчивостью, т.е. сферой влияния. Поле притяжения хорошего педагога, как правило, распространяется, прежде всего, на себя.

*Самообладание*- способность к саморегуляции создаёт эмоциональную устойчивость личности, возможность владеть ситуацией и собой в различных экстремальных ситуациях.

*Оптимистическое прогнозирование* - профессионально-педагогическая способность, которая связана в комплексе с направленностью личности учителя, опирающейся на положительное становление личности каждого человека.

Педагогическая деятельность включает следующие компоненты: цель, средства, объект, субъект, отличающиеся своей спецификой. Прежде всего, специфична цель педагогической деятельности.

Цель работы учителя определяется обществом, т.е. учителя не свободны в выборе конечных результатов своего труда, его действия должны быть направлены на всестороннее развитие личности школьников. Педагогическая деятельность способствует осуществлению социальной преемственности поколений, включая систему социальной связи, реализации природных возможностей человека в овладении общественным опытом. Осознавая это, педагоги-мастера всегда выстраивали логику своей деятельности с опорой на потребности детей. Объект педагогического труда – человек. Тончайшие сферы духовной жизни формирующейся личности – ум, чувства, воля, убежденность, самосознание.

По мнению В. А. Сухомлинского, специфика объекта педагогической деятельности заключается в следующем.

1. Человек не мертвый материал природы, а активное существо с индивидуальными качествами, с собственным отношением и пониманием происходящих событий. Это соучастник педагогического процесса, обладающий своими целями, мотивами, личным поведением. Таким образом, объект педагогической деятельности одновременно является и субъектом ее.

2. Учитель имеет дело с постоянно меняющимся растущим человеком, к которому не применимы шаблонные подходы и стереотипные действия. Это требует постоянного творческого поиска.

3. Одновременно с педагогами на ребенка, подростка, юношу воздействует вся окружающая его жизнь, часто стихийно, в различных направлениях. Поэтому педагогический труд предполагает корректировку всех воздействий, в том числе исходящих от самого воспитанника, т.е. организацию воспитания и перевоспитания, а также самовоспитания личности.

Согласно требованиям Национальной Программы по подготовке кадров, современная педагогика направлена на демократизацию отношений в школе и стремится к активизации школьников, к тому, чтобы сделать ребенка соратником, соучастником педагогического процесса. Субъект тот, кто воздействует на воспитанника: педагог, родители, коллектив. Основной инструмент воздействия на воспитанника - личность учителя, его знания и умения. Иногда учащиеся не принимают личность учителя, критически относятся к его знаниям, поступкам, противятся его воздействию. Поэтому подлинным воспитателем становится тот, кто оказывает позитивное, и нравственное влияние на личность, а это возможно лишь при условии постоянного, нравственного самосовершенствования педагога.

### ЛИТЕРАТУРА

1. Гармонично развитое поколение- основа прогресса Узбекистана- Т., 1997.
2. Узбекистан: свой путь обновления и прогресса. Т., 1997.
3. Зазюн И.А. Основы педагогического мастерства. М.,1989.

### РАБОТА СО СВЯЗНЫМ ТЕКСТОМ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

*Дилфуза Саминовна Мирзалиева  
преподаватель кафедры языков Кокандского  
государственного педагогического института.*

#### **Аннотация:**

*В данной статье рассматривается вопрос работы со связным текстом в процессе обучения русскому языку, которые определяют мастерство педагога.*

**Ключевые слова:** *связной текст, деятельность, творческий подход, способность, профессиональное обучение, наблюдательность.*

**Abstract:**

This article deals with the issue of working with connected text in the process of teaching the Russian language, which determine the skill of the teacher.

**Key words:** *coherent text, activity, creativity, ability, vocational training, observation*

В условиях двуязычия основной целью обучения русскому языку является коммуникативная направленность учебного процесса. Основная цель занятий по русскому языку – научить студентов грамотно, связно, последовательно излагать как свои мысли. Для того, чтобы эту цель осуществить наиболее успешно, развитием связной речи надо заниматься постоянно, в процессе изучения каждой темы. Все грамматические темы должны быть тщательно отобраны для тренировочного материала. Актуальность вопроса отбора тренировочного материала для методики обучения русскому языку не может быть переоценена, поскольку это прежде всего вопрос уточнения объёма знаний по данному предмету.

Чтение как вид речевой деятельности способствует расширению лексики и служит средством получения дополнительной информации. Благодаря использованию связных текстов как одного из видов тренировочного материала в процессе обучения русскому языку, создаются условия для интенсивного развития навыков восприятия русской речи. Широкое и умелое применение связных текстов позволяет максимально приблизить процесс обучения русскому языку к естественному способу овладения языком. Практика показала, что для нерусских студентов приемлемы тексты об отдельных фактах, с небольшим количеством действующих лиц, писание особого события, но интересного, развивающегося динамично. Текстовый материал должен браться с ясно выраженной идеей и сюжетной законностью. Синтаксис подобранных текстов должен быть прост и не вызывать никаких затруднений.

Тексты должны способствовать не только расширению и активизации специальной лексики, но и раскрывать многие социальные, морально-этнические, эстетические проблемы, давать почувствовать силу художественных образов, богатство выразительных средств языка. Своеобразие искусствоведческой лексики

требует умений работать как с научно-популярной, так и с художественной литературой. В связи с этим тексты должны быть подобраны так, чтобы при обучении можно было акцентировать внимание на усвоение различных стилей речи: публицической, очерковой, мемуарной, научной, эпистолярной, разговорной и т.д.

В процессе изучения студентами русского языка текст играет такую же важную роль, как и изучение грамматики, системы языка. Текст, в отличие от предложения, словосочетания, отдельно брошенной фразы, представляет собой конечный, целевой продукт речевой деятельности, способность к созданию которого становится для студента показателем того, насколько хорошо он овладел изучаемым языком. При чтении текста студент явно представляет себе все. Чтобы адекватно воспринять всю глубину содержания того или иного текста, необходимо помнить, что он является неотъемлемой частью коммуникативной ситуации в целом. Нужно иметь в виду изначальные речевые установки участников общения и обстоятельства, в которых оно разворачивается. Обучая студентов, преподаватель должен обращать их внимание на такие характеристики текста, как его цель, тип, вид и жанр, отражающие основы функционирования текста. Выбор различных видов работы с текстом определяется тем, что текст может выступать как источник информации и как материал для обучения слушанию, чтению, говорению и письму. Также текстовый материал может выступать как образец речевых моделей и конструкций (устных и письменных) и может использоваться для ввода и анализа лексико- грамматического материала. Текст, вызывающий эмоциональный отклик, способствует также повышению учебной мотивации.

Работа со связным текстом даёт возможность преподавателю формировать у студентов навыки устной и письменной монологической и диалогической речи, навыки ведения дискуссии, создает условия для обучения речевой этикету. В качестве текстов в пособиях использованы материалы публицистического характера из различных источников, включающих газеты, научно-популярные издания и интернет-источники. Предтекстовые упражнения направлены на подготовку обучаемых к восприятию текстовой информации. Они способствуют

актуализации в сознании учащихся определенного круга лексики, настраивают их на речевое взаимодействие при обсуждении заглавия или прогнозировании текстового содержания. Предтекстовые упражнения заключаются в чтении и разъяснении трудных для понимания фрагментов, анализе форм и слов, кроме того преподаватель предлагает обучаемым вопросы, направленные на проверку верного восприятия текстовой информации. Заключительный этап подводит к созданию собственных текстов – устных и письменных, в которых будут осознанно применены усвоенные речевые образцы. В содержании текстов отражены актуальные проблемы современного мира и содержится описание явлений и процессов, происходящих в обществе. Содержание представленного текстового материала предполагает неоднозначность оценки, что способствует возникновению дискуссий в учебных группах, мотивирует стремление выразить свою точку зрения по-русски, чтобы сделать её доступной для других собеседников.

Таким образом, работа над текстом является подготовка студентов к активному восприятию материала по дисциплинам. В определенные сроки овладеть научным стилем речи и пополнить лексический запас, помочь выработать у студентов навыки восприятия научной речи на слух, а затем и умение воспроизводить её не только в устной, но и в письменной форме. Практика показывает, что чем ближе преподавание русского языка к основной задаче студентов – чтению и пониманию литературы по специальности, тем успешнее идёт обучение. Повышается интерес к изучению языка, пробуждается творческая инициатива. Студент должен почувствовать, что каждый этап обучения обогащает его речь, расширяя его знания и облегчая овладению специальностью. Должен понять, что каждый этап обучения способствует изложению своей точки зрения.

### **Использованная литература:**

1. Дейкина А.Д., Новожилова Ф.А. Тексты-миниатюры на уроках русского языка: Пособие для учителя. – 2-е изд., – М.: Флинта, Наука 2000. – 144с.
2. Максимова В.И. Работа со связным текстом на уроках русского языка в 5-6 классах как средство формирования коммуникативных компетенций //

Гуманитарные научные исследования. 2018. № 2 Электронный ресурс].URL: <https://human.snauka.ru/2018/02/24838>  
(дата обращения:25.12.2022).

3. Ibragimovna, Tuhtasinova Munira. "The Importance of International Assessment Programs in Enhancement, Assessment and Development of Reading Literacy of Primary Students." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.11 (2022): 133-136.

4. Feruza Aminovna Turakulova. Humanity pedagogy and technology of holistic approach. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) Vol. 10, Issue 12, Dec. (2022), 1699-170

## ОСОБЕННОСТИ ЭСТЕТИЧЕСКИХ ЧУВСТВ СТУДЕНТОВ РУССКОЙ ФИЛОЛОГИИ

*Толиб Ганиевич Мирзалиев  
преподаватель кафедры языков Кокандского  
государственного педагогического института*

### ***Аннотация.***

*В этой статье рассматривается вопрос об особенностях эстетических чувств студентов, а также анализируется вопрос формирования интеллектуальных, эмоциональных, деловых, коммуникативных способностей студентов.*

***Ключевые слова:*** эстетические чувства, деятельность, творческий подход, способность, профессиональное обучение.



**Abstract.** *This article discusses the issue of the peculiarities of students' aesthetic feelings, and also analyzes the issue of the formation of students' intellectual, emotional, business, and communicative abilities.*

**Keywords:** *aesthetic feelings, activity, creativity, ability, vocational training*

В настоящее время отечественная педагогика ставит цель- воспитание и обучение, всестороннее развитие гармоничной личности. Но поставленная цель будет достигнута, если в процессе воспитания одновременно и целенаправленно будут преподаваться все составные части воспитания, а именно: физические, нравственные, умственное, трудовое, эстетическое.

Перед высшей школой ставится задача подготовки ответственного гражданина, способного самостоятельно оценивать происходящее и строить свою деятельность в соответствии с интересами окружающих его людей. Решение этой задачи связано с формированием устойчивых эстетическо-нравственных свойств личности учащегося.

Основной функцией является формирование интеллектуальных, эмоциональных, деловых, коммуникативных способностей студенты к активно-деятельностному взаимодействию с окружающим миром. Решение главных задач обучения должно обеспечивать формирование личностного отношения к окружающим, овладение этическими, эстетическими и нравственными нормами. Доминирующей функцией становится мышление. Благодаря этому интенсивно развиваются, перестраиваются сами мыслительные процессы, с другой стороны, от интеллекта зависит развитие остальных психических функций.

В процессе обучения у студентов формируются научные понятия. Оказывая крайне важное влияние на становление словесно – логического мышления, они, тем не менее, не возникают на пустом месте. Для того, чтобы их усвоить, студенты должны иметь достаточно развитые житейские понятия – представления, приобретённые в подростковом возрасте и продолжающие спонтанно появляться вне стен на основе собственного опыта каждого студента. Житейские понятия – это нижний понятийный уровень, научные – верхний, высший, отличающийся

осознанностью и произвольностью. По выражению Л.С. Выготского, «житейские понятия прорастают вверх через научные, научные понятия прорастают вниз через житейские». Овладевая логикой науки, студенты устанавливает соотношения между понятиями, осознаёт содержание обобщённых понятий, а это содержание, связываясь с житейским опытом студента, как бы вбирает его в себя. Научное понятие в процессе усвоения проходит путь от обобщения к конкретным объектам.

Овладение в процессе обучения системой научных понятий даёт возможность говорить о развитии у студента основ понятийного, или теоретического, мышления. Это мышление позволяет студента решать задачи, ориентируясь не на внешние, наглядные признаки и связи объектов, а на внутренние, существенные свойства и отношения. Развитие теоретического мышления зависит от типа обучения.

Наряду с усвоением содержания системы научных понятий студентов овладевает способами организации нового для него вида труда – учебного. В этот момент появляется качественно новое свойство человеческой психики – рефлексия. Она проявляется в возможности выделять особенности своих действий и делать их предметом анализа, как говорил В.А. Сухомлинский: «Преподавание становится трудом только при условии, когда в нём есть важнейшие признаки всякого труда – цель, усилия, результаты». И тогда результатом учебного труда является научное мышление.

Развитие других психических функций зависит от развития мышления. Развивающийся интеллект создаёт возможность устанавливать связи между элементами воспринимаемого. Несмотря на то, что в этот период большое значение имеет наглядно – образное мышление, непосредственно воспринимаемое студентами уже не мешает ему рассуждать и делать правильные выводы. И теперь интеллектуальные операции позволяют студента судить о вещах без жёсткой зависимости от наглядной ситуации. Память развивается в двух направлениях – произвольности и осмысленности. Студенты способны целенаправленно, произвольно запоминать материал, им не интересный. Студенты обладают хорошей механической памятью. Они склонны дословно воспроизводить то, что

запомнили. Совершенствование смысловой памяти в этом возрасте даёт возможность освоить достаточно широкий круг мнемонических приёмов, т.е. рациональных способов запоминания. Когда студенты осмысливает учебный материал, понимает его, он его одновременно и запоминает.

Таким образом, интеллектуальная работа является в то же время мнемонической деятельностью, мышление и смысловая память оказываются неразрывно связанными. В среднем возрасте развивается внимание. Без достаточной сформированности этой психической функции процесс обучения невозможен.

### Список литературы:

1. Абдунабиев А.Г., Мандральская Н.В., Юсупова Г.В., учебно-методическое пособие «Этническое формирование Узбекского народа», Узбекское агентство почты и телекоммуникаций, Ташкент - 2000.

2. Жирков Е.П. Как возродить национальную школу. Статьи и материалы. - М: Просвещение, 2002.

## СИСТЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ СТУДЕНТОВ

*Толиб Ганиевич Мирзалиев  
преподаватель кафедры языков Кокандского  
государственного педагогического института*

### *Аннотация.*

*В данной статье рассматривается вопрос профессиональной ориентации студентов, анализируется роль в укреплении профессиональной направленности студентов.*

**Ключевые слова:** система, профессиональная ориентация, деятельность, способность, профессиональное обучение, наблюдательность.

**Abstract.** This article discusses the issue of professional orientation of students, analyzes the role in strengthening the professional orientation of students.

**Key words:** system, professional orientation, activity, ability, vocational training, observation

В условиях ускорения научно-технического прогресса, особую значимость приобретает подготовка подрастающего поколения к сознательному труду в соответствии со способностями. Подготовка к выбору профессии является неотъемлемой частью всестороннего и гармонического развития личности.

Профориентация - научно обоснованная система подготовки молодежи к свободному и самостоятельному выбору профессии. Каждая профессия — это разновидность общественно необходимой, постоянно выполняемой деятельности на основе приобретенных знаний, навыков, умений, личных качеств. Формировать профессиональную направленность у студентов — это значит укреплять у них положительное отношение к будущей профессии, интерес, склонности и способности к ней, стремление совершенствовать свою квалификацию после окончания вуза, удовлетворять свои основные материальные и духовные потребности, постоянно занимаясь избранным видом профессионального труда, развивать идеалы, взгляды, убеждения, престиж профессии в собственных глазах будущего специалиста.

Большую роль в укреплении профессиональной направленности студентов играет их участие в научной работе. Как отмечалось, обязательным условием подготовки специалистов высокого класса становится участие питомцев вузов в студенческих научных обществах, конструкторских бюро, выполнение ими прикладных дипломных проектов. Известно, не каждый выпускник вуза станет ученым, но навыки исследовательской работы должен приобрести каждый. Перед педагогами ставится новая задача: подготовить новое поколение к жизни в

современных информационных условиях. Сегодня мы должны выпустить из своих стен гармонично развитую личность, которая не потеряется в информационном обществе. В стратегии модернизации образования Республики Узбекистан говорится о необходимости изменения методов и технологий обучения на всех ступенях, повышения веса тех из них, которые формируют практические навыки анализа информации, самообучения, стимулируют самостоятельную работу студентов, формируют опыт ответственного выбора и ответственной деятельности. «Урок – это зеркало общей и педагогической культуры учителя, мерило его интеллектуального богатства, показатель его кругозора и эрудиции», - утверждал В.А. Сухомлинский. Эти слова не потеряли своей значимости.

Осуществляемая в стране реформа общеобразовательной и профессиональной школы основывается на творческом развитии личности. Чтобы студентам было интересно учиться, необходимо осваивать и повышать свою информационную культуру, идти в ногу со временем. Преподаватель должен сочетать в своей педагогической деятельности традиционные и новые современные методы обучения. Современный урок – это органический синтез, который помогает преподавателю управлять потоком ассоциаций, будить воображение студентов, стимулировать их творческую активность. Современное занятие уже невозможно без использования информационных компьютерных технологий. Компьютер, конечно, не может на занятии заменить живое слово преподавателя, творческого общения, но может стать хорошим помощником. Сегодня современному молодому специалисту для успешной профессиональной деятельности в новом информационном обществе необходимы профессиональные и личностные качества. Стандарт высшего профессионального образования требует учёта как умение профессионально подходить к решению технических задач и проблем, использование современных информационных технологий при разработке новых образцов техники, владение графической и компьютерной культурой, умение выявлять приоритетные решения задач с учётом нравственных аспектов деятельности, способности к творческому профессиональному саморазвитию.

Система профориентации на современном этапе ее развития призвана обеспечить координацию действий государственных органов, школы, семьи и др. Государственной образовательной профессиональной специфики при изучении русского языка, его нацеленности на реализацию задач будущей профессиональной деятельности высококвалифицированных специалистов в результате чего особую актуальность приобретает профессионально-ориентированный подход к обучению русского языка в вузах, который предусматривает формирование у студентов способности общения в конкретных, профессиональных, деловых, научных сферах и ситуациях с учетом особенностей профессионального мышления, то есть – профессионально-ориентированное обучение.

Как известно, под профессионально-ориентированным обучением понимают обучение, основанное на учете потребностей студентов в изучении русского языка, диктуемых особенностями будущей профессии или специальности, которые, в свою очередь, требуют его изучения. «Профессионально-ориентированное обучение» употребляется для обозначения процесса преподавания иностранного языка в неязыковом вузе, ориентированного на чтение литературы по специальности, изучение профессиональной лексики и терминологии, а в последнее время и на общение в сфере профессиональной деятельности. Подготовка специалистов в вузах заключается в формировании таких коммуникативных умений, которые позволили бы осуществлять профессиональные контакты на русском языке в различных сферах и ситуациях.

Таким образом, профессионально-ориентированное обучение русскому языку в вузах требует нового подхода к отбору содержания обучаемого материала. Он должен быть ориентирован на последние достижения в той или иной сфере человеческой деятельности, своевременно отражать научные достижения в сферах, непосредственно задевающих профессиональные интересы обучающихся, предоставлять им возможность для профессионального роста. Отбор содержания способствует разностороннему и целостному формированию личности студента, подготовке его к будущей профессиональной деятельности. Наблюдения занятий по практикуму русского языка позволяют заметить, что студенты с интересом

участвуют в проводимых на практических занятиях по русскому языку диалогах, интервью, «круглых столах», «пресс-конференциях» и «деловых встречах». Им интересны и другие виды работы, связанные с их будущей деятельностью. С целью активизации студентов, приоритет в обучении лексике должен быть направлен на специальность будущего выпускника. Русский язык может стать не только объектом усвоения, но и средством развития профессиональных умений. Это предполагает расширение понятия профессиональная ориентированность обучения русскому языку.

### Список литературы:

- 1.Пряжников Н. С. Методы активизации профессионального и личностного самоопределения. — М.: МПСИ, 2002.— 400 с.
2. Чистякова С. Н. Педагогическое сопровождение самоопределения школьников. — М.: Академия: Московские учебники, 2010. -128 с.
3. **Turakulova Feruza Aminovna. Qualified practice and media education.** Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) Vol. 10, Issue 12, Dec. (2022), 1693 -1698

## BOLA NUTQINI RIVOJLANTIRISH

*Eshonova Tursunoy Baxriddinovna*  
*Navoiy viloyati zarafshon shahar 8 DMTT tarbiyachisi*

Ushbu maqolada Bola nutqini rivojlantirish haqida yoritilgan

**Kalit so'zlar:** intellektual faoliyat: o'quv, axborot, o'yin, modellashtirish, dizayn va tahliliy funktsiyalar

This article describes the use of innovative educational technologies in teaching the culture of Uzbekistan and English-speaking countries



**Key words:** intellectual activity educational, informational, gaming, modeling, design and analytical functions

### Kirish

Bolaning nutqini rivojlantirish zamonaviy maktabgacha ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Nutq – “muayyan qonun-qoidalar asosida yaratilgan til tuzilmalari orqali odamlar o‘rtasidagi muloqotning tarixan shakllangan shakli. Nutq jarayoni, bir tomondan, til (nutq) vositalari bilan fikrni shakllantirish va shakllantirishni, ikkinchi tomondan, til tuzilmalarini idrok etish va ularni tushunishni o'z ichiga oladi. I. E. Axmedova va A. Y. Botirovlar ishlarida berilgan ushbu ta'rifga asoslanib, nutq psixolingvistik jarayon, inson tilining mavjudligi shaklidir.

Bunga ishonish qiyin, lekin haqiqat saqlanib qolmoqda: nutqning muloqotdagi roli tabiiy ravishda ortib borishi bilan uning ahamiyati jamiyatning barcha vakillari tomonidan tan olinmaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning katta qismi professional nutq terapiyasi yordamiga muhtoj.

Yangi avlod bolalarining asosiy xususiyatlarining o'zgarishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatdi. Shu jumladan, ota-onalarning bolalarining bolalar bog'chasida, keyin maktabda erishgan yutuqlarida muvaffaqiyatga erishish uchun aniq ifodalangan yo'nalish - ular bolani o'qish, hisoblash va yozishni o'rgatishni ustuvor vazifa deb bilishadi.

Nutqni rivojlantirish ikkinchi o'rinni egallaydi. Ko'pincha zamonaviy o'qituvchilar K. D. Ushinskiyning so'zning tovush-bo'g'in tuzilishini tushunadiganlargina ongli ravishda o'qish va yozishlari mumkinligi haqidagi so'zlarini dalil sifatida keltiradilar. Va ular o'qish va yozishni o'rganish qiyin bo'lgan bolalar bilan pedagogik ishning asosiy vazifasi, ya'ni ularning psixologik tayyorgarligini shakllantirish va umumiy rivojlanish va aqliy qobiliyatlarning to'g'ri darajasini ko'rib chiqadilar .

Mos ravishda, maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda - PEO) mutaxassislari o'z oldilariga maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini to'liq rivojlantirish uchun qulay psixologik-pedagogik sharoitlar yaratish vazifasini qo'yadilar. Ushbu sohadagi samarali yo'nalish o'quvchilar uchun ma'lum bir tashkiliy bosqichlar va o'zaro bog'liq jihatlarni nazarda tutadigan yagona nutq rejimini tashkil etishdir.

Muammolarni hal qilishning sharti mutaxassislarning kelishilgan harakatlari, ularning o'zaro ta'siri, bolalarning uyg'un tili va nutqini rivojlantirishga shubhasiz qiziqishidir.

Tadqiqotimiz mavzusi O'zbekiston va inglizabon mamlakatlar ma'daniyatini o'rgatishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish

Tadqiqot ob'ekti O'zbekiston va inglizabon mamlakatlar ma'daniyatini o'rgatishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va bunda yuzaga keladigan muommolarni yoritish

Tadqiqot usullari:

- nazariy va analitik (uslubiy adabiyotlar tahlili);
- umumiy didaktik (o'quv va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish).

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Til - bu madaniyat, ya'ni. Madaniy bilimlar til o'rganish jarayonida autentik til materiallari orqali uzatiladi.

Har bir dars bitta diqqat markazida bo'lishi kerak, talabalar bitta darsda o'quv mazmunining alohida birligini o'rganishlari kerak. Grammatika, lug'at kabi, qat'iy mantiqiy ketma-ketlikda o'lchangan qismlarda o'qitiladi: har bir keyingi dars allaqachon mavjud zaxirani oshirishi kerak.

O'quv jarayonida nutq faoliyatining barcha to'rt turi bir vaqtning o'zida ishtirok etishi kerak. O'quv materiali uzoq dialoglarda, so'ngra savol-javob ko'rinishidagi mashqlarda taqdim etiladi. Qoida tariqasida, ushbu usulni o'rganish uchun taklif qilingan matnlar o'rganilayotgan til mamlakati madaniyati haqida yaxshi tasavvur beradi. Biroq, o'qituvchining roli o'quvchilarning bir-birlari bilan bevosita muloqot qilish holatlarida o'rganilayotgan materialdan ijodiy foydalanish imkoniyatini cheklaydi. [14, 28-bet]

To'liq jismoniy reaksiya usuli. Ushbu usul ikkita asosiy shartga asoslanadi. Birinchidan, chet el og'zaki nutqini idrok etish ko'nikmalari yosh bolalarda bo'lgani kabi barcha boshqa ko'nikmalarning rivojlanishidan oldin bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, dars tili odatda vaziyatni "bu erda va hozir" tasvirlaydigan tushunchalar va o'rganilayotgan tilda oson tushuntiriladigan misollar bilan chegaralanadi. O'quvchilar o'zlarini bunga tayyor ekanliklarini his qilmaguncha hech qachon gapirishga majburlanmasliklari kerak.

Usul o'qish va yozishni o'rgatish uchun mo'ljallanmagan va bu usul bilan o'rgatishda erishilgan til kundalik muloqotning tabiiy tili emas. Ta'limning maqsadi talabalarning chet tilini o'rtacha bilish darajasiga erishishdir. O'qituvchi hech qachon o'quvchilarning e'tiborini nutq xatolariga qaratmaydi, chunki bu nutq ko'nikmalarining rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin, deb hisoblashadi. Erta mahsuldorlik davri talabalarning passiv so'z boyligi 500 ga yaqin lug'at birligiga etgan paytdan boshlanadi.

Pedagogika nuqtai nazaridan ta'limga innovatsion yondashuvning asosiy tarkibiy qismlari faoliyat yondashuvidir. Ushbu yondashuv shaxsning faoliyati va rivojlanishi, shuningdek, o'quvchilarning shaxslararo munosabatlari ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatning maqsadlari, mazmuni va vazifalari bilan bog'liq degan g'oyaga asoslanadi. Faol o'rganish. Talaba real hayotda muammoli vaziyatlarni hal qilish zarurati bilan tobora ko'proq duch kelayotganiga asoslanadi. Bu usul shaxsning rivojlanishini, o'zini o'zi tashkil etishini, o'zini o'zi rivojlantirishni tashkil etishga qaratilgan. Asosiy tamoyil - o'quvchi o'z bilimini yaratuvchisidir. Chet tilini o'qitishning hozirgi bosqichida, albatta, faol o'rganish ustuvor vazifa hisoblanadi. Zero, o'quv-idrok faoliyatini samarali boshqarish faqat o'quvchilarning faol aqliy faoliyatiga asoslangan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Maktabda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda chet tilini o'qitish kognitiv, ijobiy, hissiy, motivatsion, optimistik, texnologik kabi bir qator psixologik yondashuvlarni joriy qilishni o'z ichiga oladi. Bu yondashuvlarning barchasi talabaning shaxsiyatiga qaratilgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Nutqni rivojlantirishga matn bilan ishlashni to'g'ri tashkil etish yordam beradi: uni to'liq idrok etish va tushunish, asosli talqin qilish, uni sharhlash, ish haqida o'z fikrini bildirish va uni ifoda eta olish. 70]. Bolalarning nutq faolligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, bola gapirishi kerak bo'lgan muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali yordam beradi. Siz bolani kattalar va o'zaro muloqot qilish uchun "qo'zg'atishingiz" kerak, uning savollarini javobsiz qoldirmang, u o'qigan va ko'rganlari haqida gapiring va hokazo. Bolalarda turli xil sintaktik murakkablikdagi jummalarni qurish qobiliyatini rivojlantiring.

Bolalarni san'at bilan tanishtirish - san'at asarlari bilan tanishish - izchil nutqni rivojlantirishning samarali vositasidir. “O‘qish” va rassom yaratgan obrazning o‘ziga xos talqini “badiiy tarbiyaning o‘ziga xos vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning atrofdagi dunyo haqidagi g'oyalarini boyitadi, so'z boyligini, nutq e'tiborini, umuman nutq madaniyatini rivojlantiradi" [2, p. 99]. Badiiy adabiyot o‘qish jarayonida bolalarning so‘z boyligini doimiy ravishda rivojlantirish va boyitish [1], bolalarga ona tili qoidalarini o‘zlashtirishga yordam berish zarur. umuman olganda ularning nutq madaniyati” [2, b. 99]. Badiiy adabiyot o‘qish jarayonida bolalarning so‘z boyligini doimiy ravishda rivojlantirish va boyitish [1], bolalarga ona tili qoidalarini o‘zlashtirishga yordam berish zarur. umuman olganda ularning nutq madaniyati” [2, b. 99]. Badiiy adabiyot o‘qish jarayonida bolalarning so‘z boyligini doimiy ravishda rivojlantirish va boyitish [1], bolalarga ona tili qoidalarini o‘zlashtirishga yordam berish zarur. Maktabgacha yoshdagi bola unga yaqin va ahamiyatli odamlar - unga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan oila qurshovida tarbiyalanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish muammosini hal qilishda uning oilasi bilan yaqin aloqada bo'lish, ota-onalar va tarbiyachilarning natija uchun mas'uliyatni tushunishlari nutq buzilishlarining oldini olish va bartaraf etish bo'yicha faoliyatni samarali qilishga yordam beradi.

### **Adabiyot:**

1. Bekmuratova UB “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan rivojlanish” mavzusida murojaat. Toshkent-2012 Otaboeva,
2. M. R. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan olib kirish va uni olib tashlash / M. R. Otabo. — Matn: bevosita, elektron // Yosh olim. - 2017. - No 4,2 (138,2). - 36–37-betlar. —
3. URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (kirish sanasi: 27.04.2020) NQ Xatamova, M.N.mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
4. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005 y O'.Hoshimov, I.Yoqubov. “INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI” (o'quv qo'llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003.

## IJTIMOIIY MUHIT VA TA'LIM JARAYONIDA HULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHLATLARI

*Aliqulova Husnidaxon Ma'rufovna*  
*Qo'qon universiteti "Iqtisodiyot va ta'lim" fakulteli*  
*sirtqi ta'lim shakli "Psixologiya:amaliy psixologiya" yo'nalishi 2-talabasi*

Ommaviy maktab o'quvchilari orasida psixopat bolalar deb atatadigan bolalar uchrab turadi. Psixopatiya yo potologik irsiyat yo'li bilan yoki bolaning bachadonda bo'lgan (embrional) davrida, yohud chaqaloqlik vaqtida unga tashqi faktorlarniig noqulay ta'siri natijasida vujudga keladi. Nasliy (irsiy) psixopatiya masalasi xususida turli nuqtai-nazarlar bor. Ba'zilar psixopatiya xarakter patologiyasi tariqasida nasldan-naslga o'tadi, deb hisoblaydilar. Ba'zilari esa psixopatiyani psixik kasalliklarning boshlang'ich yoki o'sib ulgurmagan formalari deb hisoblaydilar. Ko'pgina avtorlar nasl-nasabida psixik kasalliklar bo'lgan oilalarda psixopatik shaxslar ko'proq uchraydi, deb ta'kidlaydilar.

Tug'ish vaqtidagi og'ir jarohatlar, bolaning bachadondagi rivojlanish davrida yoki ilk bolalik yoshida ta'sir qiladigan miya infeksiyalari, uzoq davom etgan me'da-ichak kasalliklari yoki boshqa somatik kasalliklar natijasida paydo bo'lgan taksikoz, shuningdek, homilaga zararli ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar (sifilis, spid, alkogolizm, nur energiyasi, onaning surunkali kasalligi, taksoplazmaz, endokrin buzilishlar va shu singarilar) psixopatiyaning vujudga kelishiga sabab bo'ladigan tashqi noqulay faktorlar jumlasiga kiradi.

Bolalarning psixopatik holatini kuzatishda ijtimoiy sharoitlarning ahamiyati shu bilan belgilanadiki, psixopatiya kasallik emas, balki bolaning kamol topib borishidagi o'ziga xos anomal jarayondir. Psixopatiya ayrim psixik funksiyalar va sistemalarning notekis (disgarmonik) rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, psixopat bolalarda to'la qimmatli aqliy o'sish bilan bir qatorda emosional-irodaviy sohada etarli darajada rivojlanmaslik va o'ziga xos o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Bunday bolalarning ba'zilari ortiq darajada ta'sirchan, jizzaki bo'ladi, u oilaning boshqa a'zolariga befarq qaraydi, ammo yaqin kishilaridan biriga (ko'pincha onasiga) nihoyat darajada yopishib olgan bo'ladilar.

Boshqa bir xil bolalar esa, aksincha bo‘ladilar, hech kimga mehr qo‘ymaydilar, indamas bo‘lib qoladilar, bir oz egoist (xudbin) bo‘ladilar.

Ba’zi bir hollarda psixopat bolalar xarakteridagi xususiyatida egosentrizm, o‘z imkoniyatlariga ortiqcha baho berish, o‘zini hammadan yuqori qo‘yish singari qiliqlar namoyon bo‘ladi, bu esa ko‘pincha atrofdagilar bilan konfliktga olib keladi. Psixopat bolalarda ko‘pincha ortiqcha ta’sirlanish, ba’zi vaqtlarda esa affektiv jizzakilikka moyillik seziladi, ularda iroda uncha rivojlanmagan bo‘ladi, buning oqibatida beqaror kayfiyat vujudga keladi. Ularning xulq-atvori impulsiv xarakterda bo‘ladi. Bunday bolalarning ish qobiliyati pasaygan bo‘ladi, ular etarli darajada diqqat-e’tiborli emaslar, diqqat-e’tiborlarini bir joyga to‘play olmaydilar, maktab topshiriqlarini bajarishdagi qiyinchiliklarni engay olmaydilar. Maktab rahbari va pedagoglar uchun psixopatiyaning klassifikasiyasini o‘rganishda psixopat bola shaxsi strukturasi xususiyatlari, uning xulq-atvoridagi o‘ziga xos jihatlari, uning kamol topib borishidagi qonuniyatlarni hamda bolalar psixopatiyasini tug‘diradigan sabablarni bilish muhimdir. Psixopatiyaning ba’zi bir formalarini bayon qilishga o‘tishdan oldin shuni ta’kidlab o‘tish zarurki, xulq-atvor va xarakterdagi har qanday buzilishni ham psixopatiyaning ifodasi deb o‘ylash yaramaydi. Xarakter va xulq-atvorda patologik irsiyatdan kelib chiqadigan yoki xomiladorlik davrida va bola hayotining ilk davrlarida miya sistemasining muayyan qismlari organik jihatdan zararlanishi (bu hol ko‘proq uchraydi) natijasida vujudga keladigan kamchiliklarga chinakam psixopatiya jumlasiga kiradi.

*Organik psixopatiya.* Diensifal, ya’ni po‘stloq osti miya sistemalarining organik etishmovchiligidan kelib chiqadigan psixopatiya shaxsning aqliy o‘sishda ancha orqada qolganini ko‘rsatadi. Bunday bola avvalo o‘z xatti-harakatlariga, qilgan ishlariga, o‘z faoliyatiga to‘g‘ri baho bera olmaydi, hamda primitiv narsalarga ortiqcha berilgan bo‘ladi (ko‘p ovqat eyishga intiladi, seksual intilishlari birmuncha beparda bo‘ladi). Bunday bolalarda emotsional soha o‘ziga xos ravishda rivojlanadi. Masalan, ularda elementar emosional his-tuyg‘ular (shodlik, qo‘rquv tuyg‘usi, ota-onalariga mehr saqlangani holda murakkab emotsional his-tuyg‘ular) rivojlanmaydi, ya’ni atrofdagi hodisalarga differensial, chuqur munosabat vujudga kelmaydi, shu sababli ularning emotsiyalari beqaror va yuzaki bo‘ladi. Bundan tashqari, shu guruhdagi psixopatlarda chuqur

kechinmalar vujudga kelmaydi, shu sababli ularda o'ziga bino qo'yish, jizzakilik, xafa bo'lish hollari uchramaydi.

Organik doiradagi psixopat bolalarda irodaning etarli darajada rivojlanmasligi shunda namoyon bo'ladiki, ular o'z xatti-harakatlarini tartibga sololmaydilar, ya'ni o'z faoliyatlarini o'z oldilariga qo'yilgan talablarga moslashtira olmaydilar. Bunday psixopat bolalarning kamol topib borishidagi xususiyatlari ilk bolalik davridayoq namoyon bo'ladi hamda jonsarakligi, behuda baqirib-chaqirishi va yaxshi uxlamasligi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha tarbiya yoshida ular bo'lar-bo'lmasga mushtlashaveradilar, bolalar bilan chiqisha olmaydilar va o'ynamaydilar, hech kimga yon bermaydilar. Maktabgacha tarbiya yoshning oxiriga borib, ularda ortiqcha primitiv intilishlar, o'jarlik, affektiv jizzakilikka moyillik namoyon bo'la boshlaydi. Intellect, nutq va motorikaning rivojlanishi, odatda normal o'tadi. Organik psixopatiya bo'lganida maktab yoshi davrida, bolalarda shaxs rivojlanishi normal jarayoni buzilishga aniq ko'rinadi. Ularda vaziyatga ichki munosabat vujudga kelmaydi, ular vaziyatni to'g'ri hisobga olmaydilar. Shu sababli ular kattalar, pedagogiga to'g'ri distant munosabatda bo'lmaydilar, o'z harakatlarini va ishlarini etarli darajada anglab etmaydilar. Ammo bunday bolalarda intellekt buzilmagan, tafakkur, xotira, ko'rish qobiliyati va makonini idrok etish, nutq etarli darajada o'sgan. Organik psixopatiyalı bolalarni o'qitishdagi eng muhim narsa ularni topshiriqlarni puxta bajarishga qunt bilan o'rgatishdir, avval osonroq topshiriqlar berib, keyin ularni asta-sekin murakablashtirib borish lozim. Bu guruhdagi psixopat bolalarga tarbiya berishdagi tadbirlar ularning o'z xatti-harakatini tahlil qila olishga va to'g'ri baho berishga qaratilgan turlarini o'z ichiga oladi. Pedagog doimo ularni eng yaxshi yo'lga qo'yilgan rejim sharoitida ushlab turishi va diqqat-e'tibordan chetda qoldirmasligi zarur. Organik doiradagi psixopat bolalar bilan ishlashda osoyishta va bir xil ohangda gapirish g'oyat muhimdir, chunki ular juda ta'sirchan bo'lganliklari sababli arzimagan gapdan jaxllari chiqib ketishi va affektiv jahldorlik darajasiga borib etishlari mumkin. Pedagog shuni esda tutishi kerakki, affekt vaqtida bolaga nasihat qilishga va ayniqsa jazo berishga qaraganda uning e'tiborini boshqa biror faoliyatga qaratish yaxshiroqdir, chunki jazolash jahlni yanada kuchaytirishga olib kelish mumkin. Bunday bolalar bilan ishlashda mehnatning hamma turlari – eng elementar qo'l ishidan tortib, to



ustaxonada, maktab er uchastkasidagi, uydagi ishgacha katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Mehnat mashg'ulotlarida bolalarning faoliyatini yaxshi yo'lga qo'yish, ularda yo'l-yo'riqqa bo'ysunish malakasini hosil qilish, boshlangan ishni oxiriga etkazish, jamoada ishlash malakasini hosil qilish osonroqdir. Mehnat psixopat bolalarning umumiy hayajonlanishini kamaytiradi va ularning e'tiborni primitiv qiziqishlardan chalg'itadi. Psixopat bolalar bilan ishlashda pedagogga ota-onalar juda katta yordam ko'rsatishlari lozim. Shundagina bolaga bir xil munosabat ta'minlanishi mumkin. Bundan tashqari, zarur hollarda kerakli davolash tadbirlaridan foydalanmoq uchun psixonevrolog-shifokor bilan aloqa bog'lab turish muhimdir.

*Epileptoid psixopatiya.* Organik doiradagi psixopat bolalar guruhi bilan bir qatorda epileptoid psixopatiyalı bolalar ham uchraydi. Bu psixopatik holatlarning etiologik faktori – patologik irsiyatdir. Masalan, epilepsiya hodisasi bo'lgan oilalarda xarakterida epileptoid xususiyati bo'lgan psixopatik shaxslar uchraydi. Bu guruhdagi psixopatlarning asosiy xususiyatlari – emotsional his-tuyg'ularning sekin va qiyinchilik bilan namoyon bo'lishidir. Shu sababli epileptoidlar uchun kechinmalarning barqarorligi ma'yuslik, badgumonlik, norozilik, ko'pincha keskin affektiv jahildorlikka ba'zan esa o'ch olishga moyillik, yovuzlik, baxillik va g'arazgo'ylik xarakterlidir. Albatta, bu simptomlarning hammasi hamisha ham bir yo'la bir shaxsda uchrayvermaydi, bu simptomlarning ifodalanish darajasi ham g'oyat har xil – juda engil formadan to patologik keskin formagacha bo'lishi mumkin. Epileptoid psixopatiyani kishilarda ko'pgina ijobiy xususiyatlar ishga yaxshi qobiliyatlilik, topshiriqlarni bajarishda puxtalik, bir maqsadga qaratilganlik, ishga e'tiborni to'play bilish va qiyinchiliklarni bartaraf etish kabi xususiyatlar bo'ladi. Epileptoid psixopatiyalı bolalarning rivojlanishida o'ziga xos qonuniyatlari bor. Ilk bolalik paytidayoq ularda ortiqcha asabiylik vujudga keladi, bu hol aftida, vegetativ va tomir sistemalarning etarli darajada o'smaganligining oqibati bo'lishi mumkin, chunki umumiy somatik holatida hech qanday kamchiliklar bo'lmaydi. Balog'atga etish davrida bunga kayfiyatdagi beqarorlik, pismiqlik, badgumonlik va atrofdagilarga shubha bilan qarash qo'shiladi. Bu bolalarda patologik xususiyatlar paydo bo'lishini ularning shaxsidagi ijobiy xususiyatlarga tayanib, ularga to'g'ri ta'lim-

tarbiya ta'siri bilan ancha yumshatish mumkin. Korreksion tarbiyaviy ishdagi eng muhim narsa – epileptoid bolalardagi o'z kechinmalari bilan “o‘ralashib qolish”ga moyillikni bartaraf qilishga intilishdan iborat bo‘lishi kerak. Buning uchun ularni faoliyatning har xil turlariga jalb qilish va uni bajarish jarayonida zarur. O‘jarlik, negativizm yoki bir oz jahldorlik paydo bo‘lganida pedagog bolaga hukmronlik va buyruq bilan ta’sir ko‘rsatmasligi kerak. Yaxshisi bolaning e’tiborini bemalol eplay oladigan faoliyatga burib yuborishdir. Noqulay sharoitlarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan affektiv asabiylik vaqtida yaxshisi bolani yolg‘iz qoldirish, ya’ni unga osoyishta vaziyatni vujudga keltirish hamda shifokorning maslahatini so‘rab, asabini tinchlantiradigan kerakli davolash vositalaridan foydalanish kerak. Bunday bolalar, hatto pedagogga nisbatan ham adovatda bo‘lishadi. Shu boisdan bola bilan aloqada bo‘lish va pedagogning unga yordam berishga intilayotganligiga bolada ishonch hosil qilish juda muhimdir. Albatta bolaning xarakteridagi patologik xususiyatlar keskinlashgani sababli ba’zan uni davolash muassasasiga joylash lozim bo‘lgan vaqtlar ham bo‘ladi. Ammo davolanib bo‘lganidan so‘ng, bolani maktabga qaytarish kerak va maktab davolash samarasini mustahkamlash uchun hamma choralarni ko‘rishi zarur.

*Xarakterida shizoid belgilari bo‘lgan bolalar.* Xarakterida shizoid belgilari bo‘lgan bolalar ko‘pincha nasl-nasabida ruhiy kasalliklar (shizofreniya) bo‘lgan oilalarda uchraydi. Ammo shuni esda yaxshi saqlash kerakki, bola xarakterida shizoid belgilarning bo‘lishi shizofreniya singari ruhiy kasallik borligidan aslo darak bermaydi. Bunday bolalarning xulq-atvorida konstitusional shartlangan bir qancha xususiyatlar va qiyinchiliklar bo‘ladiki, ularni pedagog nazarga olishi zarur. Shizoid psixopatiyali bolalarning kamol topishidagi o‘ziga xos belgilari ilk maktabgacha tarbiya yoshidayoq namoyon bo‘ladi. Ularning ba’zilari juda ham ta’sirchan bo‘ladilar, hamma yangiliklardan qo‘rqadilar, ikkinchi turlari – jonsarak bo‘ladilar, uchinchi xillari esa bo‘shang va passiv bo‘ladilar. Ammo ularning hammasi “odamovi” bo‘lib, kattalar bilan suhbatda bo‘lishni afzal ko‘rmaydilar, o‘z tengdoshlaridan ajralib qolgan bo‘ladilar. Mahmaddonagarchilikka moyil bo‘ladilar. Maktab yoshiga etganda ularda aqliy o‘sish jadal boradi-yu, ammo motorika etarli darajada rivojlanmaydi: ular harakatda bir muncha besunaqay, qo‘pol bo‘ladilar, ovqatni isqirtlik bilan eydilar. Ularda emotsional-irodaviy

soha ham o'ziga xos ravishda rivojlanadi. Ulardan ba'zi birlarining emotsional tuyg'usi sovuq bo'ladi, boshqalari esa kimgadir nihoyatda mehr qo'yadilar. Bu guruhdagi bolalar haddan tashqari jizzaki, o'ziga ishonmaydigan bo'ladi. Bu bolalar o'z muvaffaqiyatsizliklaridan og'ir iztirob chekadilar. Ularning xususiyatidagi eng asosiy belgi odamlarga aralashish ehtiyojining kamayganligidir; shu sababli ular ko'pincha o'zlarini boshqa bolalardan chetda tutadilar va jamoa bilan yashashni xohlamaydilar. Emotsional sustkashlik, biqlik, amaliy ishga moslashmaganlik va yaxshi rivojlanmagan motorika tafakkurning, asosan abstrakt fikr yuritishning yuksak darajada rivojlanmaganligi, nasl-nasabida og'ir dardlar bo'lganligi – bu holni shizoid psixopatiya jumlasiga kiritish uchun asos bo'la oladi. Emotsiyalarning bo'shlig'i shizoid bolalar uchun eng xarakterli xususiyatdirki, u eng ilk bolalik chog'laridayoq namoyon bo'ladi. Ularda boshqa bolalar bilan faol muomala bo'lishga talab, o'yinchoqlarga qiziqish bo'lmaydi, amaliy faoliyatga intilish yo'q. Bu esa ularning motorikasining yanada rivojlanishiga to'siqlik qiladi. Bu bolalarda voqelik bilan aloqaning bevosita formasi o'rnini ko'proq gaplashib oladi, shu sababli ularda abstrakt mavzularda ko'p savollar berish va fikr yuritish, kitobga barvaqt qiziqish paydo bo'ladi. Ular kitob o'qishni ancha erta boshlaydilar. Bu esa abstrakt fikr yuritishning yaqqol ustun bo'lishiga olib keladi. Bu bolalar bilan korreksion-tarbiyaviy ishni juda yoshligidan boshlash zarur. Bu ish birinchi navbatda motorikani rivojlantirishga qaratilishi lozim; bolalarni kiyinishga, echinishga, botinka ipini bog'lash, buyumlarni yaxshilab tanlashga, kubiklar, piramidalar, mozaykalar yasashga, rasm chizishga, rasmlarni bo'lishga va boshqa shu singari ishlarga o'rganish zarur. Bolaning etarli bo'lmagan motorikasini butun choralar bilan o'stirib borish o'rniga ota-onalar, ko'pincha unga haddan ziyod vosiylik qiladilar, bolaning bajarishi lozim bo'lgan hamma ishlarni o'zlari qilib, uning harakatlarini takomillashtirishga yanada ko'proq xalaqit beradilar, amaliy ishga moslashmaganligini kuchaytiradilar. Bunday bolalar maktabda o'qiy boshlaganlarida pedagog, yuqorida sanab o'tilgan tadbirlardan tashqari, ularda maktab ko'nikmalarini, ayniqsa, yozuv ko'nikmalarini o'stirishga alohida e'tibor berish lozim. Bu bolalar odatda yaxshi o'qiy olishlari, o'qilgan matnni yaxshi tushunishlariga qaramay, yozuvni yaxshi egallay olmaydilar: motorika etarli o'sib bormaganligi hisobiga xunuk yozadilar, ular

e'tiborsizlik oqibatida orfografik xatolar qiladilar. Pedagog dars vaqtida bunday o'quvchiga doimo e'tibor berib turishi, uning ishini doimo nazorat qilib borishi, uni aktiv faoliyatiga jalb etishi lozim. Bunda u bilan aloqa o'rnatishi juda muhimdir.

*Xarakterida isterik belgilar bo'lgan bolalar.* Xarakterida isterik belgilari bo'lgan bolalarni tarbiyalash sohasida muayyan qiyinchiliklar vujudga keladi. Isteroid belgilar bo'lgan bolalarda eng ko'p uchraydigan xususiyat egosentrizm, ya'ni o'taketgan shaxsiyatparastlik, o'zini ko'rsatishga, kibrlanishga, maqtanchoqchikka, o'z sifatlarini va o'z rolini oshirib ko'rsatishga moyillik va o'z shaxsini birinchi o'ringa qo'yish shundan kelib chiqadi. Bu sifatlar odatda, haddan tashqari ta'sirchanliq emotsional tuyg'ularning beqarorligi, kayfiyatning beqarorligi bilan birga qo'shilgan bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi isterik belgilar bo'lgan bolalarning xulq-atvorida ba'zi qiyinchiliklar vujudga keladi. Ular tengdoshlari bilan janjallashadilar, ularga buyruqbozlik qiladilar, ba'zan o'jar, asabiy bo'ladilar, ko'pincha gapga quloq solmaydilar, isterik reaksiyalarga moyil bo'ladilar – erga yotib oladilar, qattiq yig'laydilar, deysinadilar, xullas, o'z aytganlarini o'tkazishga xarakat qiladilar. Maktab yoshida bu bolalardagi egosentrizm ko'rinishlariga betoqatlik, boshlangan ishni oxiriga etkaza olmaslik qo'shiladi.

Bolalardagi isterik xarakterning eng muhim xususiyati – intellektual qobiliyatning to'la saqlab qolishi bilan bir vaqtda aniq ifodalangan egosentrik kayfiyat va infantil xulq-atvorning mavjudligidir. Isterik bolalar boshqalardan yaxshiroq bo'lish harakatlarini qiladilar. O'ziga bu qadar haddan tashqari bino qo'yish bunday bolalarda keyinchalik emotsional tuyg'ularni birmuncha yuzaki qilib qo'yadi: ularda chuqur mehr-oqibat vujudga kelmaydi, boshqa kishilarning kechinmalari ularni xayajonlantirmaydi, ularga achinmaydigan bo'lib qoladilar. O'z kechinmalariga esa ular odatda, juda ham e'tibor beradilar.

Xarakterida isterik belgilar bo'lgan bolalar bilan bo'ladigan korreksion-tarbiyaviy ishni mumkin qadar ertaroq, bu belgilar sezila boshlagan paytdan boshlash kerak. Bola xarakteridagi isterik belgilar shunday oilalarda tarkib topadiki, bu oilalarda ota-onalar bolaga hamma narsaga ruxsat beradilar, o'ta erkalatib yuboradilar. Isteroid bolalar uchun yaxshi uyushgan bolalar kollektiv jamoasida bo'lish juda foydalidir, bu erda u o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatishning elementar ko'nikmalarini egallashi kerak. O'yin faoliyatidek

jarayonida bolani o'z egosentrik tendensiyalarini bosishga o'rgatish maqsadida foydalanilmog'i lozim. Bolalar bog'chasining katta guruhida bolada ma'lum bir vazifani bajara olish va uni oxiriga etkazish malakasini hosil qilishga alohida e'tibor berish lozim. Maktabdagi korreksion tarbiyaviy ishni bu bolalar intellekt qobiliyatining to'la qimmatli ekanligini va ular shaxsidagi ijobiy xususiyatlarni hisobga olib ko'rish zarur. Birinchi navbatda bolaning kuchli gormonlarini – uning moyillarini, qobiliyatini aniqlash, bu mayl va qobiliyatlarni qo'llab-quvvatlash va shu tarzda egosentrik mayillarni yo'qota borib, shu asosda shaxsni qayta tarbiyalash zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999.
3. Ta'lim to'g'risidagi Qonun. – Toshkent, 1997.
4. Aytmetova S. Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
5. Mamedov K.K., Soatov M.I. Oligofrenopedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
6. Vlasova T.A., Pevzner M.Z. Kamol topishida kamchiligi bo'lgan bolalar. – Toshkent: O'qituvchi, 1976.
7. Mo'minova L., Ayunova M. Logopediya. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
8. Munavvarov Z. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

## КРЕАТИВНОСТЬ ВАЖНЕЕ ЗНАНИЙ

*Norboyeva Nilufar Orziqul qizi*  
*Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti*  
*Pedagogika va psixologiya yoʻnalishi 4-bosqich talabasi*

### АННОТАЦИЯ

В данной статье подчеркивается важность творчества сегодня и необходимость воспитания творческого мышления современной молодежи.

**Ключевые слова:** творчество, молодежь, образование, современные кадры, цивилизация.

### ANNOTATION

This article highlights the importance of creativity today and the need to educate creative thinking, modern youth.

**Key words:** creativity, youth, education, modern personnel, civilization.

Двигателем — движущей силой растущей четвертой промышленной кухни — является творчество. Когда вы оглянетесь вокруг, вы встретите несравненные и удивительные образцы человеческого творчества со всех сторон: электронные сервисы, виртуальная реальность, квадратные арбузы, беспочвенный урожай... Все это продукт человеческого воображения, мышления. Книга, музыка, здание, самолет, даже лампы, которые сегодня кажутся нам привычными, когда-то были мечтой и воображением, позже были созданы как плод здравого смысла.

Чтобы развить в личности качества креативности, необходимо изначально знать содержание этого понятия. Креативность происходит от английского “create”, что означает творить. Креативность относится к творческой способности человека к инновациям, решению проблем. В его основе — оригинальность, практичность, необычность и свобода. Также под креативным мышлением понимается всестороннее мышление по конкретному вопросу, подход к одной точке с разных ракурсов.[1,35]

Креативность как развивающая категория личности является неотъемлемой частью человеческого мышления, духовности, она проявляется не в

многогранности знаний, которыми обладает личность, а в стремлении к новым идеям, в реформировании и изменении устоявшихся стереотипов, в принятии неожиданных и необычных решений в процессе решения жизненных проблем. То есть креативность не может быть достигнута повторением полученных знаний, главным условием в процессе творческого мышления является появление новой мысли, новой идеи. Например, в английском языке, даже если вы запомнили слова и “выпили” грамматические правила, все напрасно, если вы не можете написать эссе. Вот почему воображение играет важную роль в процессе творческого мышления. Именно этот аспект имел в виду Альберт Эйнштейн, когда сказал: “креативность важнее знания”. Часто на ум человека неожиданно приходят необычные мысли, решения. Для этого, прежде всего, необходимо положить конец однообразию, рутине в мыслительном процессе.

Человеческий мозг использует шаблоны и стереотипы, чтобы “облегчить”, “облегчить” свою работу. Стереотипы-это уже известные и общепринятые мнения. Мышление, основанное на них, не дает нам никаких новых идей. Ведущее место в возникновении плесени занимает также преобладающее в обществе социальное мнение, формы и проявления, представленные в медиапродукции. Человек согласен со всеми в том, что он не изолирован от масс. Кроме того, “плыть по течению” кажется проще, чем думать самостоятельно. Типичная информация и рассуждения возникают, когда человеческому разуму дается “запрос” на определенную тему при мышлении через стереотипы. Например, под “Новым годом” подразумевается представление налитого стола, газированных напитков, которые не выпадают из рекламы, можжевельника и т. д. видение старика в очках, держащего в руках скипетр в образе Деда, - это видение мышления, основанного на шаблоне. Креативно мыслящие люди также представляют образы, отличные от обычных пейзажей, замечая аспекты, которые никто не продвигал, инновации создаются.

Самое удивительное, что процесс обучения и воспитания также учит детей мыслить одинаково. Поэтому реформирование сферы образования, подготовка креативно мыслящих, современных кадров сегодня стало одним из приоритетов.



Четвертой из целей ООН в области устойчивого развития является “качественное образование”, и Узбекистан проводит последовательный процесс реформ в этой области.

В целях подготовки инновационных и креативно мыслящих современных кадров в сфере образования, воспитания молодежи в духе патриотизма, высокой духовности уделяется приоритетное внимание вопросам совершенствования системы образования. 6 указов и постановлений, 21 постановление Кабинета министров, принятые главой нашего государства, закрепили правовые и нормативные основы реформ в этой сфере.

Учитывая пожелания родителей, общественности, в нашей стране была восстановлена 11-летняя система школьного образования. За последние три года в нашей стране заново построено 157 общеобразовательных школ. В честь великих деятелей нашей нации Мирзо Улугбека и Мухаммада Хорезми были созданы школы для одаренных детей, начался благородный процесс изучения их богатого научного наследия и воспитания нового поколения молодых людей, занимающихся развитием этой области. Создание школ творчества, названных в честь Хамида Олимджана и Зульфийи, Эркина Вахидова, Абдуллы Арипова, Ибраима Юсупова, Исхакхонторы Ибрат, Мухаммада Юсуфа, Халимы Худойбердиевой, “школы Темурбеков”, президентских школ откроет новые возможности для нового поколения людей с высоким потенциалом и острым умом. раскрыл.[2,11]

В целях стимулирования труда педагогических работников за последние 3 года заработная плата учителей увеличилась в среднем в 2,5 раза. Установлены четкие критерии стимулирования труда педагогических кадров, выезжающих в отдаленные районы. Им выплачиваются дополнительные ежемесячные надбавки до 50 процентов. Это позволило привлечь более тысячи учителей, которых не хватало в отдаленных районах.[2,13]

В настоящее время обсуждается проект Закона Республики Узбекистан "Об образовании" в новой редакции. В процессе разработки законопроекта были изучены законы Об образовании более чем 20 иностранных государств. Свои замечания и предложения по законопроекту высказали около 30 министерств и

ведомств, более 50 специалистов в сфере образования и более 100 граждан. Закон, разработанный в новой редакции, увеличил количество глав с 5 до 12, а количество статей с 34 до 70. В нем внесены изменения и дополнения в 33 статьи действующего закона, а также 36 новых статей с учетом опыта передовых зарубежных стран.[3]

Среди национальных индикаторов и задач целей устойчивого развития-обеспечение всеобщего и качественного образования и стимулирование доступа к образованию на протяжении всей жизни для всех, чтобы к 2030 году серьезно увеличить количество учителей за счет международного сотрудничества в области подготовки, переподготовки и повышения квалификации учителей.

### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА**

1. Жуманова С.В. "Творческое мышление". Ташкент. 2020-е.
2. Хаджиев Р.В., Норбоева Д.О. "Воспитание гармоничного поколения-приоритеты демократических реформ, проводимых в нашей стране". Философия и право, 2021, №2
3. Закон Республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года № УП-637 "Об образовании". (Национальная база данных законодательства, 24.09.2020., 20.03.637.1313-выпуск)
4. Хаджиев Р.В., Норбоева Д.О. "Creative thinking is an important factor of Social Development". Актуальные проблемы современной науки, образования и воспитания (актуальные проблемы современной науки, образования и воспитания в регионе) (электронный научный сборник), 2021, №7
5. Хаджиев Р.В., Норбоева Д.О., "Концепции развития социальной активности молодежи". "Муг'аллим-это тоже знание без себя" (Nkkis), выпуск 3(2) 2021 г.
6. Хаджиев Р. В., Норбоева Д. О. "творческое мышление-важный фактор социального развития."Вестник науки и образования" (Россия), 2021 г. №10(113).

## TA'LIM JARAYONIDA O'QUV MOTIVATSIYASI VA PSIXOLOGIK USLUBLARNING O'RNI

*Shukurulloyeva Sadoqat Sodatullo qizi*  
*O'zbekiston Milliy universiteti psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistri*  
*Toshkent viloyati Zangiota tumani 19-maktab psixologi*

Bugungi kunda taraqqiy etayotgan innovatsion jarayonlar ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, mustaqil-erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab etmoqda. Ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad bilimli, mustaqil fikrlay oladigan, yurt ravnaqi uchun mehnat qiladigan, keng mulohazali, aniq hayotiy maqsadga ega, muammoli vaziyatlarda ijodiy fikr yurita oladigan, yuqori intellektual salohiyatli shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Shaxsning shakllanishida, insonning shaxs bo'lib ro'yobga chiqishida tarbiya yetakchi rol o'ynaydi. Tarbiya shaxsning rivojlanishini jamiyat tomonidan qo'yilgan maqsadlarga muvofiq tarzda yo'naltirib boradi. Shu bilan birga tarbiya bola hayoti va faoliyatini muayyan tarzda uyushtirib va tartibga solib qolmasdan, balki pedagogik tamoyillarga binoan shaxs imkoniyatlarini eng yaxshi darajada ko'rsatadigan rivojlanishning maxsus muhitini yohud vaziyatini vujudga keltiradi, uni shakllantirgan va yo'naltirib borgan holda faolligini namoyon qilish uchun shart-sharoit yaratadi. Shu o'rinda shaxs psixologiyasi shaxsni tarbiyalash psixologiyasi, ahloqiy tarbiya uslubiyoti bilan o'rin almashadi. Ularning vazifasi shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy ongini shakllantirish, ongli intizomni, vatanparvarlik va baynalmilallikni tarbiyalash vositalari va yo'llarini aniqlashdan iboratdir. Bu yuksak vazifalarning ro'yobga chiqarilishi shaxsning takomillashuvini ta'min etadi. Shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga bog'liq bo'lmagan barqaror motivlar majmui kishi shaxsining yo'nalganligi deb ataladi. Motiv harakatga undovchi kuch bo'lib, ular oz yoki ko'p darajada anglangan bo'lishi yoki umuman anglanmagan bo'lishi ham mumkin. Shaxsning yo'nalganligida anglangan motivlar asosiy rol o'ynaydi. Kishi ehtiyoj

obyektini maqsad deb anglagan holda o'zining shaxsiy maqsadlarini o'zi mansub bo'lgan jamoaning maqsadlari bilan bog'laydi va o'z maqsadlarini tegishli ravishda o'zgartiradi.

O'quv motivlari-bu bilim oluvchilarni o'quv faoliyatining turli tomonlariga yo'naltirishdir. Masalan, shaxsning o'zi o'rganayotgan obyekt bilan bajaradigan ishiga qaratilgan bo'lsa, ularni bilish motivlari deb atash mumkin. Agar o'quv faoliyat o'quv jarayonida turli kishilar bilan to'g'ri muloqot qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, ijtimoiy motivlar namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ba'zan yoshlarda bilish jarayoni, qolganlarida esa boshqalar bilan muloqot o'qish faoliyatini motivlashtirib turadi.

Shu o'rinda motivlarning shakllanishida yoshlar o'z oldiga qo'ygan maqsadi muhim ahamiyat kasb etayotganligini kuzatsa bo'ladi. "Maqsad-motiv" psixologik o'zaro aloqasini o'rganish, fikrimizcha, ichki motivatsiya to'g'risidagi ma'lum nazariy bilimlarimizni boyitgan bo'lar edi.

Bilish motivlari shaxsning (subyektning) gnesologik maqsad qo'yish sari ya'ni belgilangan maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiriladi. Odatda bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib muayyan toifani yuzaga keltiradi.

Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash xavf-xatar va talab qilish, guruhiiy tayziq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadiga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o'ta muhimroq boshqa hukmron (yetakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush noqulay vaziyatdan qochish ijtimoiy, yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaffaqiyatga erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo). Bu turdagi yoki jinsdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallashda qiynchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi..

Motivlarning navbatdagi toifasiga, ya'ni ichki motivlar turkumiga individual xususiyatli motivlar kiradiki, ular o'quvchi shaxsida o'qishga nisbatan individual maqsadni ruyobga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida paydo bo'ladi. Chunonchi bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma'naviy (madaniy) darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning yetilishidir. Bunga o'xshash motivlarning ta'sirida o'quv

jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmaydi. Albatta, bunday toifaga taalluqli motivlar paydo bo'lishiga qaramay, ba'zan qiyinchiliklar vujudga kelishi ehtimol, chunki bilimlarni o'zlashtirish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Bunday xossalarga ega bo'lgan irodaviy zo'r berishlar tashqi halaqit beruvchi qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovchilar) kuchi va imkoniyatini kamaytirishga qaratilgan bo'ladi. Pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan ushbu jarayonga yondashilganda, muloqotli vaziyatgina optimal (oqilona) deyiladi.

Ta'lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar o'quvchilar xulq-atvorini shunchaki, boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shaxsini shakllantirishiga ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi.

Ijtimoiy motivlar ham ta'lim faoliyati uchun yetakchi hisoblanadi. Bir qator mualliflar ta'lim faoliyatiga nisbatan ularga tashqi motivlar sifatida qaraydilar.

S.L.Rubinshteyn "ichki" va "tashqi" degan tushunchalar bilan aloqador bo'lgan ikki toifa motivlarni ajratadi. Bu narsaning mazmuniga bo'lgan qiziqish (bevosita) va bo'lg'usida faoliyat bilan bog'liq bo'lgan narsaga nisbatan bo'lgan bevosita qiziqishdir.

P.Y.Galperin fikricha, tashqi motivlar ta'lim jarayonini va predmetiga nisbatan "amaliy" munosabatda namoyon bo'ladi, bunda bilim keyingi faoliyat uchun tashqi shart-sharoit sifatida qaraladi, ichki motivlar ta'limga bo'lgan beqaror qiziqish bilan bog'liqdir. Tashqi motivlar ichida aynan tashqi yoki unitar motivlarga ajratiladi, bunda harakatning shakllanishi subyekt moyil bo'lgan faoliyatni amalga oshiradigan shart-sharoit hisoblanadi va musobaqaviy motivlar ajratiladi. Bunda subyekt a) boshqalarga b) o'z-o'ziga o'zining oldingi muvaffaqiyatlariga qiyoslagan holda muvaffaqiyatlarga intiladi.

P.M.Yakobson ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ijobiy yoki salbiy motivlarni tashqi motivlar deb, ta'lim jarayoniga singdirilgan motivlarni esa ichki motivlar deb hisoblaydi. Ammo bir qator zamonaviy tadqiqot mualliflari mazkur motivlarning o'qish faoliyati uchun ahamiyatini tushunishidan kelib chiqqan holda, o'qishning ijtimoiy motivlariga nisbatan "tashqi" degan terminni ishlatishdan qochadilar. Masalan A.K.Markova bilish motivlari ichida keng ta'limiy (yangi bilimlarni) o'zlashtirishga

yo‘naltirilgan, o‘quv bilish, bilim olish usullarini egallashga yo‘naltirilgan motivlarni farqlaydilar.

M.V.Matyushkin ham o‘qish faoliyati jarayoniga singdirilgan quyidagi ikki toifa motivlarni ajratadi; a) mazmun vositasida motivlashtirish (qiziqishning 3 ta darajasi mavjud bu qiziqishlik, dalillarga bo‘lgan qiziqish, voqealar mohiyatining kelib chiqishiga qiziqish), b) jarayon vositasida motivlashtirishlar uch darajasi mavjud; ijrochilik faoliyatini bajarish sifatida, qidiruv ijrochilik qoidalarini keltirib chiqarish sifatida, ijodiy mustaqil ravishda masalalar tuzish).

A.N.Leontyevning fikricha, biz “faqat tushunadigan va real harakatdagi motivlarga duch kelamiz. Bola ko‘pincha qancha o‘qish zarurligini yaxshi tushunadi (tushuniladigan motivlar) lekin bu narsa ham unga o‘quv faoliyat bilan shug‘ullanish uchun turtki bo‘la olmaydi. Bu bilish mayl shaklini olsagina biz real harakatdagi motiv bilan ish ko‘rgan bo‘lamiz. Faqat tushuniladigan motivlarga ma‘lum sharoitda harakatdagi motivlar shaklini oladi. Bu narsa motivatsiyasini qayta qurish uchun jiddiy ahamiyatga egadir. Maktabning vazifasi ham bola motivatsiyasini qayta qurishdan iboratdir. L.N.Bojovich ta‘limini motivatsiyalash muammosi bo‘yicha o‘z oldiga o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabati, psixologik aspektlari qanday maydonga chiqadi, degan masalani hal qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu munosabatning psixologik mohiyatini ochadigan muhim jihatlaridan biri «o‘quvchilar o‘qish faoliyatini belgilayotgan motivlarning yig‘indisi hisoblanadi. Bunda ta‘lim motivlari deganda, biz bola nima uchun o‘qiyotganligini yoki boshqacha aytganda, nima uchun o‘qishga majbur qilishni tushunamiz”.

O‘qituvchining innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishdagi faoliyati jarayonidagi imkoniyati o‘z navbatida quyidagilarni qamrab olishi lozim;

- o‘qituvchi yangilikni qo‘llashga doimo tayyorligi;
- informatsiyalarni qabul qilishi va to‘g‘ri tahlil etishi;
- nutqiy mahorat egasi ekanligi, novatorlik;
- o‘qituvchi kommunikativ qobiliyatining rivojlanganligi;
- ijodkorlik darajasi.

Pedagogik faoliyat o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadi hamda o'ziga xos uslublardan foydalanishni taqozo etadi. O'qituvchi mehnatidagi o'ziga xos uslublarni ajratishda quyidagi belgilarni asos qilib olish mumkin: uslubning mazmunli tomoni- o'qituvchining asosiy e'tiborni o'z mehnati jarayoni yoki natijasiga qaratishi, uslubning dinamik tavsifi – egiluvchanligi, ko'chuvchanligi va barqarorligi, mahsuldorlik – o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar hamda mazkur o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishning mavjudligi.

O'z-o'zidan shunday xulosa kelib chiqadiki bugun ta'lim tarbiya jarayoni subyektlari, pedagoglar hamda ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy va ma'naviy tayyorgarlik darajasi tayyorlanayotgan mutaxassislarining ertaga jamiyat taraqqiyotiga qanday mazmunda ta'sir ko'rsatishi asosida baholanadi. Prezidentimiz "Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor berilmasa, kelajak boy beriladi. Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda axloq - ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xush muomaladangina iborat emas. Axloq – bu avvlo insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani" degan so'zlari bilan tarbiyaning mazmuni, uning kuch qudrati va mazmunini lo'nda ifodalab berishdi.

## **ЎҚУВЧИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ АНИҚЛАШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ**

*Лутфиддинова Зоҳида  
Наманган вилояти Наманган тумани 26-мактаб психологи*

Мақолада ўқувчилар қобилиятларини аниқлаш ва ривожлантириш бўйича психологик қонуниятларга асосланиб, ўқувчиларда лаёқат, маҳорат, педагогик, коммуникатив, дидактик, авторитар, перцептив, танқидий фикрлаш ва умумий қобилиятлар атрофлича таҳлил қилинган.



**Калит сўзлар:** Қобилиятлар, ақлий истедод, тестлар билан ишлаш, кўникма ва малака.

Давлат тараққиёти ва жамият равнақи кўп жиҳатдан халқнинг интеллектуал потенциали билан белгиланади. Чунки, илмий потенциали юқори даражада ривожланган мамлакат барча соҳаларда доимо илғор бўлади.

Республикаимиз биринчи Президенти И.А.Каримов таъкидлагинидек, Ватанимиз келажаги ислохотларнинг тақдири ва уларнинг натижалари, халқимизнинг билим даражаси давр талабига ва тарраққиётига қанчалик мослигига, қандай мутахассислар етказиб бериб, ўрнимизни эгаллашларига боғлиқдир.[1.2]. Шунинг учун мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев барча соҳаларни жумладан таълим тизимини тубдан ислох қилишга катта эътибор қаратаётгани таълим тизими соҳасида туб бурилаш ясамоқда десак муболаға бўлмайди. Шунга кўра, юқори малакали кадрлар тайёрлаш давлат сиёсати даражасидага кўтарилмоқда.

Психология фанида қобилият тушунчасини таҳлил қилишда шахс шаклланишига таъсир этувчи уч омил ҳисобга олинади. Яъни шахсга ота-она томонидан ўтган ирсий белгилар, шахс шаклланган ижтимоий муҳит ва шахсга бериладиган таълим-тарбия натижаси. Демак қобилият тушунчасини таҳлил қилишда юқоридаги уч омил таҳлили асосий ўринда туради. Психологик луғатларда қобилият шахснинг муайян фаолият турини муваффақиятли бажаришга бўлган лаёқат даражасини ифодалайдиган, турмуш жараёнида ҳосил қилинган индивидуал хусусиятлари йиғиндисидир [2.95] деб таъриф берилади.

Билим, кўникма, малакалар орттириш шу хусусиятларга боғлиқ бўлади, лекин шу хусусиятларнинг ўзлари мазкур билим, кўникма, малакаларга тааллуқли бўлмайди. Қобилиятлар билим, кўникма, малакаларни эгаллашда намоён бўлса ҳам, билимлар ва кўникмаларни эгаллаш билан боғланиб қолмайди. Қобилиятлар ва билимлар, қобилиятлар ва малакалар, қобилиятлар ва кўникмалар айнан бир-бирига ўхшаш нарса эмас.

Қобилиятлар билим, малака ва кўникмаларнинг ўзида кўринмайди, балки уларни эгаллаш динамикасида намоён бўлади, яъни, бошқача қилиб айтганда, мазкур фаолият учун муҳим бўлган билимлар ва кўникмаларни эгаллаш жараёни

турли тенг шароитларда канчалик тез, чуқур, осон ва мустаҳкам амалга оширилишида намоён бўлади. Худди ана шу ўринда юзага чиқадиган фарқлар бизга қобилиятлар ҳақида гапириш ҳуқуқини беради.

Ақлий истеъдод даражаси баланд болалар изланувчан, ҳар нарсага қизиқувчи ва уйғоқ қалбли бўладилар. Қобилиятлилик шахснинг ақл-фаросат, характер, хотира ва руҳий кечинмалари билан бевосита боғлиқдир. Психологияда қобилиятларни миқдор жиҳатдан ўлчаш муаммоси узоқ тарихга эгадир. XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида қатор психологлар (Кеттел, Термен, Спирмен ва бошқалар) оммовий ихтисослар учун касб танлашни амалга ошириш зарурияти билан боғлиқ бўлган талаблар таъсири остида таълим олаётганларнинг қобилиятини аниқлашни тақлиф қилиб чиқдилар. Уша пайтларда қобилиятларни ўлчаш усули сифатида ақлий истеъдод тестларидан фойдаланилди.

Дастлабки қобилиятлар ижтимоий муҳит таъсирида оилада, мактабгача таълим муассасаси ва мактаб таълимида босқичма-босқич ривожланиб боради. Психологлар ўқувчи қобилиятларини диагностика қилишда ўқувчининг асосий етакчи фаолият хусусиятларини инобатга олиши керак чунки, қобилият фаолиятда намоён бўлади.

Адабий қобилият эса нафосат ҳисларининг юксак тараққиёт даражаси, хотирада ёрқин кўргазмали образларнинг жонлилиги, “тил зеҳни”, беҳисоб ҳаёлот, руҳиятга қизиқувчанлик, ўзи ифодалашга интилувчанлик ва бошқаларни ўзида ифодалайди. Ажратиб кўрсатилган қобилиятлар таркибидан кўриниб турибдики, математик ва адабий қобилиятлар ўзаро бир-бирига ўхшамаган талаблари билан тафовутга эгадир.

Тасвирий санъатга хос қобилиятларни - В.И.Криенко ўрганган бўлиб, у “Тасвирий фаолият қобилиятлари психологияси” китобида тасвирий қобилиятларни психологик таҳлили ҳақида маълумотлар берган.

Табиий қобилиятлар - бу идрок, хотира, тафаккур ва бошқа оддий психик жараёнида намоён бўлиш қобилиятидир. Инсонда ижтимоий муҳитга мослаша олиш қобилияти мавжуддир. Бу умумий ва махсус ақлий қобилиятлар, нутқ ва мантиқдан фойдаланганда шахслараро, предметлараро муносабатларда намоён

бўлади. Умумий қобилиятлар - инсонни турли фаолият йўналишларида муваффақиятини таъминлайди.

Махсус қобилиятлар - инсонни бирор бир махсус фаолият йўналишидаги муваффақиятини таъминлайди ва унинг намоён бўлиши учун махсус лаёқат бўлиши лозим. Бундай қобилиятларга мусикавий, математик, техник, педагогик ва бошқалар киради.[6.107].

Ташкилотчилик қобилиятларини эса узоқ вақт Л.И.Уманский ўрганган. Қобилият муайян табиий борлиққа боғлиқ бўлсада, лекин улар фақат табиатнинг инъоми эмас, балки инсоният тарихий тараққиётининг бебаҳо (қимматли) маҳсулидир. Шунинг учун ҳам қобилиятларнинг намоён бўлиши шахслар томонидан ижтимоий эҳтиёжларни қондириш давомида ижтимоий шартланган билимлар ва кўникмаларни таркиб топтиришнинг яққол усулларига бевосита боғлиқдир. Шахс қобилиятларини ривожлантиришда барқарор, турғун, касбий махсус қизиқишлар муҳим омиллар, воситалар тариқасида хизмат қилади.[7.108].

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки Ўзбекистонда бугунги кунда ўсмир ёшларнинг қарийб 70 % интернетдан кенг фойдаланиб келади, лекин уларнинг қанчаси бу тармоқдан тўғри мақсадда фойдаланиши бизнинг энг оғриқ нуқтамиз бўлиб қоляпти. Чунки дунёдаги барча бузғунчилик ҳаракатларининг келиб чиқиш сабаблари вертуал олам орқали ёшларимизга бузғунчи ёд ғояларни уларнинг онгига таъсир этиш орқали амалга оширилмоқда. Бизнинг мақсадимиз уларда юқоридаги келтириб ўтилган қобилиятлар билан бир қаторда танқидий фикрлаш қобилиятларини ҳам шакллантириб боришимиз керак. Ойнани ҳар икки тарафи бўлгани каби ижтимоий тармоқларда маълумотларнинг барчаси ҳам инсон учун манфаатли бўлавермайди. Ёшларимиз бу тизимдан фойдаланар экан ҳар бир материалларни салбий ва ижобий томонларини чуқур тафаккур қила олиши, нима учун кераклиги, қандай мақсадни кўзлаб веб сайтларга жойлаштирилганини онгли тарзда фаҳмлашлари керак.

Президентимиз таъбири билан айтганда ёшларимизда мафкуравий иммунитетни шакллантириш учун ёшларимизга таълим-тарбия жараёнида, оилада, ОАВларда ва ахборот ҳавфсизлигига оид тарғибот-ташвиқот ишларини олиб

боришда ижтимоий тармоқларнидан фойдаланишни чекламасдан улардан тўғри ва мақсадли фойдаланиш маданиятини шакллантириб боришимиз керак.

Билдирилган фикрлардан шундай хулоса чиқариш мумкинки, қолган барча қобилиятлар тузилиши ҳам махсус хусусиятларга эга бўлиб, ўзига хос касбий аҳамият касб этиши билан кўп жihatдан характерлананишини мактаб амалиётчи психологларимиз эътиборга олишлари керак бўлади.

#### Адабиётлар:

1. Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. Т.: 1995.
2. М.Т.Давлетшин. Укувчиларда қобилиятнинг таркиб топиши. "Ўқитувчи".Т., 1965.
3. Умумий психология. А.В. Петровский таҳририда. Т. 1992й. \_\_

## TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING YANGI IMKONIYATLARI

Abduxamidov Sardor Mardonaqulovich  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti  
"Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi

| <b>Annotatsiya</b>                                                                                                                                                              | <b>Аннотация</b>                                                                                                                                                       | <b>Annotation</b>                                                                                                                                                                                      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Axborot<br>texnologiyalarining<br>barkamol shaxsni<br>rivojlantirish, uning<br>mustaqil kasb tanlashi<br>va kasbiy jihatdan o'z-<br>o'zini shakllantirish,<br>kasbiy mahoratini | Возрастающая роль и<br>влияние информационных<br>технологий в развитии<br>всесторонне развитой<br>личности,<br>самостоятельном выборе<br>профессии<br>профессиональном | The increasing role and<br>influence of information<br>technologies in the<br>development of a well-<br>rounded person, his<br>independent choice of<br>profession and professional<br>self-formation, |

o'stirishda tutayotgan samostanovlenii, razvitiui development of  
o'rni va ta'siri ortib professionalnykh navykov, professional skills, and the  
borayotganligi va rol' kompyuternykh role of computer  
bunda kompyuter texnologiy v etom technologies in this  
texnologiyalarining  
o'rni

| <b>Kalit so'zlari</b>                                                                                                                                                              | <b>Ключевые слова</b>                                                                                                                                                                                                    | <b>Keywords</b>                                                                                                                                                                                       |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Elektron va masofaviy ta'lim<br>texnologiyalar,elektron<br>ta'lim<br>(E-Learning),Sinxron<br>elektron<br>ta'lim,asinxron<br>elektron<br>ta'lim,masofaviy ta'lim<br>texnologiyalari | Электронные<br>дистанционные<br>технологии, электронное<br>образование (E-Learning),<br>синхронное электронное<br>образование, асинхронное<br>электронное образование,<br>дистанционные<br>образовательные<br>технологии | и Electronic and distance<br>technologies, electronic<br>education (E-Learning),<br>synchronous electronic<br>education, asynchronous<br>electronic education,<br>distance education<br>technologies. |

Oliy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatidan foydalanib ta'lim olish mumkin. Zero an'anaviy ta'lim o'z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta'lim muhitiga integrallashishgan yo'naltirilgan ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiya imkoniyatlariga javob beradigan o'zgarishlar kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari — bu turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga

ishlov berish usullaridir. U birinchi navbatda, zarur dasturiy ta'minotga ega bo'lgan kompyuterlar va ma'lumotlar joylashtirilgan telekommunikatsiya vositalaridir.

2030 yilgacha yangi ta'lim kontsepsiyasida 2020-yil 6 oktyabrdagi «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4851 sonli Qarori. Sifatli ta'lim berish, bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarini rivojlantirish, elektron texnologiyalarning oliy tahlim muassasalarida ta'lim jarayonini o'zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyasini boshqarishni optimallashtirish zarurligini taqozo etadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish “Raqamli O'zbekiston 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni tahminlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab va bir qator xorijiy universitetlar filiallari faoliyati yo'lga qo'yilib, tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalarga o'qitish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda.

**Elektron va masofaviy texnologiyalar** ta'limning axborot va kommunikatsiya texnologiyalari qo'llangan variantlaridir.

**Elektron ta'lim (E-Learning)** avval “Elektron ta'lim” atamasi kompyuter yordamida o'qitish deb tushunilgan, biroq axborot texnologiyalari rivoji bilan bu tushuncha yanada kengaytirildi. Bugungi kunda elektron ta'lim ko'pgina ta'lim texnologiyalarini qamrab olmoqda, ularni shartli ravishda, 2 xil turga, ya'ni sinxron va asinxron turlarga bo'lish mumkin.

**Sinxron elektron ta'lim** masofaviy ta'lim hisoblanadi, lekin bu real vaqtda amalga oshiriladigan ta'limdir. U oddiy kunduzgi ta'limga o'xshaydi, farqi shundaki, ishtirokchilar bir-biridan uzoq masofada bo'ladi. Kundan-kunga keng tarqalib borayotgan vebinarlar mazkur ta'lim shaklining eng yorqin ko'rinishidir. Ma'ruzalarni tashkillashtirishda maxsus dasturiy ta'minotlar qo'llaniladi.

**Asinxron elektron ta'lim** bu talaba barcha kerakli ma'lumotni onlayn-manbalardan yoki elektron axborot tashish vositalari (CD, DVD yoki flash-kartalar)dan olishi va materialni o'zlashtirish sur'ati va jadvalini o'zi mustaqil tashkil etishdir. Asinxron elektron ta'lim tizimiga barcha turdagi CD-kurslar va elektron o'qitish kurslari, ostkastlar vaskrinkastlar kiradi. Bugungi kunda elektron ta'lim ko'pchilik OTM'larda ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib qolgan, u shuningdek, malaka oshirish kurslarini tashkil etishda ham o'z o'rnini topgan, ba'zi korporatsiyalarda bo'linmalar mavjud bo'lib, ularning vazifasi xizmatchilar uchun elektron kurslar tashkil etishdir.

**Masofaviy ta'lim texnologiyalari** masofaviy ta'lim bu E-Learningga qaraganda kengroq tushunchadir, u interfaol mustaqil ta'limning va qo'llab-quvvatlashning intensiv maslahat sintezi hisoblanadi. Shunday qilib, elektron ta'lim masofaviy ta'limning bir bo'lagi hisoblanadi. Masofaviy ta'lim asosiy o'quv materialini o'quvchilarga yetkazib berish va o'quv jarayonida o'quvchi va o'qituvchi orasida interfaol ishlashni ta'minlaydi. Bunda qo'llanmalarni yetkazib berish kompyuter va Internetsiz ham amalga oshirilishi mumkin.

**Masofaviy ta'limning afzalliklari** masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning juda ko'p ijobiy tomonlari mavjud.

**Yashash joyidan turib, o'qish imkoniyati** chekka qishloqlarda yashovchilarda katta shaharlarga borib, universitetga kirib-o'qish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari ularga o'z shahridan ketmasdan turib, o'qish imkoniyatini yaratib beradi.

**O'qish va ishni birga qo'shib olib borish** o'quvchilar ishdan ajralmagan holda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladilar, bu, ayniqsa, malaka oshirish yoki ikkinchi oliy ma'lumot oluvchilarga juda qo'l keladi.

**Sifatli texnologiyalar va o'quv mazmunini egallash** talaba sifatli o'quv materiallari yordamida o'qitilishi, o'qituvchi bilan muloqat qilishi va o'z individual o'quv rejasini tuzishi mumkin.

**Baholashning xolisligi** masofaviy ta'lim texnologiyalari bilim sifatining doimiy nazorati, natijalarning baholanishi, inson omilidan xoli bo'lgan xolis avtomatlashtirilgan baholash joylarda moddiy manfaatdorlikni yo'qotishni ko'zda tutadi.



**Ta'limda individual yondashuv** o'zgaruvchan grafik, ish va o'qishni birga qo'shib olib borish, shuningdek, o'zlashtirilayotgan materialni ma'lumotni individual o'zlashtirish tezligiga moslash masofaviy ta'limni barcha uchun qulay qilib qo'ymoqda.

**Zamonaviy gumanitar akademiya** masofaviy ta'limdagi yetakchilardan biridir. Bu innovatsion OTM bo'lib, u dunyoning turli burchaklarida talabalarga o'z yashash tarzini o'zgartirmasdan, arzon narxlarda sifatli elektron ta'lim olish imkonini beruvchi elektron ta'limdir.

**Innovatsiyalar bilan hamqadam** Zamonaviy gumanitar Akademiya (ZGA) 1992-yil 23-noyabrda tashkil etilgan. Bugungi kunda u Rossiya va Yevropadagi eng yirik OTM'dir, unda 100ga yaqin talaba tahsil olmoqda. 22 yil davomida 300 mingdan ortiq talaba oliy ma'lumot haqida diplom olishga muvaffaq bo'ldi. Hozirgi kunda akademiya ko'pgina ta'lim dasturlarini taklif etmoqda:

- bakalavr tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha ("Lingvistika", "Yurisprudentsiya", "Boshqaruv", "Iqtisodiyot", "Informatika va VT", "Psixologiya", "Falsafa", "Pedagogik ta'lim", "Politologiya", "Sotsiologiya", "San'at tarixi", "Tijorat", "Ijtimoiy ishlar", "Davlat va mahalliy boshqaruv");

- mutaxassisliklar ("Soliq va soliqqa tortish", "Tarjima va tarjimashunoslik", "Ijtimoiy ishlar");

- magistrnlarni tayyorlash mutaxassisliklari bo'yicha ("Yurisprudentsiya", "Iqtisodiyot", "Boshqaruv", "Informatika va VT", "Falsafa", "Psixologiya", "Kadrlarni boshqarish", "Davlat va mahalliy boshqaruv").

### **O'rta maxsus ta'lim mutaxassisliklari bo'yicha**

- O'rta maxsus ta'lim mutaxassisliklari bo'yicha o'rta bo'g'indagi mutaxassislarni tayyorlash ("Iqtisodiyot va buxgalterlik hisobi (tarmoqlar bo'yicha)", "Boshqaruv (tarmoqlar bo'yicha)", "Huquqshunoslik").

- o'rta maxsus ta'lim mutaxassisliklarini tayyorlashda ZGA aslida, yagona OTM bo'lib, u E-Learningning tamoyillarini ishlatibgina qolmasdan, balki butunlay yangi ta'lim mahsulotlarini yaratish bilan shug'ullanadi.

**Masofaviy ta'lim texnologiyasi** ZGA elektron axborot ta'lim muhitiga keng spektrli vositalari kiritilgan, ya'ni ma'ruzalar, supertyutorlar, mantiqiy sxemalar,

moslashuvchi test-treninglar, testlovchi va baholovchi dasturlar, ZGA xizmatchilarning bu individual ish rejaları tuzuvchi, mashg'ulotlarga, baholashga, rejalar bajarilishini nazorat qiluvchi, moliyaviy hi-soblarni amalga oshiruvchi va reyting daftarchalarni shakllantiruvchi tashkiliy didaktik robotlardir.

Elektron ta'limiy manbalarga kirish talabaning saytdagi «Shaxsiy studiya» orqali amalga oshiriladi. O'quv jarayonini ma'murlash IIS «Nur» intellektual axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim har bir talabaning o'qishga kirganidan to diplom olgungacha qadar bo'lgan vaqtdagi o'qishini kuzatib boradi va nazorat qiladi, baholash va akademik ma'murlashda talabani elektron tarzda identifikatsiyalaydi. Respublikamiz ta'lim muassasalarining barcha bo'g'inlarida takomillashgan tamoyillarga asoslangan yuqorida keltirilgan tizimlarni joriy etsak, o'ylaymanki ta'lim jarayonida olib borilayotgan islohatlarning namunali, samarali ijrosining bir bo'lagi bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.Ochilova. Ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. 2019.
2. Бурхонов А. А. Педагогик технологиялар. О'quv qo'llanma. 2019.
3. Tojiboeva D., Yo'ldashev A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. 2014.
4. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. 2014.
5. Hakimova M.F. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. 2013.

#### MAKTAB O'QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

*Turg'unova A'loxon Ilxomjonovna  
Andijon viloyati Paxtaobod tumani 45-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** O'quv jarayonini o'quvchi shaxsining yosh, psixologik va individual holatlarini inobatga olgan holda tashkil etish, o'quvchining psixologik holatini yaxshilash va darsga nisbatan munosabatini muvofiqlashtirish kabi ko'nikmalarni tashkil etishda

psixologiyaning ahamiyati yuqori baholanadi. Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining individual-psixologik xususiyatlari haqida bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** *ekzopsixil, endopsixik, individual-psixologik xususiyat, reflektor, temperament, xarakter, emotsiyalar, motivatsion doiralar.*

Shaxsning barcha psixik ko'rinishlari uning hayoti davomida shakllanib boradi. Insonning individual psixologik xususiyatlari deyilganda qobiliyatlar, temperament, xarakter, emotsiyalar, motivatsion doiralar tushuniladi. Bu psixologik xususiyatlar ajralmas tarzda mavjud bo'lib o'zaro bog'liq, shartlangan, inson faoliyatida bir biriga birikib ketadi. Kishilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda va ular haqidagi bilimlar amaliy hayotda qo'llanilishi katta ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy faoliyat va qobiliyatlarni to'liq rivoj topishida muhim rol o'ynaydi. Tarixiy jarayonning ayni bir vaqtda ham mahsuli, ham subyekti bo'lgan inson Shaxsi ijtimoiy tuzilishi bilan yonma-yon joylashayotgan va teng huquqqa ega bo'lgan biologik tuzilishni saqlab qola olmaydi. Individ rivojlanishining tabiiy sharoitlari, uning jismoniy tuzilishi nerv va ichki sekretsiya bezlari sistemasi, jismoniy tuzilishidagi afzalliklari va nuqsonlari uning individual psixologik xususiyatlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Psixologiyada shaxsda ikki omil biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan ikkita asosiy kichik struktura mavjudligini ta'kidlaydigan nazariya sezilarli o'rin egallaydi. Inson shaxsning o'zi "endopsixik va ekzopsixik" tuzilishga ega, degan fikr ilgari surildi. Shaxs tuzilishining kichik strukturasi sifatidagi "endopsixik to'zish bamisoli kishining nerv-psixik tuzilishga o'xshash bo'lgan inson Shaxsining ichki mexanizmi kabi psixik qismlar va funksiyalarning o'zaro ichki bog'liqligini ifoda etadi. "Ekzopsixikaning tashqi muhitga munosabati bilan, ya'ni Shaxs qanday bo'lmasin, bari bir munosabatga kirishishi mumkin bo'lgan va Shaxsga qarama-qarshi turadigan tuzilishlarning barchasiga munosabati bilan belgilanadi. "Endopsixika moyillik, xotira tafakkur va xayol xususiyatlari, irodaviy zo'r berish, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik kabi boshqa xislatlarni, "ekzopsixika esa kishi munosabatlari sistemasini va uning tajribasini, ya'ni uning qiziqishlarini, ideallarini, moyilliklarini, ustun darajadagi his-tuyg'ularini, shakllangan bilimlari va boshqa belgilarini o'z ichiga oladi. Tabiiy asosdagi endopsixika" ijtimoiy omil bilan belgilanadi, "ekzopsixika" esa biologik jihat bilan bog'liqdir.

Amerikalik ruhshunos S.Xoll Gekkelning evolyutsiya qonuniyatini psixologiyaga ko'chirdi. Uning fikriga ko'ra, irsiyat filogenezni ontogenezda takrorlaydi. Olimning talqinicha, go'daklik hayvonlarga xos rivojlanish pallasidan boshqa narsa emas, bolalik esa asosiy mashg'uloti ovchilik va baliqchilik bo'lgan qadimgi kishilarning davriga aynan mos keladi. 8-12 yoshlardagi o'sish davri yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishiga teng. O'spirinlik esa jinsiy yetilishdan boshlanib yetuklik davrigacha romantizmga barobardir. Shveysariyalik psixolog E.Klapared

Qiziqish biron-bir sohada to'g'ri yordam beradigan motivdir. Indivud uchun qiziqish, subyektiv tarzda olganda, bilish jarayoni tusini kashf etadigan ijobiy hissiy ohangda, obyekt bilan chuqurroq tanishishga, u haqda ko'proq bilish, uni anglab yetishga bo'lgan istakda namoyon bo'ladi. Qiziqishlar bilishning doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Qiziqishlar mazmuniga, maqsadlariga, miqyosiga va barqarorligiga ko'ra tasnif qilinishi mumkin. Kishidan ko'proq nimaga qiziqish paydo bo'lishi va uning bilish ehtiyojlari obyektning ijtimoiy qimmatini psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Maktabning eng muhim vazifalaridan biri — O'smirlik yoki yoshlarning faol bilish va mehnat faoliyatiga rag'batlantiradigan va maktabdan tashqari ham saqlanib qolishi mumkin bo'lgan jiddiy va sermazmun qiziqishlarini uyg'otishdan iboratdir.

O'z "Men"ining mavjudligini his qilish shaxsning hali chaqaloqligi paytidayoq boshlanadigan va uzoq davom etadigan hamda sobiq ittifoq psixologi I.S.Konning kashf etilishi" deb juda o'rinli atagan shakllanish jarayonining sezgirliigi undan tashqaridagi buyumlar tufayli hosil bo'ladigan sezgilardan farqini anglay boshlaydi. So'ngra 2-3 yoshida bola buyumlar bilan o'z xususiy harakatlar va natijasida hosil bo'ladigan xursandchilikning katta yoshdagilarning konkret harakatlaridan farqini ajratadi va kattalarga qarata: "Yo'q, men o'zim qilaman!" deydi. U endi o'zini atrofdagi muhitdan faqat ajratib olgan holda emas, balki o'zini boshqalarning hammasiga qarama-qarshi ("Bu seniki emas, meniki!") qo'ygan holda o'zini birinchi marta o'zining xususiy harakatlari va xatti-harakatlari subyektini (bolaning nutqida Shaxsiy olmosh paydo bo'ladi) sifatida anglay boshlaydi. Bolalarda bog'cha bilan maktabga borishi oralig'ida va boshlang'ich sinflarda katta yoshdagilar, Ota-onalar va o'qituvchilar yordamida hali o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini anglab yetish darajasida ("Men hammasidan

“Besh” olib kelaman, matematikadan esa “uch” qo‘yishgan, sababi men doskadan noto‘g‘ri ko‘chirarkanman. E‘tiborsizligim uchun Anna Petrovna necha martalab menga “ikki” qo‘ygan”) o‘zining psixik xislatlariga baho bera olish imkoniyatlari (xotira, tafakkur va hokazolar) paydo bo‘ladi. Nihoyat o‘spirinlik davrida va yoshlik davrida ijtimoiy hayotga va mehnat faoliyatiga faol qo‘shilib ketish natijasida o‘ziga ijtimoiy-axloqiy jihatdan baho berishning kengaytirilgan tizimi shakllana boshlaydi, o‘zini anglab yetish tugallanadi va “Men”ning siymosi asosan tarkib topadi.

Insonning eng yorqin xususiyatlaridan biri bu gapira olish qobiliyatidir. So‘z inson psixikasi mavjudligining muhim shartidir. Muloqotsiz jamiyat xam mavjud bo‘lmaydi. Muloqot bilish va mehnat faoliyati bilan bir qatorda inson Shaxsini shakllantiruvchi muhim faoliyat turi sifatida qaraladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlarining faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. Individuallik-kishining o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlarining yig‘indisidir. Individuallik temperament va xarakter xususiyatlarida, odamlarda ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayonlariga oid fazilatlarda, qobiliyatlarda, faoliyatning Shaxsga xos uslubi va h.k.larda namoyon bo‘ladi. Inson shaxsi o‘z individualligiga ko‘ra takrorlanmas.

Shaxsning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish orqali u bilan muloqot qilish shaxslar aro muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, har bir Shaxsda o‘ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo‘l qo‘yishni ta‘minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik, o‘zgalarning ichki dunyosini gaplari, xatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Bolalar psixologiyasi va metodikasi.- Z.Nishanova, G.Alimov.
2. O‘qituvchi qobiliyati va uni psixologiyada o‘rganilishi- K.Qudratova
3. <http://library.ziyonet.uz>
4. <https://www.open.edu>

## O'SMIRLIK DAVRIDA IJTIMOYIY QO'RQUV HOLATLARINING KELIB CHIQUISH SABABLARI VA KORREKSIYA QILISHDA AMALIY TAVSIYALAR

*Turg'unova A'loxon Ilxomjonovna  
Andijon viloyati Paxtaobod tumani 45-maktab psixologi*

Ushbu maqolada o'smirlik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari va bu davrda ijtimoiy qo'rquvning yuzaga kelish sabablari, shu bilan birgalikda o'smirlik davrida yuzaga keluvchi ijtimoiy qo'rquv holatlarini oldini olish va bartaraf etishda psixolog hamda ota-onalarga amaliy tavsiyalar berilgan.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar barkamol inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning yetakchiligini ta'minlashni, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his-tuyg'ularini e'tiborga olib, ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni taqazo qilmoqda. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'ziga xos psixologik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish va diagnostika qilish muhim ahamiyat kasb etadi, ularni rivojlantirish esa zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir.

Mana shunday psixologlarni qiynayotgan muammolardan biri bu o'smirlik davrida inqirozlarning og'ir kechishi va shaxslararo munosabatlarda yuzaga kelayotgan konfliktlar xisoblanadi. O'smirlik davri "o'tish davri", "og'ir davr", "inqiroz davri" ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Aynan o'smirlik davrida o'z vaqtida aniqlab bartaraf etilmasa, shaxsning kamolotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ba'zi qo'rquv turlari mavjud. Ya'ni bu holat o'smirning o'z-o'ziga beradigan bahosining yanada pasayib ketishiga, nevroz holatlarining vujudga kelishiga va hatto psixik buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytilgan o'smirlarning psixologik xususiyatlari turli xildagi biologik yoki ijtimoiy omillar ta'siri ostida bu davrda ijtimoiy qo'rquvlarni vujudga keltiradi. Bunday holatlarning namoyon bo'lishida muammoli oilalardagi omillar sabab bo'ladi:

- Tizimsiz oila (oila a'zolari munosabatlarining nomuvofiqligi, ular o'rtisida surunkali janjal va kelishmovchiliklar);
- To'liqsiz oila (ota-onalardan birining yo'qligi) oilada turli o'ziga xos oilaviy munosabatlarni keltirib chiqaradi;
- Rigid (axloqiy prinsiplarga qattiq rioya qiluvchi) oila, oila a'zolaridan biri tarbiyaviy qattiq qonun-qoida asosida talab qiladi. Oilada qattiqqo'llik o'rnatilgan;
- Bo'lingan oila (ya'ni ota-onalardan biri oilasidan chiqib alohida yashaydi, lekin o'z burchlarini bajarib, oilasidan xabardor, shu bilan birga unga nisbatan qattiq emotsional tobe'lik hukm suradi.).
- Ota-ona tomonidan yo'l qo'yiladigan tarbiyaviy xatoliklar, ya'ni, bunda ota-onalar farzandlarining xatolari va muvaffaqiyatsizliklarini doimo takroriy eslataverishadi, natijada bola butun diqqat e'tiborini o'z xatti-harakatidagi kamchiliklariga qaratishga o'rganib qoladi. Bu vaziyat shu darajaga borib yetadiki, o'zini tutishi, aqliy rivojlanishi, tashqi qiyofasi normal insonlar ham o'zlarini xunuk, beo'xshov, nodon deb hisoblay boshlaydilar;
- Bolaga yoshligidanoq atrofidagi odamlar tomonidan qo'pol va noxaq munosabatda bo'lingani hamda omadsizlikka duch kelganlarida yaqinlari tomonidan ko'p tanqid va tanbeh berilganligidir. Natijada esa odamlar orasida shaxsda o'zini tuta bilish, nutq so'zlash malakalari rivojlanmaydi, o'zining qobiliyatlarini namoyish qila olmaydigan kishi jiddiy vazifalarni bajara olmaydi, shaxslararo munosabatlarda ham o'z o'rnini topishga qiynaladi. Chunki bunday insonlar odamlar to'planadigan, do'stlik munosabatlarini o'rnatish mumkin bo'lgan joylarga bormaslikka harakat qiladi. Bunday holat insonning yashash tarzi va turmush doirasini chegaralab qo'yadi va o'zlarini juda ham yolg'iz sezishadi. Natijada depressiyani yuzaga keltiradi va ko'pincha alkohol va narkotik moddalardan najot izlaydilar.

Maktab o'quvchilarida bezovtalanishlarning rivojlanishiga olib keluvchi omillar:

1. O'quv jarayoning o'zi psixologik (xastalik) jarohat yetkazuvchi omillar:

Maktab yuklamalari (ayniqsa katta sinflarda) insondagi har qanday faol aqliy faoliyat bezovtalanish bilan kechadi. Agar bezovtalanish yaxshilikka yo'naltirilgan bo'lsa, bola qiyinchiliklarni o'zi yenga olsagina boladagi bilim olish davri oson kechadi.



2. O'qituvchi tomonidan bezovtalanishning kelib chiqishi: Ko'p hollarda o'qituvchilar hukmronlik (diktatorlik) holatida ish yuritishadi, bu esa mustaqillikni va yangi g'oyani taklif etish imkoniyatini cheklaydi. O'quvchilarga nisbatan qilingan e'tiborsizlik, kamsitish, noto'g'ri baholash, o'rtoqlari oldida ustidan kulish kabi holatlar ularda o'ziga nisbatan ishonchsizlikni o'g'ir holatlarida esa suitsidga moyillik keltirib chiqaradi.

**O'smirlik qo'rquvini qanday yengish mumkin?** Eng avvalo o'smirning otasini, yaqinlari yoki o'qituvchilari tomonidan bu vaziyat jiddiy ekanligini anglagan holda psixolog mutaxassisga murojat qilishi va birgalikda ish olib borish kerak. O'smirlarga muloqotga kirishishda suhbatni qanday boshlashi va tugatish kerakligini, turli xil ijtimoiy vaziyatlarda o'z fikrini bildirish, omma oldida namoyon qilishga o'rgatish lozim. Balki o'yin shaklida - psixologik trening jarayonlarida mashq qilish orqali ham o'smirda o'ziga bo'lgan ishonchni o'ttirish mumkin.

**Quyidagi ko'rsatmalar o'smirlarda ijtimoiy qo'rquvlarni korreksiya qilishda yordam beradi:**

1. Ko'z bilan ko'z aloqa qilish mashqi. O'quvchingiz yoki farzandingiz bilan suhbatlashayotganingizda o'smirning ko'z bilan aloqa qilish qobiliyatini rivojlantirish, buning uchun – “Menga qara”, “Ko'zlarimga qarab javob ber”, “Men sening ko'zlaringni ko'rmoqchiman” iboralarini qo'llash va suhbat jarayonida uni rag'batlantirib turish, bu o'smirning boshqa odamlar bilan muloqotini osonlashtiradi.

2. Qo'rquvni vizualizatsiya qilish mashqi – o'smirlarga qo'rquyotgan ob'yektini, tasavvurini qog'ozga chizish va bu qog'ozni g'ijimlash, kesib maydab tashlash, suvga oqqizish, yoqib yuborish kabilar qo'rquvni yengishga imkon beradi.

**Ota – onalarga farzandlari bilan birgalikda qo'rquvni yengishda ushbu tavsiyalar yordam beradi.**

- ❖ Farzandingizni o'zi uchun qiziqarli va uni muvaffaqiyatga olib boruvchi mashg'uloti bilan band qilish;
- ❖ Ham ruhiy ham jismoniy dam olish;
- ❖ O'zini – o'zi yetarli darajada baholashga o'rgatish, imkoniyatlarini ochib berish va rag'batlantirish;

- ❖ O'smirning shaxsiy fikrlariga qo'shilish;
- ❖ Oiladagi mavqei va haq – huquqlarini tan olish.

Demak, o'smirlik davridan shakllanib boruvchi, shaxs kamolotiga salbiy ta'sir etuvchi, ko'p qirrali ijtimoiy qo'rquvlar hozirgi kunda keng tarqalgan, o'rganilishi lozim bo'lgan muammolardan biridir. Aynan mazkur jarayonni kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, psixologlar, ota – onalar uchun voyaga yetmagan bolalarini qiynayotgan tashvish va qo'rquvlarini anglay bilish hamda bartaraf etish usullarini topish va buni keng jamoatchilikka tadbiq etish juda muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G'oziev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi". Toshkent 2012.
2. Karimova V.M. "Ijtimoiy psixologiya asoslari". Toshkent 1994.
3. Nishonova Z.T. "Psixik taraqqiyot diagnostikasi". Toshkent 2004.

## **INKLYUZIV TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

*Boymurodova Dilshodaxon Sherqo'ziyevna  
Farg'ona viloyati Furqat tumani 13-maktab psixologi*

Inklyuziv ta'lim-bu barcha bolalar va yoshlar uchun muvaffaqiyatli o'rganishgini osonlashtirishga mo'ljallangan strategik yondashuvdir. Bu o'rganish yo'lidagi barcha to'siqlarni bartaraf etish hamda chetlanishga moyil bo'lgan barcha o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash.

Inklyuziv ta'lim maqsadi-alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'lim olish jarayoni isloh qilib borish rivojlanish darajasidan qat'iy nazar har bir davlat va jamiyat oldida turgan masaladir. Ular ijtimoiy hayotda munosib tarzda o'z o'rnini topishlari uchun ta'lim to'laqonli o'zlashtirishi va uning zahirida muayyan kasb-hunarni egallay olishi lozim. Har bir shaxsning jinsi, yoshi, kelib chiqishi, millati va madaniyatidan qat'iy nazar nimagadir muhtojlikni his etadi. Oddiy sharoitda, umumiy ta'lim tizimida kamol

topgan, tibbiy jihatdan nogironligi mavjud bo'lgan o'quvchilar olgan ta'limining darajasi ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi, moslashuvi hamda jamiyat hayotidagi samarali uyg'unlashuvining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, mazkur ta'lim tizimi sharoitida bilimlarni egallagan, ijtimoiy hayotda yashashi uchun zaruriy sanalgan ko'nikmalar va kasb-hunarni egallagan har qanday nogironligi bo'lgan shaxs o'rganishlar jarayoniga tez va qulay moslashib, shaxsiy va oilasining hayotini farovonlashtirishi orqali mamlakat aholisini turmush darajasini yuqorilashuvini ta'minlaydi. Shu jihat bilan bog'liq holda ta'lim muassasalarining bugungi vazifasi alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni o'z oilasi, mahallasida o'sib kamol topishiga qulay sharoit yaratib berish orqali zamonaviy bilimlar, hayotga to'siqlarsiz uyg'unlashib ketishining omili sinalgan ijtimoiy malakalar bilan qurollanib, mustaqil faoliyat kechirishlariga imkon berishdir.

Inklyuziv ta'limning yana bir xususiyatlaridan biri shuki, u har bir o'quvchining ehtiyojlarini, qobiliyatlarini, imkoniyatlarini va xususiyatlarini boshqalaridan farq qiladigan hususiyatlarga ega ekanligini tushunadi. Shu sababli o'qituvchilar o'quv materiallarini o'zgartirishi va o'quvchilarga yordam berishi uchun shaxsiylashtirilgan strategiyalarda foydalanishlari zarur.

Yuqorida aytib o'tilganmidek, inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga normal hayotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlarning minimal darajalariga erishishga imkon berishga qaratilgan. Biroq hamma o'quvchilar ham ularga erishishlari uchun bir hil sharoitga ega emas.

Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham juda muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish, huquqiga ega ekanligini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish, barcha oila a'zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek, bola va uning atrofini turli xil omillarning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilish. Nogiron bolani tarbiyalayotgan oilaga yordam berishning eng samarali usullaridan biri bu "ota-onalarning birlashmasi" sifatida o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi.

O'z farzandining ota-onasi tomonidan yetarlicha tasavvurni shakllantirish: "kasallik" tushunchasidan uzoqlashish va "rivojlanishning maxsus qonunlari" tushunchasiga o'tish muhimdir;

-bolaning shaxsiy, ijodiy va ijtimoiy resurslarini maksimal darajada oshkor qilish uchun oilada qulay mikroiklimni shakllantirish;

-ota-onalar va bilimlarning o'zaro munosabati va bir-birini to'ldirishini amalga oshiradigan muassasalar, tajribani boyitish bo'yicha sheriklik munosabatlarini shakllantirish.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tabor qaratilmoqda. 2020-yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar qarori bunga bir misoldir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda respublikamizda barcha bolalarning sifatli ravishda ta'lim olishlarida inklyuziv ta'limning o'rnini beqiyosdir. Albatta inklyuziv ta'limni rivojlantirish sabr-toqat va bag'rikenglik, izchillik, uzluksizliklarni bosqichma-bosqich talab qiladi.

## **O'QUVCHILARNING O'ZLARIGA BO'LGAN ISHONCH HOSIL QILISH**

*Sodiqova Feruzaxon Olimovna  
Farg'ona viloyati Furqat tumani 7- maktab psixologi*

Qush qo'ngan shohining sinib ketishidan qo'rqmaydi. Chunki u daraxt shoxiga emas, o'zining qanotlariga ishonadi.

Bu jumla orqali boshingga musibat kelganda ham boshqalarga emas faqat o'z qanotlariga ishonish kerakligini anglatadi. Ya'ni qo'nim topgan novdaning bir kun sinishi aniq, biroq qanotlariga e'tabor qilmasang, katta musibatga uchrashing mumkin. Shox sinsa sening qanotlaring tutib qoladi. Boshingga musibat kelsa boshqalardan

emas, o'zingdan madad ol. Sevimaganingni his qilsang o'zingni sev. O'zingni yolg'iz his qilganingda o'zing bilan shunday vaqt o'tkazginki, bu yolg'izlik deb atalmasin.

Ishonchli tarzda harakat qilish maqsadga erishish, o'zingizni nazorat qilish, tajovuzkorlik va uyatchanliksiz o'z manfaatlarini himoya qilish, nizolardan chiqish sharafi bilan erishish demakdir. Albatta, bu fazilatlar hayot davomida rivojlanadi, lekin ularning shakllanishiga eng muhimi, yoshlikda to'plangan hayot tajribasi ta'sir qiladi. O'ziga bo'lgan ishonch - bu insonning hayotida va o'zi oldida turgan vazifalar uchun yetarli bo'lgan imkoniyatlarini boshdan kechirishdir. Har qanday faoliyat turiga bo'lgan ishonch, insonning o'z-o'zini hurmat qilishi uning haqiqiy imkoniyatlariga mos kelganda sodir bo'ladi. Agar o'z-o'zini hurmat qilish haqiqiy imkoniyatlardan yuqori bo'lsa (quyida) bo'lsa, o'z-o'zidan ishonch (ishonchsizlik) mavjud bo'ladi. O'ziga ishonch insonning barqaror sifati bo'lishi mumkin.

Har birimiz, bilmagan holda ko'pincha o'zimizni boshqalar bilan taqqoslaymiz va natijada bizning aqlimiz, tashqi ko'rinish, sog'lig', jamiyatdagi mavqeimiz to'g'risida mutlaqo barqaror fikr ishlab chiqamiz, ya'ni o'zimizga, hissiyotga bog'liq bo'lgan "o'zini o'zi qadrlash" to'plamini shakllantiramiz. Bu - dunyoda farovon yashash, ishlash, odamlar bilan munosabatlar uslubi. Shunisi e'tiborga loyiqki, o'ziga bo'lgan munosabat va boshqa odamlarga bo'lgan munosabat bir-birlariga ta'sir qiladi: o'z-o'zini hurmat qilish, boshqalarga munosabatda ham hurtmatni shakllantiradi. O'zini yaxshi deb hisoblaydigan, boshqa odamlarni yaxshi ko'rgan, ularga yaxshi muomala qiladigan va ularga munosabat bildiradigan kishi, bu uning fikri va uning qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini oshiradi. Xuddi shu tarzda, o'ziga nisbatan fikri past bo'lgan odamda buning teskarisi.

O'ziga ishonchli va ishonchsiz shaxsning xatti-harakati belgilari.

O'ziga ishonchli xatti-harakatni ko'rsatadigan kishi xotirjam ko'rinadi, qadr-qimmatga ega. Uning nigohi xotirjam, hatto qomati xotirjam va ishonchli ovozi bor. U bezovta qilmaydi, vahimaga tushmaydi, urushqoqlik xususiyatini ko'rsatmaydi.

Ishonchsiz shaxsning xatti-harakati ikki xil: tajovuzkor va passiv, qaram. Ishonchsiz odam tajovuzkor bo'lishi mumkin: qichqiriq, haqorat qilish, qo'llarini silkitib, nafrat bilan qarash va hokazo. Bunday xatti-harakatlar talabchanlik yoki dushmanlik

bilan tavsiflanadi, inson "shaxsiyatga o'tadi" va ko'pincha o'z ehtiyojlarini qondirishga emas, balki boshqasini jazolashga e'tibor beradi. Ishonchsizlik, shuningdek, qarama-qarshi, uyatchan xatti-harakat orqali namoyon bo'ladi: bunday kishi juda jim, uyatchan yurish, boshini chayqash va tushirish, to'g'ridan to'g'ri qarashdan qochish, unga bosim o'tkazilmasa ham namoyon bo'lishi mumkin. Bunday xatti-harakatlar bilan, bir kishi muammoni to'g'ridan to'g'ri muhokama qilishdan voz kechadi, uning istaklari va ehtiyojlari haqida bilvosita shaklda gapirishga moyil bo'ladi, "ayblash" passiv, lekin sherikning taklif qilishi mumkin bo'lgan narsalarni qabul qilishga tayyor emas.

O'ziga ishongan kishi tajovuzga yoki passiv qaram xatti-harakatlarga murojaat qilmasdan o'z pozitsiyasini qanday himoya qilishni biladi. U o'z ehtiyojlari, shuningdek, sheriklar tomonidan kerakli harakatlar haqida ochiq gapiradi, buni dushmanlik va o'zini himoya qilmasdan qiladi. Ishonchli shaxs, shuningdek, mustaqillikni namoyon etish, shaxsiy fikrini himoya qilish va boshqalarga itoatkorlik bilan rioya qilish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Ishonchingizni mustahkamlash uchun bir nechta maslahatlar:

1. Esingizda bo'lsin, ideal odamlar yo'q va siz istisno emassiz, shuning uchun xatoga yo'l qo'yish ayb emas. Buni xotirjam his eting. Har qanday xato sizni yaxshilashga imkon beruvchi tajriba!

2. O'zingizga ishonch hosil qilish boshqalarga nisbatan jasoratli, tajovuzkor bo'lishni anglatmaydi.

3. O'z-o'zingizni ishontiring.

4. Omad va yutuqlaringizni, hatto kichiklarni ham ko'rib chiqing. Ular uchun o'zingizni maqtang!

5. Boshqalar siz haqingizda qanday fikrda bo'lishlari yoki nima gapirishlariga e'tibor bermang.

Endi hoziroq o'zingizga ishonish, o'zingizni qadrlash va sevishni boshlang va siz buni amalga oshirasiz!

1.O'zgaruvchan xona" mashqi.

**Maqsad:** ijobiy hissiy muhitni yaratish, trening ishi uchun kayfiyatni ko'tarish. Keling, asta-sekin xona ichida yurib, bir-birimizni kutib olaylik. Va endi tasavvur qiling-a, xona saqich bilan to'ldirilgan va siz u orqali uzaydingiz.

Va endi esa xona to'q sariq devorlarga aylandi. Zamin va ship, siz "Fanta" da pufakchalar kabi energiya, quvnoq va yengil his qilasiz... va endi yomg'ir yog'di, atrofdagi hamma narsa ko'k va kul rangga aylandi. Siz qayg'uli, qayg'uli, charchagan holda yurasiz... Yana quyosh chiqdi. Porloq kun... xursandlikdan sakraymiz.

2. "Oyna" mashqi.

**Maqsad:** ideal "Men" tushunchasini shakllantirish.

Endi siz ikki ko'zguda o'zingiz haqida yozish uchun taklif etilasiz: bir oyna siz hozir aslida qandayligingizni aks ettiradi, va boshqa oyna – siz qanday bo'lishni istaydigan qiyofa. Munozara: ikkita oynada farqlar bormi? Ular asosan nima bilan bog'liq? Qanday qilib o'zgarishga erishishim mumkin? Buning uchun nima kerak?

3. "Aks sado" mashqi.

**Maqsad:** ish uchun kayfiyat va ijobiy hissiy muhitni yaratish.

Trener: Salom, sizni bizning darsimizda ko'rishdan baxtiyorman. Va boshlash uchun men bir-birlaringiz bilan salomlashishni taklif qilaman. Guruh a'zolari o'z navbatida o'z nomlarini qo'shimcha ma'lum bir ishora (jest)lar bilan birga aytadilar. Keyin guruh xor bo'lib uning ismini chaqiradi va jestni takrorlaydi.

4. "Vaqt-nima?» mashqi.

**Maqsad:** vaqtni rejalashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlarini yanada to'liq tushunish, o'zi haqida to'liq tasavvurni shakllantirish.

Trener: Iltimos, qog'ozni oling va "Vaqtni qanday ishlataman?" savoliga ikkilanmasdan 20 ta javob berishga harakat qiling va aqlingizga kelgan birinchi javobni yozing. Va endi siz yozgan hamma narsani ko'rishingiz mumkin. Munozara: Vaqtga nisbatan munosabat haqida yozish qiyinmi? Vaqtga nisbatan ijobiy munosabatni birinchi o'ringa qo'ygan xususiyatlar qanday? Qaysi pozitsiyalardan vaqtga nisbatan salbiy munosabatni bildirasiz?

5. "Fikrlar" mashqi.



**Maqsad:** atrofdagi odamlarning o'z-o'ziga munosabatni shakllantirishga ta'sirini anglashga o'rgatish.

**Trener:** Biz kim va nima o'z-o'ziga munosabatni shakllanishiga ta'sir qilishini muhokama qildik. Keling, buni haqiqiy hayotda qanday bo'lishini ko'rishga harakat qilamiz. Buning uchun endi o'z navbatida har bir ishtirokchining eng yaxshi sifatini aytamiz. Umuman olganda, jozibali xususiyat bo'lishi kerak. Va fikr metafora shaklida ifodalanishi kerak ("tikanli kirpi", "abadiy dvigatel", "jumboq").

**Munozara:** insonga uning ijobiy fazilatlari haqida gapirish yaxshi ekanmi? Bu fazilatlarni insondan ajratish qiyinmi? O'zingiz haqingizda yaxshi sharhlarni eshitganingizga qarab, kayfiyatingiz qanday o'zgardi? Sizningcha, boshqalarning ijobiy bahosi o'z-o'ziga munosabatni shakllanishiga ta'sir qiladimi? Nima uchun?

## **OILADA OTA-ONA VA FARZAND FARZANDLAR O`RTASIDAGI O`ZARO MUNOSABATLARNING MAS`ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISHDAGI O`RNI**

*Oripova Mohigul  
Farg`ona viloyati Furqat tumani 15-maktab psixologi*

Oila-insoniyat tarixining hamma davrlarida jamiyatning kichik bir yetakchisi hissoqlangan. Bizning mamlakatimizda esa oila-yuksak qadryat sifatida qadrlanib keladi. Oila bolalarga tarbiya berishning ilk maskani bo'lib, bolaning shu maskanda tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, shu tarbiyaning amalga oshiruvchi ota-onaning o'z burchi vazifalarini qanday mas'uliyat bajarishlariga ko'p bog'liqdir. Zero, har qanday oilaning istiqboli, taqdiri va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi bolalarning oilada olgan tarbiyasiga bog'liq.

O'zbek oilalarining asosiy prinsiplari — bu oilaning muqaddasligi, farzandlarning ota-ona oldidagi burchi, o'zaro hurmat va kelishuv, oila sha'ni va

obro'sini himoya qilishdir. An'analar o'zbek xalqining milliy madaniyati va turmush tarzining ajralmas qismidir va qadriyatlar hamda ko'rsatmalar tizimida yuqori o'ringa ega. Ota-onalarga yuksak hurmat va e'tibor ko'rsatiladi. Oilaning katta o'g'illari ota-ona, uka-singillariga doimo yordam berib keladi. Ko'pchiligimiz tinchlik-xotirjamlik, o'zaro hurmat va kelishuv, hamfikrlik, hamjihatlik, ma'naviy yaqinlik kabi qadriyatlar mujassam bo'lgan oilani baxtli va ahil deyishimiz mumkin.

Afsuski oxirgi paytlarda milliy qadriyatlarimizning buzilish holatlari ro'y bermoqda. Oila a'zolarining ayrimlari tomonidan ichkilikka ruju qo'yish, turli moddalarni iste'mol qilish, kompyuterga tobelik, oilaviy janjallar hayotimizga kirib kelmoqda. Bu esa yosh avlodning tarbiyasiga, uning sog'lom rivojlanishiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Sog'lom va tinch-farovon oilada ota-onalar farzandlarini bo'sh vaqtini tashkil etishga katta ahamiyat beradilar. Ota-onalar shuni tushunishlari kerakki, oilaning yashash va turmush tarzi, oila a'zolar o'rtasida majburiyatlarning to'g'ri taqsimlanishi, mehnat va dam olishni rejalashtirish muhim hisoblanadi.

Bundan farqli ravishda nosog'lom oilalarda sog'lom turmush tarzi va bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etishga umuman ahamiyat berilmay, buning natijasida esa bolalar va o'smirlarda xulq buzilishlar va xarakterdagi patologik xususiyatlar yuzaga keladi.

Ota-onalarning bolalarga yetarlicha e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatmasliklari, ularning bo'sh vaqtlarini o'tkazishlariga ahamiyat bermasliklari, sog'lom turmush tarzi, o'z sog'lig'iga e'tibor berish, shaxsiy gigiyena qoidalari, bolalarning balog'at yoshidagi o'zgarishlar, jinsiy tarbiya borasida farzandlari bilan do'stona suhbatlar o'tkazishiga, ularga maslahatlar berishga kam e'tibor berilmoqda. Natijada turli kasalliklar, ruhiy buzilishlar, voyaga yetmaganlar o'rtasida erta tug'ruq holatlari yuzaga kelmoqda.

Oilada do'stona munosabatlarning bo'lmasligi yoki munosabatlarning buzilishi bolalarni ota-onalardan uzoqlashtiradi, ular o'rtasida turli kelishmovchiliklarni yuzaga keltiradi, ota-onalarning bolaning ta'lim olishi, bo'sh vaqtini o'tkazishiga befarq munosabatda bo'lishini keltirib chiqaradi.

Demak, sog'lom turmush tarzini an'analarimiz, qadriyatlarimiz darajasiga kiritishimiz kerak. Sog'lom turmush tarzi tushunchasiga inson faoliyatining barcha ijobiy

tomonlari mehnatdan qoniqqanlik, faol hayotiy munosabat, maishiy hayotning yo'lga qo'yilganligi, zararli odatlarning yo'qligi, yuksak tibbiy faollik, salomatlikning mustahkamligi uchun sog'lom muhitning yaratilishi kabilar kiradi

Xulosa o'rnida shuni aytganda, bola tarbiyasi har qanday zamon va makonda ham davlat va jamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan ustivor masala hisoblangan. Shunday ekan, bu borada nafaqat ota-ona, balku har bir inson o'z burchi va mas'uliyatini chuqur his etgan holda, Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan yondashgan holda faoliyat olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Aqliy hujum: "Oila – bu..."

Trener koptokni qo'liga ushlab, "Oila" so'zini eshitganda sizda qanday fikrlar, tasavvurlar paydo bo'ladi?-deb savol beradi.

Barcha ishtirokchilar aylana bo'lib o'tirib olib, savolga javob beradilar. Trener to'g'risida o'tirgan ishtirokchiga koptokni berib, savolga "Men uchun oila bu....." degan so'z bilan boshlashini aytib o'tadi. Shunday tartibda ishtirokchilar bir-biriga koptokni uzatadi va savolga javob beradi. Hamma ishtirokchi savolga javob berganlaridan so'ng, trener umumlashtiradi va xulosa qilib yakunlaydi.

Trener xulosasi: Demak, har birimiz oila haqida tushunchaga egamiz, hammamiz oilani o'zimizcha tasavvur qilamiz, ba'zi birlarimizniki bir birimiznikiga o'xshaydi. Eng asosiysi oila hammamiz uchun muqaddas dargoh, jamiyatning bo'g'ini va hokazo -deb ishtirokchilarning bergan ta'riflarini qo'shib davom ettiradi.

Guruhlarda ishlash: "Ota-ona va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlar" mashqi (bu mashqni art-terapiya usuli orqali ham o'tkazish mumkin).

Ishtirokchilar 2 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga flipchart beriladi. 1-guruhda flipchart (rasm yoki kollaj)da bola va ota-ona munosabatlari paytidagi ijobiy va salbiy tomonlarni ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy va salbiy tomonlari bolaga va butun oila hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishini tasvirlab beradilar.

Shundan so'ng ikkala guruhning tasvirlagan rasmlari taqdimoti va muhokamasi bo'ladi. Muhokama ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda oilaning rolini asoslash va tahlil qilish bilan yakunlanadi.

Guruhlarda ishlash: “Ota-ona va bola o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar” mashqi (bu mashqni art-terapiya usuli orqali ham o‘tkazish mumkin).

Ishtirokchilar 2 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga flipchart beriladi. 1-guruhda flipchart (rasm yoki kollaj)da bola va ota-ona munosabatlari paytidagi ijobiy va salbiy tomonlarni ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning ijobiy va salbiy tomonlari bolaga va butun oila hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tasvirlab beradilar.

Shundan so‘ng ikkala guruhning tasvirlagan rasmlari taqdimoti va muhokamasi bo‘ladi. Muhokama ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarda oilaning rolini asoslash va tahlil qilish bilan yakunlanadi.

“Sovg‘a” o‘yin-mashqi.

Ishtirokchilar aylana bo‘lib turib oladilar.

Trener: “Hozir biz farzandlarimizga sovg‘a qilamiz”. Trenerdan boshlab hamma navbat bilan farzandlari uchun qiladigan sovg‘asini chizib, tasvirlab beradi. Sovg‘a har qanday narsa bo‘lishi mumkin. Masalan, kompyuter, kitob, gul va hokazo.

“Men - xabar” mashqi.

Trener boshqa odamlarga murojaatning 2 ta “Sen-xabar”, “Men-xabar” turi haqida gapirib beradi. Aksariyat, ota-onalar farzandiga murojaat paytida ko‘pincha shunday savol berar ekan: “Sen-xabar”. Masalan, “Sen nega darsingni tayyorlamading?”, “Bo‘ldi, yuraverma menga xalaqit qilayapsan?”, “Qani bu ishingni to‘xtat?”, “Yo‘q, sen u yerga bormaysan?”, “Sen yolg‘onchi va dangasasan” va boshqalar.

Bunday xabar katta insonlarning bola va ota-ona o‘rtasidagi o‘zaro ijobiy muloqotni buzib qo‘yadi. Bola xafa bo‘lib ko‘ngli og‘riydi. Ota-ona doimo haq, bola aybdor degan taassurot paydo bo‘ladi.

"Men kimman? Men qandayman?» mashqi.

Maqsad: o‘z-o‘zini namoyish qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Bolalar sizdan "Men kimman?" degan savolga qog'oz varag'ida javob yozishingizni so'rayman.". Savolga aniq javob berish kerakligiga e'tibor bering. "Men qandayman?" - bu boshqa masala.

Misol uchun:

1. Men-Hasan

2. Men kitoblarni yaxshi ko'raman
3. Men quyoshman
4. Men sportchi va boshqalar.

Har bir inson tayyor bo'lgach, o'zingizni tanishtirishni taklif qilaman. Ishtirokchilar o'z navbatida turishadi va ular kimligini aytishadi. Agar javob aniq bo'lmasa, qolganlar spikerga aniqlik kiritishini iltimos qilishlari mumkin. Har bir o'smir uchun treningda ishtirok etuvchilar soniga qarab 1-2 daqiqa beriladi.

Munozara: Munozara davomida o'quvchilar o'z fikrlarini bayon etadi.

## **O'QUVCHI YOSHLARDA TO'SIQLARNI YENGIB O'TISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

*Matiboyeva Dilobatxon  
Farg'ona viloyati Furqat tumani 27-maktab psixologi*

Muommolar ichida qolganingda Hazrati Mavlononing shu gapini yodaga ol:

“Muommolar misoli bir tun.

Dam ol qayg'uga botma.

Tong, albatta otadi

Inson hayotda yashar ekan, turli xil muammoli vaziyatlarga duch keladi. Boshqacha qilib aytganda, hayot - oq va qora chiziqlardan iborat, shunday ekan, har bir inson o'z hayotining muayyan bosqichida og'ir, muammoli damlarni boshdan kechiradi. Xo'sh muammo o'zi nima?

“Muammo” so'zi lug'atda “yechim talab qiladigan noaniq va qiyin masala”, deb ta'riflangan ekan. Yana boshqasida esa “tushunish, bajarish yoki amalga oshirish qiyin bo'lgan narsa”, deya ta'riflanadi.....

Shu bilan birga muammo bu - kutilmaganda keskin o'zgargan real voqea va hodisalarning kimgadir yoqmasligi va uni o'zgartirish uchun xohishning paydo bo'lishi. Sodda qilib aytganda real vaziyatga bo'lgan negativ yondashuvi va uni o'zgartirishga harakat qilish. Barcha muammolarning ikkita o'xshash jihatlari bor: *maqsad va to'siq*.

Maqsad borligi uchun, unga intilish bo'lganligi sababli bizda muammolar bo'ladi. Umuman, biz maqsadimiz sari odimlayotganimizda yo'limizni to'sishi mumkin bo'lgan har qanday masala biz uchun muammo hisoblanadi. Bunda muammoni yengish maqsadga yetib borish bilan barobardir. Maqsadingizga erishishning bitta yo'lini topa olmadingizmi, demak bu Siz uchun muammo. Maqsadga erishishning ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi yo'llarini topishingiz esa sizdagi mavjud muammoning hal qilinishi bilan tengdir.

To'siq- har qanday maqsadga intilish jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan holatdir. Qachonki insonda o'ziga ishonchi bo'lsa rejalariga yetishish yo'lida hamma to'siqlarni yengasan, ishtiyoqingni so'ndirmoqchi bo'lgan har kim bilan kurashishga kuch topasan. Imkonsiz narsaning o'zi yo'q. "Qila olaman, deganingda tanangdagi yuz milliard hujayra maqsadlaring uchun harakatga tushadi" Sen o'zingga ishon. Boshqalar ham senga ishonishni boshlaydi. Paulo Koeloning mashhur jumlasini eshitganmisan?

"Sen biror narsani chindan xoxlasang, butun olam sening xohishing ijobat bo'lishi uchun harakatga keladi".

Xuddi shunday o'ylashni boshla, shuni o'zingga singdir. Sen istagan har narsa bir nafaschalik yaqin Mag'lubiyatga yuz tutib, qayta oyoqqa turganingda sen istagan narsalar sen tomon harakatlanayotganiga guvoh bo'lasan. Insonni qaror qilgan yo'lidan birov qaytara olmaydi. Bajarishni hohlaganlariga hech kim to'sqin bo'lolmaydi. Seni tushunadigan inson hech qachon yo'lingga to'siq bo'lmaydi. Ammo o'zing o'zingga to'siq bo'lishing mumkin. Qilishing kerakligida o'zingga ishonmaysan. O'z qarashingga o'zing chiqasan va to'siqlarga mag'lub bo'lasan. Maqsad yo'lida paydo bo'lgan to'siq muammoning o'zi hisoblanadi. To'siq bo'lmaganida muammo ham bo'lmasdi. Demak, to'siq muammoning mavjudligi bilan bog'liq. To'siq va muammo uchrashishi tabiiy holat. Ammo uni yana bir maqsad qo'yish bilan bartaraf etish mumkin.

Shogird ustozidan so‘radi: – Agar yiqilganimdan xabar topsangiz, nima derdingiz?

– Tur, derdim.

– Yana yiqilsam-chi? – Yana tur, derdim.

– Bu holat qachongacha davom etishi mumkin: yiqilasan, turasan, yiqilasan, turasan?

– Tirik ekansan, yiqilaver, o‘rningdan turaver. Faqat o‘liklarga yiqilib qayta turmaydilar.

Masalan: Biron bir ish bajarish uchun kasallik to‘siq bo‘lishi mumkin. Ammo tuzalish va maqsadga yangi kuch bilan erishishga maqsad qilish orqali bunga barham berish mumkin.

Hayotda uchraydigan qiyinchiliklarni yengishda bir qancha samarali usullardan foydalanish mumkin.

Qiyinchiliklarni yengishda bir qancha samarali usullar:

Ijobiy yondashuvni saqlab qolish. Hayot bizga ayni damda diqqat doiramizda bo‘lgan narsalarni yaqinlashtiradi. Masalan, biror mashina rusumi haqida orzu qilayotganlar kun sayin ko‘chada aynan shu rusumdagi mashinalarni ko‘proq uchrata boshlashadi. Aslida avtomobillar ko‘paymagan bo‘ladi. Shunchaki miyamiz o‘z hayollaridagi mavzuga monand ob‘yektni ko‘rganda

Sizni tushunadigan insonlar qurshovida bo‘lish.

Insonlar uchun atrofdagi o‘ziga yaqin odamlarni yig‘ish — murakkab vaziyatda qolganda qilishi mumkin bo‘lgan eng muhim narsalardan biri. Bu vaziyatda insonga ularning mehr-muhabbati zarur. Inson o‘zini ahamiyatli his qilishi uchun avvalo, ular haqida qayg‘urishi kerak. O‘ziga ishongan odamlardan haqiqat va maslahat tinglashi uchun unga ularning haqqoniyligi zarur. Ularning sizni tushunishi, qanday bo‘lsangiz, shundayligingizcha qabul qilishlari, agar qandaydir sabablarga ko‘ra, bunday odamlar yo‘q bo‘lsa, hozir miyadan o‘tayotgan qiyinchiliklarga duch kelgan boshqa kishilarni jalb qilish muhim. Ular qiyinchilikni yengib o‘tishga yordam beruvchi zarur tavsiyalar berishadi.

Xulosa oddiy: Qancha ko‘p yomonlik kutsangiz, shuncha ko‘p olasiz. Shuning uchun bo‘layotgan hodisalarga nisbatan ijobiy fikrda bo‘lish muhimdir. Aks holda



yomonlik hamma joydan chiqib kelaveradi. Inson tobora depressiyaga tushib boradi va aksincha: ijobiy fikrlab, ezgulikka ishonib, miya sozlamalarini o'zgartirsa, aynan yaxshiliklarni ko'ra boshlaydi. To'g'ri, ijobiy yondashuv barcha muammolarni hal qilmasligi mumkin, lekin atrofingizdagi olam yorqin ranglarga kira boshlashi to'g'ri.

“Ezgulik” elchisi mashqi

Trening 30 minutga mo'ljallangan.

**Maqsad:** guruhdagi psixologik muhitni yaxshilash va guruhiy hamjihatlik asosida milliy istiqlol g'oyalari “ezgulik”, buzg'unchi va vayronkor g'oyalarni esa “yovuzlik” elchisi sifatida tushunish orqali o'smirlarda “yovuzlik” elchilariga nisbatan g'oyaviy kurashuvchanlik va barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish.

**Ko'rsatma:** Trening 2 bosqichda olib boriladi. 1-bosqich “Ezgulik” elchisi sifatleri haqida va 2- bosqichda esa “Yovuzlik” elchisi sifatleri haqida trening ishtirokchilari o'zlari bilganlaricha fikr bildirishadi.

1- Bosqich. “Bizning har birimizda qandaydir ma'noda ezgulik va insonlarga nisbatan yaxshilik istash hislari rivojlangan. Hozir biz insonlar haqida ezgu so'zlarni eshitamiz. Siz o'z yaqinlaringiz haqida qanday yaxshi fikrlarni ayta olasiz. Tayyorlanib olishingiz uchun sizga 5 daqiqa vaqt beriladi. Siz o'zingiz mustaqil ravishda guruhning bir a'zosi haqida gapirib berishingiz lozim. Bunda qisqa va aniq gapirishingiz, shu bilan birga, ushbu shaxsdagi eng qadrlagan sifatlaringizni aytib o'tishingiz kerak”.

2- Bosqich. Trener mashg'ulot qatnashchilariga qarata nima deb o'ylaysizlar “Ayrin bir insonlarda qandaydir ma'noda yovuzlik va insonlarga nisbatan yomonlik istash hislari rivojlangan. Hozir biz aynan o'sha insonlarda qanday bu kabi yovuz sifatni yozish kerak bo'ladi. Rasmning teppa qismiga ustuncha qilib, o'zingizning asosiy ichki xususiyatlaringizni sanab o'ting (sizning hayot yo'lingizni belgilaydigan eng ahamiyatli 8-10 ta xususiyat. Masalan vatanparvarman, dangasaman, mehribonman, bee'tiborman kabilar). Keyin o'z fikringizni guruhni sizga nisbatan shakllangan fikri bilan qiyoslang.

## ORZU VA MAQSAD-MUVAFFAQIYATGA YETAKLOVCHI YO'L

*Yo'ldasheva Dilfuzaxon Qahhorovna  
Farg'ona viloyati Furqat tumani 17-maktab psixologi*

*Buyuk insonlar o'z oldilariga maqsadlar qo'yadilar;  
boshqa odamlar ularning xohishlariga ergashadilar.*

Vashington Irving

Nega orzu qilish kerak. “Orzu va uning inson hayotidagi o'rnini. Inson orzusini ro'yobga chiqarishga intilishi kerak” mavzusida insho.

Ehtimol, dunyoda hayotida hech bo'lmaganda bir marta orzularga berilmagan odam yo'qdir. Hammasi bolalikdan boshlanadi - bizning tiniq boshimizda kelajak haqidagi fikrlar paydo bo'ladi. Psixologlarning ta'kidlashicha, bu tarzda bolaning fikrlash shakllanishi sodir bo'ladi, kichkina odamning tasavvuri rivojlanadi. Shuningdek, ular bolalar orzularining aksariyati hech qachon amalga oshishi dargumon illyuziyalar ekanligini ta'kidlashadi. Ammo bu fakt kichkintoylarni bezovta qilmaydi, ularda baraka, umidsizlikning qisqa xotirasi bor. Ularning boshlarida fikr oqimlari shakllanadi va ular uchun hozir, hozir nima bo'layotgani muhim. Qolganlarning hammasi kelajagi ham, o'tmishi ham yo'q daryodek oqib ketadi.

Kattalar ko'pincha sevimli farzandining orzularining asosiy tinglovchilariga aylanishadi - u o'zi xohlagan narsa haqida soatlab gaplashishi mumkin. Chunki orzular, sehr va barcha imkoniyatlar dunyosi chaqaloq dunyosi. Bundan tashqari, ular hech qanday chegaraga ega bo'lmagan ajoyib tasavvurga ega. Ammo yillar qo'shilishi bilan odam ulg'ayadi - orzular yanada zaiflashadi. Biz faqat nima mumkinligi haqida o'ylaymiz. Va nima keksa odam, ko'proq uning uchun imkonsizdir. Ya'ni, orzular kam bo'lib qoladi. Va behuda! Psixologlar odamlarning pragmatizmidan xavotirda. Ular o'ylash imkoniyatidan mahrum bo'lishdi, hatto ozgina bo'lsa ham, lekin yaxshi.

Orzu qilish nafaqat yoqimli, balki foydalidir! Va keyin birgalikda biz bir qator sabablarni bilib olamiz - nima uchun odamlar xayolparast bo'lishlari kerak.

Orzu - bu xohishning go‘zal qiyofasi, harakatni boshlash uchun ilhomlantiruvchi kuch. To‘g‘ri orzu yo‘l va maqsadlarda mujassamlashadi. Biroq, turli xil yo‘llar bilan orzu qilishingiz mumkin. Siz o‘zingizni (va boshqalarni) o‘z orzuvingiz bilan ilhomlantira olasiz yoki behuda orzularga berilishingiz mumkin. Orzu bilan faoliyatni tashkil etish ajoyib, hayotdan uzoqlashish esa zararli.

Birinchi holatda orzu qilishni bilish foydali. Ikkinchi holatda - hayotdan uzoqlashtiradigan zararli odatni tark etish.

Orzularga berilib ketishni yaxshi ko‘radiganlar, ularni amalga oshirishda shoshilib qoladilar, chunki haqiqatda yuqori orzularga erishish mashaqqatli bo‘lishi mumkin.

Ammo agar siz yashashni xohlasangiz va hayotdan qochmasangiz, orzularingizni haqiqatga aylantirasiz va agar siz kuchli va ijodiy odam bo‘lsangiz, ba’zida sizning mujassamlangan haqiqatingiz havoyi havas va fantaziyadan ko‘ra qiziqroq bo‘ladi.

Bizning maqsadlarimiz turlicha bo‘lishi mumkin:

tashqi - ichki; strategik - taktik; shaxsiy - jamoaviy; natijaga yo‘naltirilgan - jarayonga yo‘naltirilgan; uzoq muddatli - qisqa muddatli; moddiy – ma’naviy; kichik-buyuk va boshqalar.

Bizning maqsadlarimiz qanday talablarga javob berishi kerak?

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, maqsadga erishishda muvaffaqiyatning 70 foizi uning maqsadga muvofiqligi hisoblanadi.

Faoliyat, boshqaruv va menejment sohasida SMART tizimi keng qo‘llaniladi. Bu vakolatli maqsadlarni belgilashning o‘ziga xos metodologiyasi. Ushbu qisqartirishning har bir harfi muhim tarkibiy qismni anglatadi.

Biz aniq maqsadlarga misollar keltiramiz:

"3 oy ichida har kuni shanba va yakshanbadan tashqari 1,5 soat davomida ingliz tilidagi tartibsiz fe'llardan foydalanish qoidalarini mukammal o‘rganishni mashq qilish  
Va boshqalar....

*Maqsad orzudan nimasi bilan farq qiladi?*

*Orzu bu ideal, keng mavhum tushuncha.*

*Maqsad - real, aniq, resurslar bilan aniqlashtirilgan. Keling, qanday qilib orzuni haqiqatga aylantirish va maqsadlarni belgilashga misollarni ko‘rib chiqaylik*

Biz siz bilan zanjirni ko‘rib chiqdik: orzu - maqsad - reja. Bunday zanjir bizning hayotimizda qanday rol o‘ynashini tasvirlash uchun biz tasvirni – obrazli tarzda, ya’ni elektr stantsiyasi misolida ko‘rib chiqamiz.

Orzu - bu biz kuch oladigan elektr stantsiyasi, biz uchun mavjud bo‘lgan avtonom energiya va motivatsiya manbai. Biz yoki orzu qilamiz, xohlaymiz, intilamiz, chanqoqmiz va erishamiz, yoki bizning hayotimiz boshqa odamlarning xohish va sharoitlari bilan belgilanadi. Aytishimiz mumkinki, biz qanchalik kuchli orzu, yorqinroq bo‘lsa, ilamiz, intilamiz va xohlaymiz, xohishlarimiz boshqalarning hayotini shunchalik kam aniqlaydi.

Maqsadsiz va rejasiz orzu shunchaki “makonni isitadi”. Maqsad yuqori kuchlanishli liniya, maqsad orzu energiyasini uzoq masofalar va vaqt oralig‘ida uzatishdir. Busiz orzuning energiyasi shunchaki tarqaladi. Va reja - bu transformator podstantsiyasi bo‘lib, u resurslarni taqsimlashga xizmat qiladi: vaqt, motivatsiya, ko‘nikmalar individual loyihalar uchun va qancha kilovattni qayerga va qachon yuborish kerakligini aniqlaydi.

Maqsad orzu ekanligi aniq bo‘ldi. Agar orzu - bu diqqatga sazovor hissiy va motivatsion energiya bilan to‘ldirilgan chiroyli rasm bo‘lsa, unda maqsad bir xil rasm, ammo qaysi yillarda va oylarda pul, kvadrat metr, tashqi va ichki manbalar paydo bo‘lishini anglatadi.

Va esda tuting. Orzu, maqsadlar va rejalar moslashuvchan bo‘lishi kerakligini unutmang, agar kerak bo‘lsa, ularga tuzatish kiriting.

"Mening hayot maqsadlarim" mashqi.

Maqsad: o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini takomillashtirish uchun motivatsiya yaratish.

Endi sizga hayot maqsadlari bilan ishlashni taklif qilaman. Hayotda erishmoqchi bo‘lgan maqsadlarni yozing.

1. Ularni tahlil qiling. Bu maqsadga erishish siz uchun nimani anglatadi? Nima uchun kerak? Bu maqsadga erishganingiz nimani anglatadi?

2. Ushbu maqsadga erishish uchun hozir qayerda ekanligingizni baholang. Siz hozirda qanday kerakli bilim va ko'nikmalarga egasiz va yana nima qilish kerak?

3. Qobiliyatingizni baholang (yozing). Ichki va tashqi imkoniyatlarni imkon qadar ko'proq ta'kidlashga harakat qiling (sharoitlar, do'stlar, ota-onalar va boshqalar).

4. Maqsadga erishish uchun nima qilish kerakligini aniqlang.

5. Har bir harakatni o'z vaqtida aniqlash, qancha davom etishi kerakligini aniqlash.

Xo'sh, biz sizning maqsadlaringizni tahlil qildik, ularga yana bir bor diqqat bilan qarang! Va keyingi qadamni o'zingizga belgilang. Bugungi kunda ularni amalga oshirishni boshlang, rejaga muvofiq harakat qiling va siz muvaffaqiyatga erishasiz.

“O‘zimni qanday tasavvur qilaman” mashqi

Trening 10 minutga mo‘ljallangan.

Maqsad: shaxsning o‘zini o‘zi anglash darajasi, o‘zi haqidagi o‘z bilimlarini oshirish, unda o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglab yetish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ko‘rsatma: Trener itirokchilarga qarata “bilasizlarmi xalqimizda do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib degan ajoyib maqol bor. Biz ham bugun bir-birimiz haqimizda do‘st bo‘lib fikrlaymiz, shunga hamma rozimi deydi va ishtirokchilarni qo‘l ko‘tarib tasdiqlab berishlarini talab qiladi”. Trener ishtirokchilarga trening yo‘riqnomasini quyidagicha tushuntira boshlaydi. Barcha trening ishtirokchilari toza varaqqa o‘zingizni qanday tasavvur qilishingizni sxematik tarzda chizing. Rasmning pastki qismiga o‘zingizning tashqi ko‘rinish sifatlaringizni yozib qo‘ying (baland, pakana, ozg‘in, o‘rtacha). Ko‘pi bilan 8-10ta sifatni yozish kerak bo‘ladi. Rasmning tepqa qismiga ustuncha qilib, o‘zingizning asosiy ichki xususiyatlaringizni sanab o‘ting (sizning hayot yo‘lingizni belgilaydigan eng ahamiyatli 8-10 ta xususiyat. Masalan vatanparvarman, dangasaman, mehribonman, bee’tiborman kabilar). Keyin o‘z fikringizni guruhni sizga nisbatan shakllangan fikri bilan qiyoslang.

## YOSHLARNING KASBIY KO`NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

*Qodirova Barnoxon Usmonaliyevna*  
*Farg`ona viloyati Furqat tumani 37-maktab psixologi*

O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining eng zaruriy, hayotiy vazifalaridan biri o'quvchi yoshlarni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltira olishidir. Ularni kasb-hunarga yo'naltirishda shaxsiy moyillik, layoqat, qiziqishlari asosida hamda jamiyat talablariga mos holda ongli kasb tanlashga tayyorlash bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan, integral hususiyatga ega ilmiy-amaliy faoliyatdir.

O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni tashkiliy jihatdan ko'proq pedagogik harakterga ega bo'lsada, u mazmunan psixologik mohiyatga ega. Bu yo'nalish pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, bu jarayon oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanib, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarigacha davom ettiriladi. O'z vaqtida kasbga yo'naltirish o'quvchining hayotdagi o'rnini yaxshiroq egallashida muhimdir. Psixologik diagnostika va pedagogik tashxis ishlari ham ushbu soha bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida endilikda bizga faqatgina har tomonlama rivojlangan bola bo'libgina qolmasdan, balki har tomonlama sog'lom, aqlan rivojlangan bolani tarbiyalashda va unga bilim berish va kamolga yetkazishda har bir insonning asosiy burchi ekanligi uqtiriladi. O'qituvchining mahorati o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini topishlarida, kerakli mutaxassis, jamiyatning intellektual salohiyatli kadrlari bo'lib yetishishlarida, ularning kasbiy madaniyatini shakllantirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchilar shaxsiy va kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetensiyaga ega bo'lishlari, shaxsiy-kasbiy sifatlarni rivojlantirishlari, o'z ustilarida

doimiy ishlashlari, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnikani, pedagogik mahorat namda insonparvarlikni takomillashtirishlari talab etiladi. Kasb-hunar tanlashda maqsadning to'g'ri qo'yilishi yartm g'alabadir. Bu g'alabani yuzaga chiqarishdagi qo'llanilgan vositalar, metodlar samaraliligi, sinovdan o'tgan bo'lishi ayni muddaodir. Kasbga old ma'lumotlarni tahlil qilish, natijalarni solishtirish, birlashtirish, o'quvchining kasbiy axborot bazasini boy'itishda qo'llanilgan filmlar, innovatsion yangiliklar vaziyatni baholay olishga yordam beradi. Shuningdek, tasavvur, qiziqish, ehtiyoj, qobiliyat, bilim, ko'nikma, odatlar bilan uzviy bog'laydi. Hozirgi kunda kasb-hunarga bag'ishlangan targ'ibot-tashviqot ishlari, kasbiy bilim va ta'limga yo'naltirilib, o'quvchilarning fikrlarini, ota-onalarning hamkorligini seminar-treninglar, ma'ruzalar va suhbatlar uyushtirish, kasb-hunarning ijtimoiy ahamiyatini yoritish, anjuman, radio va teleko'rsatuvlarda chiqishlar, qiziqish va havaslarini orttirish individual muloqotlarni uyushtirishdan, mazmunli tashkil etishdan iboratdir. Bunda psixologik xizmatni keng tatbiq qilish, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish

Kasbiy o'zlikni anglash, kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining tarkibiga singib ketgan component sifatida maqsadga yo'naltiruvchi, kuchaytiruvchi, korreksiya qiluvchi, yani oqimi hususiyatlarini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

O'quvchilarni ongli kasb-hunar tanlashiga ta'sir etuvchi omillar-uning individual-tipologik hususiyatlari yoki ichki imkoniyatlari va ehtiyojlari hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda kasbiy o'zlikni anglashning nomoyonligi ichki pozitsiyaning shakllanish qonunyatiga asoslanadi. Ichki pozitsiya o'z-o'zidan emas, balki sub'ektning tashqi muhit bilan uzluksiz aloqada bo'lishi va tashqi muhitning unga ta'sir etishi jarayonida shakllanadi.

Quyidagi jummalarni to'ldiring va ularni daftarga yozing.

1. Odamlar ... Uchun ishlaydi
2. Har qanday faoliyatda..... Muhim ...
3. Mehnat faoliyatini tanlashda insonlar ko'pincha ..... Tayanadilar
4. Mehnat faoliyatini tanlashda insonlar ko'pincha ..... E'tiborga olishmaydi
5. Mening kelajagim menga ...
6. Men ushbu kasbiy faoliyatni tanladim, chunki ...



7. Tanlangan ish mendan .....Talab qiladi ...
8. Nazarimda, mening kasbim .....Yordam beradi
9. Mening kasbim menga ..... Imkon bermaydi deb o‘ylayman
10. Kasbim menga ..... Imkoniyat beradi ...
11. Mening kasbim ..... Ta’minlaydi
12. Kasbiy faoliyatni insonlar ..... Uchun ko‘pincha tanlashadi.

“Mening 10 ta kamchiligim” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljallangan.

Maqsad: o‘smirlarda shaxs sifatlarini shakllantirish hamda o‘zini o‘zi anglash mexanizmlarini rivojlantirishdan iborat.

Ko‘rsatma: ishtirokchilar davra bo‘lib o‘tirishadi. Bir ishtirokchi tashqariga chiqib turadi. Guruhning qolgan ishtirokchilari tashqaridagi ishtirokchining o‘nta salbiy sifatlarini, aniqlashga harakat qiladilar. So‘ng tashqariga chiqqan ishtirokchi xonaga qaytib kirishi taklif qilinib ishtirokchilar uning muhokama qilgan salbiy xislatlaridan kamida beshtadan sanab o‘tilishi talab qilinadi. Ishtirokchi ushbu sifatarni yuqorida ko‘rsatilgan miqdorda ayta olsa unga o‘tirishga ruxsat etiladi. O‘yin shu qoida asosida davom etiladi. O‘yin oxirida Trener ishtirokchilarga sizlarda sanab o‘tilgan salbiy sifatlar aslida har birimizda bo‘lishi mumkin, lekin bu o‘zimizning ko‘zimizga ko‘rinmaydi. Bu sifatarni atrofizdagilar bizga aytishga qo‘rqishadi yoki parvo qilishmaydi. Bu treningda esa bu haqida xohlagancha gapirish mumkin. Biz hammamiz birgalikda bu kabi salbiy sifatarni o‘zimizdan bartaraf qilishga bugundanoq kirishishimiz kerak. Aks holda bu sifatlar bizni buzg‘unchilikka, vayronkorlikka undashi hech gap emas. Har birimizdagi bu kabi salbiy sifatarni bartaraf qilishga hammamiz bir xilday daxldormiz. Bu bunyodkorlik, erksevarlik, vatanparvarlik, do‘stparvarlik, sodiqlik, insonparvarlik va ijtimoiy sherikchilikka yo‘g‘rilgan jamiyatni bizlarga qo‘yadigan oltinga teng talabidir. Mazkur oltin qonuniyatni ma’suliyat bilan ado etishimiz barchamizning eng oliy fuqarolik burchimizdir.

“Rangli panjalar” mashqi.

Ishtirokchilar xona bo‘ylab ixtiyoriy harakat qiladilar. Trener kartondan yasalgan turli (ko‘k, qizil, sariq) rangdagi «uchta qo‘l»ni ushlab turadi. U bir rangdagi «panjani»

ma'lum vaqtga yuqori ko'taradi. Shu vaqtda har bir ishtirokchi boshqa ko'proq ishtirokchilar bilan tegishli shartlashilgan usulda salomlashishi lozim.

Bu salomlashishda bir qator usullardan foydalanish ma'qulroq, masalan: «qizil panja»-qo'lni qisish uchun; «ko'k panja»-sherigining yelkalarini qoqib qo'yish uchun; «sariq panja»-«orqa bilan» salomlashish uchun. Mashqlarni bajarish jarayonida so'zlashish ta'qiqlanadi.

Ushbu mashq ishtirokchilarda bir-birlariga simpatiya uyg'otishga olib kelishi ham nazarda tutiladi. Ishtirokchilarning o'zlari bilan o'tkaziladigan mashqlar qatorida boshqalar bilan birgalikda ishlashga, frustratsiya holatini bartaraf etishga yordam beruvchi mashqlar ham zarur.

## **O'ZIGA ISHONCH INSONNI MUVAFFAQIYATGA YETAKLOVCHI ASOSIY YO'LDIR**

*Umarova Gul'nara Adxamovna  
Farg'ona viloyati Farg'ona shahar 41-ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan  
Iqtisoslashtirilgan o'rta talim maktabi amaliyotchi psixologi*

Bu hayotda qoqilishing tabiiy hol.Seni tashlab ketishlari hech gapmas.Qo'lingda borini yo'qotishing,hatto bularni boshdan o'tkazganing uchun o'zingni dunyoning eng omadsiz his qilishing ham mumkin.Ammo shuni unutma:

“Qo'li cho'ntagida bo'la turib,hech kim omad zinasidan tirmashib chiqa olmaydi”.  
Bu hayotda hech kim yiqilmasdan davom etolmaydi.

Odamlar vaqti-vaqti bilan muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu hayotiy ahamiyatga ega. Ammo turli odamlar bu qiyinchiliklarga turli yo'llar bilan javob berishadi. O'ziga ishonchi kam insonlar uchun kichik muammo ham katta bo'lib ko'rinadi. U maqsadlarga intilmasdan, bu havotir va vahimaga barcha kuchini sarflaydi. Yoki o'ziga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv sharoitning to'siqlarini yengishga bor kuchini sarflaydi. Va yana bir muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda, u ko'proq va ko'proq

tushkunlikka tushadi. O'ziga ishonchi kuchli odam paydo bo'lgan qiyinchiliklarni oqilona tahlil qilishga qodir va agar ular yengib o'tishlari mumkin bo'lsa (oqilona vaqt va kuch sarf qilib), ularni yengishga harakat qiladi. Agar to'siqlar juda jiddiy bo'lsa, bunday kishi "peshonasini yopiq eshikka uravermaydi", balki maqsadlarni qayta ko'rib chiqadi yoki ularga erishishning boshqa usullarini izlaydi.

Ishonchli xatti-harakatlar turlarini ko'rib chiqamiz.

Maqsadga yo'naltirilgan ishonchli xatti-harakatlar bilan, inson maqsadlarni yetarlicha aniq ifodalaydi va o'z harakatlarini maqsadga yaqinlashishga imkon beradigan tarzda quradi. Lekin, har qanday maqsad ishonchli xatti-harakatlarning sharti sifatida xizmat qilmaydi. Birinchidan, ular aniq bo'lishi kerak, ya'ni, mavjud imkoniyatlar va cheklovlarni hisobga olingan holda. Ikkinchidan, maqsadlar aniq bo'lishi kerak, shuning uchun inson qanday mezonlarga erishish mumkinligini aniq ko'rsatishi kerak. Uchinchidan, o'zingiz uchun maqsadlarni ijobiy nuqtai nazardan belgilash maqsadga muvofiqdir: qanday qilib oldini olishni emas, balki erishmoqchi bo'lgan narsalarning obrazini pozitiv tasavvur etgan holda.

Moslashuvchan, ya'ni tez o'zgaruvchan muhitga yetarli darajada javob berishni anglatadi. Bunday odam tezda yangilik va noaniqlik holatlariga e'tibor beradi va agar u ba'zi harakatlar ijobiy natijalarga olib kelmasligini ko'rsa, u boshqacha harakat qila boshlaydi. Ayniqsa, moslashuvchanlik muloqotda namoyon bo'ladi. Ishonchli kishi suhbatdoshlari bilan suhbatlashib, qanday sharoitda sodir bo'lishiga qarab, muloqot uslubini o'zgartirishi mumkin. O'ziga ishonchi past shaxs doimiy ravishda ijtimoiy rol uchun o'zligini "yashiradi" va real vaziyatni hisobga sifatida haqorat qilish, xo'rlash yoki xafa qilish bilan emas, balki uning manfaatlarini himoya qilishga aniq e'tibor berish orqali yondoshadi. Ikkinchidan, o'ziga ishongan kishi buning uchun ob'ektiv sabablarsiz nizolashmaydi. Zo'riqishni keltirib chiqargan narsa sherik uchun muhimroq bo'lsa yoki u uchun uyg'un munosabatlarni saqlab qolish muhimroq bo'lsa, u o'z manfaatlarini qurbon qilishga tayyor. Uning uchun "prinsipga amal qilish" emas, balki mojaroni yuzaga kelgan barcha muammolarni hisobga olgan holda moslashuvchan ijobiy tarzda hal qilish muhimroq.

Muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan. Inson ijobiy narsalarni olishga qaratilgan va paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolardan qochish bilan emas, balki shu - muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan maqsad bilan boshqariladi. O'zining maqsadlari haqida o'ylab, bunday kishi qanday qilib muvaffaqiyatsiz bo'lishini emas, balki ularning muvaffaqiyatli yutuqlarini tasavvur qiladi. Masalan, imtihonga tayyorgarlikdan boshlaboq, o'ziga ishongan kishi o'zining muvaffaqiyatli o'tishini tasavvur qiladi va aynan shu maqsadga intiladi va g'alaba qozonadi. Oziga ishonchi bo'lmagan odam qanday qilib imtihondan "yiqilishini" tasavvur qiladi va bu holat haqiqatda sodir bo'ladi. Ushbu turtki turlaridan birinchisi samaraliroq va muvaffaqiyatga erishish ehtimoli ko'proq. Birinchidan, inson yaqinlashib kelayotgan imtihonning ijobiy natijasini tasavvur qilganda, uning hissiy holati muvaffaqiyatsizlikni tasavvur qilganidan ko'ra ancha yaxshi bo'ladi. Natijada, uning faoliyati samaraliroq bo'lib, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshiradi.

### **"Pirog" mashqi.**

Maqsad: his-tuyg'ularning ko'p qirrali jihatlarini haqidagi g'oyani shakllantirish.

**Trener:** Bizning his-tuyg'ularimiz juda ko'p qirrali bo'lib, bizning shaxsiyatimizning barcha sohalariga ta'sir qiladi. Har bir inson turli vaziyatlarda turli yo'llar bilan harakat qiladi. Misol uchun, sizning xatti-harakatlaringiz uyda, maktabda, yaqin do'stlaringiz bilan muloqotda juda farq qiladi. Barchamizda turli his-tuyg'ular, qiziqishlar, moyilliklar, sevimli mashg'ulotlarimiz va boshqalar. Endi " **Pirog** "deb nomlangan mashqni bajaramiz. Har biringiz uchun men bir dona qog'oz varaqlarini tarqataman, unda simni eslatuvchi doira tasvirlangan. 4 segmentiga bo'linadi va markazda bir doira mavjud. Har bir segmentda sizning shaxsiyatingizning turli hissiy tomonlarini aks ettiruvchi rasmni chizish lozim. Ishtirokchilar jalb qilinganida, ish oxirida markazda nima borligini tushuntirish zarurligiga e'tibor qaratiladi. Bu ishni bajarish uchun ishni g'ayrioddiy va qo'shimcha motivatsiya bilan ta'minlash zarur. Rasm yaratilganda, kimdir biror narsani aks ettirishni unutganmi yoki ishni bajarish uchun yana nima qilish kerakligi so'raladi. O'smirlar markazda biror narsa chizish kerakligini aytishadi.

Javob: markazda tortning ko'zlari bor. Har birimizda ichki ko'zimiz bor, bu bizning shaxsiyatimizning barcha jihatlarini tushunishga, nimani boshdan kechirayotganimizni

va hayotning bir nuqtasida nima qilayotganimizni tushunishga imkon beradi, bu bizga ma'lum bir vaziyatda qanday harakat qilishni hal qilishga yordam beradi.

### **"Hissiy va emotsional o'z-o'zini tadqiq etish" mashqi.**

**Maqsad:** o'z-o'ziga munosabatni shakllantirishga ta'sir qiluvchi hissiy va emotsional omillar haqida g'oyani shakllantirish.

**Trener:** Biz o'z-o'ziga munosabatni shakllantirishga atroflicha to'xtaldik., Lekin faqat biz bilgan tuyg'u deb atalmish "ichki ko'z" bor. U yashirin joyda va atrofdagi odamlar uni ko'ra olmaydi, agar biz o'zimiz xohlamasak, biz haqimizda biror narsa bilisha olmaydi. Biroq, bizning kundalik hayotimizda turli odamlar bilan muloqot qilamiz: ota-onalar, o'qituvchilar, do'stlar, sinfdoshlar va boshqalar. Ular bizning hissiyotimizga qanday ta'sir qiladilar? Nima uchun?

Endi ikkita doirani chizamiz, ulardan biri boshqasining ichida. Ichki doira Sizning "men"ingiz atrofida chegarani tasvirlaydi. U nimani o'z ichiga oladi? "Men"ning mazmunini chizish, yozish yoki ramziy ravishda tasvirlash lozim.

Tashqi, katta doira sizning "men"ingiz rivojlanayotgan tashqi dunyo. Bu doirada sizning "men" ingizga eng katta ta'sir ko'rsatadigan narsalarni aks ettiring. Munozara: nima qilganingizni ayting. Har bir inson ichki va tashqi doiralarning bir xil nisbatiga egami? Nima uchun? Sizningcha, insonning o'z-o'ziga munosabatni shakllanishiga kim yoki nima ko'proq ta'sir qiladi? Insonning o'zi o'z-o'zini anglashida qanday rol o'ynaydi?

### **"O'z"men"ining gerbi" mashqi.**

**Maqsad:** o'z "men"ini kashf qilish, o'z-o'zini shakllantirishga intilishni rivojlantirish.

**Trener:** Markerlar yordamida qog'oz varaqlarida siz o'zingizning shaxsiy gerbingizni tasvirlashingiz kerak bo'ladi. Sizning gerbingiz uchun material mavjud. Ideal holda, sizning gerbingizni ko'rgan kishi kim ekanligingizni tushunishi kerak. Gerb konturini har qanday shaklda chizish mumkin, biroq ayni paytda bitta qoidaga rioya qilish kerak: kontur bir necha sohalarga bo'linishi kerak.

**Munozara:** ajoyib, endi sizda nima hosil bo'lganini tahlil qilishga harakat qilaylik. Sizning gerbingizni chizish osonmi yoki qiyinmi? Sizning fikringizcha, sizning xususiyatlaringizni qanday aks ettira oldingiz? Sizningcha, yaqinlaringiz va do'stlaringiz

bu sizning gerbingiz ekanini tushunishlari mumkinmi? Gerbingizni yaratishda qanday qiyinchiliklar paydo bo'ldi? Birinchi navbatda nimani aks ettirishga harakat qildingiz? Gerbingizni kamchiliklari bormi? Nima uchun.

## O`SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATI

*Madvaliyeva Ziyodaxon Usmonaliyevna*  
*Farg`ona viloyati tumani Furqat 23-maktab psixologi*

O`smirlik davri insonni bolalikdan-yoshlikka o`tuvchi va o`z navbatida boshqa davrlardan o`zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o`qish paytlariga to`g`ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo`lgan davr oralig`ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

O`smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o`tish davri», «og`ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og`irligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi? O`smirlik davrining og`ir, murakkab davr ekanligi ko`plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog`liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlarini: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o`zgaradi. Bu davrda o`smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o`zgarishlar sodir bo`ladi.

Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qaramaqarshi bo`lgan turli xil an`analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola yendi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o`z-o`ziga va atrofdagilarga nisbatan bo`lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf yetib boradi.

Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo`nalganligi qaytadan shakllanadi, o`z-o`zini anglashi, baholashi, qadriyatlari o`zgaradi. Uning uchun o`z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi.

#### 1-Trening“O`smir organizmida ro`y beradigan o`zgarishlar”

Maqsadi:

O`smirlik yosh davrida ro`y beradigan jismoniy va fiziologik o`zgarishlar haqida ma'lumot berish. Shu yosh davridagi o`quvchilar bilan muomala munosabatlarda e'tibor berish zarur bo`lgan jihatlarni hisobga olishga o`rgatish.

Miya shturmi: Mavzuga oid muammolar:

O`smirlik davrida gavda nomutannosib rivojlanadi. Sababi nimada deb o`ylaysiz?

O`smirlikda qarama-qarshi jinsga qiziqishni ortishining sababi nimada?  
Fikringizni asoslang.

O`smirlik davrida turli salbiy xarakterdagi guruhlariga a'zo bo`lish ehtimoli kuchli.  
Sababi nimada?

Tushuntirish va maqsadga kirish bayoni.

O`smir organizmida ro`y beradigan o`zgarishlar shundan iboratki, bola rivojlanishining ayni shu davrida biologik, fiziologik yetukligi borasida tub o`zgarishlar amalga oshadi. Fiziologik rivojlanish va jinsiy balog`atga etish jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. Organizmdagi o`zgarishlar bevosita o`smir endokrin sistemasining o`zgarishi bilan boshlanadi.

Bu davrda gipofiz bezining vazifalari faollashadi. Uning old qismidan ajralib chiqadigan garmon organizm to`qimalarining o`sishi va boshqa muhim ichki sekretiya bezlari (qalqonsimon bez, buyrak usti va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Ularning faoliyati o`smir organizmida ko`plab o`zgarishlarni yuzaga keltiradi, jumladan bo`y o`sishining keskin tezlashishi (bir yilda o`g`il bolalarda 4-5 sm, qizlarda 3-4 sm o`sishi kuzatiladi), jinsiy balog`atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi va ikkilamchi jinsiy belgilarning paydo bo`lishi amalga oshadi).

Bu jarayonlar qiz bolalarda 13-15 yoshlarda nisbatan jadal kechadi. Jismoniy rivojlanish va jinsiy yetilishning akseleratsiyalashuvi kuzatilayotgan hozirgi vaqtda ayrim qizlar 9-10 yoshda, o`g`il bolalar esa 11-12 yoshlarida jinsiy balog`atga etishning



boshlanish bosqichida bo'lishi mumkin. Bo'yning o'sishi, vaznning ortishi, ko'krak qafasining keng ayishi- bularning barchasi jismoniy rivojlanishning o'smirlik yoshiga xos xususiyatlaridir.

Shular tufayli o'smirning tashqi ko'rinishi bolaning tashqi ko'rinishiga qaraganda farq qiladi: tana proporsiyasi kattalarga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Shuningdek o'smirning yuz tuzilishi ham o'zgarib, bosh suyagining yuz qismi jadal rivojlana boradi. O'smirlik yoshida 3-oila psixologiyasi umurtqa pog'onasining o'sishi bo'yning o'sish tempidan orqada qoladi. Chunki 14 yoshgacha umurtqa pog'onalari o'rtasidagi oraliqlar tog'aylar bilan to'lgan bo'ladi, bu esa ortiqcha jismoniy zo'riqish, tana holatining noto'g'ri turishi tufayli umurtqa pog'onasining noto'g'ri rivojlanishga moyilligini bildiradi.

Umurtqa rivojlanishini buzilishining eng ko'p holati 11-15 yoshlarga to'g'ri keladi va ayni shu yoshlarda ro'y berishi mumkin bo'lgan defektlarni ham bartaraf etish ham oson kechadi. 20-21 yoshlarga yetib toz suyaklarining o'sishi yakunlanadi (shu davrda qizlarning jinsiy organlari ham yetiladi).

Muskul vazni va muskul kuchlarining ortishi jinsiy balog'atga etishning oxirlarida nisbatan jadalroq amalga oshadi. Bunda o'g'il bolalarda muskullarning rivojlanishi erkaklarga xos tipda, qiz bolalarning yumshoq to'qimalari esa ayollarnikiga xos tipda amalga oshadi. Bu esa har bir jins vakiliga o'ziga xos erkaklik va ayollik sifatlarini beradi.

Bu jarayonlarning nihoyasiga etishi esa o'smirlik davridan keyin amalga oshadi. Muskul kuchlarining ortishi o'smir jismoniy imkoniyatlarini kengaytiradi. Buni bolalar juda yaxshi anglaydilar va ulaxx.жrning har biri uchun bu juda muhim ahamiyatga ega. Biroq o'smir muskullari kattalarnikiga qaraganda tez toliquvchan bo'ladi va davomli kuchlanishlarga dosh berolmaydigan bo'ladi.

Shuning uchun sport va jismoniy mehnat bilan shug'ullanishda buni inobatga olish lozim. Turli organ va to'qimalarning o'sishi yurak faoliyatiga ham yuqori talablar qo'yadi. O'z navbatida yurak ham qon tomirlariga qaraganda tezroq o'sadi. Bu jarayon yurak-qon tomir sistemasi faoliyatidagi funktsional buzilishlarga sabab bo'lishi, yurak urishining tezlashishi, qon bosimining ortishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, tez toliquvchanlik kabilar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

Shuningdek, o`smirlik davrida ichki sekretsiya bezlari faoliyati bilan bog`liq ravishda organizmda keskin o`zgarishlar ro`y beradi. Ayniqsa qalqonsimon bez va jinsiy bezlar ajratib chiqaradigan gormonlar organizmda modda almashinishining katalizatori vazifasini bajaradi.

Chunki endokrin va nerv sistemalari bir-biriga uzviy bog`liqdir. Shunga ko`ra o`smirlik davri bir tomondan quvvatning keskin ortishi va ikkinchi tomondan patogen ta`sirlarga o`ta sezgirligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun aqliy yoki jismoniy ortiqcha toliqish, uzoq muddatli asabiy zo`riqish, affektlar, kuchli salbiy hissiyotlar (qo`rqish, g`azab, xafagarchilik) endokrin buzilishlarga (menstrual tsiklning vaqtincha buzilishiga) va nerv sistemasi vazifasining buzilishiga sabab bo`lishi mumkin.

Bunday buzilishlar ta`sirlanuvchanlikning ortishi, o`zini tuta bilmaslik, parishonxotirlik, ishda mahsuldorlikning pasayishi, uyquning buzilishi kabilarda namoyon bo`ladi. O`smirlik davrida endokrin va nerv sistemalari faoliyatining bolalik davrida mavjud bo`lgan muvozanati buziladi, yangisi esa yendigina o`rnatilayotgan bo`ladi.

Bunday qayta qurilishlar albatta o`smirning ichki holati, kayfiyati, ruhiyatiga ta`sir ko`rsatadi va ko`pincha uning umumiy noturg`unligiga, ta`sirlanuvchanligiga, serjahlligiga, harakat faolligiga, vaqti-vaqti bilan hamma narsalarga befarq bo`lib qolishligi va lanjligiga asos bo`ladi. Bunday holatlarning yuzaga kelishi ko`pincha qizlarda menstrual tsikl boshlanishidan biroz oldinroq yoki tsikl davrida ko`proq kuzatiladi.

Jinsiy balog`atga etish va jismoniy rivojlanishdagi o`sinh o`smir ruhiyatida yangi psixologik tuzilishlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bu o`smir uchun juda sezilarli bo`lgan o`zgarishlar bo`lib, ular o`smirning katta bo`lganini his qilishining yuzaga kelishining obektiv manbasi bo`lib xizmat qiladi (uning asosida o`smir o`zining kattalarga o`xshashligini his qiladi). Ikkinchidan, jinsiy balog`atga etish boshqa jins vakiliga qiziqishni rivojlantiradi, yangi kechinma, hissiyot, tuyg`ularni yuzaga keltiradi.

O`smirning ichki bandligi va yangi taassurotlar, kechinmalarga munosabati darajasi ularning o`smir hayotidagi o`rni keng ijtimoiy sharoitlar bilan, o`smir

hayotining konkret individual sharoitlari, uning tarbiyasi va muloqoti xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu o`rinda o`smir shaxsi shakllanishiga faqat kattalar uchun mo`ljallangan kitoblar va kinofilmlar salbiy ta'sir ko`rsatishi mumkin.

Bularning barchasi, shuningdek o`rtoqlari bilan sevgi va jins muammolari haqida gaplashishlari o`smirlarda odamlar munosabatlarining intim jihatlariga ko`tarinki qiziqishni yuzaga keltirishi, erotik an'analar va ilk seksuallikni rivojlantirishi mumkin. Har ikkala jins o`smirlari uchun bu davrda ilk romantik hislarning yuzaga kelishi «birinchi muhabbat»ga duch kelishi, birinchi bo'salarni olish kabilar me'yoriy hol hisoblanadi.

## **BOLA SHAXSNI RIVOJLANTIRISHIDA TARBIYANING O`RNI**

*Sattorova Nozigul To`lqinboyevna*  
*Farg`ona viloyati Beshariq tumani 1-Maktabgacha Ta`lim Tashkiloti psixologi*

Farzand dunyoga kelganidan so'ng, uni voyaga yetkazish, moddiy taminlash, o'qitish tarbiya berish ota-ona zimmasidagi yuksak mas'uliyatdir. Ana shunday mas'uliyatli ishlarga befarqlik, bepisandlik bilan munosabatda bo'lish kechirib bo'lmaydigan hollarga olib kelishi hammaga ayon.

Bolaga g'amxo'rlik, uning oiladagi huquqini taminlash masalalari muqaddas Quroni Karim, hadis kitoblarida, o'tmish allomalarimizning pand-nasihatlarida ham teran aks etgan. Muqaddas Quron kitobida keltirilishicha, bola Olloh tomonidan ota-onaga omonat topshirilgan. Olloh ana shu omonatni voyaga yetkazish, ilmi, oqil, halol inson qilib tarbiyalashni esa ota-ona zimmasiga yuklagan. Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir .

Bolalar ulg'aya boshlashi bilanoq o'z ota- onalarining qayerda ishlashlari, jamiyatda tutgan o'rinlari, ularning bilimiga qiziq boshlaydilar. Oiladagi hamkorlikning tarbiyaviy jihatdan to'g'ri bo'lishini ta'minlash maktabning muhim vazifalaridan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni maktab belgilaydi.

Bola tshaxsini tarbiyalashda tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi.

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, o'quv, sport va b) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi.

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, etakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bili shva o'zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi.

Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi.

Insondagi biologik va ijtimoiy omillar – bu bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki parallel chiziqlar emas. Har bir shaxsda ular shunday chambarchas qo'shilib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o'ta muhim bo'lgan omilni irsiyat va muhitni ajratadi. Ular (irsiyat va muhit) inson rivojlanishi manbalari va shartlari hisoblanadi.

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga turli xil o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-

onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg‘u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch teri rangi o‘tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo‘yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o‘tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko‘zda tutadi. Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo‘la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo‘lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog‘liq.

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga turli xil o‘xshashlik, xususiyatlarning o‘tishi tushuniladi. Irsiyatga ko‘ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg‘u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch teri rangi o‘tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo‘yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o‘tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko‘zda tutadi. Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo‘la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo‘lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog‘liq.

“Mening 10 ta kamchiligim” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljallangan.

Maqsad: o‘smirlarda shaxs sifatlarini shakllantirish hamda o‘zini o‘zi anglash mexanizmlarini rivojlantirishdan iborat.

Ko‘rsatma: ishtirokchilar davra bo‘lib o‘tirishadi. Bir ishtirokchi tashqariga chiqib turadi. Guruhning qolgan ishtirokchilari tashqaridagi ishtirokchining o‘nta salbiy sifatlarini, aniqlashga harakat qiladilar. So‘ng tashqariga chiqqan ishtirokchi xonaga qaytib kirishi taklif qilinib ishtirokchilar uning muhokama qilgan salbiy xislatlaridan kamida beshtadan sanab o‘tilishi talab qilinadi. Ishtirokchi ushbu sifatlarini yuqorida ko‘rsatilgan miqdorda ayta olsa unga o‘tirishga ruxsat etiladi. O‘yin shu qoida asosida davom etiladi. O‘yin oxirida Trener ishtirokchilarga sizlarda sanab o‘tilgan salbiy sifatlar aslida har birimizda bo‘lishi mumkin, lekin bu o‘zimizning ko‘zimizga ko‘rinmaydi. Bu

sifatlarni atrofizdagilar bizga aytishga qo'rqishadi yoki parvo qilishmaydi. Bu treningda esa bu haqida xohlagancha gapirish mumkin. Biz hammamiz birgalikda bu kabi salbiy sifatlarni o'zimizdan bartaraf qilishga bugundanoq kirishishimiz kerak. Aks holda bu sifatlarni bizni buzg'unchilikka, vayronkorlikka undashi hech gap emas. Har birimizdagi bu kabi salbiy sifatlarni bartaraf qilishga hammamiz bir xilday daxldormiz. Bu bunyodkorlik, erksevarlik, vatanparvarlik, do'stparvarlik, sodiqlik, insonparvarlik va ijtimoiy sherikchilikka yo'g'rilgan jamiyatni bizlarga qo'yadigan oltinga teng talabidir. Mazkur oltin qonuniyatni ma'suliyat bilan ado etishimiz barchamizning eng oliy fuqarolik burchimizdir.

"Mening hayot maqsadlarim" mashqi.

Maqsad: o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini takomillashtirish uchun motivatsiya yaratish.

Endi sizga hayot maqsadlari bilan ishlashni taklif qilaman. Hayotda erishmoqchi bo'lgan maqsadlarni yozing.

1. Ularni tahlil qiling. Bu maqsadga erishish siz uchun nimani anglatadi? Nima uchun kerak? Bu maqsadga erishganingiz nimani anglatadi?
2. Ushbu maqsadga erishish uchun hozir qayerda ekanligingizni baholang. Siz hozirda qanday kerakli bilim va ko'nikmalarga egasiz va yana nima qilish kerak?
3. Qobiliyatingizni baholang (yozing). Ichki va tashqi imkoniyatlarni imkon qadar ko'proq ta'kidlashga harakat qiling (sharoitlar, do'stlar, ota-onalar va boshqalar).
4. Maqsadga erishish uchun nima qilish kerakligini aniqlang.
5. Har bir harakatni o'z vaqtida aniqlash, qancha davom etishi kerakligini aniqlash.

Xo'sh, biz sizning maqsadlaringizni tahlil qildik, ularga yana bir bor diqqat bilan qarang! Va keyingi qadamni o'zingizga belgilang. Bugungi kunda ularni amalga oshirishni boshlang, rejaga muvofiq harakat qiling va siz muvaffaqiyatga erishasiz.

## O'Z VAQTINI REJALASHTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

*Olimova Zohidaxon Ohunjon qizi  
Farg'ona viloyati Furqat tumani 25-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

*“Vaqt bu hayot. Vaqtingizni behuda sarflash hayotingizni behuda sarflashni anglatadi. Vaqtingizni boshqarish - hayotingizni boshqarish va undan to'g'ri foydalanish degani”.*

Bugun siz faol o'quv va ijodiy hayotni olib borasiz: mashg'ulotlar, turli kurslar, yakuniy imtihonlarga tayyorgarlik, maktab soatlaridan keyin turli to'garaklarga tashrif buyurish. Ko'plab maktab o'quvchilarining aytishicha, ular kun davomida belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko'pincha vaqt topolmaydilar. O'z vaqtini boshqarishning iloji yo'qligi bilan bog'liq muammolar eng keng tarqalgan muammolardan biridir. Voyaga yetganlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan vaqtni boshqarishimizga bog'liq, shuning uchun ko'p odamlar ishda va uyda hamma narsani qilish uchun vaqtni boshqarish texnologiyalariga murojaat qilishadi. Ba'zilarining fikricha, o'spirin mashg'ulotlarni tayyorlashga, foydali mashg'ulotlarni tashkil etishga va dam olishga vaqtni rejalashtirishni o'rganishni kechiktiradi, chunki u o'zi boshqaradigan turmush tarziga odatlangan, ammo inson har qanday yoshda o'z ustida ishlashi va yaxshi tomonga o'zgarishi mumkin. Vaqtdan oqilona foydalanish mavzusi dolzarb bo'lib, kattalar, talabalar va maktab o'quvchilari orasida mashhurdir.

Agar nima qilayotganingizni tahlil qilsangiz, to'liq ro'yxatni yozishingiz mumkin. Mashg'ulotlar va uy vazifalaridan tashqari nima bilan mashg'ulsiz? Uy vazifasi, mashg'ulot, do'stlaringiz bilan suhbat va boshqalar.

Ushbu holatlarning har biri muayyan vaqtni oladi. U bir kunda zarur bo'lgan hamma narsani bajarishga qodir deb kim ayta oladi? Juda kam odam bu bilan maqtana oladi.

Agar mavjud bo'lsa, siringizni boshqalar bilan baham korishingiz mumkinmi? Odamlarga buni amalga oshirishga yordam beradigan maxsus texnikalar mavjud – bu Taym – menedjment yoki vaqtni boshqarish qobiliyati



Samaradorlik- mavjud variantlardan eng yaxshi variantni tanlash va uni eng yaxshi tarzda bajarish demakdir.

Esingizda bo'lsin: vaqt yetishmasligi degan tushuncha yo'q!

Biz haqiqatan ham xohlagan narsani qilish uchun ko'p vaqtimiz bor. Agar siz, ko'pchilik singari, muvaffaqiyatli ishlash uchun "juda band bo'lsangiz", unda shuni yodda tutingki, sizdan ko'ra ko'proq band bo'lgan, ammo sizdan ko'proq narsani qilishga qodir bo'lgan odamlar talaygina. Ular sizdan ko'proq vaqtga ega emaslar. Ular shunchaki vaqtni yaxshiroq taqsimlashadi!

Vaqtdan samarasiz foydalanish sabablarini ikki guruhga bo'lish mumkin: tashqi va ichki. Tashqi aralashuv bizning ish muhitimiz samarasidir; diqqatni chalg'itadigan va vaqtni boshqarishni yo'qotadigan voqealar.

"Vaqtdan samarali foydalanish usullari."

Vaqtdan unumli foydalanishning ko'plab usullari mavjud. Ular o'z ishini tashkil qilish uchun to'g'ri harakatlar tamoyillari shaklida taqdim etilishi mumkin:

-maqsadlarni aniq belgilash. Biror narsa qilishni boshlaganingizdan so'ng, nima qilishni xohlayotganingizni aniqlashingiz kerak;

-asosiy narsaga e'tibor qarating. Barcha holatlarning ro'yxatini ularning ustuvorligi va tezkorligiga qarab tuzish juda foydali;

-rag'batlantirishni yaratish. Har bir kishi eng yaxshi ko'rgan narsasini qiladi. "Sevimli" ishlar har doim "kerakli" ishlardan tez bajariladi. Agar "kerak" ni "xohlaymanga" ga aylantirish mumkin bo'lsa, ish samaradorligi sezilarli darajada oshadi;

-muddatlarni belgilash. Majburiyatni topshirishning eng yaxshi usuli - topshiriqni bajarish muddatini belgilash;

-qat'iyat. Iloji boricha tezroq ishlashga harakat qiling: o'ylab ko'ring, qaror qiling, harakat qiling. Biror narsani qilishni boshlaganingizdan song, shubha qilishning hojati yo'q - davom eting;

-yo'q deyish qobiliyati. Bu sizni keraksiz ishlar va suhbatlar bilan chalg'itmaslikka imkon beradi.

Xo'sh, vaqtingiz hamma narsaga, ish uchun va samarali ta'til uchun yetarli bo'lishi uchun qanday tashkil qilinadi?

Vaqtни to‘g‘ri taqsimlash birinchi qarashda ko‘rinadigan darajada qiyin emas.

Vaqtни tashkil qilishning asosiy prinsiplari to‘rtga qisqartirildi. Bu:

vaqtни rejalashtirish;

muammoni ketma-ket hal qilish;

amalga oshirish uchun motivatsiya;

to‘g‘ri dam olish.

Rejalashtirish. Kun uchun (hafta, oy yoki boshqa davrlar) reja tuzish bu bir necha daqiqa davom etadigan faoliyatdir va natijada ko‘proq vaqtни tejaydi. Reja juda qattiq bo‘lmasligi kerak. Har bir davrda 2-3 tadan muhim hodisalarni qo‘shing va ularning orasidagi bo‘shliqlarni ikkilamchi ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar bilan to‘ldiring. Muhim ishlardan boshlash yaxshidir va ketma-ketlikka har doim rioya qilish lozim.

"Rejalashtirish" mashqi

Endi men sizga juft bo‘lib ishlashni va birgalikda o‘quvchi uchun kunlik rejani tuzishni taklif qilaman.

Keyingi bosqich - muammolarni hal qilish. Har qanday vazifa uchun yechimlar mavjud. Masalan, eng qiyin ishlarni ikkita katta guruhga bo‘lish mumkin. Birinchisi - bu uzoq vaqt talab qiladigan katta rejalar. Ikkinchisi - keyinroq bajarilishi mumkin bo‘lgan tadbirlar.

Savol tug‘iladi: ularni qanday amalga oshirish mumkin? Ya’ni har kuni asta-sekin bosqichma-bosqich rejalarни amalga oshirish osonroq.

Motivatsiya. Nazariyadan amaliyotga o‘tishni osonlashtirish uchun sizda motivatsiya bo‘lishi kerak. Har bir bajarilgan ish uchun yoqimli mukofot - bir stakan shirin choy, sevimli kitobingizning bir nechta sahifasi yoki toza havoda sayr qilish.

To‘g‘ri dam olish - bu tanangiz to‘liq tiklanishining kafolati va yangilangan kuch bilan vazifalarni hal qilishni o‘z zimmangizga olasiz.

Vaqtingizni va dam olishni qanday to‘g‘ri tashkil qilish kerak? Asosiysi, bir faoliyatdan ikkinchisiga butunlay o‘tish. Bu shuni anglatadiki, qizg‘in jismoniy ishdan keyin siz dam olishingiz va hech narsa qilmasligingiz kerak. Aqliy ishdan keyin - jismoniy mashqlar qiling yoki shunchaki ko‘chada sayr qiling.

Faoliyatning o'zgarishi atrof-muhitning o'zgarishi bilan birga bo'lishi kerak. Va, albatta, dam olishni muntazam ravishda tashkil qilish kerak. Har soatda atigi 5 daqiqa vaqtni fikrlaringizni yangilash uchun ajrating.

"Aks sado" mashqi.

Maqsad: ish uchun kayfiyat va ijobiy hissiy muhitni yaratish.

Trener: Salom, sizni bizning darsimizda ko'rishdan baxtiyorman. Va boshlash uchun men bir-birlaringiz bilan salomlashishni taklif qilaman. Guruh a'zolari o'z navbatida o'z nomlarini qo'shimcha ma'lum bir ishora (jest)lar bilan birga aytadilar. Keyin guruh xor bo'lib uning ismini chaqiradi va jestni takrorlaydi.

"Ikki qo'llab ko'rishish" mashqi

Ishtirokchilarning hammasi doira shaklida o'tirishadi. Qo'llar bir-biriga birlashtirilgan bo'ladi. Ishtirokchilar birvarakayiga xohlagan tomonidagi (chap yoki o'ng yonidagi) kishiga salomlashish uchun qo'shqo'llab qo'l uzatadi. Unisi esa qo'llarini yonidagisiga uzatishi mumkin va birinchi ishtirokchiga navbat etgunicha shu holda davom etadi. SHunday qilib bir nechta mos kelmaslik holati kuzatilishi tabiiy. Ana shunda qanaqangi qiy-chuv ko'tarilishini ko'rasiz!

Bu o'yinni bir necha bor takrorlash nafas rostdash va tinchlanish uchun foydalidir.

## O'QUVCHILARNING O'ZLARIGA BO'LGAN ISHONCH HOSIL QILISH

*Sodiqova Feruzaxon Olimovna  
Farg'ona viloyati Furqat tumani 7-umumta'lim maktab psixologi*

"Qush qo'ngan shohining sinib ketishidan qo'rqmaydi. Chunki u daraxt shoxiga emas, o'zining qanotlariga ishonadi"

Bu jumla orqali boshingga musibat kelganda ham boshqalarga emas faqat o'z qanotlaringga ishonish kerakligini anglatadi. Ya'ni qo'nim topgan novdaning bir kun sinishi aniq, biroq qanotlaringga e'tabor qilmasang, katta musibatga uchrashing

mumkin, Shox sinso sening qanotlaring tutib qoladi. Boshingga musibat kelsa boshqalardan emas, o'zingdan madad ol. Sevimlilarningni his qilsang o'zingni sev. O'zingni yolg'iz his qilganingda o'zing bilan shunday vaqt o'tkazginki, bu yolg'izlik deb atalmasin....

Ishonchli tarzda harakat qilish maqsadga erishish, o'zingizni nazorat qilish, tajovuzkorlik va uyatchanliksiz o'z manfaatlarini himoya qilish, nizolardan chiqish sharafi bilan erishish demakdir. Albatta, bu fazilatlar hayot davomida rivojlanadi, lekin ularning shakllanishiga eng muhimi, yoshlikda to'plangan hayot tajribasi ta'sir qiladi. O'ziga bo'lgan ishonch - bu insonning hayotida va o'zi oldida turgan vazifalar uchun yetarli bo'lgan imkoniyatlarini boshdan kechirishdir. Har qanday faoliyat turiga bo'lgan ishonch, insonning o'z-o'zini hurmat qilishi uning haqiqiy imkoniyatlariga mos kelganda sodir bo'ladi. Agar o'z-o'zini hurmat qilish haqiqiy imkoniyatlardan yuqori bo'lsa (quyida) bo'lsa, o'z-o'zidan ishonch (ishonchsizlik) mavjud bo'ladi. O'ziga ishonch insonning barqaror sifati bo'lishi mumkin.

Har birimiz, bilmagan holda ko'pincha o'zimizni boshqalar bilan taqqoslaymiz va natijada bizning aqlimiz, tashqi ko'rinish, sog'lig', jamiyatdagi mavqeimiz to'g'risida mutlaqo barqaror fikr ishlab chiqamiz, ya'ni o'zimizga, hissiyotga bog'liq bo'lgan "o'zini o'zi qadrlash" to'plamini shakllantiramiz. Bu - dunyoda farovon yashash, ishlash, odamlar bilan munosabatlar uslubi. Shunisi e'tiborga loyiqlik, o'ziga bo'lgan munosabat va boshqa odamlarga bo'lgan munosabat bir-birlariga ta'sir qiladi: o'z-o'zini hurmat qilish, boshqalarga munosabatda ham hurmatni shakllantiradi. O'zini yaxshi deb hisoblaydigan, boshqa odamlarni yaxshi ko'rgan, ularga yaxshi muomala qiladigan va ularga munosabat bildiradigan kishi, bu uning fikri va uning qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini oshiradi. Xuddi shu tarzda, o'ziga nisbatan fikri past bo'lgan odamda buning teskarisi.

O'ziga ishonchli va ishonchsiz shaxsning xatti-harakati belgilari.

O'ziga ishonchli xatti-harakatni ko'rsatadigan kishi xotirjam ko'rinadi, qadriyatga ega. Uning nigohi xotirjam, hatto qomati xotirjam va ishonchli ovozi bor. U bezovta qilmaydi, vahimaga tushmaydi, urushqoqlik xususiyatini ko'rsatmaydi.

Ishonchsiz shaxsning xatti-harakati ikki xil: tajovuzkor va passiv, qaram. Ishonchsiz odam tajovuzkor bo'lishi mumkin: qichqiriq, haqorat qilish, qo'llarini silkitib, nafrat bilan qarash va hokazo. Bunday xatti-harakatlar talabchanlik yoki dushmanlik bilan tavsiflanadi, inson "shaxsiyatga o'tadi" va ko'pincha o'z ehtiyojlarini qondirishga emas, balki boshqasini jazolashga e'tibor beradi. Ishonchsizlik, shuningdek, qarama-qarshi, uyatchan xatti-harakat orqali namoyon bo'ladi: bunday kishi juda jim, uyatchan yurish, boshini chayqash va tushirish, to'g'ridan to'g'ri qarashdan qochish, unga bosim o'tkazilmasa ham namoyon bo'lishi mumkin. Bunday xatti-harakatlar bilan, bir kishi muammoni to'g'ridan to'g'ri muhokama qilishdan voz kechadi, uning istaklari va ehtiyojlari haqida bilvosita shaklda gapirishga moyil bo'ladi, "ayblash" passiv, lekin sherikning taklif qilishi mumkin bo'lgan narsalarni qabul qilishga tayyor emas.

O'ziga ishongan kishi tajovuzga yoki passiv qaram xatti-harakatlarga murojaat qilmasdan o'z pozitsiyasini qanday himoya qilishni biladi. U o'z ehtiyojlari, shuningdek, sheriklar tomonidan kerakli harakatlar haqida ochiq gapiradi, buni dushmanlik va o'zini himoya qilmasdan qiladi. Ishonchli shaxs, shuningdek, mustaqillikni namoyon etish, shaxsiy fikrini himoya qilish va boshqalarga itoatkorlik bilan rioya qilish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Ishonchingizni mustahkamlash uchun bir nechta maslahatlar:

1. Esingizda bo'lsin, ideal odamlar yo'q va siz istisno emassiz, shuning uchun xatoga yo'l qo'yish ayb emas. Buni xotirjam his eting. Har qanday xato sizni yaxshilashga imkon beruvchi tajriba!
2. O'zingizga ishonch hosil qilish boshqalarga nisbatan jasoratli, tajovuzkor bo'lishni anglatmaydi.
3. O'z-o'zingizni ishontiring.
4. Omad va yutuqlaringizni, hatto kichiklarni ham ko'rib chiqing. Ular uchun o'zingizni maqtang!
5. Boshqalar siz haqingizda qanday fikrda bo'lishlari yoki nima gapirishlariga e'tibor bermang.

Endi hoziroq o'zingizga ishonish, o'zingizni qadrlash va sevishni boshlang va siz buni amalga oshirasiz!

1. O'zgaruvchan xona" mashqi.

Maqsad: ijobiy hissiy muhitni yaratish, trening ishi uchun kayfiyatni ko'tarish. Keling, asta-sekin xona ichida yurib, bir-birimizni kutib olaylik. Va endi tasavvur qiling-a, xona saqich bilan to'ldirilgan va siz u orqali uzaydingiz.

Va endi esa xona to'q sariq devorlarga aylandi. Zamin va ship, siz "Fanta" da pufakchalar kabi energiya, quvnoq va yengil his qilasiz... va endi yomg'ir yog'di, atrofdagi hamma narsa ko'k va kul rangga aylandi. Siz qayg'uli, qayg'uli, charchagan holda yurasiz... Yana quyosh chiqdi. Porloq kun... xursandlikdan sakraymiz.

2. "Oyna" mashqi.

Maqsad: ideal "Men" tushunchasini shakllantirish.

Endi siz ikki ko'zguda o'zingiz haqida yozish uchun taklif etilasiz: bir oyna siz hozir aslida qandayligingizni aks ettiradi, va boshqa oyna – siz qanday bo'lishni istaydigan qiyofa. Munozara: ikkita oynada farqlar bormi? Ular asosan nima bilan bog'liq? Qanday qilib o'zgarishga erishishim mumkin? Buning uchun nima kerak?

3. "Aks sado" mashqi.

Maqsad: ish uchun kayfiyat va ijobiy hissiy muhitni yaratish.

Trener: Salom, sizni bizning darsimizda ko'rishdan baxtiyorman. Va boshlash uchun men bir-birlaringiz bilan salomlashishni taklif qilaman. Guruh a'zolari o'z navbatida o'z nomlarini qo'shimcha ma'lum bir ishora (jest)lar bilan birga aytadilar. Keyin guruh xor bo'lib uning ismini chaqiradi va jestni takrorlaydi.

4. "Vaqt-nima?» mashqi.

Maqsad: vaqtni rejalashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlarini yanada to'liq tushunish, o'zi haqida to'liq tasavvurni shakllantirish.

Trener: Iltimos, qog'ozni oling va "Vaqtni qanday ishlataman?" savoliga ikkilanmasdan 20 ta javob berishga harakat qiling va aqlingizga kelgan birinchi javobni yozing. Va endi siz yozgan hamma narsani ko'rishingiz mumkin. Munozara: Vaqtga nisbatan munosabat haqida yozish qiyinmi? Vaqtga nisbatan ijobiy munosabatni birinchi o'ringa qo'ygan xususiyatlar qanday? Qaysi pozitsiyalardan vaqtga nisbatan salbiy munosabatni bildirasiz?

5. "Fikrlar" mashqi.

**Maqsad:** atrofdagi odamlarning o'z-o'ziga munosabatni shakllantirishga ta'sirini anglashga o'rgatish.

**Trener:** Biz kim va nima o'z-o'ziga munosabatni shakllanishiga ta'sir qilishini muhokama qildik. Keling, buni haqiqiy hayotda qanday bo'lishini ko'rishga harakat qilamiz. Buning uchun endi o'z navbatida har bir ishtirokchining eng yaxshi sifatini aytamiz. Umuman olganda, jozibali xususiyat bo'lishi kerak. Va fikr metafora shaklida ifodalanishi kerak ("tikanli kirpi", "abadiy dvigatel", "jumboq").

**Munozara:** insonga uning ijobiy fazilatlari haqida gapirish yaxshi ekanmi? Bu fazilatlarni insondan ajratish qiyinmi? O'zingiz haqingizda yaxshi sharhlarni eshitganingizga qarab, kayfiyatingiz qanday o'zgardi? Sizningcha, boshqalarning ijobiy bahosi o'z-o'ziga munosabatni shakllanishiga ta'sir qiladimi? Nima uchun?

## **STRESSIZ TURMUSH TARZI**

*Abdunazarova Shahnozaxon To'xtasinovna  
Farg'ona viloyati Furqat tumani 36-maktab psixologi*

Stress – bu bizning miyamiz va tanamiz talablarga qanday javob beradi. Hodisalarning har qanday turi, ijobiy yoki salbiy bo'lishidan qat'i nazar, stressni keltirib chiqarishi mumkin va stress har bir inson hayotining bir qismidir. Stress odatda zararli deb hisoblanadi, ammo aslida barcha stresslar yomon emas. Masalan, bu odamlarni qiyin vazifalarni bajarishga undashi mumkin.

Stress nafaqat bizning his qilishimizga ta'sir qiladi. Bu bizning jismoniy sog'ligimizga ham ta'sir qilishi mumkin. Buning bir misoli – migren, yoki «stressning bosh og'rig'i». Stress bizning ishtahamizga, uxlashga, qon bosimini ko'tarishga va boshqa ko'p narsalarga ta'sir qilishi mumkin. Uzoq muddatli yoki surunkali stress yurak-qon tomir, immunitet, ovqat hazm qilish va oshqozon-ichak tizimimizga ta'sir qilishi mumkin. Yaxshiyamki, stressni engishning turli xil usullari mavjud. Ba'zilar siz uchun



boshqalarga qaraganda yaxshiroq ishlashi mumkin, ammo ularning barchasi bizni stressni sog'lom usulda engishga yordam beradi.

Barchamiz stressni boshdan kechiramiz. Bu hayotning barcha jabhalarida keladi va o'z-o'zidan har doim ham yomon narsa emas. Stress og'ir mehnatning sababi bo'lishi mumkin, u qiziqarli hodisalarga hamroh bo'lishi mumkin va hayotsiz u hayotsiz bo'lmaydi. Stress hatto biz uchun yaxshi bo'lishi mumkin, ayniqsa, u jiddiy darajalarda emas. Stressda hayotning ko'plab sohalarida bo'lgani kabi, stressni boshqarish ham turli xil jabhalarda stress bilan kurashishdan iborat.

Nima uchun muvozanatli turmush tarzini saqlash muhim

Kuchli stressni bartaraf etish rejasining bir qismi tez sur'atda tinchlanish yo'llarini izlashni talab qiladi, shuning uchun stressni yanada samarali tarzda boshqarishi mumkin, chunki u surunkali stressning salbiy oqibatlarini oldini oladi. Stressni bartaraf etishning yana bir muhim usuli - sog'lom turmush tarzini saqlab qolishdir.

Sog'lom turmush tarzi odatda sizning stress ta'siringizdan xalos bo'lishingizga yordam beradi, bu sizni surunkali stressning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish yoki hatto qaytarish imkonini beradi. Sog'lom turmush tarzini o'rganish, odatda, endorfin shovqini, umidsizlikni kamaytirish yoki uzoq umr ko'rish kabi qo'shimcha foyda keltiradi. Bu erda muhokama qilingan ko'plab sog'lom turmush tarzi odatiy holatlarda, stressni kamaytirishga yordam berishi mumkin, uzoq muddatda siz hali ham boshdan kechmagan stressdan himoyalаниshingizni ta'minlaydi

Sog'lom turmush tarzini saqlab qolish, stressni engib o'tish usulini faqat bir marta ishlatishdan ko'ra, qiyinroq, sog'lom turmush tarzini saqlab qolishdan olingan foydalar uni saqlash uchun zarur bo'lgan qadriyatlardan ko'ra ko'proqdir.

Siz ko'rgan sog'lik va salomatlikning ortishi, shuningdek, stressning kamayishi sizni bu o'zgarishlarni tezroq o'zgartirishni xohlaysiz va sizning doimiy g'ayratga ega bo'lgan ajoyib manbalaringiz bo'lishi mumkin.

O'zgarishlarni kuchaytirishi mumkin

Ko'pgina odamlar bir necha sabablarga ko'ra sog'lom turmush tarzi o'zgarishi bilan qo'rqitishadi yoki xafa bo'lishadi:

Qaerdan boshlashni bilmaslik: Sog'likka va sog'liqqa foyda keltirishi mumkin bo'lgan juda ko'p o'zgarishlar mavjud bo'lib, bu qanday boshlanishi mumkinligini bilish qiyin bo'lishi mumkin.

Bir vaqtning o'zida juda ko'p ish qilish: Odamlar ko'pincha bir vaqtning o'zida juda ko'p o'zgarishlarni amalga oshirishga urinadilar, keyin bu juda qiyin (yoki mukammallikni kuchaytirishga intilishlari uchun harakat qilishlari) va harakatdan voz keching. Qiyinchilikka duch kelaylik. Ayniqsa siz stressni o'zgartirganingizda qiyinchiliklarni o'zgartirish qiyin. Ba'zida turmush tarzi stressni oshiradi va sizning tezligini kamaytiradi.

Sog'lom turmush tarzini tarozida stressni engillashishda yordam berishi va sog'lom turmush tarzi o'zgarishini ta'minlash qiyin bo'lishi mumkinligini hisobga olsak, quyidagi manbalar ham sog'lom turmush tarzi uchun yangi maqsadlarni tanlashda va yangi maqsadlarga reallik bilan yangi sog'lom odatlarni qabul qilishda yordam berishi mumkin hayot tarzingiz.

Sog'lom ovqatlanish: Sog'lom turmush tarzi bilan yashashni xohlaydigan eng mashhur o'zgarishlardan biri - boshqa ovqatlanishdir. Semizlikning salbiy oqibatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, ta'sir ko'rsatish fitnesi o'zimizning hurmatimizga bog'liq va oziqlanishning stress darajalariga va uzoq umrga bo'lgan ta'siri, sog'lom ovqatlanishga o'tish salomatlik uchun eng katta foyda keltiradi.

Barcha turdagi odamlar uchun eng yaxshi stressni yo'qotish

Stressning turi va intensivligi kichik muammolardan katta inqirozlargacha turlicha bo'lishiga qaramay, barchamiz muntazam ravishda stressni boshdan kechiramiz. Stress juda kuchli, surunkali va boshqarilmasa, bizning sog'ligimiz va farovonligimiz uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun ichki stressni va jismoniy salomatlikni tiklashda samarali stressni kamaytirish zarur.

Biroq, har qanday stressli vaziyatga mos keladigan stressni ketkazuvchi vositalarni topish qiyin bo'lishi mumkin.

Fikrlaringiz poyga qilganda, doimo meditatsyon uchun kayfiyatda bo'lmasligingiz mumkin, garchi u stressni kuchaytiradigan kuch bo'lsa-da; ba'zan siz aloqa metodlarini

o'rganish orqali bo'lishi mumkin bo'lgan nafas mashqlari (boshqa yuqori samarali stressni kamaytiruvchi) tomonidan boshqarilmaydigan munosabatlardagi stressga duch kelasiz

### **"Baxt uchun litsenziya" mashqi**

- Baxtli bo'lish, his qilish, o'ylash va o'zini tutish uchun nima qilish kerakligini ushbu varaqlarga yozishingizni maslahat beraman.
- to'ldirdingizmi? Endi varaqni o'giring. Sizni tabriklayman, siz faqat o'zingiz uchun baxt uchun litsenziya berdingiz.

**Va bu yerda biz quyidagi formulaga egamiz.**

**Maqsadga intiluvchanlik. + O'ziga ishonch. + Mustaqillik va javobgarlikni his qilishga tayyorlik. + Strategik fikrlash qobiliyati. + Sog'lig'ingizga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. + O'z imkoniyatlarini kengaytirish istagi. + Ijodkorlik. + Donolarning fikrlari. = MUVAFFAQIYAT.**

Siz doimo tongda yaxshi kayfiyatda uyqudan turishingizni tilaymiz. Baxtli va muvaffaqiyatli bo'ling.

### **"Uchrashuv taassurotlari" mashqi.**

Maqsad: ijobiy hissiy muhitni yaratish, ish uchun kayfiyat.

Ishtirokchilar bu uchrashuv bilan o'z farazlarini ifoda etishga taklif etiladi. Misol uchun: "agar bizning uchrashuvimiz gul bo'lsa, unda shunday bo'lar edi... atirgul, chunki...".

### **"Men kimman? Men qandayman?» mashqi.**

Maqsad: o'z-o'zini namoyish qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bolalar sizdan "Men kimman?" degan savolga qog'oz varag'ida javob yozishingizni so'rayman.". Savolga aniq javob berish kerakligiga e'tibor bering. "Men qandayman?" - bu boshqa masala.

Misol uchun:

1. Men-Hasan
2. Men kitoblarni yaxshi ko'raman
3. Men quyoshman
4. Men sportchi va boshqalar.

Har bir inson tayyor bo'lgach, o'zingizni tanishtirishni taklif qilaman. Ishtirokchilar o'z navbatida turishadi va ular kimligini aytishadi. Agar javob aniq bo'lmasa, qolganlar

spikerga aniqlik kiritishini iltimos qilishlari mumkin. Har bir o'smir uchun treningda ishtirok etuvchilar soniga qarab 1-2 daqiqa beriladi.

Munozara:

- Nima uchun bu fikrni tanladingiz? Qolganlarni tinglaganingizdan so'ng, boshqasini tanlashni xohlaysizmi?

\* Ishtirokchilarning qaysi biri ko'proq eslab qoldi? Nima uchun?

Tavsiyalar: o'yin sizni qiziqarli tomondan ifodalashga imkon beradi, bu ayniqsa yoshlar uchun muhimdir. Bu jarayonda odamlar bir-birlarini yaxshi bilib olishadi, bu esa mashg'ulot doirasida keyingi ishlarga yordam beradi.

## **PSIXOLOGIK KONFLIKTLARDA AGRESSIVLIKNI BARTARAF ETISH**

*Esonova Zulayxo Ma'murovna  
Farg'ona viloyati Furqat tumani 30 -maktab psixologi*

Konfliktlar insonning jamiyatdagi hayoti va uning boshqa odamlar bilan munosabatining ajralmas qismidir. Mojarolar hamma joyda paydo bo'ladi va har birimizni har qanday joyda kutishimiz mumkin: ishda, ofisda, maktabda yoki kollejda, do'konda yoki jamoat transporti va hatto uyda. Mojaroli vaziyatlarni tan olish va ularni zararsizlantirish qobiliyati har qanday odam uchun juda muhim mahoratdir. Konfliktologiya bo'yicha taqdim etilgan treningning keyingi darslarida biz, albatta, nizolarning sabablari va ularning strategiyalarini tahlil qilish haqida batafsil gaplashamiz, shuningdek, nizolarni boshqarish, nizolarning oldini olish va oldini olish masalalarini batafsil muhokama qilamiz. Biroq, ushbu jiddiyroq mavzularga kirishdan oldin, biz umuman konflikt nima ekanligini, qanday turdagi nizolar mavjudligini va ular qanday tavsiflanishini tushunishimiz kerak.

Konflikt nima? "Konflikt" atamasi lotincha "conflictus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "to'qnashdi" degan ma'noni anglatadi. Odatda, konflikt haqida gapirganda, ular odamlarning bir-biri bilan o'zaro munosabati paytida paydo bo'ladigan qarashlar, maqsadlar, manfaatlardagi qarama-qarshiliklarni hal qilishning eng keskin usuli haqida gapiradilar. Jarayon sifatida konflikt ushbu ijtimoiy o'zaro ta'sir ishtirokchilarining bir-biriga qarama-qarshiligidan iborat bo'lib, ko'pincha umumiy qabul qilingan me'yorlar va standartlardan tashqariga chiqadigan salbiy his-tuyg'ular bilan birga keladi. Mojaroda bir nechta tomonlar o'rtasida kelishuv yo'qligi tushuniladi (bu shaxslar yoki odamlar guruhlar bo'lishi mumkin). Konfliktlarni o'rganuvchi fan konfliktologiya deb ataladi. Agressiya kabi psixologik xolatlar pedagogik konfliktlarga ham xos bo'lgan xususiyatdir. Agressiya bu boshqa insonga ko'rsatilayotgan psixologik yoki jismoniy zo'ravonlik holati bo'lib, agressiv tomonlarning to'qnashuvining psixologik-ruhiy natijasi, o'zga tomonga nisbatan qo'qqisdan shakllangan his-tuyg'u, o'zini muhofaza qilish, yoki o'zga odamga bosim va taz'iy qo'tkazish shakli sifatida konflikt vaziyatlarning odatdagi hamrohi hisoblanadi. Ya'ni bir boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agressiya va zo'ravonlik o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o'sib borishi va to'planishi oqibati sifatida zo'ravonlikka olib kelishi mumkin. Lotin tilida agressiya "hujum qilish" ma'nosini anglatadi. Agressiya inson xarakterida tug'ma va tabiiy bir element sifatida, xuddi shuningdek, agressiyadan asli uzoq odamning favqulodda vaziyatda o'z emotsiyalarini tuta bilmasligi ularni nazorat qila olmasligi oqibatida vujudga kelishi mumkin. Tabiiy ravishda o'qituvchi agressiyasining har qanday ko'erinislari nomoyon bo'lishidan pedagogik jarayonni va uning barcha ishtirokchilarini muhofaza qilmog'i lozim.

Konfliktli vaziyatlarda ko'pchilik o'z instinktlari va hissiyotlari asosida o'zini tutishga o'rganib qolgan. Bunday holni ko'pchilik qabul qiladi va aynan mana shu yo'l to'g'ri deb biladi. Shu bois, konfliktli vaziyatda zo'ravonlik ishlatilsa, birovning hayotiga tahdid solinsa, jismoniy kuch ishlatish qo'llanilsa, ko'pchilik, ziddiyat mavjud ekanligini hisobga olgan holda, bu vaziyatlarda "kechirimli bo'lish" lozimligini, bunday holatning kelib chiqqanligini anglash mumkinligini ta'kidlashadi. Ammo, har qanday vaziyatda ham birovning hayoti, uning sog'lig'iga zo'ravonlik o'tkazib bo'lmasligini unutishadi.

Shu bois agressiya holatlarda eng avvalo tinchlanish talab etiladi. Pedagogik konfliktlar ishtirokchilari o'z g'azab, jahl va qahrini yengib o'tishga o'rganishi darkor hisoblanadi. O'qituvchilar o'zlari va o'quvchilarni g'azab, jahl va qahrdan poklashga o'rgatishlari zarurdir.

Zo'ravonlik aslida inson xarakterining qusuri, uning kamchiligi hisoblanadi. Odam o'z hissiyotlari ustidan nazorat o'tkaza olmasligi, yoki o'zini tiya bilmasligi uning zo'ravonlikka ruju qo'yishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Zo'ravonlik insonning kuchli ekanligini emas, balki aksincha uning kuchsiz va irodasiz ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, o'qituvchi o'z o'quvchilariga zo'ravonlik o'tkazganda, bunday zo'ravonlik irodasizlik belgisi sifatida baholanishi tabiiydir. Zo'ravonlik qo'llanilganda konfliktning yaratuvchanlik xususiyati emas, balki vayron etish xususiyati faol bo'ladi. Konfliktning vayron etish xususiyati esa insonni stress, depressiya, o'zgalardan o'zini olib qochish, hayotdan bezish, o'z kuchiga haddan tashqari ishonch, boshqa tarafdin o'z kuchiga ishonmaslik, doimiy jahldorlik, jizzakilik, tajanglik, besabrlik, besaromjonlik kabi holatlarga olib keladi.

Zo'ravonlik ishlatgan insonlar ko'pchilik hollarda ma'naviy jihatdan to'la shakllanib bo'lmagan, ma'lum "kompleks"larga ega bo'lgan, ma'naviy majruh odamlardir. Ular aslida o'zlarini juda past baholashadi, ular o'zlarining "nosog'lom" ekanliklarini intuitiv tarzda anglashadi, shu bois bu xususiyatlarning mavjud ekanligini ko'rsatmaslik, oshkora etmaslik, birovlar mazkur "past" baholanishni bilib qolmasligi va sezmasligi uchun, tashki ko'rinishda va muomalada, zo'ravonlik yo'lini, agressiv usulni, jahl va tahdidga asoslangan "o'zini tutish" yo'nalishini tanlashadi. Ular aynan zo'ravonlik orqali o'zlarining kuchlarini ko'rsatmoqchi bo'ladilar, ammo ruhan bunday odamlar ruhiy majruh va psixologiyasi mo'rt odamlardir. Pedagogika va psixologiya bilan oz-moz tanish bo'lganlar darrov mana shu agressiya ortida insonning o'ziga ishonchi mavjud emasligini bilib olishadi. Demak, o'zini zo'ravon va jahldor qilib tutayotgan odamlar aslida o'zlari xarakterida mavjud bo'lgan "o'ziga ishonmaslik" niyashirishga harakat qilayotgan odamlardir. Ular bu narsalarni tan olmasligi, yoki anglamasligi ham mumkin. "Men "zo'r"man, shuning uchun hamma narsani qilaveraman", degan aqidaga ishonishi ham mumkin. Ammo zo'ravonlik harakatlari ortida turgan barcha maqsadlar, aslida, insonning ma'naviy bo'shligi, yetuk

emasligi, to‘laqonli ma’naviy shakllanmaganligi, uning o‘z emotsional holatini va o‘z harakatlarini nazorat qila olmasligi, irodasiz va bo‘shligining yorqin natijasi va namoyishi hisoblanadi.

### **“Nima? Kim? Qanday? Qayerda? Qachon?” refleksiv muolajasi treningi**

#### **Maqsad:**

- yaqin kelajak rejalarini aniqlashga va «hayotiy dastur»ni tuzishga o‘rgatish.

Trener har bir ishtirokchiga yaqin orada erishishi mumkin bo‘lgan orzu-umidlarini ko‘rib chiqishni va ularning ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra joylashtirishlari kerakligini tushuntiradi. O‘z ehtiyojlarini qondirishga asoslangan muvaffaqiyat dasturini tuzish kuyidagi qoidalarga asoslanadi:

- «menda nima bo‘ladi», «men nimani hoxlayman», «men mag‘lubiyatni qanday his qilaman» va hokazolar kabi muvaffaqiyat kalitini tuzish;
- har kim o‘zi bajara oladiganini rejalashtirish;
- qo‘lga kiritilgan natijalarni sensor tizimda: his etish, sezish, tovush, kayfiyat va hokazolarda tasvirlash;
- tasavvur qiling, qo‘lga kiritilgan natijalar qachon va qay tarzda kerak bo‘ladi?
- o‘ylab ko‘ring, kutilgan natijalarning oqibati nima bilan tugashi mumkin?

Guruhda natijalarni muhokama qilish.

«Men haqiqiy insonman» mashqi

#### **Maqsad:**

- shakllangan ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash.

Har bir ishtirokchi «Men haqiqiy insonman» iborasini uch marta turlicha mimika va ohangda aytadi.

### **«Avval va keyin» mashqi**

#### **Maqsad:**

- treningni yakunlash;
- ijobiy ustanovkalarni mustaxkamlash. Ishtirokchilar o‘zlarining xulq -atvorlaridagi o‘zgarishlarni anglashlari, xayotga karashlaridagi ijobiy sifatlari xususida hamda uzlari uchun yangilik bulgan treningning ahamiyati xakddagi ta-savvurlari bilan urtoklashadilar. Bir-birilariga xushomad kila-dilar. Trener «namunali xulk»



deklaratsiyasini ukib eshittiradi va ularning xar biri uz xayotining namunali egasi, sevib va sevilib yashashga xakli ekanligi bilan ajralibturuvchi bunyodkor shaxs ekanliklarini ta'kidlaydilar.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNIKALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI**

*Xolmuminova Shoxida Norqul qizi*  
*Qashqadaryo viloyati Nishon tumani 20-maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

Ta'limga beriloyatgan katta e'tibor tufayli ta'lim-tarbiya sohalaridaham islohatlar va yangilanish jaroyonlari bo'lmoqda. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakillanip kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarini ta'lim jaroyanida mohirona tadbiq etaolishi, ta'limning yangidan yangi yo'l va usullarini izlash ilg'or pedagogik tajribalardanani jobiy foydalana olishi juda muhimdir. Chunki hozirgi texnika asrida bola ongi va tafakkuri kattalarga niabatan tezroq, jadalroq rivojlanmoqda. Maktab yoshiga yetmasdanoq telefon, kompyuter, planshet kabi elektron gadjetlarni o'zlashtirip olmoqdalar. Bu holatni e'tiborga olgan har bir pedagog zamon bilan hamnafas bo'lib, zamonaviy texnologiyalarni chuqur bilishlari lozim.

Bola birinchi sinfga qadam qoygan ilk chog'ida brinchi ustoziga mexri bo'lakcha bo'ladi, bola uchun dunyoda eng blimdon, aqlli va qadrdon inson bu birinchi uztozi bo'ladi. Birinchi muallimini allomalarni ulug'lagandek ulug'laydi har bir so'zini tinglab, harbir gapini bajarishga oshiqadi. Oila a'zolaridan ham ulug' ko'radilar lekin bu holat vaqt o'tgan sari o'zgarib boradi. Bola mukammal deb bilgan insonining oddiy telefon yoki komputerdan foydalana olmasligi bolada hayrat va uztozga nisbatan ishonchsizlik hisi paydo bo'lishiga olib keladi. Bola tarbiyasida va texnologiyalarni qo'llashda qolipga

tushib olish va o'zgarishlardan qochish o'qituvchining obro'si tushishiga sabab bo'ladi. O'zbek xalqi yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalar, shakllari o'ziga xo'rf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Hozirgi kunda shu meroslardan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Bir metod va usulni harkuni qo'llash bolada zerikish, bezish kabi holatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Maktabga kelayotgan bola har kuni yangidan yangi o'yin, texnologiya va metodlarni ko'rsa darsni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Yosh avlod erkin fikirlaydigan, o'z mulohazalarini ochiq bayon qilaoladigan, mustaqil qaror qabulqilaoladigan va ularning shu hislatlarini rivojlantiradigan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz kerak. Har kuni bitta parta va bitta partadosh emas tanlash imkoniyati va hohishiga qarab joylashishi bolaning ruhiyatigaham ijobiy ta'sir qiladi.

Dehqon dalaga urug' qadashdan oldin yerga ishlov berip tayyorlab olganidek pedagoglar ham bolaga bilim berishdan oldin uning ruhiy holati haqida bilim ega bo'lishi lozim. Buyuk bobomiz Ibn Sino aytgidek "bola darsdan darsga o'tganda huddi turli bog'ni kevgandek, turli gullar hidlagandek bo'lsin". Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolaga huddi shunday holatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. O'quvchi birxillikda o'zining turli hislarlarini ochib beraolmaydi. Darsda bir og'iz ham gapirmaydigan o'quvchi tanafus chog'ida bul-buldek sayrab, burro burro gaplar tuzip she'r va latiflar aytadi.

Har bir alohida dars darslar zanjirining bir bo'g'inini tashkil qiladi. Dars ma'lum tuzilishga ega bo'lgan murakkab tizimdir. Dars strukturasi deganda darsning asosiy komponentlarining maqsadli ketma – ketligi, o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Dars strukturasi zamonaviy talqini barcha qismlarning egiluvchanligi, mashg'ulot maqsadidan kelib chiqib turli bog'lanishi va ketma – ketligini nazarda tutadi. Interfaol darsning strukturasi 5 asosiy elementdan tarkib topadi: Motivatsiya (vaqtning 5%) Maqsad – o'quvchilarning diqqatini muammoga qaratish. Mavzu muhokamasiga qiziqish uyg'otish. Bu savol, iqtibos (sitata), kichik hikoya, topshiriq ko'rinishida bo'lishi mumkin. Kutilayotgan natijalarni e'lon qilish (vaqtning 5%) Maqsad- o'quvchilarning o'z faoliyatlari mohiyatini tushunib yetishlarini ta'minlash, ya'ni dars yakunida ular

nimaga erishadilar va o`qituvchiulardan nimani kutyapti. Zarur axborot bilan ta'minlash (vaqtning 10%) Maqsad- ta'lim oluvchilarga amaliy mashq va topshiriqlarni bajarish uchun yetarli axborot taqdim etish. Bu kichik ma'ruza, tarqatma material, uy ishini tekshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Interfaol mashqlar ( vaqtning 60 %) Maqsad- materialni amaliy o`zlashtirish, mashg`ulot (dars) maqsadlariga erishish. Bunda o`qituvchi topshiriqni tushuntiradi. O`quvchilar yakka– juftlikda kichik guruhlarda ishlaydilar, natijalarni taqdimot qiladilar. O`qituvchi kuzatishlariga asoslanib, ishni umumlashtiradi. Yakun yasash (o`rganilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash) (vaqtning 20%) Maqsad-refleksiya, qayta bog`lanish, mashg`ulot davomida amalga oshirilgan, faoliyatni anglash, maqsadga erishilganlik, olingan BKM larni hayotda qo`llash imkoniyatlarini tahlil qilish. Dars strukturasi to`g`risida fikr yuritganda “dasr rejasi”, “texnologik xarita”, “dasr turlari” kabi tushunchalarni aniqlashtirish zaruriyati tug`iladi. Dars rejasi: Sana, Sinf, Fan, Mavzu, Maqsad, Darsturi, Metodlar, Dars jihozi, Darsning borishi.

Yuqorida dars rejasining tarkibiy qismlari ifodalangan bo`lib, dars rejasi har bir dars ishlanmasi, texnologik xaritaning ajralmas qismidir.

Texnologik xarita-bir soatlik dars ishlanmasining o`qituvchi foydalanishi uchun qulay sxemasi bo`lib, darsni tashkil etishda tushuncha va bilimlarning muayyan izchilligi va axborotli modellarni o`rganish usullari, yo`llari, ko`rsatmalari hamda ko`rgazmali – texnologik topshiriqlar yig`indisidan iborat.

Maqsad nima? Ko`pincha o`qituvchilar maqsad bu – “biz intilayotgan narsa”, “oldimizga qo`ygan reja, ish”, “orzu” deb ta`rif beradilar.

Hayotiy misol

Keling ,bu masalani kelin olish misolida ko`rib chiqaylik. Inson farzandi dunyoga kelganda “katta bo`lsa, yaxshi to`ylar qilsam” deb orzu qiladi. O`g`il farzand voyaga yetganda, nasib qilsa, to`y – tomosha qilaman, elga osh beraman” deb yana o`ylaydi, orzusi yaqinlashgandek bo`ladi ( qizlarning ishi biroz murakkab, sababi to`yning qachon bo`lishi ota – ona yoki qizga bog`liq emas).Lekin bularning barchasi hali orzu.

Orzuni qanday qilib maqsadga aylantirish mumkin?

Birinchidan, farzandingiz oila qurishga, oilani boshqarishga jismoniy va ma'naviy jihatdan tayyorligini hisobga olasiz.

Ikkinchidan, to'y qilishga moddiy ta'minot yetarlimi?

Uchinchidan, yoshlar to'ydан keyin qayerda yashaydilar?

To'rtinchidan, siz qanday oiladan, qaysi kasbdagi, ma'lumoti, yoshi qanday qizni kelin qilmoqchisiz?

Beshinchidan, to'yni qaysi oyda o'tkazmoqchisiz?(Albatta o'g'lingiz kelinni topibq o'ygan bo'lsa, ishingiz osonlashadi). Barcha savollarning javobi topilganidan keyin, orzu maqsadga aylanadi. Keyingi harakatlaringiz (qo'shimcha mablag' topish, uyni ta'mirlash, sovchilikka boorish va h.k.) maqsadni amalga oshirish, ya'ni natijaga erishishga qaratiladi. To'y kuni natijaga ega bo'lasiz.

Demak, maqsadni belgilashda biz 5 ta mezonni hisobga olishimiz zarur. Mazkur mezonlar inglizcha so'zlarning qisqartmasidan olingan bo'lib, SMART mezonlari deyiladi.

Dars maqsadi o'quvchilarning talab va ehtiyojlari, imkoniyatlari, avval egallagan bilim, ko'nikma va malakalari, o'qituvchining salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqadi. O'qituvchining o'z darsi oldiga qo'ygan maqsadi, DTS talablari asosida belgilanishi lozim.

Ta'limiy maqsad o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim hajmini belgilaydi. U quyidagicha bo'lishi mumkin: "O'quvchilar gap turlari haqida tushunchaga ega bo'ladilar", "Undalma haqidagi bilimlarini kengaytiradilar", rivojlantiruvchi maqsadda o'quvchilar ega bo'ladigan ko'nikma va malakalar ko'rsatiladi. Ko'pincha o'qituvchilar aynan rivojlantiruvchi maqsadni belgilashda qiynaladilar. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda "o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish", "so'z boyligini oshirish", "og'zaki va yozma nutqni o'stirish" kabi rivojlantiruvchi maqsadlarning bir soatlik dasr davomida amalga oshishi mushkulligi barchaga ayonligini ta'kidlash lozim, tarbiyaviy maqsadda bunda asosan, o'quvchilarda shakllantirilishi muhim bo'lgan fazilatlar, ularning psixologik holatiga e'tibor qaratish muhim.

Xulosa. Ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakilantiradi. O'quvchining bilimga

ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'. Yo'ldashov. S.A. Usmanov "Pedagogik texnologiya asoslari" T.O'qtuvchi 2004.
2. T.G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar" T.:Tafakkur 2011.

## **YOSH AVLOD TARBIYASIDA OILANING O'RNI**

*Egamberdiyeva Dilnoza*  
*Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar 31 maktab psixologi*

### **Annotatsiya**

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. «Jamiyat» va «oila» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Maqolada yosh avlod tarbiyasida oilaning o'rni haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

### **Kalit so'zlar**

Oila, ota-onalar, oila tarbiyasi, ota-onalar burchlari, oila muhiti, jinsiy tarbiya, aqliy tarbiya.

Oila tarbiyasi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali

mehnatga tayyorlash, turli ko‘rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy meyorlarga og‘ishmay rioya etish, sog‘lom turmush tarzini yaratish, o‘z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so‘z va faoliyat birligini ta‘minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko‘rsatadi.

Shaxs shakllanishiga ta‘sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo‘lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o‘ziga xos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to‘qnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson organizmi ning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo‘lgan mo‘tadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg‘u xalqimiz ruhiyatidagi o‘ziga xos xususiyatlardan biridir.

Oila tarbiyasida ob‘yektiv va sub‘yektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta‘minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila byudjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog‘lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar ob‘yektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a‘zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma‘lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o‘zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar subyektiv omillar sirasiga kiradi.

Bolalarda ijtimoiy-dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan intilish, ijtimoiy faoliyatning shakllanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishlari hal qiluvchi omil bo‘lib, bu oia tarbiyasini muvafiqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to‘g‘ri yuritish ularni vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash nihoyatda muhimdir.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog‘lom, ma‘naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo‘nalishlari – jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g‘oyaviy hamda jinsiy ta‘lim berish, ularda faoliyat ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Oila muhitida tashkil etiladigan jinsiy tarbiya o'zida bolani jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi. Bolalarning sog'lom bo'lishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta vakil avlodlari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak.

Organizmning bir maromda ishlashi bola salomatligini saqlash va mustahkamlashgagina yordam berib qolmay, shu bilan birga uning barcha yumushlarni tartibli va sifatli bajarishi uchun imkon yaratadi.

Markaziy asab tizimining mustahkamlanishi uchun yaxshi dam olish talab etiladi. Tiniqib uxlash bosh miya asab hujayralarini to'la orom olishini ta'minlaydi. Bu esa butun organizmning mo'tadil o'sishiga, uning ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi.

Inson salomatligini saqlashda ertalabki badan tarbiyaning ahamiyatini bolalarga tushuntirish hamda ularning ertalabki badan tarbiya bilan shug'ullanishga ko'niktirib borish ota-ona nazoratini talab etadi. Badan tarbiya bolani saranjomlik, intizomga ham o'rgatib boradi.

Ovqatlanishning to'g'ri tashkil etilishi ham bolaning sog'lom bo'lib o'sishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo'lni yuvish, ovqatdan keyin og'izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho'milish, qo'l va oyoq tirnoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi.

Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat. Shuningdek, ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bolada qg'iziqishni uyg'ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari



doirasi hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi.

Oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o'yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano (tasvir)lar hosil qilish va boshqalar), fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o'yinlari (shaxmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko'rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbatlarning uyushtirilishi bu borada o'zining ijobiy samarasini beradi.

## O'QUVCHILARNI KASBGA YO`NALTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI

*Eltazarova Gulchehra  
Xorazm viloyati Shovot tumani  
4 maktab amaliyotchi psixologi*

**Anostatsiya :** *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish, kasb tanlash masalalari, shungdek, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda yosh bosqichlarini inobatga olish xususiyatlari bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim jarayoni, kasbga yo'naltirish, kasbiy targ'ibot, extiyoj, kasb tanlash.*

O'zbekistonda ta'lim tizimida talabalarni tarbiyasiga nisbatan qo'yayotgan eng muxim talablardan biri, layoqatli, ijodiy va mustaqil fikrlovchi, shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishga o'quvli mutaxassislarni tarbiyalashdan iboratdir.

Zero, bugungi globallashuv davrida yuksak texnologiyalarni boshqarishga layoqatli mutaxassislar etishtirishga erishilsa, ezgu niyatlar ijtimoiy hayotda qaror topgan bo'lar edi.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatatsharvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga etishadi. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimining barcha jabhalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati kattadir.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda xarakat qilishga undaydigan extiyojlar shaxsning faolligi manbai bo'lib xisoblanadi. Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir.

Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o'z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maksadga yo'naltirilgan jarayon sifatida aloxida ajralib turadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mustaqil O'zbekistonda o'quvchilarni tarbiyasiga nisbatan qo'yayotgan eng muxim talablardan biri ularda mehnat qilish extiyojini tarbiyalashdan iboratdir. Mehnat qilishga bo'lgan extiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mehnatdagina o'zini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi.

Umumiy ta'lim maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida o'quvchilarning mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirilishi qanday rol o'ynashiga aloxida e'tibor berilgan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Inson kasb faolligida «xarakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bogʻliq. SHaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, oʻzligini namoyon qiladi xam. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon boʻlmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini mujassamlashtiruvchi xarakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi. Tashki kasbiy faoliyat shaxsni oʻrab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarni oʻzgartirishga qaratilgan faoliyat boʻlsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat boʻlib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashki predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashki faoliyat roʻy beradi, tajriba orttirib borilgan sari, asta-sekin bu xarakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Xar qanday sharoitda xam barcha xarakatlar xam ichki psixologik, xam tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Xar qanday faoliyat tarkibida xam aqliy, xam jismoniy-motor xarakatlar mujassam boʻladi. Agar oʻylayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi kasbiy faoliyat aqliy boʻlgani bilan uning peshonalari, koʻzlari, xattoki, qoʻl xarakatlari juda muxim va jiddiy fikr xususida bir toʻxtamga kelolmayotganligidan, yoki yangi fikrni topib undan mamnuniyat xis qilayotganligidan darak beradi.

Yoshlarning kasb tanlashi asosan, oʻrta maktabdan boshlanadi, shunga koʻra, oʻqituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab oʻquvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (oʻzini-oʻzi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi. Bundan tashqari, psixologlar oʻquvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy- tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

Oʻsmirlar va ilk oʻspirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega boʻlgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo boʻlganligidan bu jarayonda otaonalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar koʻp hollarda kattalarning maslahatlari va tavisyalarini hisobga olgan holda qatʼiy bir fikrga, qarorga

kelishlari mumkin. Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar [4]. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni yosh bosqichlarida o'quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo'ladi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad - ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirishdan iborat.

Bunga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

1. O'z-o'zini baxolay bilish malakalariga o'rgatish;
2. Intellektual va xissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish;
3. Realistik jihatdan o'z-o'zini baholashni rivojlantirish.

5-7 sinf (o'rta yoshdagi) o'quvchilarini kasbga yo'naltirish mazmuni, ulardagi qiziqish, layoqat, shaxs sifatida jamiyatda tutgan o'rni to'g'risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko'nikmasini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bo'lg'usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o'quvchilar uchun hayotdagi o'z o'rnini belgilash va tayyorlashda turtki, o'z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy-psixologik layoqatlar, o'zi ulg'ayotganligida, yangi bir pozitsiyada o'ziga e'tiborida, atrofga va olamga munosabatida shakllanishi kerak. 8-9 sinf o'quvchilarida kasbga yo'naltirish ishlari mazmuni shaxsning ma'naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi javobgarlik xislatlarini shakllantirish bilan ajralib turadi. Bu esa ulardan mustaqillik, tashabbus bilan chiqish, mustaqil qaror qabil qilish xatti-xarakatlari natijasini bilishi va faoliyatini nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi.

8-9 sinf o'quvchilarida oldingi bosqichlarda olgan bilimlari va tajribalari asosida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kasbga yo'naltirish faoliyat amalga oshiriladi.

1. O'quv va maxsus fanlarni chuqur o'rganish asosida;
2. Diqqatini tanlagan faoliyatida kasbiy muxim sifatlarini shakllantiririshida;
3. Kasbiy rejalari ustidan nazorat va ularni asoslanish darajasini ochib berishda;
4. Kasbiy faoliyatga o'zini tayyorlash yo'llari, o'ziga tashxis qo'yish, natijalarini baxolashda;

5. Ijtimoiy kasbiy ko`nikish, kasbni tanlash sabablari, kasbiy yo`nalish asoslari shakllanishida

### **XULOSA**

O`quvchilarni ta`lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o`z qobiliyatlariga yarasha to`g`ri kasb tanlashlariga erishish uchun maktab o`qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, pertseptiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo`lishi, fan asoslarini turmush bilan bog`lab o`rganilishi, to`g`arak va qo`shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to`g`risida ma`ruzalar o`qilishi, suhbatlar, munozaralar o`tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko`rgazmalari tashkil qilishlari zarur. Shuningdek, yoshlarning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg`or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma`ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ushbu tadbirlar o`quvchining shu kasbga bo`lgan qiziqishini yanada qat`iylashishini vujudga keltiradi.

### **REFERENCES**

1. Карандашев В.Н. Психология введение в профессию. 2- е изд - М.: Смысл, 2003. - 19 с.
2. Nabijonova D. O`quvchilarni kasbga yo`naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. - 38 b
3. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so`z, 2010. – 97 b
4. G`oziev E.G`. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: Noshir , 2010. - 73 b.

## HISSİY ZO'RIQISHLARINI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Karimova Mardona Ulug'bekovna*  
*Xorazm viloyati Shovot tumani 4-maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hissiy zo'riqish hamda emotsional zo'riqishlarni korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Emotsiya, irsiy moyillik, giyohvandlik, emotsional zo'riqishlar, texnogen, stress.

Hozirgi zamonda “salomatlik” tushunchasi Butunjahon sog'likni saqlash tashkilotining tushunchasiga asosan, “organizmning to'liq jismoniy, ruhiy, jismoniy salomatligi bo'lib, nafaqat kasalliklarning bo'lmasligi, balki jismoniy nuqsonlarning ham bo'lmasligidir”. Kasallik- inson hayot faoliyatining buzilishi bilan harakterlanadigan holat bo'lib, organizmning vaqtincha yoki doimiy ish faoliyatining pasayishiga olib keladi. Albatta kasallikning kelib chiqishida organizm holati, yoshi, yo'ldosh kasalliklarning bor-yo'qligi, organizmga kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlarning qancha miqdorda tushishi, irsiy moyillikning bo'lishi, organizmning reaktivligi muhim ahamiyatga ega. Albatta uzoq-umr ko'rishning bir qancha shartlari bor, agarda odamzot shu shartlarga rioya qilsa, o'z oldiga qo'ygan oliy maqsad-uzoq umr ko'rishga zamin yaratadi. Ular quyidagilardan iborat: Noto'g'ri ovqatlanish. Salomatlikka salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri noto'g'ri, muvofiqlashmagan va tartibsiz ovqatlanish hisoblanib, organizm normal faoliyatining buzilishiga va turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi Gipodinamiya- (yunoncha-gipo-kam, past va dinamic-kuch) mushaklarining yetarli ishlamasligi, qisqarish kuchining kamayib ketishi bo'lib, odatda, doimo o'tirib ishlash, piyoda yurishni yig'ishtirib, transportda ketish, kamharakatlik, umuman, mushaklarga tushadigan og'irlikning kamayib qolishi tufayli kelib chiqadigan gipokineziya, ya'ni odam harakat faolligining kamayib ketishi bilan birga davom etadi. Harakat va salomatlik. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish va kasalliklarning oldini olishning asosiy yo'li to'g'ri tashkil etilgan jismoniy faollikdir. Harakat natijasida

odamning turli a'zo va tizilmalarining faoliyati me'yorlashadi, buzilgan faoliyatlari esa tiklanadi, aqliy va jismoniy mehnatga bo'lgan faolligi oshadi. Zararli odatlar: alkogolizm - ashaddiy ichkilikbozlik, ayrim kishilarning o'z salomatligi va mehnat qobiliyatiga shuningdek, jamiyat farovonligiga zarar yetkazadigan darajada, muntazam ravishda me'yoridan ortiqcha spirtli ichimliklar ichishi hisoblanadi. Tamaki chekish - kishi sog'lig'iga jiddiy putur yetkazadigan eng zararli odatlardan biridir. Nikotin markaziy va periferik nerv sistemasiga vaqtincha qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi, arterial qon bosimini oshiradi, mayda tomirlarni toraytiradi; nafasni tezlashtiradi, ovqat hazm qilish sistemasining shirasini ko'paytiradi. Nikotin bilan birga tamaki tutunidagi yonish mahsulotlari ham organizmni zaharlaydi. Shuning uchun chekmaydigan kishilarning chekilgan xonada bo'lishi ham zararlidir. Tarkibida yonish mahsuloti bo'lgan tutun nafasga olinganda arterial qondagi kislorodni kamaytirib yuboradi. U bronxlarning shilliq pardasiga ta'sir ko'rsatib surunkali bronxit va o'pka emfizemasiga sabab bo'ladi. Narkomaniya-(yunoncha-narke - karaxtlik va mania - telbalik, jahl, shod-xurramlik), bangilik, giyohvandlik-narkotik va narkotik ta'sirga ega moddalarni suiste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallikdir. Ushbu xastalik bilan og'rigan kishining jismoniy va ruhiy holati xumorini bosadigan narkotik modda iste'mol qilishiga bog'liq. Quyidagi ikki holatda narkotik moddalarga o'rganib qolish mumkin: Ruhiy-emotsional zo'riqishlar - hozirgi davrda kishilar salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Odam organizmining normal faoliyati, uning ruhiyati qay darajadiligiga bog'liq.

Ruhiyat va kayfiyatdagi har qanday o'zgarishlar a'zo va sistemalarning faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Odamning ruhan ezilishi, ko'ngliga og'ir botadigan kechinmalar va hayotdagi turli salbiy voqealar zo'riqishlarga olib keladi. Ruhiy-emotsional zo'riqishlar natijasida odamlarda gipertoniya, stenokardiya va miokard infarkti, qolaversa, ruhiy kasalliklar, zararli odatlarga ruju qo'yish kelib chiqadi. Ayollarda esa ruhiy-emotsional zo'riqishlar ayniqsa, homiladorlik davrida, uning dastlabki 3-oyida o'ta xavfli asoratlarga sabab bo'lishi mumkin. Aholi turmushining yaxshilanishi, ijtimoiy sharoitning barqarorlashishi ruhiy-emotsional zo'riqishlarning oldini olishning asosiy shartlaridandir. Turmush tarzi - bu insonning aniq jamiyatda,



muhitda ifodalangan hayot, mehnat, dam olish va hokazolarini o'z ichiga olgan tushunchadir. Uning tarkibiy qismlariga faqat ijtimoiy-siyosiy va ishlab chiqarish faoliyatigina emas, balki ishlab chiqarishdan tashqari vaqtdagi faolligi, ijtimoiy-madaniy faoliyati ham kiradi. Tibbiy faollik ham uning bir turidir. Turmushda odam turli xil salbiy taassurotlar, nojo'ya holatlar va sharoitlarga tushib qolishi mumkin. Bular esa, o'z navbatida, salomatlik va turmush tarzini sog'lomlashtirish haqida to'la bilimga ega bo'lishga majbur qiladi, aholining o'z salomatligiga bo'lgan munosabatlarini tarbiyalash va tibbiy bilimlarni targ'ib qilishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tilgan salomatlikka qarshi omillar haqida tushunchaga ega bo'lish, ularni bartaraf etish, har bir kishining bevosita o'ziga bog'liq. Buning uchun esa sog'lom turmush, uning tarkibiy qismlari nimalardan iboratligi haqida aholi orasida tushuntirish ishlari olib borish lozim. Albatta pedagogik tarbiyaning asosiy maqsadi-nafaqat yoshlarga tarbiya berish, balki ta'lim ham berishdan ham iboratdir. Turmush tarzining nosog'lom bo'lishi ishsizlik, kam ta'minlanganlik, etimlilik va boshqalar) yoshlar orasida kasalliklarning tez va keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Yoshlar orasida surunkali kasalliklar ko'rsatkichlarining ko'payishi ular orasida tibbiy yordam ko'rsatishning keng tarmog'li olib borish kerakligini ko'rsatib turibdi: har bir talaba o'z-o'ziga yordam, birinchi tibbiy yordamni tashkil etish, ekstremal holatlarda, favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatishni bilishi kerak. Tabiiy, texnogen, ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar yoshlar, qolaversa aholi orasida turli darajadagi shikastlanish, jarohatlar, zaharlanish, yuqumli kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Bu holatda har bir kishidan tezlik bilan o'z-o'ziga va o'zaro yordam berish kerakligini talab etadi. Faqatgina aholining salomat va ma'lumotli bo'lishigina mamlakatning rivojlanishiga va mudofaasiga salmog'li hissa qo'shadi.

“Stress” inglizcha so'z bo'lib tanglik, zo'riqish, bosim degan ma'nolarni anglatadi. Oddiy tilda tushkunlikka tushish, deyiladi. Bu ba'zida oz fursat, ba'zida uzoq vaqt kechishi mumkin. Ikkala holatda ham insonga zarar yetkazadi. Ya'ni, aqliy faoliyatning susayishi, yurak urishi tezlashishi, qon tomirlari kengayishi, ichki kasalliklar - oshqozonda yallig'lanishlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Stressning salbiy tomonlaridan yana biri miyani tormozlab, ma'nosiz fikrlaydigan darajaga tushirib

qo'yishi mumkin. Agar odam tez-tez tushkunlikni boshidan kechirsa, atrofdagilar bilan gaplasha olmaydigan holatga tushadi. Stress natijasida inson o'ziga past baho bera boshlaydi. Oqibatda o'zini yolg'izdek, yaqinlariga keraksizdek his qiladi. Sekin-asta ruhiy tetiklik yo'qola boshlaydi.

Stressning ilk belgilari qanday namoyon bo'ladi?

Uning fiziologik va psixologik turlari mavjud. Bir narsadan qattiq qo'rqib ketish, kutilmaganda avtohalokat yoki tabiiy ofatga uchrash, tanasidagi birorta kasallik oqibatini bilib qolish, to'satdan yaqin kishisini yo'qotish fiziologik stressni keltirib chiqaradi. Psixologik stress - insonning emotsional holati bilan bog'liq. Bu ko'proq qaynona-kelin, er-xotin yoki ona va bola o'rtasidagi mojarolar tufayli kelib chiqadi. Uzoq vaqt birga bo'lgan sevgilisidan ajralish yoki to'satdan ishdan bo'shatilish holatlari ham psixologik stressni keltirib chiqaradi. Har ikki holat insonni ham tashqi qiyofasiga, ham ichki dunyosiga ta'sir ko'rsatadi va albatta, asoratlari bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ахмадов, Н. Р. (2022). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕАБИЛИТАЦИИ ДИЗАДАПТИРОВАННЫХ ПОДРОСТКОВ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(3), 79-84.
2. Ахмадов, Н. Р. (2022). Социально-психолого-педагогическая реабилитация дезадаптированных подростков. Science and Education, 3(2), 10451053.
3. Рустамов, Ш. Ш. (2022). ОСОБЕННОСТИ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРАКТИЧЕСКИЙ ПСИХОЛОГОВ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(3), 59-64.
4. Рустамов, Ш. Ш. (2022). Корреляционный анализ пример по психологии. Корреляции в психологии. Science and Education, 3(3), 1100-1106.
5. Ахмедов, А. А., & Зикиряева, М. М. (2020). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ВООБРАЖЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ. Новый день в медицине, (1), 151-154.

6. Гайбуллаев, А. А. Психология: происхождение и структура научного факта. Вестник интегративной психологии, 19(19), 115-119.
7. G'aybulloyev, A. A. (2021). Sportchilarda hissiy-irodaviy sifatlar shakllanishining psixologik mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali, 92-96.
8. Abdurozikovna, S. D. (2014). Social intelligence: general defining moment. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, (3-4), 154-155.
9. Сабирова, Д. А. (2016). Олий таълим муассасаларида масофавий таълимни жорий этиштехнологиялари. Современное образование (Узбекистан), (11), 14-20.
10. Гайбуллаев, А. А. Психология: происхождение и структура научного факта. Вестник интегративной психологии, 19(19), 115-119.

## **IRODAVIY HARAKATLARINING AHAMIYATI VA UNI MAKTABGACHA TARBIYA YOSHI DAVRIDA RIVOJLANTIRISH**

*Sharipov Alisher  
Navoiy davlat pedagogika institute o'qituvchisi,  
Axmadova Farangiz  
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim muassasalari, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari 2018 yil 30-sentyabrdagi PQ-3955-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha tarbiya tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish

hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish ta'kidlab o'tilgan. Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya — biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biror-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi. Shunday ekan bog'cha yoshidagi bolalarning rivojlanishiga alohida ahamiyat berishimiz lozim. Ularni har tomonlama o'rganishimiz, bilish jarayonlarini rivojlantirishimiz kelajakda bilim egallashlari uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Ontogenezda 3 yoshdan 7 yoshgacha bolgan davr bog'cha yoshi yoki maktabgacha yosh avri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olib 3 davrga: (3-4) kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha yoshi davri), (4-5 yosh) o'rta maktabgacha davr, (o'rta maktab yoshi), (6-7yosh) katta maktabgacha davr (katta bog'cha yoshi davri)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan yutuqlarni faol ravishda o'zgartirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, uning yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib bormog'i kerak. Asosan shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolada irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Ma'lumki maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati bu o'yindir. Bolalar o'zlarining o'yin faoliyatini amalga oshirar ekanlar, ular asosan kattalarning predmetlaridan foydalanishadi va ularga taqlid qilishadi. Bu jarayonda ular o'yinning har bir qahramonlarini o'zlari uchun belgilangan rol sifatida amalga oshiradilar. Bunday jamoaviy o'yinlar har bir bola uchun belgilangan rolni to'liq bajarishni va o'yin qonun qoidalaridan chetga chiqmaslikni talab qiladi. Bu jarayon esa

o'z navbatida bog'cha yoshidagi bolalarda tartib-intizomga bo'ysinuvchanlik, xushmuamalaklik, shu bilan birga irodaviy harakatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Irodaviy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan asosiy ixtiyoriy harakatlar bog'cha yoshidagi boshlab yuzaga kela boshlaydi. Lekin kichik yoshdagi bog'cha bolalarida hali ixtiyorsiz harakatlar ustunlik qiladi. 3 yoshli bolaning harakatlari tafakkuriga emas, balki hissiyotiga tobe buladi. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalar hali biron bir ishga majbur etishning uddasidan chiqa olmaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarining rivojlanishida ular nutqining tobora o'sib borishi katta ahamiyatga ega. Tarbiyachilar va ota-onalar turli yoshdagi bolalarga og'zaki suratda turli xil vazifalarni topshiradilar. Bolani ayni chapdagi o'yinlari yoki boshqa ishlarini qo'yib, kattalarning topshirgan vazifalarini bajarishlari kerak. Ana shunday topshiriqlar berish orqali bolaning ixtiyoriy harakatlarni o'stirib borish mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarini o'stirish va mustahkamlashda ularni mehnat mashg'ulotlariga jalb qilishning ham ahamiyati kattadir. Bolalarga biron bir mehnat topshirig'i berilsa, ular ayni chog'dagi o'zlarining mayl-xohishlarini yengib, mehnat topshiriqlarini o'z vaqtida bajarishga intiladilar. Ular ko'pincha hatto o'ynab turgan o'yinlarini to'xtatib topshiriqlarni bajarishga kirishadilar. Bu esa ularda irodaviy harakatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Bolalar irodaviy harakatlarini rivojlantirish maqsadida ularni o'z-o'ziga xizmat qilish, supurish-sidirish, guruhda navbatchilik qilish, poliz ekinlari, gullarni parvarish qilish va tabiat burchaklarida navbatchilik qilish kabi mehnat turlariga jalb qilish zarur. Bunda faqat mehnat topshiriqlarini berish bilan cheklanib qolmay, balki bolalarning bu topshiriqlarni qanday bajarayotganiklarini ham sistemali ravishda tekshirib nazorat qilib turish lozim. Ana shunday qilgandagina bolalarda javobgarlik hissi yuzaga keladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning biron maqsadni aniqlash va biron qarorga kelishlarida mativlar kurashi ham ko'rinadi. Masalan kichik yoshidagi bog'cha bolasi ikkita o'yinchoqni ko'rsatib, shulardan birini tanlab olishni taklif etilsa, u darrov tanlab ololmaydi. U qo'lini goh u o'yinchoq, goh bu o'yinchoqqa cho'zadi. Bunday holda juda sodda bo'lsa ham mativlar kurashi yuzaga keladi. Irodaviy harakatlarni rivojlantirish

maktabgacha yosh davrida katta ahamiyatga ega. U bolaning keyingi davr bosqichlarida bilim egallashi, atrofdagilarni va o'zini anglashi uchun asosiy o'rinni egallaydi. Irodaning o'rni har bir insonning individual rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Irodaning asosini, xuddi subektning faolligi kabi, uning xatti-harakatlari va ishlarining ko'p tarmoqli va xilma-xil mativlashtirilishiga sabab bo'luvchi ehtiyojlar tashkil qiladi. Shunday qilib, iroda, kishining shunday faolligidirki, bunday faollik oldindan biror maqsad qo'yib va shu maqsadga erishish vositalarini oldindan belgilab, ongli ravishda zo'r berish natijasida voqe bo'ladi.

Irodaviy harakatlar deyarli hamma vaqt ixtiyorsiz faollik bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Irodaviy harakatlar, ixtiyorsiz ish-harakatlardan farqliroq ongli ravishda qilinadi. Bu holda ongning faoliyati harakat maqsadini belgilashda, bu maqsadga erishish vositalari va yo'l-yo'riqlarini oldindan belgilashda, ma'lum bir qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo'ladi. Irodaviy proseslar shunisi bilar xarakterlanadiki, bunda odam o'z oldiga ongli ravishda qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida undovchi g'ov va to'siqlarni bartaraf qilish uchun o'zidan kuch sarf qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Иванников В.А. Психологические механизмы волевой регуляции. -Питер.: 2006. - 1208 с.
2. Ғозиев Э. Умумий психология. -Т.: 2010. -544 б.
3. Стамбулова Н.Б. Выделение волевых черт личности // Вопр. психологии. – М., 1998. – С. 102–123.
4. Доронина И.В. Мотивационная основа волевой регуляции психической деятельности: Автореф. дис. ...канд. психол. наук. – Новосибирск, 1998. – 19 с.

## **O‘SMIRLIK DAVRIDA OTA-ONA BILAN MUNOSABATLARDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING O‘SMIR TA’LIM-TARBIYASIGA TA’SIRI**

*Sharipov Alisher*  
*Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,*  
*Mahkamova Risolat*  
*Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

Inson shaxsi jamiyatning a’zosi sifatida turli xil o‘zaro munosabatlar doirasida faoliyat yuritadi. Bunday o‘zaro ta’sir va muloqot jarayonida shaxslar bir-biriga ta’sir o‘tkazibgina qolmay, ular o‘zining shaxsiy sifatlariga, mehnatga, jamiyatga nisbatan o‘z qarashlariga, ijtimoiy ustanovkalariga ega bo‘la boshlaydi. Va bu turli yosh davrlarida turlicha kechadi. Ayniqsa, o‘smirlarda ularning xarakter, temperament va yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zaro, ayniqsa, ota-ona bilan munosabatlaridan noto‘g‘ri xulosa va qarashlar shakllanishi ko‘p kuzatiladi. Hozirgi kunda jamiyat va fanda oldini olish kerak bo‘lgan muammolardan biri ham mana shu hisoblanadi. Chunki o‘smirlik inson shaxsining kamol topishida alohida o‘rin egallagan va inson kamolotining muhim bosqichi hisoblanadi. Shunday ekan o‘smir shaxsini tarkib toptirishda qilingan birgina xato uning kelajak hayotiga va jamiyatga ta’sir etmasdan qolmaydi. Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, aynan hozirgi zamonda – demokratik jamiyat qurish davrida mustaqil va sog‘lom fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardandir.

Shaxs shakllanishida, o‘smir shaxsining kamol topishida ota-onaning o‘rnini ta’kidlashimiz lozim. Ota-ona o‘z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o‘z bolalarining sog‘ligi, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Ota-ona bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega. Ota-ona bolalarining qonunchilikda belgilangan zarur darajada ta’lim olishini ta’minlashi shart [1].

Bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, ota onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan voyaga yetmagan bolalarning ma’muriy huquqbuzarlik sodir



etishiga olib kelishi – bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi [2].

O‘smirlik davrida yetakchi faoliyat- bu o‘qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O‘smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to‘la o‘rtoqlik kodeksiga bo‘ysunadi. O‘smir bolaning yetilmaganligi va tajribasizligi uni tevarak-atrofdagi kimsalardan madad axtarishga majbur qiladi. O‘smir bolaga uning istaklarini tushunadigan va ularni amalga oshirishga yordam beradigan do‘st kerak.

Bunday vaziyatni eng avvalo, ota-onalar anglashi va bunga o‘smirning xarakteri, holati, muammolaridan kelib chiqib, unga yon bosishlari, o‘smirni har tomonlama tushunishga harakat qilishlari lozim bo‘ladi.

O‘smir uchun tengdoshlari bilan bo‘lgan muloqot u mustaqil harakat qiladigan o‘zining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajraladi. U bunga haqqim bor, deb o‘ylaydi, o‘z huquqlarini himoya qiladi va aynan shuning uchun ham o‘rtoqlari bilan bo‘lgan munosabatga kattalarning o‘rinsiz, qo‘pol aralashuvi o‘smirning xafagarchiligiga va noroziligiga olib keladi.

Har bir inson hayotida uning do‘stlari, ota-onasi, hamkasblari va boshqalarning o‘z o‘rni bo‘lganidek, o‘smir hayotida ham barchasi o‘z ahamiyatiga ega. Farqli tomoni shundaki, ular bu davrda do‘stlari-tengdoshlari bilan muloqotiga ko‘proq e‘tibor qaratadi. Ba‘zan ota-onalar yoki o‘qituvchilar tomonidan o‘smirlarda do‘stlik munosabatlariga uzil-kesil ta‘qiq qo‘yilishi ularning ta‘lim-tarbiyasiga ta‘sir qilishi, shu o‘rinda, ularning o‘qishga qiziqishi so‘nishi, o‘z o‘zini cheklashi, qiziqishlarining yuzaga kelishiga to‘sqinlik qilishi yoki o‘smirning kattalar bilan yomon munosabati paydo bo‘lishi natijasida unda agressiv xulq-atvor va xulqida o‘g‘ishishlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar, qarindoshlar yoki pedagoglar o‘smir bilan “do‘stlik kodeksi” me‘yorlari – sha‘nini hurmat qilish, sodiqlik, tenglik, do‘stga yordam, to‘g‘ri so‘zlikka rioya qiladigan do‘st bolishlari kerak, aks holda o‘smir bunday do‘stni atrofidan, ya‘ni begona kishilar yoki tengdoshlaridan albatta topadi.

O‘smirlar hamma narsani bilishga qiziqadilar va garchi bunga o‘zlari tayyor bo‘lmasalar ham mustaqillikka intiladilar. Ko‘pchilik o‘smirlar boshqalardan yomonroq bo‘lishni xohlamaydilar hamda boshqalardan nimalar bilandir farq qilishni xohlaydilar,

Bunda asosan ularni natijalari bilan xursand qiladigan qiziqarli va foydali ishlar bilan band qilish, o‘smirning salbiy tomonlaridan emas ijobiy tomonlaridan foydalanib ularni rivojlantirish, salbiy xohish va harakatlardan yiroqlashtirish kerak. O‘z navbatida, o‘smir uchun ota-onaning o‘rni alohida. Ular tomonidan berilgan motivatsiya, rag‘batlantirish o‘rnini hech nima bosa olmaydi va aksincha, ota-ona tomonidan qo‘llab-quvvatlanmasa, bu o‘smirning xatti-harakatlari, o‘zaro munosabatlari va ta’lim-tarbiyasida o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

O‘smirlarga xos xususiyatlardan yana biri, ular o‘z xonasida imkon qadar yolg‘iz qolishga, o‘z ota-onasi, oila a‘zolari nazaridan chetroqda bo‘lishga, o‘z xayollari bilan mashg‘ul bo‘lib vaqt o‘tkazishga intilib qoladi. Va yoshlik paytidan boshlab ota-ona farzandi bilan do‘stlik rishtalarini shakllantirmagan bo‘lsa, bunday o‘smirlar imkon qadar ular bilan kamroq muloqotda bo‘lishga intiladi. O‘smirlarda kuzatilayotgan bu hodisalarning asl sababini tushunmayotgan ayrim ota-onalar esa bunday holatdan xavotirlanib, ular bilan oldingiga qaraganda ko‘proq qiziqib qoladilar. Boshqacha qilib aytganda, ularning avtonomiyasiga “bostirib kirdilar” yoki ularni siquvga olishni boshlaydilar. Bunday holatlar esa o‘smirlar va ularning ota-onalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarida kelishmovchiliklar, nizolarning yuzaga kelishiga asos bo‘lishi mumkin. Sinf jamoasi va oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirishgina kattalar bilan o‘smirlar orasidagi anglashilmovchilikni yo‘qotadi. Bu borada aytishimiz mumkinki, o‘smirlarning ota-onalaridan o‘zaro do‘stona munosabat o‘rnatishlari, o‘smirning “shaxsiyatini” hurmat qilishlari, ularning faolligi, tashabbuskorligi, o‘zini boshqarishini hisobga olib, ortiqcha g‘amxo‘rlik, homiylik qilmasliklari ijobiy samara beradi.

O‘smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo‘la boshlaydi. Bu yoshda ular xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o‘rgana boshlaydi. O‘smir tafakkurining qanchalik tez ko‘tarila borishi, o‘quv materiallarini qanchalik tez va chuqur egallashini belgilab beradi. Bundan kelib chiqib, o‘smirlik davri yuqori faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o‘ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o‘z layoqatlarini namoyish etish, yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. Oilada qiziqishlari inobatga olingan, ehtiyojlari qondirilgan o‘smir o‘quv muassasasida, jamiyatda o‘z fikrini bildiradi, o‘zini namoyon etadi, o‘z o‘rnini topa oladi. O‘smirning

kattalaga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan ma'lum bir masala doirasida bo'ladi. Va bunda o'smirning ota-onasi uning har bir savollariga to'liq, mazmunan to'g'ri va yolg'on aralashtirmasdan javob berishlari kerak. Chunki o'smir mantiqan fikrlaydi, kattalarning harakatlariga baho bera boshlaydi, unda to'g'ri va xato degan tushunchalar shakllangan bo'ladi.

O'smirlik davrida tafakkurning rivojlanishi uchun matematika, ona tili, geografiya, fizika, biologiya kabi fanlar muhim imkoniyatlar yaratib berishini inobatga olgan holda, o'smir ota-onasidan uning o'qishini nazorat qilib turish, kerakli paytga unga yordam berish, rag'batlantirish va noto'g'ri jazolashdan qochish talab etiladi.

Bundan tashqari o'smirning o'quv faoliyatiga oiladagi muhit, oiladagi tarbiya, ota-ona namunasi muhim rol o'ynaydi. Ota-onaning ilmi bo'lishi, ularning o'smirlarga ajratayotgan alohida vaqtlari, u bilan shug'ullanishi, shu o'rinda ota va onaning o'zaro munosabatlari o'smir ta'limiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onaning farzand oldidagi eng asosiy burchi va vazifasi farzandiga mehr-e'tiborini ayamaskan, ta'lim-tarbiya berishi deb hisoblasak, ulardan ko'proq farzandlarini tushunishga harakat qilishlari, ulardagi o'zgarishlarni kuzatib, befarqlik qilmasliklari va ta'lim jarayoniga alohida e'tibor qaratishlari kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 1998. – 302 b
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.- T.: "Adolat", 2018 y.
3. Nishanova. Z.T va boshqalar. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". -T.;O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2018. 332-bet

## SHAXS STATUSINING AYRIM PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Bo'ronova Hilola Akramjonovna*  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti*  
*“Amaliy psixologiya” kafedrası o'qituvchisi*

### Annotatsiya

Shaxs va uning jamiyatdagi o'rnini bir qator ilmiy tushunchalar vositasida talqin qilinadi. U yoki bu mehnat jamoasida faoliyat ko'rsatayotgan shaxs o'z jamoasida ma'lum mavqeni egallashga harakat qiladi. *Ijtimoiy mavqe* yoki *status* tushunchasi odamning ma'lum insoniy munosabatlar tizimida tutgan o'rnini ifodalaydi.

**Kalit so'zlar:** *Status, ijtimoiy mavqei, refleksiya, ijtimoiy rol, o'z-o'zini anglash, ideal “Men”, real “Men”, xayoliy “Men”.*

Bu o'rin uning shu jamoada barcha huquqlari (masalan, bo'lim boshlig'i bo'lib ishlaydigan odamdagi lavozimidan kelib chiqadigan normativ huquqlari) hamda burchlari (yaxshi samara bilan ishlash, xodimlarga o'z vaqtida va aniq topshiriqlar berish, maoshni to'g'ri belgilash va hokazo) majmuasidan kelib chiqadi.

Odamning obro'si aslida ana shu mavqeini to'g'ri va ob'yektiv, xolis anglashi, o'z huquq va burchlari to'g'risidagi tasavvurlarining aniqligi va amalda ularning ijrosiga bevosita boq'liq. Shuning uchun rahbar nafaqat o'z mavqeini, balki barcha jamoa a'zolarining mavqelarini aniq bilishi kerakki, shundan kelib chiqib u xodimlar bilan munosabatlarini tashkil etadi. Bu holat yana bir muhim tushunchani keltirib chiqaradi. Bu *ijtimoiy rol* tushunchasidir.

Rol – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlarini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish – u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib-intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish

normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan “farzandlik” roli (ota va ona, yain qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir “tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli” deyilsa, kimdir be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqyega ega bo'lib qoladi. Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi maqyeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz – “Men” – obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

“Men” – obrazining ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni, inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, noma'qul sifatlarni anglamaslikka, ularni “yashirishga” harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z.Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, “Men” – obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon

psixologiyada refleksiya deb ataladi. Bu jarayonning mohiyati – aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Odamning o'z “Meni” to'g'risidagi barcha tasavvurlari va bilimlari majmui shu tariqa shakllanadi. “Men” obrazining bir qancha turlari farqlanadi: ayni mavjud “Men” (“Real – Men”); istalgan “Men” (“ideal – Men”); xayoliy “Men”. Shaxsning o'ziga-o'zi beradigan hisobotlariga qarab, uning ham o'ziga, hamda bировlarga munosabatlarini aniqlash mumkin. “Men kimman?” deb nomlangan test aynan ana shunday o'ziga nisbatan o'zining hisobotining mohiyatini aniqlaydi.

Bunda tekshiriluvchidan 12 daqiqa mobaynida “Kimman?” degan savolga 20 xil variantda javob berish so'raladi. Javoblar betartib bo'lishi mumkin, chunki ular keyinchalik kontent-tahlil yordamida qayta ishlanadi. V.Stolin fikricha, o'ziga munosabat 9 xil modallikda – o'lchovlarda aniqlanishi mumkin:

- “Men”ning anglanganligi;  
 -o'zini hurmat qilish va o'ziga ishonch;  
 -o'zini boshqara olish va izchillik;  
 -boshqalardan kutiladigan munosabat;  
 -o'zidan rozilik;  
 -o'z qadr-qimmati uchun qayg'urish;  
 -o'z “Meni”ga tobelik, bog'liqlik;  
 -o'zini tushunmaslik, o'z “Meni” bilan ziddiyatlarning mavjudligi;  
 -o'zini o'zi ayblashi.

Ana shunday usullar bilan shaxsning kognitiv tizimidagi xususiyatlarni aniqlash va mos tarzda munosabat strategiyasini belgilash mumkin bo'ladi. Shaxs o'zini-o'zi anglagani sayin uning ijtimoiy mavqei va statusi ham ko'tarilib boradi. Shaxsning o'z-o'zini anglashi uning ijtimoiy hayotga yengil muvofiqlashishini ta'minlaydi.

## ADABIYOTLAR

1. Burlachuk L. Psixodiagnostika. – SPb.: 2002.
2. Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq

merosi nashriyoti, “O’AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.

3. *Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o’quv qo’llanma. – T.: “Universitet”, 1999. – 96 b.

4. *Karimova V.M., Akramova F.A.* “Psixologiya”. 1-qism. Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.

5. *Karimova V.M., Akramova F.A.* “Psixologiya”. 2-qism. Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 125 b.

6. *Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: 1994

7. *Kvinn V.* Prikladnaya psixologiya. – SPb: Izdatelstvo “Piter”, 2000. – 560 s

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA NUTQINING GRAMMATIK TO’G’RILIGINI O’SIRISH

*Toshmatova Ziroatxon Yunusaliyevna,  
Boltaboyeva Nigora Qurvonaliyevna,  
Xayitboyeva Zurriyatxon Anvarovna  
Bag’dod pedagogika kolleji o’qituvchilari*

### Annotatsiya

Dialogni rivojlantirish nafaqat shunchaki nutqning muayyan kompozitsion shaklini o’zlashtirish, balki bolaning ijtimoiy va shaxs jixatdan shakllanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dialogik dialog nafaqat aloqa (intellektual mazmun) va o’z manfaatlariga yo’nalishni, balki sherikning nuqtai-nazarini, uning qiziqishlari, istaklari, kayfiyatini hisobga olishni ham ko’zda tutadi. Bolalar bunday tajribani kooperativ tusdagi faoliyat (birgalikda yasash, chizish, jamoa o’yinlarini o’ynash) natijasida to’playdilar. Tengdoshlari bilan dialog qilishda bola nutqi mazmundorlikka (dialog vaziyatidan qat’iy nazar) dalolatdir.

**Kalit so’zlar:** *Nutq, fonetik, leksik, grammatik, dialog, monolog, antonym, sinonim, sintaksis.*



Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning dialogik negizida nutqning yangi shakli - monolog tug'iladi va shakllanadi. U bolaning o'z fikrlari, his tuyg'ulari, atrof-muhit haqidagi bilimlarini o'rtoqlashish istagi oqibatida vujudga keladi. Bunda nutq qisqa hikoya shakliga ega bo'ladi. Hikoyada, albatta, bolani lol qoldirgan va uni hayajonga solgan biron-bir qiziq hodisa (tabiat qo'ynidagi qiziqarli uchrashuv, ukasining kulgili harakatlari va h.k.) aks etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tanish ertaklarni, multfil'mlar mazmunini aytib berishni, o'qiganlarini so'zlab berishni xush ko'radilar. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning eng muhim yutug'i - jaranglayotgan nutqqa qiziqishning shiddat bilan rivojlanishi, til faoliyatini eng oddiy anglashning shakllanishidir. So'zga nisbatan lingvistik munosabat dabdurustdan tovush, qofiya, mazmun bilan o'tkaziladigan o'yinlarda, so'z ahamiyati haqidagi savollarda, ularning jarangdorligi va mazmunida ko'rinadi. Til voqeligini anglash uning barcha tomonlarini - fonetik, leksik, grammatik tomonlarini qamrab oladi. So'zga nisbatan ongli munosabat lug'atni takomillashtirishga (antonimlar, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlarni tushunish), nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga (tovush talaffuzi, tinglash qobiliyati, intonasiya ifodaviyligi), nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirishga (morfologiya, so'z yasash, sintaksis), ravon nutqni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi.

2. Dialogik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlarning ahamiyati. Nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya'ni bolalar bilan so'zlashishdir. So'zlashish og'zaki nutqning eng oddiy shakli bo'lib, unda bola o'zini tutishi, ko'z qarashi, xatti-harakati, ovozining past-balandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So'zlashish – dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofni bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat joylarida, ko'pchilik o'rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e'tibor qaratiladi. Bunda bir-birining nutqini to'ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so'rash, so'rab bilib olish dialogik nutqqa o'rgatishning usullari sanaladi. Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlardan biri suhbat metodi quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi: Tayyorgarlik suhbat (so'zlashish) usullari; Teatrlashtirish usullari (imitasiya, qayta aytib berish). Suhbatning quyidagi vazifalari mavjud: Bolalarni To'g'ridan-to'g'ri suhbatlashishga, ya'ni suhbatdoshi so'zlarini bo'lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani

holda o‘zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so‘zlash. Yo‘ldosh – talaffuz va grammatik ko‘nikmalarni mashq qilish, ma’lum so‘zlar ma’nosini aniqlashtirish. Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so‘z kabi turli usullardan foydalanadi. Mashg‘ulot ishlanmasi: Mavzu: Jamoa hayotidan hikoya tuzish: «Bizning maktabgacha ta’lim muassasamiz». Maqsad: Tarbiyachining rejasi asosida shaxsiy hayotda bo‘lgan voqealarni hikoya qilib so‘zlab berishga o‘rgatish. Vazifalar: Shaxsiy hayot (tajriba)dan tugallangan hikoya tuzish malakasini shakllantirish. Gapirayotganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, jumlar tuzish malakasini mustahkamlash. Aytilgan jumlani qanday holat (kayfiyat)da aytilganini aniqlash (xafa, xursand). Tovushga xos xususiyatlarni aniqlash. Kutilayotgan natijalar: Shaxsiy hayot (tajriba)dan tugallangan hikoya tuzish malakasi shakllanadi. Gapirayotganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, jumlar tuzishga o‘rganadilar. Tovushga xos xususiyatlarni bilib oladilar. Kerakli jihozlar: Mavzuga oid rasmlar. Stol, stul, rangli qj-jz va qalamlar, o‘yin ishtirokchilari. Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi: Bolalar, hozir biz uchun qadrdon bo‘lgan maktabgacha ta’lim muassasasi haqida suhbatlashamiz. Biz maktabgacha ta’lim muassasasini sevamiz. U bizning ikkinchi uyimiz. Siz maktabga borganingizda o‘qituvchingiz maktabgacha ta’lim muassasasi haqida so‘rab qolishi mumkin. Shunda siz qiyinalib qolmasligingiz uchun shu mavzuda hikoya tuzishga o‘rganamiz. 1. Siz qathagan maktabgacha ta’lim muassasasi qaysi ko‘chada joylashgan? 2. U necha qavatli? 3. Maktabgacha ta’lim muassasasining qanday xonalari bor? 4. Maydoncha, yer uchastkalari bormi? 5. Uning kiraverishi qanday bezatilgan? Tarbiyachi: Maktabgacha ta’lim muassasasi haqida suhbatlashib oldik. Endi kim shu mavzuda hikoya tuzib beradi? (Tarbiyachi namunaviy hikoya berishi mumkin). Maktabgacha ta’lim muassasasi Olmazor ko‘chasida joylashgan. Ikki qavatli. Birinchi qavatida oshxona, hamshira, mudira xonalari bor. Shu qavatda muzey xonasi ham bor. Musavvirlar kiraverishini o‘zbek xalq ertaklaridan lavhalar bilan bezatishgan. Biz maktabgacha ta’lim muassasasini sevamiz (5-6 ta bolalar hikoyalari tinglanadi). Tarbiyachi: Men hikoyalaringizni eshitib, maktabgacha ta’lim muassasasingizni qanchalik yaxshi ko‘rishingizni bilib oldim. Hozir «Maktabgacha ta’lim muassasasi» jumlasini men chaqirgan bola aytadi. Qolgan bolalar aytilgan gap qaysi kayfiyatda aytilganini aniqlaydilar (Bolalar jumlani xafa, xursand kabi

holatda-kayfiyatda aytishlari mumkin). Jismoniy daqiqa: Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar : 1. Maktabgacha ta'lim muassasasi qaysi ko'chada joylashgan? 2. U necha qavatli? 3. Maktabgacha ta'lim muassasamizning qanday xonalari bor? 4. Uning kiraverishi qanday bezatilgan? 5. Kimning hikoyasi sizga yoqdi?

Jonlantirish uchun savollar: 1. Bolalarga dialogik nutqni o'qitishning asosiy metodini tavsiflab bering. 3. Suhbatdan qaysi tarkibiy komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin?

2. Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga oid mashg'ulotlarda pedagog qaysi asosiy metodlardan foydalanishi zarur? 3. Reproduktiv va qidiruv savollari nimani anglatadi? 3. Monologik nutqni shakllantirishning nazariy asoslari. Monologik nutq bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi hisoblanadi va hikoya qilish, xabar berish, o'qigani yoki eshitganini qayta so'zlab berish, o'zi savol berib, o'zi javob berish shaklida namoyon bo'ladi. Bolalarga keng yoyilgan fikr tuzishni o'qitishda tarbiyachi ularda matn tuzilmasi (boshi, o'rtasi, ohiri) haqidagi eng oddiy bilimlarni, gap bilan fikrning tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalar haqidagi tasavvurni shakllantirishi zarur. Aynan ushbu ko'rsatkich (gaplar o'rtasidagi aloqa vositasi) nutqiy fikrning ravonligini shakllantirishning muhim shartlaridan biri sifatida ishtirok etadi. Har qanday tugallangan fikrda iboralarni bog'lashning keng tarqalgan variantlari mavjud bo'ladi. Gaplarni bog'lashning eng keng tarqalgan usuli – bu zanjirli aloqadir. Olmosh, leksik takrorlash, sinonimik jihatdan o'rin almashish mazkur aloqaning asosiy vositalari hisoblanadi. Zanjirli aloqa nutqni yanada moslashuvchan va rang-barang qiladi, chunki bola bu usulni egallar ekan, bir so'zni qayta takrorlashdan qochadi. Pedagog bolalarga gaplarni parallel ravishda bog'lashni o'rgatishi zarur, bunda gaplar bir-biriga ulanmaydi, balki taqqoslanadi yoki hatto qarama-qarshi qo'yiladi (Kuchli shamol esardi. Quyon iniga yashirinib oldi). Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga ravon matnlar tuzishni o'rgatishda ularda mavzuni va aytilgan so'zning asosiy fikrini ochib berish, matnga sarlavha qo'yish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Ravon fikrni tashkil etishda intonasiya katta rol o'ynaydi, shuning uchun ayrim gaplar intonasiyasidan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, umuman, matnning tarkibiy birligi va mazmunan tugallanganligini qayd etishga yordam beradi. Kattalar bilan bolalarning birgalikdagi so'z ijodkorligi monologik nutqni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Endigina besh yoshga to'lgan bolalar

tanish ertaklarni hikoya qilib berish, voqealar to‘qish, shaxsiy tajribasidan so‘zlab berishga qiziqishni namoyon qiladilar. Katta yoshli kishi yo‘naltiruvchi va aniqlashtiruvchi savollarni berish, o‘yin vaziyatlarini yaratish orqali bola tashabbusini qo‘llab-quvvatlashi darkor. Pedagogning sekingina hikoya mazmunini, rejasini, voqealarning ehtimoliy rivojini, so‘z shaklini aytib qo‘yishi birgalikdagi so‘z ijodkorligida muhim ahamiyatga egadir. 4. Monologik nutqni shakllantirish usullari. Bolalarda grammatik tizimni – sintaksis, morfologiya, so‘z hosil qilishni shakllantirish o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun pedagog turli vositalarni qo‘llashi darkor. Morfologiya va so‘z hosil qilishni o‘zlashtirish uchun rag‘batlantiruvchi til o‘yinlari; sintaksisni rivojlantirish uchun esa, keng fikr bildirish uchun motivatsiyani yaratish muhim. Ma’lumki, bolalar o‘z iqtidoriga qarab turlicha darajada rivojlanadi va o‘z navbatida pedagogning rahbarligi ham bosqichli xususiyatga ega bo‘ladi. Bola hayotining beshinchi yilida pedagog rag‘batlantirishga (gap so‘z hosil qilish va so‘z ijodkorligi xususida bormoqda); oltinchi yilda – gap tarkibini eng oddiy tahlil qilish, nutqning grammatik to‘g‘riligini shakllantirishga (so‘z o‘zgartirishda); yettinchi yilda – hosila so‘zlar o‘rtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni oddiy tahlil qilishga, nutqiy ijodkorlikka, murakkab sintaktik tuzilmalarni ixtiyoriy tuzishga alohida e’tibor berishi lozim. Didaktik o‘yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar - bolalarning tilga oid o‘yinlarini, ularning grammatik sohasidagi faolligini rag‘batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so‘z birikmasini o‘ylab ko‘rish, so‘ngra gapda so‘zlarni bir-biri bilan to‘g‘ri bog‘lash qobiliyatini o‘rgatishi zarur. Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalarni shakllantirishni yozma nutq vaziyatida, ya’ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi. Bolaga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so‘zlarning to‘g‘ri tartibini qo‘llashni o‘rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e’tiborni qaratish zarur. Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda leksikadan to‘g‘ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllansin. Buning uchun bolalarga gapda so‘zlarni biriktirishning turli 60 usullarini, so‘zlar o‘rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog‘liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonatsion jihatdan rasmiylashtirishni o‘rgatish zarur. Shunday qilib, nutqning grammatik tizimini

shakllantirish jarayonida sintaktik birliklar bilan amallar bajarish ko'nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash ta'minlanadi. Bola nutqi, agarda u atrofdagilarga tushunarli bo'lsagina ishonchli muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa fikrni so'zlarda izchil, ravon va to'liq ifodalashga, aniq so'zlarni tanlashga, talaffuzning sofliги va to'g'riligiga bog'liq. Qulay shart-sharoitlarda u yoki bu darajada ushbu xususiyatlar bolada aniq reja asosida o'qitish, turli metodik usullarni qo'llash yo'li bilan hosil qilinadi. Tarbiyachi bolalarning tafakkurini va uning nutqining barcha jihatlarini, shu jumladan, obrazlilikni ham ularga atrofdagi hayot, oila va maktabgacha ta'lim muassasasining maishiy hayoti, kishilar mehnati, ijtimoiy voqea va hodisalar bilan, jonli tabiat va predmetli olam bilan tanishish imkonini beradigan darajada rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar borliqni faol qabul qiladilar va atrof-muhitdagi hayotga qo'shilib ketadilar, bu esa ularda so'z zaxiralarining tez ortishiga olib keladi. Xulosa: Bolalar lug'atini boyitishning asosiy manbasi bo'lib kattalar nutqi, birinchi navbatda, bolalarni o'qitib, tarbiyalaydigan tarbiyachining nutqi hisoblanadi. Ular tarbiyachidan obrazli so'zlarni, ifoda va qo'llash usullarini o'zlashtirib oladilar; ular nima yaxshi-yu nima yomonligini ajratib ololmaydilar, va eshitgan barcha so'zlarga taqlid qiladilar. Shuning uchun tarbiyachining nutqi namunaviy bo'lishi lozim. Obrazli nutqni rivojlantirish keng ma'noda nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. F.R.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari. T.: "ISTIQLOL", 2006y.
2. F.R.Qodirova Bolalarni chet tilga o'rgatish nazariyasi va 139 metodikasi. T.: "Sano-standart" 2009y.
3. S Q. Shodiyeva . "O'rta guruh bolalari nutqini o'stirish" o'quv qo'llanma T.: "O'qituvchi" 1993 yil.
4. D.R. Babayeva "Nutq o'stirish metodikasi" T.: Fan va texnologiyalar 2009yil.
5. D.R. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma TDPU 2017yil.

## ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КАСБ ТАНЛАШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР

*Абдикеримова Гулназ Якыпбаевна*

*Нукус шаҳри ХТБ қарашли 27-сонли мактаб психологи*

Тадқиқот 9 ва 11-синф ўқувчилари ўртасида 27-сонли Нукус шаҳри таълим муассасаси базасида ўтказилди. Респондентларнинг ушбу тоифаси респондентларнинг аксарияти меҳнат бозорида танланган касбларга бўлган талабни қиёсий таҳлил қилишга имкон берадиган касбга қарор қилганлиги сабабли танланган. Тадқиқот сўровнома ва олинган маълумотларнинг қиёсий таҳлилини ўз ичига олган.

**Мақсад:** битирувчиларнинг касбий ниятларини юзага чиқариш. **Вазифалар:**

1. битирувчилар орасида касбий фаолият ва касбнинг энг машхур йўналишларини аниқлаш;
2. ўқувчиларнинг касбий режалари мавжудлигини аниқланг;


Ушбу масалага ойдинлик киритиш учун махсус сўровнома ишлаб чиқилди

### **1. Қайси соҳада ўзингизни исботламоқчисиз?**

- а) фан соҳаси
- б) умумий овқатланиш соҳаси
- в) таълим (тарбия) соҳаси
- д) психология
- е) социология
- е) савдо соҳаси
- г) маданият (санъат) соҳаси
- х) ҳарбий ишлар
- н) ҳуқуқни муҳофаза қилиш.
- к) қонун
- л) қишлоқ хўжалиги (ўрмон хўжалиги)

- м) менежмент (бошқарув)
- х) саноат
- о) тижорат
- п) транспорт
- п) тиббиёт
- с) коммуникациялар
- т) жамоат ташкилотлари
- й) қурилиш
- ф) маиший хизматлар
- х) ахборот технологиялари
- с) иқтисодиёт
- х) бошқа соҳалар

Тадқиқот шуни кўрсатдики, битирувчилар орасида психология (13,8%), маданият соҳаси (11,9%), ҳарбий ишлар ва тиббиёт 6,9% каби касбий инсон фаолияти энг машҳур ҳисобланади. Овқатланиш, таълим, ҳуқуқ, менежмент, транспорт ва алоқа танловнинг 5 фоизига ега. Савдо, ички ишлар вазирлиги, савдо, саноат, иқтисодиёт соҳасида 3% дан сал кўпроқ. Фан соҳаси, жамоат ташкилотлари ва бошқа соҳалар еса 2% дан кам танловга ега





## 2. Касб танладингизми?

- а) Ҳа \_\_\_\_\_
- б) Ҳа, бир неча вариант (рўйхат): \_\_\_\_\_,
- с) танламадим, лекин ёқтираман (рўйхат): \_\_\_\_\_,
- д) йўқ, мен бу ҳақда ўйламаган едим.
- е) йўқ, чунки мен ўз имкониятларимни яхши билмайман.
- ф) йўқ, чунки мен касблар дунёси ҳақида кўп нарса билмайман.
- г) йўқ, чунки мен касбни қандай танлашни билмайман.

"Сиз касбни танладингизми?" деган саволни таҳлил қилиб, шуни таъкидлаш керакки, респондентларнинг 35,7% ўз касбий танловини амалга оширган, 16,7% қисман касбий режага эга, яъни, улар касбларнинг 2-3 вариантыдан танлайдилар, битирувчиларнинг 14,3% бу ҳақда ҳали ўйламаган, ҳали танлов тўғрисида қарор қабул қилмаган, "мен ўз имкониятларимни яхши билмайман" каби сабабларга кўра - 2,4%, "касблар дунёси ҳақида кўп нарса билмайман" - 0%, қандай қилиб касб танлашни билмайман - 0%.

Касблар рейтингида биринчи ўринда тиббиёт ходими (14%), ундан кейин спорт билан боғлиқ касблар (7%), кейинги ўринда психолог, менежер, ҳарбий хизматчи, сартарош, конструктор муҳандис, логист ва ўқитувчи (4,8% ҳар бири). Администратор, банкир, мед. ҳамшира, парамедик, терговчи ва бошқа касблар паст рейтингга ега (0% дан 2,3% гача)

Ушбу саволларни таҳлил қилиб, хулоса қилиш мумкинки, фаолият ва касб соҳасини танлаш онгли равишда амалга оширилди, чунки бу рейтинглар бир-бирига тўғри келади.

Хулоса қилиб айтганда, келажакдаги касбни танлашда муайян қийинчиликлар мавжудлигини таъкидлаб, ҳар бир ёш ҳаётидаги бурилиш нуқтасининг жиддийлигини яна бир бор таъкидлашни истардим.

Тадқиқот давомида биз бугунги кунда битирувчиларнинг касблар ва касбларнинг меҳнат бозоридаги мавқеи тўғрисида хабардорлик даражаси паст деган фаразни тасдиқладик. Топилган номувофиқликлар ўсмирлик даврида касбий ўзини ўзи белгилашга таъсир қилади.

Сиз касблар ва турли манбалардан меҳнат бозори ҳақида маълумот олишингиз мумкин-китоблар, газета ва журналлар, телевидение ва интернет, бандлик хизмати мутахассислари томонидан. Зеро, улар: "ахборотга ким егалик қилади, дунёга егалик қилади, дейишлари ҳеч гап емас."

## **БОЛАЛАР ВА ЁШЛАРНИНГ ОИЛАДАГИ ТАРБИЯСИ**

*Исанова Гулноза Неъматовна  
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 14-ДМТТ тарбиячиси*

Фарзанд тарбиясини қачондан бошламок керак?, деган саволга Ибн Сино бобомиз “Бола тарбияси билан унинг туғилишидан аввалроқ, она қорнидан бошлабок шуғулланиш лозим”, деб жавоб берган.

Хар бир ҳаракатларимиз замирида фарзандларимизни бахту-икболи, фаровон келажаги мақсад қилиб қуйилган. Фарзанд -оилада улғаяди, камол топади.

Оила–Ватан ичра бир мўжаз Ватан. Муҳтарам Президентимиз таъкидлаганларидек, “Авлодлар давомийлигини таъминлайдиган маънавият қўрғони бу – оиладир”. Бугунги кунда барчамизнинг наинки асосий вазифамиз, балки инсоний бурчимиз баркамол авлодни тарбиялашдир. Шу боис ҳам мамлакатимизда барча хайрли ишлар аввало оилаларни мустаҳкамлаш ва ёш авлоднинг ёруғ келажагини таъминлаш мақсадида амалга оширилмоқда. Зеро, оила соғлом экан, жамият мустаҳкам, жамият мустаҳкам экан, мамлакат барқарордир. Болалар тарбиясига нафақат оила, таълим-тарбия муассасалари балки маҳалла ҳам маъсулдир. Чунки, фарзанд тарбияси кўп омилларга, аввало, ахлоқий-маънавий муҳитга ҳам боғлиқ. Таълим-тарбия муассасалари билан оила ҳамкорлиги бунда муҳим аҳамиятга эга. Она юртига муҳаббатни шакллантириш, маърифатли ва маънавиятли шахс сифатида вояга етишларини таъминлаш, болаларнинг маънавий

баркамол ва жисмонан соғлом бўлишлари учун иқтисодий ва ижтимоий муҳитни яратиш ҳар биримизнинг муқаддас бурчимиздир.

Афсуски, фарзандлари таълим-таърибиясига вақтида етарли даражада эътибор бермаган баъзи ота-оналарнинг ҳатоси баъзида қимматга тушмоқда.

Зеро, тарбия -шахснинг маънавий ва ақлий қиёфасини, ҳаттоки бутун тақдирини белгиловчи омилдир. Улуғ мутафаккир Абдулла Авлониининг “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ” китобида “Аллоҳ таоло инсонларни асл хилқатда истеъдод ва қобилиятли, яхши билан ёмонни, фойда билан зарарни, оқ билан қорани ажратадиган қилиб яратган. Лекин инсондаги бу қобилиятни камолга етказиш – тарбия билан бўлур” - дейилган. Фарзандга тўғри тарбия бериш эса оиладан бошланади. Оилада фарзандларнинг ҳар томонлама камол топиши учун маънавий-ахлоқий шароитлар яратилсагина муваффақиятларга эришилади.

Ҳар бир ота-она фарзанд тарбиясида ўзларининг бурч ва маъсулиятларини чуқур англашлари лозим. Шундай экан, оилада руҳий хотиржамлик, самимий муносабат, ота-она обрўсининг юқори бўлиши, болаларга талаб қўйишда оила катталари ўртасидаги бирликнинг сақланиши, бола шахсини меҳнатга тарбиялашга алоҳида эътибор бериш, болани севиш ва иззатини жойига қўйиш, оилада қатъий режим ва кун тартибини ўрнатиш, боланинг ёш ва шахсий хусусиятларини ҳисобга олиш, боладаги ўзгаришларни кузатиб бориш, ундаги мустақилликка интилиш ва ташаббускорлик сифатларини қўллаб-қувватлаш ота-оналарнинг педагогик билимларга эга эканлигини кўрсатади.

Оила, одоб-ахлоқ ва таълим-тарбияга эътибор кон-конимизга сингиб кетган бурчларимиздандир. “Бир болага етти кушни ота-она” деган ибратли макол ҳам айнан халкимизга хос. Мана шу мақолнинг ўзи ҳам фарзанд тарбияси, оилапарварлик биз учун нечоғлик муҳим эканини билдиради.

Боланинг очиқ рост гапиришга ўргатинг. Бунинг учун болангиз билан дўст бўлинг. Болага бақирманг, унга салбий таъсир қилиб қўйасиз.

Боланинг фикрига қулоқ солинг, унга жим бўлиб туришини такитламанг. Оқибатда бола психикаси бузилиши мумкин.

Болангиз тушкун ахволда бўлса, сиз унга жиддий муносабатда бўлинг, салбий хистуйгуларини чиқариши керак, акс ҳолда унга юк бўлади.

Болангиздан нимага сиқилаётганини сўранг ва биргаликда ечим топинг.

Болага ёмон баҳога ўқийсан-**Сен кўча супурувчи бўласан!** деб асло айтманг бу болага ёмон таъсир қилади.

Болани ўзи ёқтирмаган спорт, тўғаракка қатнашишига мажбурламанг. Бу ишингиз билан бола келажагига салбий таъсир қилади.

Болага китоб, ўйинчоқ, турли нарсалар совға қилинг. Лекин совғани ўзи танласин.

Болангизга кундалик жадвал белгиланг ва унга риоя қилишга ўргатинг.

Болангиз нима деса, ҳаммасига хўп дейверсангиз, уни бахтсиз қилиб қилиб қўйасиз.

***Ота-оналар ва фарзандлар ўртасидаги мулоқот тарбиянинг асосий омилidir.***

Ҳар бир ота-она ўзларига шундай савол бериб кўрмоғи зарур:

-Мен кечкурун, эрталаб нонушта вақтида, мактабдан (колеждан, лицейдан) келганида ўз фарзандим билан нима ҳақида гаплашдим?

-Фарзандим ўзини қийнаган муаммолар бўйича гаплашгани қачон менга учрашган эди?

-Фарзандим билан мулоқот қилишга бир кунда қанча вақтим кетади?

-Фарзандим билан мен қачон кинога, театрға борганман ёки у билан қизиқарли китобни муҳокама қилганман?

-Фарзандим билан бартараф этилмаган бирорта низоли вазият қолдимми?

-Сўнгги ойларда ёки йилда фарзандим ўзгардимми? Агар ўзгарган бўлса, қайси томонга: ижобий томонгами ёки салбий томонгами?

Агар боланинг хулқ-атворида салбий томонга ўзгариш кузатилса, албатта бу ҳолатнинг сабабини аниқлашга ҳаракат қилинг. Балки у ўзидаги маълум ўзгариш билан сизнинг эътиборингизни тортмоқчидир. Балки у сизни ёрдамга чақираётгандир. Сиз тезда уни тўхтатинг, унинг муаммоларини тингланг ёки сўраб олинг, мавжуд вазиятни тушунишга ҳаракат қилинг. Шу нарсани тушуниб етинг,

фарзандингиз билан ўзаро бир-бирингизни тушуниш риштасини бир лаҳзада узишингиз мумкин, бироқ уни қайтадан тиклашингиз анча қийин кечади.

***Бола одамови бўлиб қолса, унга қандай таъсир кўрсатиш лозим?***

Одамовилик – хулқий оғиш бўлиб, мулоқот доирасининг торайиши, атрофдагилар билан эмоционал муносабатда бўлиш имкониятининг камайиши, янги ижтимоий муносабатларни ўрнатишда ёш даврларига хос бўлган қийинчиликлар билан намоён бўлади.

Бу оғишнинг сабаби қуйидагилар бўлиши мумкин:

- 1) узоқ давом этган кўркув (масалан, ота-онанинг ажрашиши);
- 2) мулоқотда меҳр-оқибатнинг етишмаслиги (масалан, узоқ вақт касалхонада бўлиш ёки баъзан боланинг ота-она учун кутилмаган ёки исталмаганлиги, ота-онанинг болага меҳр кўрсатмаслиги);
- 3) боланинг ташқи муҳит таъсирларини ҳиссий жиҳатдан ўзига хос қабул қилиши (психик жараёнларнинг сустлиги ва ҳ.).

Одамовилик боланинг муносабат ўрнатиш ва уни давом эттириш имкониятини камайтиради, тез-тез ота-онаси ва тенгдошларига, одамларга нисбатан салбий муносабат чақиради. Бу боланинг аҳволини янада чуқурлаштириб, оғирлаштириб юборади. Одамови бола ёлғизликда яшашга ўрганиб қолади ва бу унинг шахс сифатида шаклланишига тўсқинлик қилади. Агар бола жуда таъсирчан бўлса, одамовилик унинг психикасини зўриқишдан ҳимоялайди.

Одамови бола қовоғи солинган, норози бўлиб кўринади. Шу сабабли ота-она “Биз унга барча шароитни яратиб берганмиз, у яна нимадан норози” деб хафа бўлишади. Бу ҳолатда ота-онанинг “миннатдорликка муносибликни” даъво қилишлари боланинг аҳволини баттар оғирлаштириб юбориши мумкин. Бола бу нарсани ўзининг оламига бостириб кириш, деб баҳолайди. Боланинг “Нимага мен билан гаплашмайсиз? Нимага менинг кўзимга қарамайсиз?” каби саволлари улар билан муносабат ўрнатишга тўсқинлик қилади. Одамовилик уятчанликдан фарқланади. Уятчанлик ижтимоий мулоқотга киришишнинг яхши шаклланмаганлиги натижаси ҳисобланади. Шу сабабли унинг хулқини тузатиш бола таълимига мулоқот малакасини қўшиш, ўзгалар ҳаракатини таҳлил қилиш ва

ўзлаштиришни эплай олиш, холос. Уларга қуйидагича таъсир кўрсатиш мумкин бўлади:

- Бузилишга олиб келган сабабларни бартараф этиш.
- Боланинг мулоқотга бўлган эҳтиёжини, катталар ва тенгдошлар билан муносабатини тиклаш ёки қайта қуриш.
- Боланинг оиласи ва тенгдошлар гуруҳи билан муносабатларини тартибга солиш (нафақат болани бошқа одамга “айлантириш”, балки бола улар ўйлаганидек, ёмон ёки ёвуз эмаслигини кўрсатиш).
- Боланинг мулоқот малакасини ошириш ва ўзгалар билан алоқа ўрнатиш кўникмасини ривожлантириш.

## **MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI ORQALI BOLALARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH**

*Aliyeva Go'zalxon Ne'matjonovna*

*Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 4-maktabi psixologi*

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari.

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, bolalarga chuqur bilim berish maktabgacha va boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga olib kirildi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan

maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Mamlakatimizni olib borayotgan mazkur siyosati maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglardan g'oyat katta ma'suliyat hamda o'qitishning yangi texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Shularni hisobga olib, maktabgacha ta'lim muassasalarida bola har tomonlama maktab ta'limiga tayyorlash, ular orasida bola nutqini rivojlantirish masalasi eng asosiylaridan hisoblanadi. Ularning so'z boyligi oshishi ravon gapirishi va o'z fikrini to'lik ifoda etib, aytib bera olishga o'rgatish masalaning dolzarbligini ko'rsatib beradi. Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishni puxta egallagan mutaxassis tayyorlashda buyurtmachi sifatida, ilmiy izlanishlar asosida yaratilgan. Bolajon tayanch dasturini o'quv jarayoniga joriy etish, nutq o'stirish metodikasi bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatdan mutanosibligini ta'minlaydi, nutq o'stirish usullarini ishlab beradi. Uni takomillashtirish, eng qulay usulni qo'llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o'rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o'zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to'g'ri, ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so'z) nutq meyyorlarini ishiga mos holda o'rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi. Demak, nutq o'stirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda nutq o'stirish vazifasini amalga oshiradi, bolalarda ifodali, aniq, lo'nda va obrazli so'zlashishni shakllantirish orqali ona tilini amaliy o'rgatadi, bolalarga ta'lim beradi.

Nutq o'stirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda bolalarni og'zaki nutqini o'stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy axloqiy sifatlarni, so'zlash odobini egallashni shakllantiradi. Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida rivojlantiruvchi vazifani bajaradi. Ya'ni uzluksiz bolalar nutqini o'stirish orqali ularning nutq a'zolarini anatomik-gimnastik mashq



qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma’naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta’sirchan bo‘ladi, bola o‘z nutqini tuzatib boradi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog‘liqdir.

Bola nutqiy rivojlanishining, bir tomondan, tashqi ta’sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to‘satdan yuz berishi, “o‘z-o‘zidan harakatga kelishi” bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko‘rib chiqishni talab qiladi.

“Avval nima bo‘lgan edi” o‘yini

Bu o‘yin shartiga ko‘ra bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo‘lganini aytishlari kerak. Masalan: jo‘ja-tuxum, ot - toychoq, kapalak – qurt kabilar. Bundan tashqari bittadan ko‘p ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: non - un - bug‘doy, uy - g‘isht - loy, stol - yog‘och - daraxt - urug‘, ko‘ylak - mato - ip - paxta - chigit tarzida o‘yin davom etaveradi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda o‘quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o‘z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga o‘rganadi.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili bolalarda mantiqiy fikrlash, lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya’ni to‘g‘ri o‘qish va yozish)ga, fonetika, leksika, so‘z yasalishi va gramatikaga oid bilimlarni o‘rganish uchun zamin yaratishga xizmat qilishi lozim.

Ma’lumki, ona tili darsida ham lug‘at ishlarini o‘tkazish bolalarda o‘zi uchun notanish bo‘lgan so‘zni izohi haqida qiziqish paydo bo‘ladi. Bu so‘zlarning izohini topishda o‘quvchining o‘zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi metod bolalarning so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug‘at bilan ishlashga ham o‘rgatadi. Darslarda interaktiv usullar qo‘llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha bolalar faollashishi zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi bolalar tomonidan mustaqil o‘rganiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni

tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. Bolalarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Tarbiyachi bunday texnologiyani puxta bilishi hamda uni amaliyotda o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri qo'llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko'p qo'llansa, bolalarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Demak, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda MTT, oila, mahalla, maktabning roli juda katta. Ular birgalikda bolaga ham ta'lim va tarbiya beradilar. Uzluksiz ta'limda izchillik esa o'z navbatida Vatanga sadoqatli, imon-e'tiqodi butun, o'z mustaqil fikriga ega, har tomonlama qobiliyatli, o'z kelajagini o'zi qura oladigan shaxslarni tarbiyalashda dasturul amal hisoblanadi.

Bola tarbiyasida mustqil fikrlash uning komil inson darajasida intilib, orzu-umidlar va ezgu maqsadlar yo'lida yashashga undaydi, vijdon oldida soflikni ta'minlaydi. Faqat MTT-oila-maktab hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgandagina, har bir oilada badiiy adabiyotga qiziqish ortgandagina, jamiyatda o'sish va rivojlanish sezilarli darajada o'z kuchini ko'rsatadi. Inson ma'naviyatli va madaniyatli bo'lib tug'ilmaydi, u bilim olish jarayonida shakllanadi. Bizning oldimizda turgan eng kata masalalardan bir esa, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida tarbiyalanishi uchun qo'limizdan keladigan barcha ezgu ishlarni qilishdir. Zero, ertangi kun O'zbekiston taraqqiyoti bilimli, salohiyatli, oqil va odil shaxslar qo'lida bo'lishi har doim muhim vazifa hisoblanib kelingan.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya'ni, bolalar maktabgacha ta'limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko'nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to'g'ri ifodalashi o'zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o'stirish fanining o'rni, ahamiyati kattadir. Chunki til kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun teng xizmat

qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. -T.: O'qituvchi, 1993.
2. Babaeva D.R. Nutq o'stirish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: TDPU, 2016.
3. F.R.Qodirova. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. -T. 4.2004.
4. G'oziyev M. Umumiy psixologiya, Toshkent, 2004.
5. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari.T.;1995

**BOLADA O`ZIGA ISHONCHNI OSHIRISHNING AMALIY  
PSIXOLOGIK USULLARI**

*Umurzoqov Dilmurod Xolmurodovich  
NavDPI Pedagogika va psixologiya kafedrasi  
psixologiya fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD)*

Inson hayotida yuksak natijalarga erishishida, katta yutuqlarni qo'lga kiritishida, o'z oldiga katta marralarni qo'yib unga qarab intilishida o'ziga bo'lgan ishonch nihoyatda katta ahamiyatga ega. Ichki o'ziga xos psixologik kuch o'rnida o'ziga ishonch mana shu hayot maqsadlariga erishishda, faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarni qo'lga kiritishda juda zarur psixologik omil sifatida tilga olinishi mumkin. Albatta ko'pchilik shaxsiy fazilatlar sifatlar kabi o'ziga bo'lgan ishonch ham bolalalikdan shakllanib kelishi turgan gap. Ammo bu hodisa, bu sifat ham albatta o'z o'zidan yo'q joydan paydo bo'lmaydi va rivojlanmaydi. Uni ham bolalikdan bolada shakllantirish, rivojlantirish maqsadli, tarbiyaviy psixologik ta'sir yo'li bilan kuchaytirish, ulg'aytirish zarur bo'ladi.

Avvalambor, psixologiya fanimizda bo'lgan qarashlar nuqtai nazaridan bu masalaga yondashganda, shuni alohida ta'kidlab o'tishadiki, hozirga qadar boladagi

o'ziga bo'lgan ishonchning ildizlari, ishonchning yuqoriligi ham, ishonchning past yoki yo'qligi ham, o'ziga juda katta ishonchsizlik ham, hodisaning bu sifatning ildizlari oxir oqibat oiladagi muloqotga borib taqaladi. Bola bilan bo'lgan ota-onaning muloqoti bolada o'ziga nisbatan ishonchning tamal toshi, boshlanish nuqtasi bo'ladi. Shunday ekan, biz bolada o'ziga nisbatan ishonchsizlik, qat'iysizlikni sabablarini o'sha muhitdan izlashimiz to'g'ri bo'ladi.

Bola bilan bo'ladigan muloqotni ilmiy va amaliy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'ya olsak, bolada o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish uchun to'g'ri yo'l tanlagan bo'lamiz. Shu nuqtai nazardan mutaxassislar ko'proq nimaga e'tibor qaratish kerak, aynan muloqot jarayonida, ya'ni bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratigan muloqot jarayonida nimalarga e'tibor qilish kerakligini birma bir sanab o'tadilar. Quyida ularni sizni e'tiboringizga havola qilmoqchimiz.

**Birinchi navbatdagi va mutloq sharti bu** - so'zsiz muhabbat, yani shartsiz muhabbat va bola shaxsiyatiga bo'lgan hurmat. Hozir ota-onalarga ochiq savol bilan murojaat qilsak, "Bolangizni yaxshi ko'rasizmi?" albatta, ko'pchilik "Bu g'alati savolku, albatta, yaxshi ko'ramiz, bolamiz bo'lgandan keyin qanday yaxshi ko'rmaymiz", - deyishlari mumkin. Lekin u buni biladimi? Unga buni ko'rsatganmisiz? Buni unga aytganmisiz? Siz qaysidir xatti-harakatlaringiz, amallaringiz, so'zlaringiz bilan shuni unga tushunadigan, qabul qiladigan darajada yetkazganmisiz? Birinchi navbatda, bola bizni mehr-muhabbatimizni his qilishi va bu muhabbat shartsiz ekanini, g'alaba qozonsa ham, muvaffaqiyatsizlikka uchrasa ham, qanday bo'lishidan qat'iy nazar har qanaqa holatda siz uni shaxs sifatida, inson sifatida yaxshi ko'rishingizni, hurmat qilishingizni biladimi. O'ziga nisbatan katta odamni, ota-onasini, ustozini hurmatini, e'tiborini, g'amxorligini, samimiy muhabbatini his qilgan bola, odatda, hayotda o'ziga ancha ishonch bilan harakat qiladi. Ko'p narsalarga qo'l urib ko'radiki va shuni qila olishida o'ziga ishonadi

Albatta, muhabbatning o'zi bilangina kifoyalanib bo'lmaydi. Bu bizning munosabatimiz darajasida bo'lsa, bundan tashqari bola bilan bo'lgan muloqotda o'ziga nisbatan ishonchni his qilishi uchun, ishonchi yuqori bo'lishi uchun uning ustun tomonlariga urg'u berishimiz lozim.

Har qaysi bolani hayot tarzini o`rganib chiqsangiz, xatti-harakati qiziqishlarini o`rganib chiqsangiz, yaxshiroq ya`ni boshqalarga nisbatan ajralib turadigan xulq-atvori, o`ziga xos xususiyati, sifati va fazilati bor, ana shu individual xususiyatlarga urg`u berish lozimdir. Avvali u bilan ro`y bergan muvaffaqiyatsizliklarga emas, “Esingdami ustozing seni juda maqtagandi”, “Chizgan rasmlaring maktab ko`rgazmasida ancha vaqt turdi” kabi gaplar bilan bolaning ustun jihatlariga urg`u beriladi. Ustun jihatlar esa har qanday bolani hayotida topiladi. Bu uchun katta tanlovlarda g`olib bo`lishi shart emas, ustun tomoni “Onangga yordam beribsan eshitdim, onang maqtadi, barakalla” deb qo`yish. Ustun jihatlariga bolani qo`lidan kelgan yaxshi muvaffaqiyat bilan yakunlangan jihatlariga ug`u berib qo`yishimiz, ustunlikka e`tiborimizni qaratib qo`yishimiz, o`ziga nisbatan ishonchini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan bolani qo`lidan keladigan, unda mavjud bo`lgan qiziqishlarga, talantlariga mos keladigan uning harakatlarini rivojlantirishga qaratishimiz kerak. Ya`ni, biror bir sohaga qiziqishi bo`ladigan bo`lsa uni o`sha sohaga to`garakkami yoki qo`shimcha mashg`ulotgami olib borishimiz, uni o`ziga bo`lgan ishonchini oshirishga yaqindan yordam beradi.

Qolaversa, kattalarda o`ziga xos bir kichkina ayb bor, ya`ni biz bola biror bir faoliyatda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, darrov yordamga shoshilamiz. Mutaxassislar bunday qilmaslikka chaqiradi, ya`ni darrov yordam berishga tashlanmasdan, ozgina o`zi eplab ko`rishi, o`zi haqarakat qilib ko`rishi, lekin yuqorida birinchi aytgan holatimiz, cheksiz va shartsiz muhabbatingiz borligi uchun, hurmatingiz borligi uchun bola agar eplolmasam, qo`limdan kelmasa, murojaat qiladigan manzilim bor, murojaat qiladigan odamim bor va u hech qachon e`tiborsiz qoldirmaydi degan ishonch bilan yashayotgan bo`lsa u muvaffaqiyatsizlikdan qo`rqmaydi va kerakli xulosani chiqara oladi. Muvaffaqiyatsizlik ham insonni tarbiyalaydi. Muvaffaqiyatsizlik ham insonni keyingi hayotida, ulg`ayishida albatta foydadan holi bo`lmaydi.

Albatta, bolada o`ziga bo`lgan ishonch yanada oshishi uchun, bola o`z kuchiga yanada ishonishi uchun unga qaror qabul qilish imkoniyatini qo`yib berishimiz kerak. To`g`ri hamma vaziyatda bo`lmasligi mumkin, murakkab hayotiy vaziyatlarda bolani tajribasi, bilimi yetishmasigi mumkin, lekin o`zini kuchi, aqli yetadigan darajada oilaviy

masalalar bo`ladimi yoki boshqa maishiy masalalar bo`ladimi bolaga qaror qabul qilish imkoniyatini qo`yib berish kerak. O`zi qaror qabul qilishini va hayot jarayonlarida o`ziga nisbatan mas`uliyatli bo`lgan ma`lum vazifalarni yuklashimiz, ya`ni “Mana shu narsa senga biriktirildi, unga javobgar sen bo`lasan”. Bunda bola yoshligidan nimagadir ma`suliyatli bo`lishi, unga biriktirib qo`yilishi to`g`ri bo`ladi. Bora-bora unda “Menga shu narsani ishonib topshirishgan”, “Men shu narsaga javobgarman”, “Bekorga menga ishonishmadi, menda shunga yarasha kuch bor” degan fikrlash orqali o`ziga bo`lgan ishonch mustahkamlanadi. Albatta yaxshi eplagan, amalga oshirgan ishi uchun samimiy maqtab qo`yish, qolaversa bolaga yoshligidan o`zini o`zi ijobiy ishontira olish, o`z o`zini pozitiv ruhlantira olish sifatini rivojlantira olishimiz lozim.

Juda muhim masala ham borki, bolani o`ziga ishonchini so`ndirib qo`ymasligimiz, shu ishonch ortishi, rivojlanishi uchun avvalo shunga e`tiborli bo`lishimiz kerakki, uning oldiga o`zining tajribasi kuchi bilimi yetadigan eplaydigan maqsadlarni qo`yishimiz ham muhim.

Ya`ni bizni kattalarning amnitsiyalari ta`sirida erishish qiyin bo`lgan juda katta resurslarni, zaxiralarni talab qiladigan bola hech qanaqasiga qancha chiranmasin eplashi qiyin bo`lgan norealistik maqsadlarni qo`yib ham uni ishonchini so`ndirib qo`yishimiz hech gap emas.

Shunday ekan bolalar bilan bo`lgan muloqotda, yuqoridagi tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ochiq va samimiy muloqot, shartsiz qabul qilish, bola o`zini har doim muvaffaqiyatsiz mag`lub bo`lgan holatlarida murojaat qilishi mumkin bolgan odam mavjudligi u odam yordamga hamisha tayyorligini his qilishi kerak. Lekin yordamga ha deganda bola harakatlarida salgina muvaffaqiyatizik bo`lsa, yoniga olib uni chetga surib uning o`rniga shu ishlarni qilish, albatta, uning ishonchsizligini kuchaytiradi. Shuning uchun darrov yordamga oshiqmaslik, qaror qabul qilishiga uning o`z ixtiyorida qo`uib berish lozim. Agar muvaffaqiyatsizlik ro`y berganda ham uni odamlar orasida ovoza qilib “Shuniyam eplamadingmi”, “Shumi o`rgatganlarim nima bo`ldi”, “Shuniyam eplolmasang nima qilib yuribsan” degan fikrlar uning o`ziga bo`lgan ishonchini yanada so`ndiradi. Aksincha sokinlik, vazminlik bilan o`zigagina eshtiladigan qilib, agar odamlar orasidagi holat bo`lsa, “Bolam mana shu narsa o`ylanganday bo`lmabdiya,

ammo bu safar shunday bo'lgan bo'lsa keying safar buni eplashingga, bu holatdagidan yaxshiroq qilishga ishonaman, chunki biz bunga birga tayyorlana olamiz, buni chorasini ko'ramiz, shunda aniq ishonaman keyingi safar albatta bundan yaxshiroq bo'ladi".

Bolalilikda shakllangan fe'l, fazilat, sifatlar ham, zararli odatlar ham, kelgusi katta hayotda ham, insonni ancha davrda vaqt davomida xarakter sifati sifatida mavjud bo'ladi uning hayotida, qolaversa katta odamlar, ota-ona, ustozlar bolada o'ziga nisbatan ishonchni rivojlantirish haqida o'ylarkan o'zlari ishonch namunasi bo'lishlari ya'ni muayyan hayotiy vaziyatlarda arzimagan vaziyatlarda ham sarosimaga tushmasdan, bola koz o'ngida vahimaga berilmasdan, bo'layotgan voqealarga o'ta ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lmasdan, o'ziga ishonchning namunasi bo'lib berishi o'ta muhimdir.

Shunday ekan ishonch bu insonning ichki ruhiy kuchidir. Boshqa ijobiy xarakter sifatleri kabi uni hayot davomida shakllantirish mumkin. Bunga bolalarimizda erta bolalikdan e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayonda yuqorida aytilgan tavsiyalarimiz zarracha foyda qilsa, biz maqsadga erishgan deb o'zimizni hisoblaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Детская практическая психология: Учебник / Под ред. проф. Т.Д. Марцинковской. - М.: Гардарики, 2000. - 255 с.
2. Психология детства. Учебник. Под редакцией члена-корреспондента РАО А. А. Реана – СПб.: «прайм-ЕВРО-ЗНАК», 2003. – 368 с.



## **BOLALARDA EGOIZM RIVOJLANISHINING OLDINI OLISH ZARURATI VA IMKONIYATLARI**

*Samatova Malika Toshtemirovna*  
*Navoiy viloyati Karmana tumani 27-maktab psixologi*

“Egoism, - degan edi F.M.Dostayevskiy, - oliyanoblikning qotilidir”. Darhaqiqat, xudbinlik sifati, egoizm sifati inson farzandi qodir boʻlgan koʻplab xayrli ishlarni zimdan kesadigan ularni amalga oshirishda toʻgʻanoq boʻladigan oʻziga xos bir sifatdir. Bu sifat xarakter sifatlaridan biri boʻlib, uning shakllanishida, albatta, bolalik davri markaziy ahamiyatga, dolzarb ahamiyatga ega boʻladi. Egoizmni biz kattalar yaxshi tushunamizki, mohiyati inson oʻz manfaatlarini, ehtiyoj va qiziqishlarini boshqalarning manfaat va qiziqishlaridan ustun qoʻyishi, soda qilib aytganda “oʻzim boʻlay”, “faqat menga boʻlsin” tarzida fikrlashi va yashashini egoism deb tushunamiz. Egoizmni sogʻlom oʻz imkoniyatlarini koʻrsatishga boʻlgan intilishdan farqlashimiz kerak. Aslida har bir insonga oʻz imkoniyatlarini bilim va salohiyatini yuzaga chiqarish istagi xos boʻladi. Bunday sogʻlom intilish bilan nosogʻlom egoism oʻrtasida muayyan farqlar borki buni anglashimiz lozim.

Nosogʻlom egoizmni yaqqol ajratib turadigan bir qator belgilar shu boʻladiki, bunday sifatlarga ega boʻlgan odamlar odatda boshqalarga manipulyativ taʼsir qilishi bilan, yaʼni boshqa odamlardan oʻz manfaatlariga erishishda vosita sifatida foydalanishi bilan, oʻz maqsadlariga injiqlik va hissiy beqarorlik bilan erishishga inilishi bilan, boshqa odamlarga nisbatan hurmatning kamligi yoki pastligi bilan oʻz salohiyatini mutloqlashtirishga, oʻzini oiliy maqomga loyiq his qilishga moyilligi bilan ajralib turadi. Mana shunday belgilarning shakllanishi bolalikdan roʻy beradiki, biz ota-onalar bunga eʼtibor bilan qarashimiz, fandagi ayrim tavsiyalar maslahatlarga quloq tutishimiz maqsadga muvofiq boʻladi.

Albatta, egoizmning shakllanishida bolalikdan oilada bola oʻsmir yoshga balogʻat yoshga yetganda ham hamma ishni oʻrniga qilaversak, uning qobiliyati va iqtidorini koʻklarga koʻtarib oilada maqtayversak, ayni vaqtda muayyan koʻrsatkichlar boʻyicha uni

tengdoshlari bilan doim qiyoslayversak, ertami kechmi biz aytgan xudbinlik ya`ni egoizm sifati shakllanishiga yo`l ochib bergan bo`lamiz.

Umuman, egoizmning bolalikda shakllanishi haqida gap ketadigan bo`lsa, ota-onalar oltin bir qoidani yaxshi anglab olishlari kerakki, bu qoidaning mohiyati boladagi egoizmning zahirida kattalar va ularning xulq-atvori yotadi. Shunday ekan, egoizmning o`z vaqtida oldini olish yoki o`z vaqtida korreksiya qilish to`g`ri bo`ladi.

Yuqorida aytganimizdek, egoizmni sog`lom o`z imkoniyatlarini ko`rsatish , ro`yobga chiqarishga bo`lgan intilishdan farqlashimiz lozim. Hayotiy misollardan biriga murojaat qilamiz.

O`quvchilarimizdan biri ota onasi tomonidan maktab dasturidan tashqari qo`shimcha o`qib o`rganish uchun turli kitoblar bilan tanishishga qiziqar ekan. Ammo navbatdagi ota-onasi taqdim etgan shunday bir kitob bilan tanishib chiqqach, sinfda o`qituvchisi bergan vazifa topshiriqlarni ham bir chetga surib, boshqa bolalarning fikr mulohazalariga bepisandcha munosabatda bo`lib, shu zahotiyoq o`sha kitobdan o`rganib olgan qiziqarli ma`lumotlarni inijlik bilan aytishga harakat qiladi. Boshqachasiga yo`l qo`yishga imkoniyat bermaydi. O`quvchining ota-onasi bilan suhbat qilganimizda, biz shunga urg`u berdikki, albatta, bola mustaqil o`qishga intilishi va kitobga bu qadar oshnoligi tahsinga sazovor, ammo navbatdagi kitob bilan tanishib chiqar ekan so`ngra shu xususida ota-ona bilan suhbat qilar ekan, ota-ona bu paytda yana bitta qo`shimcha narsaga e`tibor qaratishi to`g`irlab ketishi lozim. Ya`ni bu kitobdagi ma`lumotlar ajoyib, yaxshi ko`p narsalarni bilib olibsan, lekin bundan tashqari bu mavzuda ko`p kitoblar, ko`p mualliflar borki, ularni ham keyin o`rganib bu sohadagi bilimlaringni yanada kengaytirishing mumkin, deb aytishlari lozim. Bolada bilganing eng oxirgi nuqta hammasi shunda jamlangan degan kayfiyat bolada men hammasini o`rgandim hammasi shundan iborat, degan tushunchani shakllantirib qo`yishi mumkin.

Qolaversa, fanimizda bolalarda bolalikdan, yoshlikdan egoizm sifatini oldini olish bo`yicha qator amaliy tavsiyalar keltiriladi. Jumladan, bolalarimizga bo`lgan tarbiyaviy taktikamizda, tarbiya jarayonlarida, masalan, uy vazifalarini bajarishda, uy xo`jaligi ishlarida muayyan ishlarga safarbar qilish (yoshiga, imkoniyati va kuchi yetadigan darajada). Qolaversa, bola bilan munosabatda unga biror narsani ulashayotganimizda

agar oxirgisi bo'lsa uni kim bilandir bo'lishib berishni mutaxassislar ko'proq ma'qulaydilar. Agar bunday qilinmasa, berilayotgan narsaning oxirgisi ekanligini ta'kidlamasdan berish lozim. Agar ta'kidlansa ba'zi bolalar misolida kuzatilgan bolada shu narsaning oxirgisi menga berilayotga ekan demak. “Menda alohida qandaydir fazilat xususiyat bor” degan tushuncha paydo bo'lishi mumkin. Bu esa ularda egoizmni shakllanishiga yo'l ochishi mumkin ekan.

Biz kattalar egoizm rivojlanishini oldini olishda bolaga o'zining maqsadiga injiqlik ortidan, ko'z yoshi ortidan erishishlariga yo'l qo'yib bermasligimiz, vaziyatni shungacha olib bormasligimiz maqsadga muvofiq. Psixologlar tavsiya qiladiki, bu borada farzandlarimizni bog'chaga, maktabga olib borish va olib kelishda, ko'pchilik yaxshi biladi, bola bilan kuni qanday o'tganligi haqida suhbat qilish, bunda bola o'z fikrini bayon qilishi mumkin bo'lgan savollardan foydalanish lozimligini ko'pchilik biladi shu suhbatlarda egoizmni oldini olish uchun shu suhbat davomida boladan uning tengdoshlari haqida ham so'rashimiz, ular haqida ham fikrlashga undashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqa odamlar haqida fikr bildirishda bola ijobiy fikrlar bildirganda uni rag'bartlantirishimiz lozim bo'ladi. Ya'niki, boshqalar haqida yaxshi fikr bildirganda uni qo'llab, rag'bartlantirib bu holatni bolada mustahkamlab qo'yishimiz to'g'ri bo'ladi.

Kim bilandir biror narsani bo'lishish haqida yoki kim bilandir biror narsani bo'lishish haqida gap ketganda, bolaga biror narsani biror sabab bilan berayotganimizda tug'ilgan kun yoki boshqa sabab bilan tuhfa qilayotganimizda, mutloqo psixologlar “shu narsa faqat senda bor, bundan buyon faqat senda bor shunaqa turi” degan mulohazalardan hushyor bo'lishimiz kerak. Zero bu ham bolalarimizda egoizm sifati erta bolaliikdan urchishiga rivojlanib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun. Qolaversa psixologlar 3 yoshdan boshlab bola o'z menini tanigandan, boshqalardan o'zini ajrata boshlagandan, “o'zim”, “meniki” kabi so'zlarni ayta boshlagan davrdan egoizmning rivojlanishiga hushyor qarashimiz mana shu yuqorida aytigan tavsiyalarimiz, shu jumladan, unga e'tiborli bo'lishni maslahat bergan bo'lar edik. Umuman mutaxassislar 4 yoshdan boshlab bola bilan bo'lgan muloqotda oilada undan tashqari kimlar yashashi, ularning ham o'ziga xos talab istak ehtiyojlari borligi, bolani yaxshi ko'rish boshqalarni yomon ko'rishni

anglatmasligi haqida muntazam mulohaza yuritish bu haqda bola bilan suhbat qilish tavsiya etiladi.

Umuman yuqorida aytganimizdek, bolalarni yoshlikdan oliyjanoblik ruhida, boshqa odamlarga g'amxo'rlik ruhida, psixologiya tilida alturizm deb aytamiz, ya'ni boshqalarga beminnat, beg'araz yordam qilish ruhida tarbiyalashimiz uchun yoshligidan e'tiborli bo'lishimiz, egoizm masalasiga hushyor qarashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Egoizmning shakllanishi bolaning shaxs sifatida kamol topishida va boshqalar bilan bo'lajak katta hayotdagi munosabatlarida unga jiddiy to'g'anoqlik qilishi mumkin. Hatto maktabgacha yoshdagi bolalar misolida tajribalar qilinganda, fanimizda bolalar shu yoshda ham ko'p o'yinlar o'ynaydigan, jo'shqin, qiziq-qiziq hangomalar aytadigan tengdoshlariga emas, balki g'amxo'rlik qilishga, biror xafa bo'lgan bola bo'lsa uni ko'nglini olishga moyil bo'lgan tengdoshlariga ko'proq talpinar ekan, ularni lider sifatida tan olishga moyil bo'larkan. Bolalarimizda egoizmning shakllanishiga yoshlikdan e'tibor berishimiz, bunga o'ziga xos profilaktik tadbirlar bilan munosabatda bo'lishimiz to'g'ri bo'ladi. Zero, mashhur faylasuf F.Bekon aytganidek, o'zi yeyishi uchun tuxum qovuraman deb butun uyni yondirib yuborishdan ham tap tortmaydi. Mana shunday holatlarga yo'l qo'ymaslik nuqtai nazaridan o'ylaymizki kattalar ota-onalar bu mavzuga ham e'tiborli bo'ladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

3. Детская практическая психология: Учебник / Под ред. проф. Т.Д. Марцинковской. - М.: Гардарики, 2000. - 255 с.

4. Психология детства. Учебник. Под редакцией члена-корреспондента РАОА. А.Реана – СПб.:«прайм-ЕВРО-ЗНАК», 2003. – 368 с.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СРЕДОЙ НА ПРЕДПРИЯТИИ

*Туробова Шахноза Умировна*

*Научный сотрудник Навоийского государственного педагогического  
института*

**Аннотация:** Статья посвящена труду, важной ролью производственной среды для работающего человека, поскольку большую часть времени персонал проводит на работе. Производственная среда является значимой составляющей рабочего пространства персонала, на которую влияет множество различных факторов.

**Ключевые слова:** Психическое здоровье, производственная среда, безопасность труда, рабочая команда, опасных и вредных факторов

**Annotation:** The relevance of the study is due to the important role of the production environment for the working person, since most of the time the staff spends at work. The production environment is a significant component of the working space of the staff, which is influenced by many different factors.

**Key words:** Mental health, working environment, labor safety, work team, hazardous and harmful factors

Промышленная деятельность является основным компонентом экономического развития и даже при движении индустриального общества к информационному, промышленная активность и в XXI веке будет оставаться наиболее важным фактором прогресса. Промышленность оказывает большое влияние на государство, поскольку именно за счет развития этой отрасли Узбекистан достиг высокого уровня конкурентоспособности, что напрямую влияет на формирование успешной экономики, политики и даже международных отношений.

При таком значении промышленного сектора для государства необходимо уделять внимание производственной среде каждого из существующих промышленных предприятий. Следует учесть, что важны не только уровни

рентабельности, экономической эффективности или окупаемости, но и критерии, отражающие степень удовлетворенности работников и персонала условиями труда, показатели безопасности (охраны) труда, а также положительное восприятие потребителями производимой продукции.

Организация должна создавать производственную среду, необходимую для достижения соответствия требованиям к продукции, и управлять ею. Термин «Производственная среда» относится к условиям, в которых выполняют работу, включая физические, экологические и другие факторы (такие как шум, температура, влажность, освещенность или погодные условия)<sup>13</sup>

Производственная среда — это совокупность условий, в которых выполняется работа. Это комбинация человеческого и физического факторов, методы творческой работы и возможности более полного вовлечения работников с целью реализации их потенциала.

Производственная среда является значимой составляющей рабочего пространства персонала, на которую влияет множество различных факторов.

Управление производственной средой должно осуществляться в соответствии с требованиями законодательства к условиям труда, его охраны и обеспечения безопасности.<sup>14</sup>

Две группы факторов, определяющих производственную среду

Определение понятия «производственная среда» как обстановки, в которой работник осуществляет свою профессиональную деятельность, не может считаться полным, ведь это слишком узко и однобоко. Концепция понятия гораздо шире. Ее определяют две группы факторов, которые оказывают воздействие на работников.

К первой группе можно отнести те факторы, которые не имеют никакой зависимости от производственного процесса, это:

-географические характеристики;

---

<sup>13</sup> Гельманова З.С., Жаксыбаева Г.Ш., Гарт Н.А. УПРАВЛЕНИЕ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СРЕДОЙ ДЛЯ КАЧЕСТВЕННОЙ РАБОТЫ НА ПРЕДПРИЯТИИ // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 2-1. – С. 133-137;

<sup>14</sup> Баурина С. Б. Стандарты безопасности труда: изменение структуры и содержания // Научный альманах. – 2017. – № 2-1 (28). – С. 33–36.

- климатические показатели;
- социальные факторы;
- экономические факторы.

Вторая группа включает все те обстоятельства, которые напрямую связаны с профессиональной деятельностью и определяют, насколько условия труда являются благоприятными.

Производственная среда и ее воздействие на работников

Производственная среда включает в себя многочисленные факторы, которые в той или иной мере воздействуют на работников. Иногда это влияние может быть нейтральным, иногда – с негативным окрасом. Такими факторами являются:

- производственные;
- санитарно-гигиенические;
- психофизиологические;
- организационные;
- социальные.

Уровень воздействия таких опасных и вредных факторов на человека определяет класс условий труда работника. Их всего четыре, но при этом третий класс имеет еще четыре подгруппы, которые дают определение степени неблагоприятного воздействия вредных факторов на организм сотрудников:

- оптимальный;
- допустимый;
- вредный;
- опасный.

Указанные факторы влияют на здоровье и работоспособность человека. Для оценки работоспособности применяются три группы показателей – производственные, физиологические и психологические, которые характеризуют результаты производственной деятельности, физиологические сдвиги и изменения в психических функциях человека в процессе труда. Поэтому необходима комплексная оценка факторов производственной среды и характера труда.



Такое деление позволяет определить степень негативного влияния для того, чтобы предусмотреть положенные гарантии для работников, которые задействованы на вредных и опасных производствах (дополнительные дни к отпуску, денежные компенсации, сокращение продолжительности рабочего дня, особые условия выхода на пенсию и проч.).

#### Управление производственной средой

Для того, чтобы деятельность предприятия была эффективной, а его сотрудники были защищены от негативного воздействия факторов, в организации должна быть налажена система управления производственной средой. Этот процесс включает:

- установление, соблюдение и контроль за выполнением требований к условиям производственной среды;
- обеспечение параметров производственной среды на допустимом для работы уровне, контроль за их изменениями;
- поддержание технически исправного состояния устройств, оборудования, зданий, сооружений и других аспектов, необходимых для проведения производственного процесса.

Таким образом, изучение и контроль за состоянием производственной среды позволяет оценивать подверженность сотрудников влиянию негативных факторов и предпринимать меры по минимизации этого влияния на их здоровье.

По совершенствованию управления производственной средой предлагает следующие рекомендации:

- 1.Совершенствование местной правовой базы и документов товарооборот, управление производственной средой и регулирование организации рабочих мест сотрудников на основе рентабельного производства;
- 2.Создание космической зоны свободной связи;
- 3.Совершенствование организации рабочего места каждого сотрудника;
- 4.Совершенствование процесса устранения потерь на рабочих местах на основе системного подхода.

5.Повышение технического уровня организации рабочих мест за счет применения инновационных и прогрессивных технологий, модернизации устаревшего оборудования, внедрения специализированных программных средств.

6.Организовать регулярное обучение персонала в области обеспечения безопасности труда и формирования благоприятной производственной среды с отработкой навыков безопасного поведения на рабочем месте.

7. Разработать и внедрить положение по организации повышения квалификации персонала в области охраны и безопасности труда в производственной среде предприятия и т. д.

Таким образом, предложенные рекомендации позволят формировать качественную производственную среду для работающих сотрудников, в которой им будет комфортно трудиться и достигать высоких результатов в работе.

#### Литература:

1.Баурина С. Б. Стандарты безопасности труда: изменение структуры и содержания // Научный альманах. – 2017. – № 2-1 (28). – С. 33–36.

2..[Психическое здоровье / Информационный бюллетень](#)“ .Всемирная организация здравоохранения. Центр СМИ (апрель 2016).

3.Гельманова З.С., Жаксыбаева Г.Ш., Гарт Н.А. Управление производственной средой для качественной работы на предприятии // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 2-1. – С. 133-137;

4. Шкляр Т. Л., Васильев С. В. Производственная среда. Динамический подход // Австрийский журнал гуманитарных и общественных наук. – 2015.

## ISLOM DINIDA ILMGA MUNOSABAT VA DIN INSONNI ILM OLIHDA RAG`BARTLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

*Muydinova Gulbahor Yo`ldosh qizi*  
*NavDPI Pedagogika va psixologiya ta`lim yo`nalishi talabasi*

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 23- iyundagi “O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O`zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori ijrosi doirasida keng ko`lamli ishlar amalga oshirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu markazga tashriflarida quyidagi fikrlarni keltirib o`tdilar: “Muqaddas dinimizning ezgulik, insonparvarlik dini ekanini, ma`naviyatga, ilmga undashini, ota-bobolarimiz bunga beqiyos hissa qo`shganini tasdiqlovchi ilmiy natijalarni ko`rish va yangi tadqiqotlarga zamin yaratish juda muhim. Hozir mahobatli bino qurish oson bo`lib qoldi. Mana, bobolarimizga munosib bino qurdik. Endi bobolarimizga munosib ilmiy muhit yaratishimiz kerak”.<sup>15</sup>

Davlatimiz rahbarining: “Elimizga to`g`ri islomni tarannum etish - juda katta tarbiya. Eng asosiy masala – o`zligimizni anglashni joy-joyiga qo`ymas ekanmiz, kechagi biz aytgan gaplarni me`yoriga yetkaza olmaymiz”<sup>16</sup>, - kabi fiklari ham bugungi tezkoz zamonda nihoyatda ahamiyatli deb o`ylaymiz.

Tarixdan barchamizga ma`lumki Islom dinining O`rta Osiyo hududiga, xususan, bizning o`lkamizga kirib kelishi arablar istilosi bilan bevosita bog`liqdir. Islomga qadar bu o`lkalarda boshqa turli dinlarga e`tiqod qilib kelingan. Masalan, zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, fetishizm (narsalarga yoki sanamlarga sig`inish), animizm (insonni o`rab turgan olamda ruhlarning borligiga sig`inish) shular jumlasidandir.

Fiqh (Islom huquqi) ilmini rivojlantirishda katta xizmat qilgan Burxoniddin Marg`noniyning “Hidoya fil-furuz” asari xanafiya mazxabi bo`yicha islom huquqshunosligining eng teran asarlaridan biri sifatida nafaqat islom olamida, balki G`rbda ham mashhur.

<sup>15</sup> [www.isrs.uz](http://www.isrs.uz)

<sup>16</sup> [www.kun.uz](http://www.kun.uz)

Bundan tashqari tabiiy va aniq fanlarning rivojlanishida ham buyuk allomalar yetishib chiqdilar. Masalan, Abu Ali ibn Sino (980-1037) hazratlarining “Tib qonunlari” asari G`arbda ko`p asrlar mobayinida tibbiyot fanidan asosiy darslik sifatida o`rganilgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning astronomiya, geografiya, matematika sohalariga qo`shgan hissalar beqiyosdir.

Bularning barchasi Islom dinida ilmga munosabat g`oyatda yaxshi bo`lganligidan dalolat beradi. Shu o`rinda ilm o`zi nima degan savol tug`iladi.

“Ilm” so`zi arab tilidan olingan bo`lib “o`qish”, “o`rganish”, “bilim” degan ma`nolarni anglatadi.<sup>17</sup>

Payg`ambarimiz Muhammad s.a.v. hadisi shariflardan birida shunday deydilar: “Har bir musulmonning ilm talab qilishi farzdir”<sup>18</sup>

Hazrat Imom Shofi`iy (rahmatullohi alayh):

“Ilm ikki xildir. Birinchisi ilmi fiqh – bu diniy ma`lumotlarga rioya qilish uchundir. Bunda avvalo Alloh taoloning haqqi, bandalarining Alloh va bandalariga haq va majburiyatlari, dunyoviy va xurofiy muomalalarni nizomga solish kabi ilmlar, ta`lim beriladi. Ikkinchisi esa ilmi tibdir. U inson jasadi tuzilishiga oid bilim bo`lib, unda turli kasallik va tibga aloqador holatlarning illatini tahlil qilib, uni bartaraf etish usullarini o`rganishdir. Bu ikki ilmdan boshqasi esa “Bulhatul majlis” ya`ni “Majlisning yetukligiga” xizmat qiladigan, uni sermazmun va sermahsul bo`lishiga omil hisoblanadi. Ilm amal qilgan kishiga nur baxsh etadi”.<sup>19</sup>

Bundan xulosa qilish mumkinki ilm bu bizning inson ekanligimizni belgilab beruvchi bir mezon. Ilm egallagan va uni hayotida tatbiq eta oladigan odamnining qalbi nurga to`ladi. Islom esa ilm va ma`rifat dinidir.

Zamonamizning atoqli ulamolaridan hisoblanmish Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari o`zlarining “Iymon” nomli kitoblarida ilm tog`risida ko`p foydali bilimlarni bayon etadilar: “Islom chaqirayotgan ilm qanday ilm o`zi? Faqat diniy ilmmi? Yo`q, ilm bilimsizlikni yo`qotadigan barcha ilmlardir. Diniy ilmlar bo`lsa ham,

<sup>17</sup> Wikipediya.org

<sup>18</sup> Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti. Imom Zarnujiy. Ilm olish sirlari. Tarjimon:Zokirjon Sharifov. Movaraaunnahr Toshkent-2004 2-bet

<sup>19</sup> O`sha kitob 5--bet

dunyoviy ilmlar bo`lsa ham (tabiat ilmlari, psixologiya, tarix, jugrofiya, sotsiologiya va boshqa ilmlar), Alloh musulmonlarni mana shu barcha ilmlarni o`rganishga qiziqtiradi. Shoyadki, ushbu ilmlar orqali Allohning qudrati, ulug`ligini chuqur tushunsalar. Bundan tashqari o`z hayotlarida shu ilmlardan manfaatdor bo`ladilar.”<sup>20</sup>

Bundan tashqari xuddi shu asarda alloma quyidagi fikrlarni ham keltirib o`tadilar:

“Qur`oni Karimda insonni o`z nafs haqida fikr yuritishga chaqiruvchi oyatlar bor: “va yerda aniq ishonuvchilar uhun oyat belgilari bor. Va o`zlaringizda ham bor. Ko`rmayapsizlarmi?!” (Zariyot surasi 20-21-oyatlar). O`z nafsiga nazar solish orqali psixologiya ilmiga yetib boriladi. Bu ilm esa insondagi his-tuyg`ular, sezgi-hayajonlar va boshqa ko`pgina holatlarni o`rganadi.”<sup>21</sup>

Islom dinida ilm o`rganib uni hayotga tatbiq qilganlar, o`z bilimlarini boshqalarga o`rgatib xalq uchun foydali ishlar qilayotganlarga ko`p ajr va savob vada qilinadi. Bu masala xususida ko`plab hadisi shariflarda ma`lumotlar bor.

Masalan, Abu Dardo` raziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan quyidagilarni eshitdim dedilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kim ilm yo`lini tutsa, Alloh uni jannat yo`liga yo`llab qoyadi. Albatta, farishtalar ilm talabidagi kishiga rozi bo`lib, qanotlarini yozib turadilar. Darhaqiqat, olim kishi uchun yer - osmondagi mavjudotlar va hattoki suvdagi baliqlar ham istig`for aytadilar. Albatta olimning obidga nisbatan fazilati to`lin oyning yulduzlarga ko`ra fazliga o`xshaydi. Darhaqiqat, ulamolar payg`ambarlarning merosxo`ridir. Payg`ambarlar dinor va dirhamlarni meros qoldirmadilar, ular faqatgina ilmni meros qoldirganlar. Kimki uni olsa, to`liq nasiba olibdi”-dedilar.

Sharh<sup>22</sup>:

“Kim ilm yolini tutsa, Alloh uni jannat yo`liga yo`llab qoyadi. Albatta, farishtalar ilm talabidagi kishiga rozi bo`lib, qanotlarini yozib turadilar.”

---

<sup>20</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . “Hilol-Nashr”nashriyot-matbaasi 2021 (O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo`yicha qo`mitaning 2021 – yildagi 03—07/6867-sonli tavsiyasi ila chop etidi.)35-bet

<sup>21</sup> O`sha kitob 38-bet

<sup>22</sup> sammuslim.uz(O`zbekiston musulmonlar idorasi Samarqand viloyati vakilligi sayti)

Avvalo ilm yo`lini tutgan kimsa Allohning jannati saari yo`lga otlangan sanalib, unga safari davomida farishtalar hamrohlik qiladilar. Kishining hamsafari har jihatdan yetuk inson bo`lsa ham qanday yaxshi! U bu safardan mamnun bo`ladi, chunki yonida uning ko`ngliga manzur hamroh bor. Endi agar unga jannat yo`lidagi hamsafari Allohning mukarram maxluqoti bo`lmish farishtalar qanotlarini yozib xamrohlik qilsalarchi?! Bo`lib ham bu safar Allohning jamolini ko`rish uchun jannat sari boshlangan safar bo`lsachi?! Axir bu dunyoda bizlar Allohning roziligiga erishib jannatga doxil bo`lish uchun harakat qilmayapmizmi?! Albatta bizning maqsadimiz ham bundan o`zga emas. Suyukli Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buning yechimini ko`rsatmoqdalar, harakat qilish esa bizlarga qolgan.

“Darhaqiqat, olim kishi uchun yer – osmondagi mavjudotlar va hattoki suvdagi baliqlar ham istig`for aytadilar”.

Yuqoridagilarga qo`shimcha, Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasalam ilm talabida yo`lga otlangan kishilarga ular uchun barcha narsalar istig`for aytib, Alloh taaolodan uning gunohlarini kechirishini so`rab turishi haqida mujda bermoqdalar. Tolibi ilmning fazli haqidagi hadis shu bilan nihoyalanmadi, balki hadisning davomida ular barchaga yaqqol misollarda ifodalab berildi.

“Albatta olimning obidga nisbatan fazilati to`lin oyning yulduzlarga ko`ra fazliga o`xshaydi.”

Ilm talabidagi kishi bilan ibodatdagi obid oralaridagi farq xuddi to`lin oy ila yulduzlar o`rtasidagi farqqa o`xshaydi.

“Darhaqiqat, ulamolar payg`ambarlarning merosxo`ridir. Payg`ambarlar dinor va dirhamlarni meros qoldirmadilar, ular faqatgina ilmni meros qoldirganlar. Kimki uni olsa, to`liq nasiba olibdi”.

Olamda Alloh taaologa eng yaqin zotlar payg`ambarlardir. Chunki ularning zimmalarida tog`lar ham ko`tarishga bardosh berolmaydigan omonatni yetkazish mas`uliyati bor. Shu sabab ham ular bu yo`lda yetgan aziyatlarga bardosh ila sabr qilganlar. Butun insoniyatni baxtli hayot kechirishligini ta`minlovchi bu mas`uliyatli omonat – Allohning bandalariga payg`ambarlari orqali yuborgan dinidir.

Payg`ambarimiz alayhi salomdan mol-mulk va dunyo haqida so`ralganda mol-mulkni mutakabbirning ridosi va dunyoni oxiratning bozori, deya ta`rifladilar. Darhaqiqat, dunyoda mol-davlatni oxirat uchun yaxshiliklarga ishlatgan kishigina bu dunyo bozoridan katta foyda ko`radi, aks holda uning boyligi unga faqat kibrnigina ziyoda qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, mulkka talofat yetishi yoki sohibining vafoti sabab mulk egasining qo`lidan ketib qoladi.

Payg`ambarlarga esa qo`ldan ketib qolmaydigan boylik - ilm berilgan. Ular ham bu sharaflilarni o`zlarining merosxo`rlari olimlarga meros qoldirib ketganlar.

Demak, ilm va yaxshi amal dunyodagi barcha narsadan afzal ekan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti. Imom Zarnujiy. Ilm olish sirlari. Tarjimon:Zokirjon Sharifov. Movaraaunnahr. Toshkent-2004. 2-bet.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Hilol-Nashr” nashriyot-matbaasi 2021 (O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo`yicha qo`mitaning 2021 – yildagi 03-07/6867-sonli tavsiyasi ila chop etidi.) 35-bet.

### **Foydalanilgan internet manbalari:**

1. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
2. [www.wikipediya.org](http://www.wikipediya.org)
3. [www.isrs.uz](http://www.isrs.uz)
4. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)



## IJTIMOIIY MUHIT VA TA'LIM JARAYONIDA XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Abduvaxobova Mastura To'ychiyevna  
Fargona viloyati Beshariq tumani 1-sonli kimyo  
va biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat  
umum ta'lim maktabi psixologi*

Farzand tarbiyasi juda ulug' va shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biridir. Farzandni barkamol avlod, komil inson qilib tarbiyalash hamma jamiyatlarda va hamma zamonlarda ham dolzarb masala bo'lib kelgan. Dunyoda birorta ota-ona yo'qki, zurriyodining jamiyatda o'z o'rniga, mustahkam mavqega ega bo'lishni istamagan va shu farzand orqali boshini baland ko'tarib, g'ururlanib yurishni orzu qilmagan bo'lsa. Bu millat va elat tanlamas ma'naviy xislatlardan biridir.

Bugungi jamiyat va davlat manfaati, yurt ravnaqi, el farovonligiga xizmat qiladigan yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalashda ularning xulq-atvorining shakllanishida ijtimoiy muhit va ta'lim tarbiyaning roli juda katta ahamiyatga ega.

Odam bolasining rivojlanishi-bu muhim jarayon hisoblanadi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlilik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi. Tarbiya, irsiyat(nasl) va muhit bolaning rivojlanishida, xulq-atvorining shakllanishida asosiy o'rin tutadi. Agar ana shu uch omil bolaga ijobiy ta'sir qilsa, u bolalikda barkamol inson bo'lishi va salbiy ta'sir qilsa badaxloq kimsaga aylanishi mumkin.

Tarbiya-inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi va eng muhim omil hisoblanadi. O'rta Osiyolik mutafakkurlardan Farobiy va Abu Ali ibn Sino inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga etibor berganlar.

Farobiy inson kamolotida ta'lim –tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: “Munosib inson bo'lish uchun insonda ikki hil imkoniyat ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda

axloqiy qadr qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir..."deydi. Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: " Bola tug'ilgach,avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi.

Isonlarning ismi xulq-atvorining shakllanishiga va uning taqdiriga ta'sir qilishi haqida aytmoqchiman. Afrikaning Gana degan davlatida Ashati qabilasi bor.Bu qabilada shunday odat bor: Chorshanba kuni tug'ilgan bolalarga Quvaku deb ism qo'yishadi.Bu so'z "Tajovuzkor"degan ma'noni anglatadi.O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra,Ganadagi jinoyatchilarning 50 foizini mana shu ism berilgan bolalarning hatti-harakatlari bilan sodir etilar ekan.

**Farzandlarimizga qo'yadigan ismlarimiz ular shaxsiyatining shakllanishida muhim sanaladi.Bolaga yaxshi tarbiya berish,unga chiroyli ism qo'yish ota-onaning farzandi oldidagi muqaddas burchidir.**

Bola shaxsining rivojlanishida irsiyat (nasl)ning ahamiyati katta.Ota-onadan bolaga meros bo'lib o'tadigan jismoniy xususiyatlar(tananing tuzilishi,sochning, ko'zining, terining rangi, bo'y-basti) shuningdek, tananing vertikal holatdagi harakati, tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish qobiliyati tug'ma holatda o'tadigan qobiliyatlar va hususiyatlar tushuniladi.Islom dinida naslga alohida e'tibor qaratiladi.Chunki nasl pokiza va ota-ona ma'rifatli, axloqli bo'lsa, bu xususiyatlar tug'ma holatda bolaga o'tadi va kelajakda komil insonga aylanadi.Agar ota-ona ma'rifatdan yiroq va axloqsiz bo'lsa, ulardan tug'ladigan farzand jamiyatga zarar keltirishi mumkin. Lekin ota-onadan tugma holatda o'tadigan qobiliyat va xususiyatlar o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u "mudroq" holda bo'lib,uning uyg'onishi-rivojlanishi uchun qulay muhit va muttasil tarbiya kerak.

Bola kamolatiga ta'sir etadigan omillardan biri tashqi muhit hisoblanadi. Muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmui tushuniladi.Bunga **tabiiy muhit, oila muhiti va ijtimoiy muhit** kiradi.

Tabiiy ( geografik) muhit-insonning hayot tarziga, karakteri va mehnat faoliyatiga ta'sir qiladi.

Masalan shimolda istiqomat qilayotgan inson janubda yashayotgan insondan nafaqat ijtimoiy ko'rinishi shu bilan birga ruhiyati, dunyoqarashi va xususiyatlari bilan ham ajralib turadi

Bola xulq –atvorining shakllanishida ijtimoiy muhitning orni beqiyos darajada ahamiyatga ega.

Ijtimoiy muhit- insonning yashashi va ishlashi uchun uni o'rab turgan ijtimoiiy, moddiy va ma'naviy Itimoiy shart-sharoitlardir. Bola ruhiyatini o'sishi va xulq –atvorinig shakllanishida ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy muhitda bola ruhiyati shakllanadi,rivojlanadi va qanday ekanligini namoyon etadi. Ijtimoiy muhit jamiyat ahvoli shaxsning ham ahvolini belgilab berish darajasida katta kuchga ega. Ijtimoiy aloqa,yani insonlararo o'zaro munosabatlar natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi,kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi. Ayniqsa o'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi u doimo insonlar davrasida ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va axloqiy ri vojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi.

Jamiyatda manaviy muhit yaxshi adolat ustivor bo'lsa, inson faoliyatiga ijobiy ta'sir qilishi, va aksincha bolsa salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oila-muhiti inson xulq-atvor shakllanishida muhim ahamiyatga ega.Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh-urug'ni ko'radi.Uning jimoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta'sirida shakllanadi.Agar oilada islomiy muhit mavjud bo'lsa, bolaning ahloqi go'zal va fazilatli bo'lib ulg'ayadi. Oila orqali bola asosiy ijtimoiy bilimni egallaydi, axloqiy bilim va ko'nikmalarni oladi ma'lum baho va eng yuksak maqsad qilishni o'zlashtiradi, hayotda nima kerak bo'lsa shuni jamiyatdan oladi. Ta'kidlash lozimki, jamiyat gultoji hisoblangan inson birinchi navbatda oilada shakllanadi va voyaga yetadi. Har bir insonning jamiyat oldidagi vazifasi qobil farzanglarni o'stirish ularni ham ijtimoiy ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, vatanga sadoqatli etib voyaga yetkazishdan iborat. Biroq ba'zi ota-onalar farzandlar oldida janjallashadilar, oqibatda oilada salbiy muhit shakllanadi.Ota-ona o'rtasidagi doimiy janjal bolaning asab tizimiga qattiq salbiy ta'sir etadi.Muntazam janjal bo'lib turadigan oilada tarbiyalanadigan bola ruhan zaif bo'lib o'sadi va unda oilaga nisbatan ishoch , hurmat yo'qoladi. Bola uydan

ertaroq chqib ketib, kechroq kelishga harakat qiladi. Har bir ota-ona oilada o'zaro hurmat, bir-biriga nisbatan mehr oqibatli bo'lish qiyinchiliklarni birgalikda yengib o'tish kabi sifatlarni yoshlarda shakllantirishga ma'suldirlar.

Zig Zaglarning "Hayot bo'yi hu hushomad" kitobida shunday savol beriladi:

**Ota-onaning farzandi uchun qilishi mumkin bo'lgan eng katta yaxshilik nima?**

**Bu ota-onaning bir- birini yaxshi ko'rishidir.**

E'tibor bering, farzandini yaxshi ko'rishdir deyilmayapti, turmush o'rtogini yaxshi lo'rishdir deyilmoqda. Farzahdingizni kelajaka yaxshi tayyorlashni istasangiz, ishni turmush o'rtogingizni sevishdan boshlashigiz mumkin.

Xulosa qilib shu aytish mumkinki, odam bolasining xulq-atvori shakllanishi, shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga erishishida **nasl** (biologic omil), **ijtimoiy muhit** (bola yashayotgan sharoit), shuningdek maqsadga muvofiq amalga oshadigan **tarbiya** ham birdek ahamitga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

O. Mo'minova. "Oilaga ijtimoiy muhitning ta'siri"

I. Valiyev "Bolani shakllantiruvchi uch omil"

A. Rasulov. "Maktab oiladan boshlanadi."

## VIRTUAL DUNYO YOSHLARIMIZNI REAL OLAMIMI

*Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich  
"TIQXMMI" milliy tadqiqot universitetining  
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi*

Virtual olam - bu kompyuterga asoslangan onlayn hamjamiyat muhiti bo'lib, u odamlar tomonidan ishlab chiqilgan va baham ko'rilgan, ular maxsus qurilgan, simulyatsiya qilingan dunyoda o'zaro muloqot qilishlari mumkin. Bugungi virtual olamlar ko'ngilochar, ijtimoiy, ta'lim, o'quv va boshqa turli maqsadlar uchun yaratilgan.

Barcha virtual olamlar qat'iylik va interaktivlik fazilatlariga ega. Bu foydalanuvchilarga sotsializatsiyaning o'ziga xos afzalliklarini o'rganish imkonini beradi va ularga inson tabiati va foydalanuvchilarning qobiliyatlarini o'rganish imkonini beradi. Dastlab, virtual olamlar suhbat xonalari va konferentsiya tizimlari orqali matn va hujjatlarni almashish bilan cheklangan. Ikki o'lchovli va uch o'lchovli grafiklarni ko'rsatish texnologiyalarining rivojlanishi bilan avatarlar deb nomlangan grafik modellar virtual olamlarning o'ziga xos belgisiga aylandi. Bugungi kunda virtual olamlar haqiqatga juda o'xshash dunyoni, real dunyo qoidalari va real vaqtdagi harakatlar va aloqalarni tasvirlaydi. Avatarlar - bu virtual olamlarda yashovchi odamlar, uy hayvonlari yoki boshqa xayoliy belgilar tasvirlangan real dunyo yoki xayoliy tarzda moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan personajlardir. Ushbu virtual olamlarga fantastika, ilmiy fantastika va adabiyot va filmning anime janrlari kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'yin-kulgiga asoslangan virtual olamlar bugungi kunda mavjud bo'lgan virtual olamlarning aksariyat qismini ifodalaydi.

Ijtimoiy o'zaro ta'sirga asoslangan: foydalanuvchilarning o'zaro ta'siri, simulyatsiya qilingan dunyolar orqali ta'lim va o'qitishga qaratilgan. Bu olamlar landshaftlarni o'rganish, sarguzashtli sport o'ynash, jamoalar bilan muloqot qilish, siyosiy bahslar yoki eksperimentlarda qatnashish, o'quv mashg'ulotlarida qatnashish, simulyatsiya qilingan muhitda mashq qilish va boshqa sanoqsiz virtual imkoniyatlar kabi ochiqroq tajribani taklif qiladi. Garchi o'yin dunyosidan yoshroq bo'lsa-da, bu ijtimoiy virtual olamlar, ayniqsa, ta'lim, siyosiy, tijorat va harbiy tashkilotlarda tezda mashhur bo'lib bormoqda.

Virtual olam o'ziga xos global axboriy-raqamli qonuniyatlarga bo'ysinadi. Har bir inson bolalik chog'idanoq bir marotaba bu olamga qadam qo'ysa undan qaytib chiqmaydi yoki qaytib chiqishi juda ham qiyin bo'ladi. Nega biz bugun "virtual olam". "virtual hayot" terminlarini ishlata boshladik. Chunki hozirda internetdan foydalanmaydigan odamlar, xususan yoshlar deyarli yo'q.

"Internet insonning real olamini, real faoliyatini virtual olam, virtual faoliyat bilan to'ldiradi va boyitadi. Internet yordamida siz dunyoning ilgari hech ko'rmagan, aniq tasavvurga ega bo'lmagan joylariga, tabiiy qo'riqxonalarga, shaharlariga, muzeylariga

sayohat qilishingiz, turli xalqlarning me'moriy yodgorliklarini, urf-odatlarini, madaniy tadbirlari, bayramlari va boshqa nomoddiy merosi haqida tasavvur hosil qilasiz. Internet milliy chegaralarni bilmaydi"[2]" deydi A.Erkayev. Ularning barchasi virtual, ya'ni kiber madaniyatga allaqachon oshnodirlar. Internetga ulangan dunyoning istalgan kutubxonasi kitoblaridan, arxivlari hujjatlaridan foydalanish, ta'lim olish, masofadan o'qish, turli konferensiyalar, yig'ilishlar o'tkazish, fikrlar va g'oyalar bilan o'rtoqlashish imkoniyati vujudga keldi. Hukumatga, parlamentga, jamoat va nodavlat notijorat tashkilotlariga so'rov berish, taklif kiritish, umuman siyosiy, ijtimoiy, ijodiy faollikni namoyon etish mumkin. Sizni qiziqtirgan har qanday informatsiyani, jumladan madaniy-ma'naviy mazmundagi ma'lumotlarni topish, undan foydalanish osonlashdi. O'z ilmiy, publitsistik maqolalaringizni, asarlaringizni, ijro etgan qo'shiq va raqslaringizni, tushgan suratlaringizni, o'tkazgan tadbirlaringiz video tasvirlaringizni va boshqalarni Internetga joylashtirib, boshqalar bilan o'rtoqlashishingiz mumkin. Internet orqali o'zingizga hamsuhbat, maslakdosh topishingiz, bo'sh vaqtlaringizda turli xil elektron o'yinlar bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatingiz bor. Onlayn interfeys orqali bir nechta foydalanuvchilar tomonidan foydalaniladigan interaktiv, simulyatsiya qilingan, doimiy, kompyuterda yaratilgan muhit. Virtual haqiqatning kichik to'plami. Xattoki "virtual hayotda bo'lmasang, demak sen hayotda ham yo'qsan" degan iboralar ham paydo bo'ldi. Albatta insonga xos qadriyatlarning virtual olamga singishi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Bularning asosiysi egotsentrizmdir.

Virtualistika bo'yicha olib borilayotgan ishlarni asosan to'rt yo'nalishga ajratish mumkin. **Birinchisi**, sistemalar nazariyasi, modellashtirish, komp'yuter grafikasi, mul'timediya va boshqalarda erishilgan yutuqlarni hisobga olishga tayanadigan nazariy ishlar. **Ikkinchisi**, virtual reallik muammosining falsafiy va psixologik jihatlarini hamda uning insonga, odamlar guruhi va butun jamiyatga ta'siri haqidagi ishlar. **Uchinchisi**, virtual reallikka tegishli sistemalarni inson faoliyatining texnik sohalarida, ta'limda, ilmiy tadqiqotlarda, biznesda va boshqalarda foydalanish muammolariga bag'ishlangan ishlar. **To'rtinchisi**, virtual reallikning axloq, siyosat, madaniyatshunoslik bilan bog'liq muammolari bo'yicha ham ishlar olib borilmoqda

Ba'zi kishilar real, jonli hayotdan, muloqotdan ko'ra, o'zlarining ko'p vaqtini internetning virtual, hayotot dunyosida, virtual muloqotda o'tkazmoqdalar. Ular kompyuter va internet bandlariga, asirlariga aylanib qolmoqda.

Har qanday narsada, voqea, jarayonda meyor buzilsa, teskari oqibatlariga olib keladi. Bunday hollarda internet inson ma'naviy olamini boyitish o'rniga uni biryoqlama, xayolotga, virtuellikka tobe qilib qo'yadi. Inson psixikasini buzuvchi g'oyalar, salbiy mazmundagi axborot zarari shundoqqina ko'rinib turibdi. Ular inson ma'naviyatini, shaxsini bevosita yemiradi. Buzg'unchi siyosiy va ekstremistik g'oyalar bilan zaxarlangan kishilar, dushmanlarini hech ikkilanmasdan otib, urib, o'ldirib ketadigan supermenlarni elektron o'yinlarda, kinokartinalarda ko'rib o'sgan ayrim bolalar, o'smirlar vahshiy qotillarga aylanayotgani, ularning ongi, tafakkuri, qadriyatlar tizimi to'liq deformatsiyalashgani to'g'risida bugun hamma biladi. Yoki boshqa bir guruh kishilar, yoshlar bor. Ular vahshiy, qotil emas. Lekin ularning ongi, tafakkuri, qadriyatlar mo'ljali ham to'liq deformatsiyalashgan. Ular real hayotga, insoniy orzu havaslarga tamomila befarq, loqayd kishilardir. Ular o'zlarining fiziologik mayllarini ma'lum darajada qondirsa, unga birov tegmasa, bas. Hech kim bilan, hech narsa bilan ishi yo'q. "Yoshlar virtual hayotga shunchalik kirib ketmoqdaki, milliy ma'naviy qadriyatlar ming yillar davomida shakllangan, o'tmish avlodlardan o'tib kelayotgan ma'naviy boylik ekanligini bilishmaydi. O'smir yoshdagi bolalarning internetga qattiq bog'lanib qolish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa "internet kasalligi" (ludomaniya)ni keltirib chiqaradi [3]".

Avvalo yoshlarda o'ziga xos virtual autizmi, ya'ni o'z olamiga singish, muloqotdan qochish, o'z muammolari qozonida o'zi "qovurilish" jarayonlari asta-sekin rivojlana boshlaydi. Bu ayniqsa o'smirlar uchun xavflidir. Ular dardini yaqinlari, ota-onasiga emas, balki mutlaqo begonalarga onlayn tarzda to'kib sochadilar. Bundan aksariyat holatda "virtual dunyodagi yaxshi odamlar" samarli foydalanishadi. Yana bir xavf, aynan virtual dunyo orqali yoshlarni turli xil ekstremistik va terroristik guruhlar o'z saflariga jalb qilishmoqda. Ularning asosiy va'dalari "jasurlik, romantiklik, hayotda o'z "men"iga ega bo'lish, jannatga tushish va albatta barcha orzularni ruyobga chiqarish uchun juda ham katta mablag'ni osongina topish"dan iborat.



Virtual olam hozirgi kunda “ijtimoiy tarmoqlar ekstremizmi” degan yangi tushunchani paydo qildi. Inson ichidagi barcha norozigarchiliklarini ijtimoiy tarmoqlarda birovlarini qoralash, ayblash, haqorat qilish orqali to’kib sola boshladi. Akariyat holatda real hayotda bu narsalar o’z ifodasini topmaydi. Ammo inernetdagi anonimlik bunga yo’l qo’yib beradi. Sankt-Peterburg universitetining dotsenti Anastasiya Grishanina o’tkazgan tadqiqotlar natijasida, aynan ijtimoiy tarmoqlardagi “ekstremist”larning 75% 18-30 yoshdagi foydalanuvchilar ekanligi ma’lum bo’ldi.

Shuningdek, yana bir muammo virtual olamning o’ta keraksiz axborotlarga to’laligi bilan ifodalanadi. Bugun inson o’ziga yog’ilayotgan barcha axborotni saralab, qaysi foydali, qaysi esa foydasiz, xavfli ekanligini ajratishga vaqti va imkoniyati yo’q. Bu mamlakatimizda mediasavodxonlikning deyarli rivojlanmaganligi bilan belgilanadi. Inson psixologiyasi shundayki, aksariyat holatda yo o’ziga qiziq tuyilgan sensatsion axborotni o’zlashtiradi. Ko’pincha bu axborot insonning o’ziga xavf solishi, asabiylashtirishi, organizm faoliyatining ma’lum miqdorda buzilishiga olib kelishi mumkin. Yoshlarda esa, ularning maksimalistligini inobatga oladigan bo’lsak, nojoiz “qahramonliklar” ko’rsatishiga turtki bo’ladi.

Bugungi kunda virtual olam tadqiqotchilari yangi “infologema” tushunchasini ilgari surishmoqda. Bu tekshirib bo’lmaydigan haqiqatga yaqin, ammo aslida yolg’on, soxta qarashlar, kontseptsiyalar demakdir. Ko’pincha aynan ana shunday yolg’on qarashlar yoshlarni ularni takrorlashga undaydi. Infologemalar avvalo yoshlarda boshqalarga, yaqinlariga, vataniga nisbatan nafratni, dushmani, o’zining barcha xatoliklari va omadsizliklarining aybdorini topishga bo’lgan harakatni shakllantiradi. Bundan ko’pina zo’ravon ekstremizm va terrorizm namoyondalari foydalanishadi. Bugun shiddatli, o’ta murakkab zamon ko’rsatmoqdaki, bu borada faqat ta’lim-tarbiya tizimining o’zi mavjud ma’naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekan, kutilgan natijaga erisha olmaymiz. Chunki bugungi kunda bolalarimizni ota-ona, bog’cha, maktab yoki institute emas, aksariyat hollarda qo’lidagi telefon “tarbiyalamoqda”[1] deydi yurt boshimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Umuman olganda virtual dunyo insonga juda ham keng imkoniyatlarni ochib beradi. Internetdagi anonimlik, dunyoning turli nuqtalaridan kira olish, har qanday foydalanuvchi (jinsi, yoshi, millati, dinidan qat'i nazar) bilan muloqotga kirishish, o'zini realizatsiya qila olish, hayotdagi axloqiy qoidalarining internetda yo'qligi, javobgarlikdan qochish yuqorida qayd etilgan xavflarni yanada kuchaytiradi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sh.M.Mirziyoyev.Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir T.: “tasvir” nashriyoti-2021. bet-9.
2. A.Erkayev “Ma’naviyatshunoslik” T.: Ma’naviyat nashriyoti, (2-tom) 2018. 250- b
3. Жумабоев А. Глобаллашув даврида миллий маънавиятимизга қарши қаратилган таҳдидлар.// “Маънавий таҳдидларга қарши курашиш механизмларини такомиллаштириш — хавфсизликни таъминлаш омили сифатида” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Тошкент: 20 ноябрь 2019 йил. -8 б.

### **MA'NAVIY YUKSALISH YO'LIDAGI TAHDIDLAR**

*Ochilov Ulug'bek*  
*“TIQXMMI” milliy tadqiqot universitetining*  
*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi*

Hayot axloqiy va estetik afzalliklar, his-tuyg'ular, o'zini qaror toptirishga, nufuzli maqomga ega bo'lishga urinishlar o'zining ular bilan qardoshligini his etish, o'z mushtarakligi boshqalar tomonidan himoyalanganligi tuyg'usi va shu kabilar bilan tartibga solinadi. Bularning barini insonning “qadriyat yo'nalishlari” deb atash qabul qilingan (bu yerda faqat ijtimoiy qadriyatlar sanab o'tilgan, lekin insonda ijtimoiy sabablarga bevosita bog'liq bo'lmagan ko'plab manfaatlar ham bo'lishi mumkin). Ushbu

qadriyat qoidalari insonning turmush tarziga qo'shilib, uning ham olam manzarasini-kishilarning hayoti va jamoaviy borlig'i, ushbu borliq qonuniyatlari va normalari, tarkibining qadriyatlar iyerarxiasining mohiyati haqidagi qisman ratsional (ishonchli bilimga asoslangan), biroq ko'proq intuitiv (mental, obrazli, axborotfragmentlar va boshqalar) tasavvurlar hamda tuyg'ularni shakllantiradi. Shaxs ekstrautilititar manfaatlari hamda ehtiyojlarning ushbu darajasida madaniyat uning ijtimoiy monandligini tartibga soluvchi asosiy omil bo'ladi.

Chinakam xavfsiz jamiyat- odamlarning mutlaq ko'pchiligi hayot faoliyatining umum qabul qilingan normalariga ongli va maqsadli rioya qiladigan, ya'ni madaniyatli bo'lgan, qonunbuzarlar soni esa ancha kam bo'lgan jamiyat. Qonunbuzarlar soni yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajadan osha boshlasa, bunday jamiyatga madaniyatli deb ham, xavfsiz deb ham atash qiyin. Shu ma'noda arxaik an'anaviy jamiyatlar, marginallashtirilgan aholi foizi ancha yuqori va, shunga muvofiq, xavfsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan hamda umum qabul qilingan andazalari (hech bo'lmaganda, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligining) foizi past bo'lgan industrial hamda postindustrial jamiyatlarga qaraganda, albatta, ancha xavfsizroq va ularning ko'pchilik a'zolarining xatti-harakatini oldindan bilsa bo'ladi.

Darhaqiqat hech qanday bo'shliqqa, ayniqsa mafkura sohasidagi bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. "Tabiat bo'shliqni yoqtirmaydi" - degandi amerikalik mashhur mutafakkir Jorj Bernand Shou - "Kishilar haqiqatni bilmaydigan joyda ular bo'shliqni uydirma bilan to'ldirishadi". Shu sababli ham yangi davlatlar mustaqillikning dastlabki, eng beqaror bosqichida milliy xavfsizlik, barqarorlik va mafkuraviy himoyalanganlik nuqtai nazaridan juda nochor bo'lib qolishgan.

Mafkura sohasida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmashligini endi jamiyatimiz a'zolarining ko'pchiligi anglab oldi. Biroq SSSR parchalangach hosil bo'lgan mafkuraviy bo'shliq Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning uncha katta bo'lmagan tarixi davomida juda hilmi-hil g'oyalar hamda oqimlar bilan to'ldirila boshlangandi. Zo'r mashaqqat bilan qo'lga kiritilgan milliy ozodlik qadriyatlarini saqlab qolish uchun butun diqqat-e'tibor iqtisodiyot va boshqaruvning dolzarb muammolariga qaratilgan bir davrda uzoq muddatli davlat mafkurasi yoki milliy g'oya haqida o'ylashga ko'pchilikning

imkoniyati bo'lmagandi. Biroq bugunga kelib, mafkuraviy bo'shliqning yuzaga kelishi va ushbu bo'shliqning uzoq vaqt mavjud bo'lishi bizning orzu-umidlarimiz hamda intilishlarimizga mutlaqo zid bo'lgan yot g'oyalar kommunistik mafkura tugatilganidan so'ng bo'shab qolgan mafkuraviy makonni egallashga olib kelishi butkul ma'lum bo'lib qoldi.

Markaziy Osiyo hududida vaqtincha mafkuraviy bo'shliq yuzaga kelganidan foydalanib qolishga intilayotgan kuchlar borligi bahs talab qilmaydigan faktdir. Bunday buzg'unchi kuchlar manfaati ayon va tushunarlidir. Ularning Markaziy Osiyo hamda O'zbekistonda jiddiy qiziqish bilan qarashning asosiy sabablari avvalgi bobda batafsil ko'rib chiqildi.

Bu qiziqish, avvalo, mamlakatimiz tabiiy zaxiralarga boyligi, geosiyosiy nuqtai nazardan juda qulay hududda joylashganligi tufayli yuzaga kelgan. Shu bois ayrim mafkura markazlarining xalqimiz ongiga mafkuraviy ta'sir mexanizmlarini singdirishga, keyinchalik ularning yordamida ustimizdan hukm yuritishga intilish mutlaqo tushunarlidir. Ushbu kuchlar bugungi kunda o'z maqsadlariga erishish uchun hech narsadan hazar qilmasligi, ular garchi katta mablag' va zamonaviy qurol aslahaga ega bo'lishsada, asosiy hamda ta'sirchan quroli, baribir, bizning milliy qadriyatlarimizga mos kelmaydigan, shuning uchun erta-bir kun o'rnimizni bosishi lozim bo'lgan yoshlarning qalbi va ongini zaharlaydigan vayronkor mafkura ekanligi ayon bo'lib qoldi. Masalan, g'oyalari yoshlarning muayyan qismi tomonidan kutilmaganda qabul qilingan diniy ekstrimizm tahdidini olaylik. Bu hodisa yoshlarimiz ekstrimizmga moyil bo'lgani uchun emas, balki ularning ongi chetdan bo'ladigan mafkuraviy tazyiqqa qarshi kurashish uchun mamlakatda aniq o'ylab chiqilgan biron-bir dastur bo'lmagan, yosh avlod yo'l qo'yilgan xatolardan qutilib qolishida ko'maklashadigan bunday dasturga ega bo'lish zarurati aylanmagan mafkuraviy bo'shliq sharoitida shakllangani uchun sodir bo'ldi.

Xo'sh o'sha tarixiy davrda davlat avj olayotgan mafkuraviy urushga qarshi nimani qurol qilib olishi mumkin edi?

Mafkuraviy jihatdan aro yo'lda qolgan jamiyatimizga ommaviy kommunikatsiya kanallari, ommaviy madaniyat vositalari orqali yog'ilgan vayronkor axborotning qudratli oqimiga chinakam samarali qarshilik ko'rsatishda nima yordam berishi mumkin edi?

Birinchi Prezident Islom Karimov bu haqda: “Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma’naviy tahdidlarning oldini olish,“ommaviy madaniyatning zararli ta’siridan farzandlarimizning ongu-tafakkurini himoya qilishda ilmu-fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o’rni va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga begona bo’lgan ana shunday“madaniyat” namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan biron natijaga erishib bo’lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma’naviy bo’shliqqa yo’l qo’ymaslik uchun avvalambor ezgu insoniy g’oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, butun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste’dod musobaqasida bellashuvga qodir bo’lishimiz shart”, - deb e’tirof etadilar.

Bizga ma’lumki kommunistik g’oyalar inqirozini boshdan kechirgan mamlakat XXI asr bo’sag’asiga kelib mafkuraviy nochorlik holatiga tushib qoldi. Yuzaga kelgan vaziyatning salbiy oqibatlari XXI asrning boshidayoq diniy fundamentalizm ko’rinishlarida, terrorchilik harakatlarida, shuningdek, avvalroq ommaviy madaniyatning vayronkor ta’siri munosabati bilan tavsiflab o’tilgan ayrim salbiy hodisalar keskinlashuvida o’zini ko’rsatdi. O’zini badnom qilgan eski siyosiy doktrinalar aholining o’zligini anglashda bo’shliqni yuzaga keltiradi va Markaziy Osiyoning yosh mustaqil davlatlari kelajagi hamda yangi davlat mafkurasini shakllantirish zarurligi to’g’risidagi masalani juda ham keskin qo’ydi.

### **Adabiyotlar**

1. G’oyibnazarov Sh. “Ommaviy madaniyat” qo’llanmasi. Toshkent.-2012.155-bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch.-T.: “Ma’naviyat”. 2008.-12-b.
3. Shayxislamov, N. (2020). Когнитив тилшуносликда концепт:" Туй" концепти ва унинг универсал табиати. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar, 54-60.

4. Shayxislamov, N. (2020). So'z urg'usining o'zbek va ingliz tillaridagi farqlash vazifasining qisqacha tavsifi. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar, 13-14.

5. Шукурова, М. А. (2020). СВЯЗЬ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КУЛЬТУРОЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО НАРОДОВ. Science and Education, 1(Special Issue 3), 204-211.

## СТИЛИ РУКОВОДСТВА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТРЕНЕРА

*Усманова Шахло Шавкатовна  
Старший преподаватель,  
Содикназарова Саодат  
студентка 3 курса Узбекский государственный университет физической  
культуры и спорта*

Аннотация: каждый тренер в своей профессиональной деятельности сталкивается со стилями руководства и сопутствующими им особенностями.

Вопросы руководства интересуют многих тренеров и специалистов, работающих в сфере спорта на протяжении длительного времени. В статье рассматриваются стили руководства тренера, с помощью которых осуществляется управление спортсменами в учебно-тренировочной и соревновательной деятельности.

В настоящее время считается общепризнанным то, что тренеры отличаются один от другого не только результатами своих воспитанников, но и теми методами, с помощью которых достигаются эти результаты. Оценка тренеров показывает, что в структуре их личности имеются существенные отклонения от идеала и могут явно преобладать те или иные качества, накладывающие отпечаток на тренерскую деятельность. Наиболее полно личность тренера, как и любого руководителя, определяется стилем его руководства, в связи с чем в настоящее время выделены относительно контрастные стили руководства.

Под стилем руководства понимается сочетание способов и приемов, с помощью которых тренер осуществляет управление спортсменами в учебно-тренировочной и соревновательной деятельности.

Руководство осуществляется тремя основными стилями: авторитарным, демократическим и либеральным (анархическим) (К.Левин,1936).

Каждый из этих стилей руководства и общения имеет свои особенности и приводит к созданию своеобразной системы отношений «тренер — спортсмен»

#### Стили общения и руководства тренера

| Стиль общения и руководства       | Описание стиля руководства тренера                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Описание стиля общения тренера                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|-----------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Авторитарный<br>(автократический) | <ul style="list-style-type: none"> <li>- стремится к абсолютной власти, доминирует;</li> <li>- сам определяет способы и средства достижения цели;</li> <li>- ориентируется в принятии решения только на свое мнение;</li> <li>- поддерживает минимальное общение между членами команды, только через его посредничество;</li> <li>- спортсмены — исполнители замыслов тренера;</li> <li>- осуществляет жесткий контроль за всем</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- форма выражения воздействия на спортсмена часто категоричная, резкая, неодобрительная, раздраженная;</li> <li>- частые формы воздействия на спортсмена: требования, замечания, порицания, побуждения;</li> <li>- частые виды воздействия на спортсмена: инструктаж, команда, приказ, указание; широта общения со спортсменами: чаще только избранный круг</li> </ul> |
| Демократический                   | <ul style="list-style-type: none"> <li>- стремится к коллективному решению проблем;</li> <li>- каждый член группы должен принимать максимальное участие в достижении общих целей;</li> <li>- разделение ответственности между членами команды,</li> </ul>                                                                                                                                                                                  | <ul style="list-style-type: none"> <li>- часто спокойная, дружелюбная, одобрительная форма выражения воздействия на спортсмена;</li> <li>- частые формы воздействия на спортсмена: убеждение, поддержка, успокаивание, беседа, объяснение;</li> </ul>                                                                                                                                                         |



|                               |                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|-------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                               | поощрение общения между членами команды;<br>- поощрение делового сотрудничества с самим тренером                                                                                                                                                                | - частые виды воздействия на спортсмена: предложение, совет, обсуждение;<br>- широта общения со спортсменами: со всеми участниками своей команды                                                                                                                                                              |
| Попустительский (либеральный) | - старается как можно реже вмешиваться в дела команды;<br>- предоставляет свободу действий и принятия решений;<br>- больше присутствует, чем действует; допускает свободу выбора упражнений, нагрузок;<br>- похвала и порицание часто носят формальный характер | - почти всегда спокойная, дружелюбная, одобрительная форма выражения воздействия на спортсмена;<br>- частые формы воздействия на спортсмена: похвала, порицание;<br>- частые виды воздействия на спортсмена: предложение, совет;<br>- широта общения со спортсменами; чаще с теми, кто сам вступает в контакт |

Изложенная классификация стилей руководства — только схема, в реальной учебно-тренировочной деятельности все намного разнообразнее и сложнее. Возможны переходы от одного стиля руководства или общения к другому, их совмещение в зависимости от педагогического периода или текущей педагогической ситуации.

Использование тренером того или иного стиля руководства и общения зависит от многих факторов: особенностей его личностных качеств и психологических особенностей руководителя, его социального статуса и авторитета, структуры отношений в группе, ее зрелости и стоящей перед ней задачи. Некоторые личностные качества являются устойчивыми, обуславливая и устойчивый стиль руководства. Поэтому бывает неразумным требовать от сформировавшегося тренера изменения стиля руководства; он может просто потерять себя как личность. Однако в ряде ситуаций следует все же менять стиль

руководства или использовать стиль, промежуточный между авторитарным и демократическим.

Для того чтобы сориентироваться, какой стиль руководства более эффективен в определенной ситуации, нужно знать их плюсы и минусы.

*При авторитарном стиле руководства.*

- комфортно неуверенному в себе спортсмену, он чувствует себя спокойнее в стрессовых ситуациях «под прикрытием» авторитарного тренера;
- увеличивается агрессивность спортсмена, которую он может направить на борьбу с соперником;
- незаменимо при лимите времени для принятия решения;
- авторитарное поведение тренера соответствует ожиданиям спортсмена;
- тренер переоценивает отрицательные качества спортсмена и недооценивает положительные;
- отрицательное эмоциональное состояние у спортсменов.

*При демократическом стиле руководства.*

- спортсмен чувствует себя более свободно и охотно общается с таким тренером;
- демократический тренер лучше знает состояние и переживания спортсмена, его страхи, разочарования и т.д.;
- предоставленная спортсменам самостоятельность и инициативность формирует у них зрелое поведение;
- активизируются творческие силы спортсменов;
- тренер более адекватно оценивает достоинства и недостатки спортсменов, уважает чужое мнение.

*При попустительском (либеральном) стиле руководства.*

- приводит либо к самостоятельности спортсменов, либо к полной их дезорганизации и взаимным обвинениям в случае неудач;
- тренер часто переоценивает положительные качества спортсмена и недооценивает отрицательные.

По данным Р.С.Уэйнберга и Д.Гоулда, спортсмены, выступающие в игровых видах спорта, в большей степени отдают предпочтение авторитарному стилю руководства, чем спортсмены, занимающиеся индивидуальными видами спорта.

Спортсмены высокой спортивной квалификации ценят демократический стиль, предпочтение к которому начинает появляться с возраста средней школы, а совсем юным спортсменам нравится авторитарный. Но есть и исследования, подтверждающие, что в спорте высших достижений спортсменам может быть удобен авторитарный стиль руководства тренера, потому что он позволяет им снять с себя степень высокой ответственности за результат деятельности, разделив его с тренером. Чем больше по численности команда, тем удобнее для нее, если тренер использует авторитарный стиль руководства.

Либеральный стиль предпочитается там, где не требуются высокие спортивные результаты, это скорее стиль для массовых форм физической культуры.

Таким образом, при выборе эффективного стиля руководства, необходимо учитывать следующие факторы:

- вид спорта (командный или индивидуальный);
- классификацию вида спорта (игровой, сложнокоординационный, единоборства и т.д.);
- количество человек в команде;
- время, имеющееся в распоряжении;
- количество помощников (тренеров, лидеров и т.д.);
- традиции команды (особенно, если тренер приглашенный);
- пол участников команды;
- уровень способностей и опыт спортсменов;
- возраст спортсменов;
- национальность спортсменов.

Если воспользоваться вышеизложенной классификацией стилей руководства и взять за основу то, каким образом тренер воспринимает спортсмена — как субъект совместной деятельности (демократический стиль) или как объект

деятельности (авторитарный стиль), можно смоделировать разные технологии обучения с целями и задачами обучения, особенностями процесса взаимодействия тренера и спортсмена и результатами этого взаимодействия.

Таким образом, формирование рационального стиля руководства спортивной командой - трудное дело, требующее от тренера постоянной работы по воспитанию спортсменов, самообразованию и самовоспитанию.

### **Литература:**

1. Психология управления. Мукумова Д.И. Мукимов Б.Р. Учебное пособие. Ташкент. ТИИИМСХ. 2021г. 332 с.
2. Психология управления. Трус А.А. Учебное пособие. Минск изд: «Вышэйшая школа» 2014г. 322 с
- 3.Общая психология. Маклаков А.Г. Учебник для вузов. СПб: Питер. 2016г 583с (серия Учебник для вузов)
4. Психология физической культуры и спорта. А. Е. Ловягина. учебник и практикум. Москва: Юрайт.2016 г 338с
- 5.Психология спорта. Т. В. Огородова. учебное пособие. Ярославль. 2013г. 120с
6. Спортивная психология. С. К. Багадирова. Учебное пособие. Майкоп (Адыгея) 2014г. 243с

## **BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA OILA VA OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI**

*Dilfuza Xalilova*  
*Q.D.P.I. Amaliy psixologiya kafedrasi o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada bola shaxsining shakllanishida oila va oilaviy munosabatlarning psixologik asoslaridan xisoblangan ota –onalarning oiladagi o`zaro munosabatlari, oiladagi mavqeyi, ota- onaningning muxabbatiga sazovar bo`lish,

jamiyatda o'z orniga ega bo'lishda, sog'lom oilaviy psixologik muxitning zarurligi nazariy bayon etilgan.

Kalit so'zlar; oila, ota –ona , farzand, er –xotin,xulq atvor,muxabbat,yutuq bola, mukofat,munosabat,nikoh.

Asrlar davomida kishilar eng yaxshi orzu-istaklarini baxtli oila bilan bog'lab kelganlar.

Zero, erkak va ayol, er-xotin orasidagi ezgu munosabatlardan yuksakroq, ota-onalik, farzandlik mehridan ko'ra orombaxsh hissiyot bo'lmaydi.

Yigit bilan qizning bir biriga intilishi, bir-biriga muhabbat qo'yishi, oila qurishi avlodning davom ettirilishiga asos bo'ladi. Oila nikoh zaminida yuzaga keladi. Nikoh esa erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan, ma'qullangan ifodasi hisoblanadi.

Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi. Oila tufayli er-xotin, ota-ona va farzandlar orasida axloqiy, huquqiy munosabatlar qaror topadi.

Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirish, oilani saqlash va mustahkamlash, yangi avlodni kamolga yetkazish uchun qulay sharoitni yaratish insonlardan psixologik bilimdonlikni talab etadi.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvuri va ehtiқodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan, oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila-haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya omili muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Ulg'ayayotgan shaxsdagi ijobiy sifatlarning shakllanishi, uning ma'naviy va ruhiy qiyofasining poydevori oilada qo'yiladi. Dono xalqimiz "Bola boshidan nihol yoshidan" degan naqlni bejiz aytmaganlar. Oiladagi ijtimoiy - ruhiy muhit, ota-onaning xulq-atvori, xatti-harakati, muomala madaniyati va shu kabi ijobiy hamda salbiy fazilatlar bolaga bevosita ta'sir qiladi, chunki bola o'ta taqlidchan bo'ladi. Bolalar bilib - bilmay, ulg'aygach esa odat tariqasida uyda, ota-onalarida ko'rganlarini qaytaradilar.

Oiladagi sog'lom muhit, oila boshliqlari va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabat, xonadon qadriyalariga hurmat, e'tibor, bolalarning o'zaro munosabatlari, ota-onaning bolalar tarbiyasiga teng jonkuyarligi, oilada o'rnatilgan tartib va odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga munosabati muhim ahamiyat kashf etadi. Oilada er-xotin o'rtasidagi o'zaro kelishuvchanlik, hurmat, ishonch, e'tibor va sadoqat bolalarning quvnoq, xushchaqchaq o'sishlariga, to'g'ri tarbiyalanishlariga, xonadonda sog'lom muhitning yaratilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oila tarbiyasi — oilada ota -ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab quvvatlash va h.k. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro'si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirliги, hozirjavoblighi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An'ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuqlarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egalighi, Oila tarbiyasi bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yo'qlighi yoki ulardan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'sir kuchi yo'qoladi, Oila

tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo‘pol, dag‘al bo‘lib qoladi, kattalarga ishonmay qo‘yadi, o‘qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro‘si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog‘lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o‘rtasidagi ta’lim tarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o‘qituvchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o‘z farzandlari to‘g‘risida ko‘proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o‘rnatishi, farzandining darslarini o‘zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo‘lib turishi, tarbiya masalalarida o‘qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so‘ng nima bilan mashg‘ulligi haqida o‘qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. Uz navbatida o‘qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o‘qishi, odobi, xulqi, maktabda o‘zini tuta bilishi haqidagi ma’lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug‘ilganda paydo bo‘lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a’zosi bo‘lib qolishi kerak. O‘qituvchi va sinf rahbari ham o‘z o‘quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘ymog‘i lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Qo‘shma Shtatlarda Bolalarning 70 foizi (18 yoshgacha) ikkita ota-onasi bilan, 23 foizi faqat onasi bilan, 3 foizi faqat otasi bilan va qariyb 4 foizi ota-onasi bilan yashaydi. Bolalarning ikki foizi ota-onasiz bobosi va buvisi bilan yashaydi, 1 foizi esa boshqa qarindoshlari bilan ota-onasiz yashaydi. Umuman olganda, bolaning rivojlanishi uchun oila tuzilishidan ko‘ra, oilaviy munosabatlar va barqarorlik muhim ahamiyat kasb etar ekan. Ota-onalarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlarining sifati ularning farzandlariga katta ta’sir qilar ekan. Bolalik tendentsiyalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ota-onalarning turmush qurganligi yoki birga yashashidan qat’i nazar, ota-onalar o‘rtasidagi



munosabatlarning sifati, ota-onalar o'zaro munosabatlarda qanchalik baxtli bo'lishlari bolalarning xatti-harakatlari, ijtimoiy kompetentsiyalari, maktabga jalb qilinishi va ruhiy tushkunlik bilan bog'liq ekan.

Suningdek, Ota-onalar va bolalarning o'zaro bog'liqligi sog'liq ko'rsatkichlariga ham ta'sir qilar ekan. Ochiq muloqotni o'z ichiga olgan yaqin, ijobiy oilaviy munosabatlar yoshlarga sog'lom bo'lishga va giyohvand moddalarni iste'mol qilishdan, yomon psixologik salomatlikdan, xavfli jinsiy xatti-harakatlardan va zo'ravonlikdan qochishga yordam beradi. Oiladagi iliqlik va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oilani boshqarish amaliyoti (masalan, umumiy ovqatlanish, monitoring, ota-onalarning farzandlarining do'stlari haqidagi bilimlari) hissiy tartibga solish, qiziquvchanlik va moslashuvchan kurash kabi ijobiy rivojlanish natijalarida ham rol o'ynashi mumkin ekan.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida fan-texnika taraqqiyotining yuksalib, odamlarning kundalik hayotining urbanizasiyalashuvining (radio, televideniye, video, kompyuter) ortib borishi, oilalarning tobora nuklearlashib borayotgani bilan oilaning kommunikativ funksiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Bu o'rinda o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyati: ko'p avlodlilik, ko'p farzandlilik kabilar bunday oilalar o'rtasida o'zaro muloqot to'laroq amalga oshishiga asos bo'ladi. Biroq so'nggi yillarda ba'zi oilalarda ota-onalar va farzandlar o'rtasida muloqotning kamligi, bir-biriga e'tiborning pasayishi, oila a'zolarining o'rtasida fikr erkinligining cheklanganligi holatlari mavjud. Hatto oiladagi o'zaro munosabatlarning yomonlashuvi natijasida oila a'zolarining ayrimlarida stress (asabiy tanglik), suisid (o'z joniga qasd qilish) kabi noxush holatlarni kelib chiqishi kuzatilmoqda. Bunday holatlarning oldini olish uchun avvalo oila a'zolari o'rtasida oshkora, yaqin, o'zaro tushunarli, ishonchli muloqotni amalga oshirish uchun zarur shart- sharoitlarni yaratish, bu borada yoshlarga tegishli bilimlarni berish, axoli uchun psixologik maslaxatxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, treninglar tashkil etish, «Ishonch telefonlari», «Qalb markazlari» kabilarni tashkil etib, ular faoliyatini takomillashtirish lozim. Oilaviy munosabatlar jarayonida bir-birini tinglay olish, e'tiborli bo'lish muhimdir. Chunki er-xotin bir-birlarining muammolarini diqqat bilan tinglasa ularda o'zaro ijobiy hissiyotlar uyg'onadi.

Ammo, afsuski, ko'pgina ota-onalar bolani "bebosh" qilib qo'ymaslik uchun bu ajoyib insoniy tuyg'udan cho'chiydilar. Ular bola o'zini sevishtarini yaxshi bilib olsa, u tantiq, shaxsiyatparast bo'lib qoladi deb o'ylaydilar. Shu xildagi juda ko'p salbiy xususiyatlar bola ota-onaning to'g'ri muruvvatidan, erkalashidan, e'tiboridan ma'rum bo'lgan sharoitlarda vujudga keladi. Shuning uchun ham bolada o'zini sevishtga, o'ziga g'amxo'rlik ko'rsatilishiga ishonch hosil qilish ota-onaning muhim vazifasidir. Hech qachon bolada ota-onasining unga bo'lgan muhabbatiga shubha paydo bo'lmasligi kerak. Bolaga avvalo ota-onalarning mehribonligi zarur.

Oilada ota-onaning farzandini o'ziga bo'ysundirishga intilishi tarbiya ishida faqat zarar keltiradi. Har bir farzand - avvalambor shaxs va unga shaxs deb qarashga odatlanish kerak, katta va kichiklar o'rtasida hurmat, izzat-ikrom, mehr-oqibat mutloq bo'lishi lozim.

Dunyoda bizning xalqdek bolajon xalqni topish qiyin, lekin ayni paytda yosh avlodga eng beparvo xalq ham biz bo'lamiz? Bolaga muhabbat ikki xil bo'ladi: ko'r-ko'rona muhabbat, talabchan muhabbat. Odatda talabchanlik bor joyda bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yiladi. Lekin, bugun nazarimizda ba'zi onalar o'zlari anglamagan, oqibatini o'ylamagan holda bolalarni "ana bo'ji", "ana doktor kelyapti" deb qo'rqitmoqchi bo'ladilar.

Aslida qo'rqoq boshqa har qanday odamdan xavflidir. Qo'rqish xavfi xavfning o'zidan ming chandon qo'rqinchlidir. Qo'rqitib tarbiyalangan bolaning mustaqil fikri bo'lmaydi, o'z xaq-haquqini, o'zligini anglab olmaydi. Shuning uchun ota-ona o'g'il-qizlarini tarbiyalashda ularni qo'rqitish yoki asossiz buyruq berishga tayanmasdan ish tutishi kerak. Allomalarimiz ta'kidlaganidek, insonni tarbiyalashdagi eng asosiy yo'l ehtiyoqdir. E'tiqodga esa ishontirish yo'li bilan erishish mumkin.

Bolaning ruhiy dunyosi hamma narsani to'g'ri qabul qilishga moyil. Shu bois unga biror narsani tushuntirish jarayonida imkon qadar to'g'rilik bilan uqtirish kerak. Bolaning sezgilari kuchli, ko'nikish qobiliyati yuksak bo'ladi. Shuning uchun bir ishni buyurganda "Bilaman, sen bu ishni darhol bajarib tashlaysan, qo'lingdan hamma ish keladi" deb uning ko'nglini ko'tarish lozim. Bunday rag'bat bolaning kuch-g'ayratini oshiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Aslida har qanday psixologik omil

ishonchga asoslanadi. Bola bir narsaga ishonsa, uning ruhida, ongi va tafakkurida o'zgarish yuz beradi. Psixologik omilning kuchli yoki zaifligi ham uning bola ongi, ruhi va tafakkurida necholik ishonch uyg'ota olishiga bog'liq. Bola qaysi ishdan ko'proq qanoat hosil qilsa, shu ishlar ularda qiziqish paydo qiladi. Bola ma'lum ishni bajarayotganida o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmasligi, o'ziga topshirilgan ishni bajara olishini bilishi, buning uchun esa faqat g'ayrat-shijoat va halollik ko'rsatishi kerakligini anglashi lozim. Bolaning qiziqishlari doimo ota-onaning diqqat-e'tiborida bo'lishi lozim.

Olimlarning ta'kidlashicha, ijobiy odat bolada qancha erta shakllantirilsa, uning mehnat va idrok etish qobiliyati shuncha tez va mukammal rivojlanadi. ko'pincha bolada mustaqillikka intilish juda erta vujudga keladi va u har bir narsani "o'zim qilaman" deb urinadi. Bolaning ana shu tabiiy ehtiyojidan tarbiyaviy maqsadda foydalanish yaxshi samara beradi. Bolada mustaqil fikrlash, mustaqil harakatlarni shakllantirish ota-ona zimmasida bo'ladi. Ota-ona bolaning har bir qilayotgan ishlariga aralashmasdan o'zi bajarishiga undashi kerak. Bolada malaka shakllangan sari bajarayotgan faoliyatni tezroq bajarishga undab turish kerak.

Xulosa Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon, ehtiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi. Yoshlar ongida oilaning jamiyatdagi o'rni va vazifasi haqidagi bilimlarni shakllantirish, ularni mukammal inson bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi uni inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom, noqobil va nizoli oilalar, ajrashishlar sonining ortishi, jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga bunday nosog'lom psixologik muhitda, nizo-janjalli, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelgan, shakllangan bola keyinchalik nafaqat ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, qolaversa o'zi yashagan jamiyatga nisbatan mehr-oqibatsiz bo'lib, shafqatsiz, zolim, xudbin jamiyat yurt manfaatlariga zid har xil tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxs bo'lib shakllanishi, shu asosda esa o'z oilasi,

o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo'lishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Xalilova Dilfuza „ Maktabgacha ta`lim tashkiloti psixologiningbolani shaxs sifatida shakllanishidagi o`rni”. „Intercultural Communication and Mutual Understanding”Special issue 2022 yil.
2. Xalilova Dilfuza. „Bola tarbiyasida ota va ona rollarining farqlari va ahamiyatining psixologik xususiyatlari”.
3. SHaxnoza Xalilova „Oila nomli davlat sirlari” yangi asr avlodi Toshkent 2015yil.

## **YOLGO‘N NAZARIYASI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA SHAKLLARI**

*Aliyev Dalerjon*

*Termiz Davlat Universitetuti Ijtimoi fanlar fakuliteti psixologa yo ‘nalishi talabasi*

**Annotatsia:** Jinoyatchilik va xuquqbuzarlikning oldini olish, ochish va surishtiruv, profilatik suxbat olib borish chog‘ida turli xil xarakterli va hulqli insonlar bilan to‘qnashish va ishlash profilatika inspektor faoliyatining alohida xussasiyatidir. Bunda nafaqat shaxs psixologyasining ahamiyati, balki shaxsning alohida psixologik tomonlari va xususan, yolg‘on va yolg‘on ko‘rsatmalarning psixologik mexanizimi xaqida xodimning tor tushunchasi muhim ahamiyatga ega.

**Kalit So‘zlar:** Yolg‘on, Aldash, Yuz Ifodasi, Alan Piz, Pool Ekman, Kuzatuvchanlik.

Yolg‘on – noto‘g‘ri gap, aldov, nohaqlik. xuquqni muxofaza qiluvchi organlari xodimlarida guvox, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchilar tomonidan beriladigan yolg‘on axborot tufayli turli qiyinchiliklar yuzaga keladi. Yolg‘on, aldov qarama-qarshi manfaatlar, axloqiy va ijtimoiy normalar to‘qnashgan paytda yuzaga keladi. Yolg‘on –

aldovlardan biridir, bu bilan profilatik inspektorlar xizmat vazifalarini bajarish chog'ida juda ko'p hollarda to'qnashishlariga to'g'ri keladi.

Yolg'onchilik muammolarini o'rganuvchi psixologlar, haqiqatni aytishdan ko'ra yolg'on gapirish qiyinligini ta'kidlaydilar. Yolg'on doimo shaxsning o'zini tutishidagi ozgina o'zgarishi orqali namoyon bo'ladi. Uni aniqlash esa – san'atdir, uni alohida bilimlarni egallash, muxirona qo'llash, va albatta, katta xayotiy tajriba orqali o'zlashtiriladi. Profilatika inspektori faoliyatida muvaffaqiyatga erishishda psixologik tashxis orqali shaxsning o'zini nosamimiy tutishi va uning yolg'onini aniqlashni bilishi muxim omil xisoblanadi. Yolg'on tabiyati, namoyon bo'lish shakli va maqsadiga ko'ra farqlanadi, adolatni tiklash uchun kurashish Qurol sifati kim qo'llasa, uni ta'qib qiladi. Xar qanday yolg'on havfli: uning katta va kichik, ochiq va yashirin, sodda va ayyoronaligi ahamiyatsiz. U kimdan chiqishidan Qat'iy nazar, aniqlanmagan yolg'on alohida havf tug'diradi. Jinoyat jarayonida haqiqatni aniqlashda, to'g'i qaror qabul qilishda, u adolatga jiddiy putur yetkazishi mumkin.

Aldash – haqiqiy fakt o'rniga yolg'onchi tasavvuridagi xolatni qo'yish va haqiqatni aldoqchiga ma'qul bo'lgan uydirma bilan almashtirish. Yolg'on zanjirsimon xarakterga ega: bir yolg'on ikkinchisini tug'diradi va u bilan bog'langan bir qator faktlarni mutanosiblashtirishni talab etadi.

Yolg'onni aniqlash oson emas. Muammo axborotning ko'pligida. Bular: so'zlar, to'xtamlar, ovoz jarangi (sadosi), yuz ifodasi, bosh xarakati, imo-ishoralar, gavda xolati, nafas olish, ter bosish, yuzdagi qizilik yoki rangparlik va hokazo. Ana shu manbalarning hammasi axborotni galma-gal va birgalikda berishi mumkin.

Yolg'on gapirayotgan shaxs bировlar ko'proq diqqat bilan kuzatadilar deb xisoblaydigan narsalarnigina yashiradi va soxtalashtiradi. Nutqni oldindan tayyorlab qo'yish mumkin, ammo kimnidir aldashga uringan inson asosan beparvoligi (beg'amligi) tufayli nutqiy xatolarga yo'l qo'yadi. Ko'pchilik extiyotsizlikka yo'l qo'yib aytgan so'zlari bilan o'zini fosh qiladi. Zigmund Fred buni tildagi yanglishuv sifatida ta'riflagan. Yanglishuv, – deb yozgan edi u, – o'ziga xos "ayitishni istamagan, ammo o'zingni fosh etib qo'yadigan narsani ifodalash quroli"ga aylanadi. Agar so'zlayotgan odam bila turib yolg'on gapirayotgan bo'lsa, mayuslik ongli bo'lishi mumkin. U istamagan xolda gapirib

qo‘ygach, o‘zining tushkun holatini tushunishi xam, bunga e‘tibor bermasligi xam mumkin. Yanglishib aytilgan gaplar bo‘yicha yolg‘onni aniqlashda extiyot bo‘lish zarur, deb xisoblaniladi P. Ekman, chunkki ana shu yanglishuvlarning xammasi xam yolg‘ondan dalolat beravermaydi. Yanglishuv yolg‘onni fosh qilayotgani yoki qilmayotganini odatda kontekstdan kelib chiqib aniqlash mumkin. Shu o‘rinda boshqa bir keng tarqalgan xatoning oldini olish va yanglishib gapirmaydigan xar bir kishini xaqiqatgo‘y deb xisoblamaslik xam zarur. Gaplar bo‘yicha yolg‘onni aniqlashda ehtiyot bo‘lish zarur, deb hisoblaydi P. Ekman, chunkki ana shu yanglishuvlarning xammasi xam yolg‘ondan dalolat beravermaydi. Yanglishuv yolg‘onni fosh qilayotgani yoki qilmayotganini odatda kontekstdan kelib chiqib aniqlash mumkin. Shu o‘rinda boshqa bir keng tarqalgan xatoning oldini olish va yanglishib gapirmaydigan xar bir kishini xaqiqat go‘y deb xisoblamaslik xam zarur. Ko‘plar yolg‘on gapirayotganida yanglishuvga yo‘l qo‘ymaydi. Hozircha qandaydir yolg‘onning yanglishuv bilan fosh bo‘lishi, qaysilaridir bunday bo‘lmasligini izoxlovchi xech bir tadqiqot amalga oshirilmagan (xatto tahminlar xam bildirilmagan). Yolg‘on psixologiyasiga oid ayrim tadqiqotlarga ko‘ra, ba‘zilar yolg‘on gapirayotganida dangal javob bermaydi, gapni aylantiradi yoki keragidan ortiq ma‘lumot beradi. Boshqa tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, buning aksi xam bo‘ladi: aksariyat odamlar savolga javob berishdan bo‘yin tovlash va aniq javob berishdan qochish uchun xaddan tashqari ayyordirlar. Bunday yolg‘onchilarni sezmaslik xam mumkin. Aynan shu joyda gaplari javobdan qochishi yoki gapni butunlay aylantirishi bo‘lgan xaqiqatgo‘y insonni noto‘g‘ri baxolash havfi (individual xususiyatlar hatosi) mavjud. Ba‘zilar doimo ana shunday so‘zlaydilar. Bundaylarning so‘zlash uslubi shunaqa. Ammo bu yolg‘onchilik alomati emas, balki ularning oddiy gapirish uslubidir. Masalanining murakkabligi shundaki, ko‘pincha birovning aldayotganini aniq ko‘rsatib turgan xar qanday ko‘rinishlar boshqa odamlar uchun kundalik xulqining tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin. To‘xtalish (pause) va tutilishlar. To‘xtalishlar xaddan tashqari uzoq yoki qisqa bo‘lishi mumkin. So‘zlar oldidagi tutilishlar (duduqlanishlar), ayniqsa bu savolga javob berayotganda kelib chiqsa, xar doim shubxa uyg‘otadi.

Nutq jarayonining o‘zidagi qisqa to‘xtalishlar xam xaddan tashqari ko‘p uchrasa, shubxali tuyuladi. Nutq dagi xatolar, masalan: "xm", "xo‘sh" va "e-e" singari kirish

so'zlar; "men", "men", "men" ... nazarda tutyapman" singari takrolar; "Menga j-juda yoqdi" singari ortiqcha bo'ginlar xam yolg'on alomatlari bo'lishi mumkin. Nutqdagi to'xtalish va tutilishlarning sabablari quyidagilardan iborat: yolg'onchining o'z xarakatlari yo'nalishini, muayyan masalani yaxshilab o'ylamagani; Fosh bo'lishdan qattiq qo'rqani. Bundan tashqari, odam o'zining yolg'oni haqiqatdan qanchalik uzoqligini eshitsa, qo'llga tushishdan yanada ko'proq qo'rqa boshlaydi, natijada to'xtalish va nutqiy xatolar ko'payib boradi. Axborotning berish-uzatish texnikasi (o'ylari) bilan bog'lik yolg'on belgilariga alohida e'tibor qaratish lozim: - savollarga xaddan tashqari tez berilayotgan javoblar o'ylashga majbur qilishi lozim; - berilayotgan axborotga haqiqiy munosabatni niqoblash yoki buzib ko'rsatgan xolda qandaydir boshqa jihalarini nutqiy vositalar - intonatsion, pause va boshqalar yordamida namoyishkorona ta'kidlash (ajratib ko'rsatish)

Oxirgi belgi yolg'on gapiruvchilar boshqa birovni chalkashtrish uchun atayin qo'llaydigan usullar guruxiga kiradi va boshqa ma'lumotlar bilan qiyoslaganda, yolg'on ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kundalik amaliyotda bu aynan usul ekanligiga ishonch xosil qilinganida, bunday xolatlar haqida boshqa birini ishontirishga urinib "oshirib yubordi" deyiladi.

A. Piz "qo'lni yuzga olib borish" ishoralari sifatida ajratgan barcha imo-ishoralari "sharxlovchi"larga kiritish mumkin. Yosh bola yolg'on gapirgach og'zini qo'llari bilan to'liq yopadi. Katta yoshdagi kishi o'zini nazorat qilar ekan, bu xarakatni o'rtasidan uzib qo'yadi, ammo qo'li allaqachon ko'tarilgan bo'ladi, natijada qo'lni boshning o'ziga olib borishdan boshqa yo'li qolmaydi. "Qo'lni yuzga olib borish" ishoralariga quyidagilar kiradi:

- "Og'izni yopish" ishorasi – og'izni kaft, barmoqlar yoki musht bilan yopish, shuningdek og'izni to'sgan xolda yo'talish. Bunday ishora baxolash pozisalarini bilan bog'lik bo'lgan xollarda jipslashgan kaft yonoqlarda, ko'rsatkich barmoq esa ko'pincha yuqoriga qaragan xolda joylashadi. Agar suhatdoshingiz siz gapirayotgan vaqtda og'zini to'ssa, demak u yolg'on gapirayotganigizni sezayotgan bo'ladi;

"Burunga tegish" ishorasi – burunni oxista ishqalash yoki tez tegish, odatda burunni amalda qashishdan farqli ravishda, unchalik aniq ko'rinmaydi; burunga tegish (yengil,



deyarli sezilmaydigan tarzda burun tagidagi chuqurchaga tegishi yoki burun uchini ishqalash va sh.k.) – bu og‘izni to‘shishdan ko‘ra nozikrok ishora shaklidir;

"Ko‘zni ishqalash" ishorasi – g‘irt yolg‘on ishlatayotganda erkaklar

Ko‘zlarini olib qochish va ishqalashga, ayollar esa ko‘zga oxista barmoq tegizib ko‘z ostidagi soxani ishqalashga moyil bo‘ladilar. Bu ishoraga qisilgan tishlar va soxta tabassum qo‘yilishi mumkin;

"Yoqani ko‘tarish (tortish)" ishorasi – A. Piz, D. Morrisning tadqiqotlariga asoslanib, bu ishorani yuz va bo‘yinning sezgir to‘qimalariga yolg‘on gapirayotganda ter chiqishi tufayli yuzaga keladigan yengil qichishish bilan bog‘laydi. Bu xarakatlarga ayniqsa e’tiborli bo‘ling: agar ular keskin va kuchli bajarilsa, suhbatdoshingizda yurak xuruji boshlanganidan dalolat berishi mumkin;

Sochlarni tarash, quloqni ishqalash, quloq chig‘anog‘ini bukish – bunda inson yolg‘onni eshitmaslikka xarakat qiladi (suhbatdoshingizning bu xarakatlari sizning so‘zlaringiz bilan kechsa, demak u sizga ishonmaydi);

Bo‘yinning quloq ostidagi soxasini ko‘rsatkich barmoq bilan qashish – shubxa yoki gumon;

Xulossa sifatida shuni qayd etishim mumkinki, profayl metodi ko‘magida profilatika inspektori xizmat faoliyatlarini yanada takomillashtirishlari mumkin. Ushbu metodning afzalligi shundaki, u qisqa fursat ichida shaxs xaqida to‘liqroq axborot manbaiga ega bo‘lishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.unansea.com/pol-ekman-biografiya-kitoblar-va-nazariyasi/>
2. Alan Piz Tana Tili Kitobi.
3. Pol Ekman Yolg‘on Nazaryasi Kitobi  
[.https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2015/09/150908\\_latin\\_how\\_to\\_spot\\_a\\_liar](https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2015/09/150908_latin_how_to_spot_a_liar).
4. <https://optolov.ru/uz/balcony-and-loggia/chto-takoe-lozh-i-obman-v-obshchenii-proyavleniya-lzhivosti-i-lzhi-lzhivost.html>.
5. blob:https://xn--80affa3aj0al.xn--80asehdb/9e2b704e-bb74-4ad6-8dbb6e88c1

## YOSHLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. UNING SABAB VA YECHIMLARI

*Dildora Roxatova*  
*Namangan viloyat Chust tumani*  
*7-sonli umumta'lim maktab psixologi*

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u nikoh va qon-qarindoshlikka asoslanishi, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Oila bola dunyoga kelgandan boshlab uning butun umri davomida o'sishi, rivojlanishi, kelajakdagi o'rni, individual xususiyatlari va iqtidorini ochib beradigan va alohida ahamiyatga ega bo'lgan maskandir. Ma'lumki, har bir xonadonda farzand tug'ilishi, oila a'zolari uchun katta baxt va quvonch hisoblanadi. Ota-ona qalbida shirin umidlar paydo bo'ladi. Farzand ulg'aya borgan sari, ota-onaning qalbidagi orzu-niyatlar ham kengaya boradi. Ular esa o'zidan ezgu nom qoldirish maqsadida farzandlariga yaxshi ta'lim-tarbiya berishga harakat qiladi. Kelgusida farzandlari el-yurt xizmatiga kamarbasta insonlar bo'lib tarbiyalansa, ularning baxti oilada o'zgacha ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlash, bu qatlamni o'rganish, ularni birlashtirish bugungi kunning dolzard ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Uyushmagan yoshlar kim? Uyushmagan yoshlar qatlami qanday qilib vujudga keldi? Ular jamiyatning qanday qatlami? Hozirgi kunda yoshlarning 10 millionnini uyushmagan yoshlar tashkil etadi, ular ayni vaqtda biror bir kasb-hunar yoki ta'limning ma'lum bir qismida faoliyat olib bormayotgan, oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ham ega bo'lmagan, tayinli ish bilan mashg'ul bo'lmagan yoshlar tushuniladi.

Bizning jamiyatimizda bu qatnamning yosh guruhleri o'rtacha 19-24 hamda 26-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etyapti. Birinchi guruh asosan o'rta maxsus ta'limi bitiruvchilari bo'lib, ular kollej va akademik litseylarni tugatib, yo oliy ta'lim yurtlariga hujjat topshirishadi yoki o'z sohasi bo'yicha ish berayotgan idora va tashkilotlar bilan shartnoma tuzib ishga qabul qilinadilar, lekin ularning barchasi ham ishda qolib, uni davom ettirishmaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning faqat 10 foizigina birinchi yil oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiryapti xolos. Qolgan yoshlar o'qishga

kirish uchun tayyorgarlik ko'rishyapti, qolgan qismi esa haligacha tayinli ish topa olmay sarsonlikda yuribdi. Yoshlarning ayrimlari esa o'qishga kira olmay, ish topa olmay xorijiy davlatlarga ishlashga ketyapti. Xorijiy davlatdaham tayyor ish yo'qligi sababli u yerda ham sarsonlikda yurgan yoshlarimiz afsuski yo'q emas.

Endi esa yoshlar orasida bu ijtimoiy-psixologik muammolarning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritsak. Bunday holatga asosiy sabab, birinchi navbatda hali saviyasi past bo'lgan ota-onalarning hamda ularning farzandlariga berayotgan tarbiyasini ko'rishimiz mumkin. Bazi odamlarimizda hali-hanuz saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash va qoloq dunyoqarash bu muammoning asosiy omilidir. Ota-onalarning yoshligidan bolalarga berib kelayotgan "o'qib nima qilasan undan ko'ra ishni qil, qorning shundan to'yadi o'qib dunyoni olib berasanmi" qabilidagi fikrlari yoki bo'lmasa, bolalarni yoshligidan o'qib, ilm olishga yo'naltirmay psixologik dalda bermay, "qora mehnat"ga jalb qilib, shu bhonada o'qishdan bolani chalg'itib, buning ustiga durustroq kasb-hunar ham o'rgatolmay, lo'nda qilib aytganda "sixni ham kabobni ham kuydirishlari" masalaning og'riqli nuqtalaridan biridir.

Oldimizda turgan muammolarni yechishda har bir iker-chikir sabablarga nazar tashlash o'rinlidir. Bolaning yosh paytidagi o'tkir zehnli, barcha narsani qabul qilishga qodir bo'lgan paytda, ularni durust kasb-hunar yoki o'qishga yo'naltirish o'rniga bolalarni ko'chada vaqtini bekor o'tkazishiga ruxsat bergan, har safar maktabga yo o'qishga ketayotganida kissasini pul bilan to'ldirib jo'natayotgan, hali endi shakllanish bosqichida turgan bolalarga mobil telefon, kompyuterlar olib berib, ularni nazoratsiz, o'z xoxishiga tashlab qo'ygan ota-onalar oramizda yo'q emas. Hech qaysi bola yoshligidan kitob o'qishni xohlab, ota-onasidan iltimos qilmaydi, ular bu paytda qiziqqon, o'yin kulguga o'ch bo'lishadi, lekin unga yoshligidan ota-onasi zarur tarbiyani berib, o'qishga hamda kasb-hunarga yo'naltirsa albatta undan kelajakda jamiyatga va oilasiga nafi tegadigan shaxs bo'lib ulg'ayadi. Lekin buning o'rniga bolaning yoshlikdan o'yin kulgu va o'tkinchi narsalar bilan band bo'lib, mobil telefon va kompyuterlar og'ishida o'sgan boladan nimani kutish mumkin? Zeroki, yoshlikda berilgan tarbiya insonning kelajakda qanday shaxs bo'lib ulg'ayishida katta o'rin tutadi.

Bu o'rinda Abdulla Avloniyning quyidagi fikrini aytib o'tishni lozim topdim: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir". Shubhasiz oila haqiqiy hayot maktabi va tarbiya o'chog'idir.

Biz yosh avlodga ilm-fan hamda kasb-hunarni yoshligidan ongiga singdirib borishimiz kerakki, zero u ulg'ayganda buning foydasi hamda berilgan tarbiyaning to'g'riligini ongli ravishta tushunib yetsin. Agar shunday qila olsak u o'qishni o'zi anglab yetadi, boshini kitobdan ko'tarmaydi, unga hech qanday kompyuter o'yinlari-yu mobil telefonlarning keragi bo'lmaydi. Uni o'qishga majburlab, nasihat qilish kerak bo'lmaydi. Bir qancha rivojlangan mamlakatlarda misol uchun Yaponiyada na shunday uzviy ta'lim va tarbiya birga olib boriladi. Yapon yoshlari o'qishni barcha narsadan ustun qo'yishadi. Yaponiyada barcha joylarda metrolarda, xiyobonlarda, ko'chalarda, xoh yirik shahar bo'lsin, xoh chekka qishloq hamma yerda bukshop va bukkafelar bor, yapon yoshlari barcha yerlarda o'tirib tinimsiz ilm olish payida bo'lishadi, ularni boshqa hech narsa qiziqitirmaydi.

Yapon maktablarida davomat 99,9% ni tashkil etadi, hech qaysi o'quvchi maktabda o'quv formasiz kelmaydi. Fan imtihonlarida tartib shunchalik yuqoriki, yapon o'quvchi talabalari bir-biridan ko'chirish bir-biriga yordam berish yoki har xil ko'z bo'yamachiliklarni xayollariga ham keltirishmaydi, barchalari, hammalari o'zlari uchun o'z kelajaklari uchun harakat qilishadi. Yaponiyada ta'limda milliy an'analar hamda yaponcha tarbiya ruhi ta'lim bilan omuxtalashib ketgan va hozirgi kunda dunyoning yetakchi mutaxassislari yaponiyadan yetishib chiqayotganligi, davlat yalpi ichki mahsulotining oshishi, eng muhimi jamiyatdagi ishsizlar sonining kamligi yapon ta'lim tizimining naqadar samarali ekanligini isbotlaydi. Men bu fikrlarim bilan kimnidir maqtash, kimnidir yerga urish maqsadidan yiroqman, lekin ibrat olsa bo'ladiganlardan ibrat olish kerakligini aytmoqchiman.

Barcha narsa hatto, jamiyatdagi ko'plab yechimini kutib turgan muammolarning asl sababi to'g'ri tarbiyaga borib taqalar ekan, shu o'rinda ota-onalar hamda jamiyatning uzviy bog'liqligini ta'minlash kerakligini aytmoqchiman, buning uchun biz ota-onalar bilan uchrashuvlar o'tkazishimiz lozim, ularning ma'naviyatini, psixologik madaniyatini oshirishimiz kerak, bunda albatta ta'lim muassasalarining o'rni katta. Shu o'rinda yana bir

fikrga e'tiboringizni qaratmoqchiman, xalqimizda "Qars ikki qo'ldan chiqar" degan pur ma'no naql borki, ko'p o'rinlarda biz bu fikrni naqadar to'ri ekanligini tan olmay ilojimiz yo'q. Masalaning bir jihati borki, shu o'rinda shuni aytishni lozim topdim. Biz yuqorida aytilgan muammolarning vujudga kelishida nafaqat ota-onalar, balki ta'lim tizimimizdagi ayrim yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabab bo'lyapti.

Bu kamchiliklarni bartaraf etsak, albatta ijobiy natijalarga erishamiz. Yoshlar bizning kelajagimiz ularning ta'lim olishi kasb egallashlariga ko'mak berish bizning vazifamizdir.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СРЕДОЙ НА ПРЕДПРИЯТИИ

*Туробова Шахноза Умировна*  
*Научный сотрудник Навоийского государственного педагогического*  
*института*

**Аннотация:** Статья посвящена труду, важной ролью производственной среды для работающего человека, поскольку большую часть времени персонал проводит на работе. Производственная среда является значимой составляющей рабочего пространства персонала, на которую влияет множество различных факторов.

**Ключевые слова:** Психическое здоровье, производственная среда, безопасность труда, рабочая команда, опасных и вредных факторов

**Annotation:** The relevance of the study is due to the important role of the production environment for the working person, since most of the time the staff spends at work. The production environment is a significant component of the working space of the staff, which is influenced by many different factors.

**Key words:** Mental health, working environment, labor safety, work team, hazardous and harmful factors

Промышленная деятельность является основным компонентом экономического развития и даже при движении индустриального общества к информационному, промышленная активность и в XXI веке будет оставаться наиболее важным фактором прогресса. Промышленность оказывает большое влияние на государство, поскольку именно за счет развития этой отрасли Узбекистан достиг высокого уровня конкурентоспособности, что напрямую влияет на формирование успешной экономики, политики и даже межнациональных отношений.

При таком значении промышленного сектора для государства необходимо уделять внимание производственной среде каждого из существующих промышленных предприятий. Следует учесть, что важны не только уровни рентабельности, экономической эффективности или окупаемости, но и критерии, отражающие степень удовлетворенности работников и персонала условиями труда, показатели безопасности (охраны) труда, а также положительное восприятие потребителями производимой продукции.

Организация должна создавать производственную среду, необходимую для достижения соответствия требованиям к продукции, и управлять ею. Термин «Производственная среда» относится к условиям, в которых выполняют работу, включая физические, экологические и другие факторы (такие как шум, температура, влажность, освещенность или погодные условия)<sup>23</sup>

Производственная среда — это совокупность условий, в которых выполняется работа. Это комбинация человеческого и физического факторов, методы творческой работы и возможности более полного вовлечения работников с целью реализации их потенциала.

---

<sup>23</sup> Гельманова З.С., Жаксыбаева Г.Ш., Гарт Н.А. УПРАВЛЕНИЕ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СРЕДОЙ ДЛЯ КАЧЕСТВЕННОЙ РАБОТЫ НА ПРЕДПРИЯТИИ // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 2-1. – С. 133-137;

Производственная среда является значимой составляющей рабочего пространства персонала, на которую влияет множество различных факторов.

Управление производственной средой должно осуществляться в соответствии с требованиями законодательства к условиям труда, его охраны и обеспечения безопасности.<sup>24</sup>

Две группы факторов, определяющих производственную среду

Определение понятия «производственная среда» как обстановки, в которой работник осуществляет свою профессиональную деятельность, не может считаться полным, ведь это слишком узко и однобоко. Концепция понятия гораздо шире. Ее определяют две группы факторов, которые оказывают воздействие на работников.

К первой группе можно отнести те факторы, которые не имеют никакой зависимости от производственного процесса, это:

- географические характеристики;
- климатические показатели;
- социальные факторы;
- экономические факторы.

Вторая группа включает все те обстоятельства, которые напрямую связаны с профессиональной деятельностью и определяют, насколько условия труда являются благоприятными.

Производственная среда и ее воздействие на работников

Производственная среда включает в себя многочисленные факторы, которые в той или иной мере воздействуют на работников. Иногда это влияние может быть нейтральным, иногда – с негативным окрасом. Такими факторами являются:

- производственные;
- санитарно-гигиенические;
- психофизиологические;
- организационные;

---

<sup>24</sup> Баурина С. Б. Стандарты безопасности труда: изменение структуры и содержания // Научный альманах. – 2017. – № 2-1 (28). – С. 33–36.



-социальные.

Уровень воздействия таких опасных и вредных факторов на человека определяет класс условий труда работника. Их всего четыре, но при этом третий класс имеет еще четыре подгруппы, которые дают определение степени неблагоприятного воздействия вредных факторов на организм сотрудников:

-оптимальный;

-допустимый;

-вредный;

-опасный.

Указанные факторы влияют на здоровье и работоспособность человека. Для оценки работоспособности применяются три группы показателей – производственные, физиологические и психологические, которые характеризуют результаты производственной деятельности, физиологические сдвиги и изменения в психических функциях человека в процессе труда. Поэтому необходима комплексная оценка факторов производственной среды и характера труда.

Такое деление позволяет определить степень негативного влияния для того, чтобы предусмотреть положенные гарантии для работников, которые задействованы на вредных и опасных производствах (дополнительные дни к отпуску, денежные компенсации, сокращение продолжительности рабочего дня, особые условия выхода на пенсию и проч.).

Управление производственной средой

Для того, чтобы деятельность предприятия была эффективной, а его сотрудники были защищены от негативного воздействия факторов, в организации должна быть налажена система управления производственной средой. Этот процесс включает:

-установление, соблюдение и контроль за выполнением требований к условиям производственной среды;

-обеспечение параметров производственной среды на допустимом для работы уровне, контроль за их изменениями;

-поддержание технически исправного состояния устройств, оборудования, зданий, сооружений и других аспектов, необходимых для проведения производственного процесса.

Таким образом, изучение и контроль за состоянием производственной среды позволяет оценивать подверженность сотрудников влиянию негативных факторов и предпринимать меры по минимизации этого влияния на их здоровье.

По совершенствованию управления производственной средой предлагает следующие рекомендации:

1.Совершенствование местной правовой базы и документов товарооборот, управление производственной средой и регулирование организации рабочих мест сотрудников на основе рентабельного производства;

2.Создание космической зоны свободной связи;

3.Совершенствование организации рабочего места каждого сотрудника;

4.Совершенствование процесса устранения потерь на рабочих местах на основе системного подхода.

5.Повышение технического уровня организации рабочих мест за счет применения инновационных и прогрессивных технологий, модернизации устаревшего оборудования, внедрения специализированных программных средств.

6.Организовать регулярное обучение персонала в области обеспечения безопасности труда и формирования благоприятной производственной среды с отработкой навыков безопасного поведения на рабочем месте.

7. Разработать и внедрить положение по организации повышения квалификации персонала в области охраны и безопасности труда в производственной среде предприятия и т. д.

Таким образом, предложенные рекомендации позволяют формировать качественную производственную среду для работающих сотрудников, в которой им будет комфортно трудиться и достигать высоких результатов в работе.

### **Литература:**

1.Баурина С. Б. Стандарты безопасности труда: изменение структуры и содержания // Научный альманах. – 2017. – № 2-1 (28). – С. 33–36.

2. „Психическое здоровье / Информационный бюллетень“. Всемирная организация здравоохранения. Центр СМИ (апрель 2016).

3. Гельманова З.С., Жаксыбаева Г.Ш., Гарт Н.А. Управление производственной средой для качественной работы на предприятии // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 2-1. – С. 133-137;

4. Шкляр Т. Л., Васильев С. В. Производственная среда. Динамический подход // Австрийский журнал гуманитарных и общественных наук. – 2015.

## MAQSUD SHAYXZODA-IKKI XALQ DILBANDI

*Xoliqova Marjona Jasurbek qizi  
Toshkent davlat transport universiteti intellektual muhandislik  
tizimlari (avtomobil transporti) 2-bosqich talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqola ikki xalq dilbandi bo'lmish, dramaturg, sevimli va mahoratli shoir, adabiyotshunos olim, tarjimon, buyuk pedagog Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodiga bag'ishlangan hamda dunyoqarashlari va hayotiy voqealari aks etgan.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, tragediya, doston, she'r, tarjima, drama, Chorak asr, Toshkentnoma, dramaturg.

Maqsud Maqsumbek o'g'li Shayxzoda (Maqsud Shayxzoda) — shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagog. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1964). Maqsud Shayxzoda Ozarbayjon Respublikasi, Ganja viloyati, Oqtosh shahrida 1908-yilning 7-noyabr kuni dunyoga kelgan. Bokudagi doril-mualliminni tugatgan (1925). Dastlab Darbanddagi I-bosqich ozarbayjon maktabida, Bo'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1927-yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida hibsga olinib, 1928-yil fevralda Toshkentga surgun qilingan. Shayxzoda O'rta Osiyo universitetining Sharq fakultetida qisqa muddat

o‘qigani (1928)dan keyin „Sharq haqiqati“ (1929—32), “Qizil O‘zbekiston”, “Yosh leninchi” gazetalari (1932), „Guliston“ jurnali (1933—34) tahririyatlarida xizmat qilgan. 1933-yil Bokudagi pedagogika institutining barcha kurslari uchun imtihon topshirib, Fan qo‘mitasi qoshidagi aspiranturaga o‘qishga kirgan (1934). Ayni paytda Til va adabiyot intida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan (1935—38). 1938-yildan umrining oxiriga qadar dastlab kechki, so‘ngra kunduzgi ped. Intlarida o‘zbek adabiyoti tarixidan ma’ruza o‘qigan. Dastlabki she’riy to‘plami — „Loyiq soqchi“ (1932). Shundan keyin shahrining „O‘n she’r“ (1932), „Undoshlarim“ (1933), „Uchinchi kitob“ (1934), „Jumhuriyat“ (1935), „O‘n ikki“, „Yangi devon“ (1937), „Saylov qo‘shiqlari“ (1938), „Kurash nechun?“ (1942), „Jang va qo‘shiq“, „Ko‘ngil deydiki...“ (1943), „O‘n besh yilning daftari“ (1947), „Yurt she’rlari“ (1948), „Zamon torlari“, „Olqishlarim“ (1949), „Yillar va yo‘llar“ (1961), „She’rlar“ (1964) va boshqa she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Dastlabki ijodida va qisman 50-yillardagi ayrim she’rlarida ozarbayjon she’riyatiga xos ohanglar, minbar she’riyat belgilari ustuvorlik qilgan. Ammo Sh. o‘zbek mumtoz va zamonaviy she’riyatining tili va uslubini egallagani sayin uning she’rlarida o‘zbekona musiqiy ravonlik kuchaya bordi. Sh. voqelikka faol munosabatda bo‘lishga intilib, xalq va mamlakat hayotida ro‘y bergan muhim voqealarni tasvirlashga, mehnat va kurash qahramonlari obrazini yaratishga alohida e’tibor berdi. U shu maqsadda doston janriga qo‘l urib, „O‘rtoq mulk“ (1933), „Chirog“, „O‘rtoq“, „Meros“, „Tuproq va haq“ (1936), „Ovchi qissasi“, „Iskandar Zulqarnayn“ (1940), „O‘n birlar“, „Jenya“, „Oqsoqol“ (1943), „Axmadjonning hikmatlari“, „Uchinchi o‘g‘il“ (1944), „Nurmat otaning tushi“ (1947) singari liroepik asarlar yozdi. Shoirning 30—40y.lardagi she’riyatiga ham, keyingi ijodiga ham xos muhim fazilatlardan biri syujetlilikdir. Shayxzoda lirik syujet yaratishga moyil shoir sifatida xalq afsonalari va tarixiy o‘tmish sahifalariga, shuningdek, zamondoshlari hayotiga murojaat etib, o‘z she’rlariga balladaga xos poetik belgilar va turli poetik tafsillarni olib kirgan, so‘zning she’riy qurilmadagi mavqeini oshirish choralarini ko‘rgan. Shu bilan birga Shayxzoda krfiyaning yangi badiiy imkoniyatlarini kashf etib, o‘zbek she’riyatiga yangi vazn va shakl ko‘rinishlarini olib kirgan. Shoir ijodiga xos bu tamoyil uning, ayniqsa, „Toshkentnoma“ (1958) lirik dostonida yorqin ifodasini topgan.

Shayxzoda Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan „Jaloliddin Manguberdi“ (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mugul istilochilariga karshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. „Mirzo Ulug‘bek“ (1961) tragediyasida Shayxzoda bosh qahramon obrazini Amir Temur va temuriylar davrida o‘zbek xalqi hayotida ro‘y bergan Uyg‘onishning yorqin timsoli sifatida aks ettirgan. Shekspirona uslubda yozilgan bu asarda Sh. Ulug‘bek hayotining so‘nggi 2 yilini tasvirlash orqali uning jahon fani tarixidan munosib o‘rin egallagan mashhur olim, adolatparvar va haqiqatparvar davlat arbobi va ayni paytda saltanatning mutaassib kuchlari oldida ojiz bir inson bo‘lganini ham haqqoniy ko‘rsatgan. Shekspirona ko‘lam va harorat bilan yozilgan „Mirzo Ulug‘bek“ tragediyasining maydonga kelishi o‘zbek dramaturgiyasi va teatri tarixida katta voqea bo‘ldi. Shayxzoda ssenariysi asosida rejissor L. Fayziyev tomonidan yaratilgan „Ulug‘bek yulduzi“ (1964) filmi esa keng xalq ommasiga ulug‘ o‘zbek olimi va uning fojiali taqdiri bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Shayxzoda she‘riy ijodida, asosan, zamonaviy mavzularda qalam tebratdi, dramaturgiyasida esa, tarixiy o‘tmishga teran nazar tashlab, undagi zamonaviy muammolarni yoritishga yordam beruvchi siymolar va voqealarga yangi badiiy hayot bag‘ishladi. U umrining sunggi yillarida Beruniy to‘g‘risida so‘nggi sahna asarini yozdi. Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan.

1941-yildayoq „Genial shoir“ monografiyasini e‘lon qilgan Sh. umrining sunggi kunlariga qadar Navoiy hayoti va ijodi bilan muttasil shug‘ullanib keldi. U Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan yozgan „Navoiyning lirik qahramoni haqida“ (1948) maqolasidan keyin „Navoiy lirikasining ba’zi bir poetik usullari haqida“ (1959), „Ustodning san’atxonasida“ (3 qismli maqola, 1965—66), „G‘azal mulkingning sultoni“ (1966), „Tazkirachilik tarixidan“ (1968) singari yirik ilmiy tadqiqotlar yaratib, navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Shayxzoda adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali qalam tebratib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining Fozil shoir singari namoyandalari, „Alpomish“, „Shirin bilan Shakar“ kabi asarlari, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Sh. Rustaveli,

A.S. Pushkin, N.A. Nekrasov, A.N. Ostrovskiy, T.G. Shevchenko, A.P. Chexov singari namoyandalarga bag'ishlangan asarlar yozdi. Pedagog olim va shoir sifatida esa talaygina shoir, adabiyotshunos va tanqidchilar avlodining yetishib chiqishiga munosib hissa qo'shdi.

Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muxim rol o'ynadi. U Sh. Rustavelining „Yo'lbars terisini yopingan paxlavon“ (hamkorlikda) eposi, U. Shekspirning sonetlari, A.S. Pushkinning she'rlari, „Mis chavandoz“ dostoni, „Motsart va Salyeri“ tragediyasi, M.Yu. Lermontovning she'rlari va „Kavkaz asiri“ dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o'zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi.

Shayxzoda 1952-yilda ENKVD xodimlari tomonidan hibsga olinib, 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilingan va 1954-yilda ozod etilgan.

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti rivojiga kata hissa qo'shgan, mustabit tuzumi davrida azob chekkan, shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagogdir. Uning she'rlarida jo'shqinlik, sevgi, vatanga mehr kabi tuyg'ular seziladi. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi inson qalbida mehr va iliqlik uy'otadi. Ajdodlarimiz hayoti, ijodi va meroslarini o'rganishlik, ulardan habardor bo'lishlik hamda ularni hayotga tadbiiq qilishlik – bizni faqat va faqat muvaffaqiyat sari yetaklaydi. Maqsud Shayxzoda hayot yo'li bizda kuchli harakter shakillantiradi. Uning hayot zarbalariga sabr bilan dosh berishi va o'z faoliyatidan to'xtamasdan, matonat bilan ijod qilishi barchamizga o'rnak bo'la oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/maqsud-shayxzoda-1908-1967/>.
2. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.
3. Shayxzoda Maqsud. Shoir kalbi duneni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. 28 b. (o'zbekcha).
4. Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983.

## INGLIZ TILI MUTAXASSISLARIDA KASBIY KOMPETENSIYA SHAKLLANGANLIGINING AHAMIYATI

*Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna*  
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti tayanch doktoranti*

### **Annotatsiya**

Turli xil nazariyalarga ko'ra kompetentlik tushunchasining mohiyati. Pedagoglik kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari. Chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari. Chet tili o'qituvchilarining kasbiy malakasining mohiyati.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, qobiliyat, malaka, miqdor, sifat, lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya.

Bugungi kunda Oliy ta'limda hal qilinadigan eng muhim vazifalardan biri bo'lajak chet tili o'qituvchisining oliy o'quv yurtidan keyingi davrga kasbga tayyorgarligini o'rganish, bilimlarini yangilanishini, takomillashtirish istagini rivojlantirish va ko'nikmalar hosil bo'lishini nazorat qilish. Zamonaviy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar sezilarli darajada oshdi. Maktab va universitet bitiruvchilarini tayyorlash yangi sifatni talab qiladi va o'qituvchi bunday talablarga javob bera olishi ahamiyatlidir. Zamonaviy tez rivojlanayotgan jamiyatda professional malakali o'qituvchilarga ehtiyoj tobora ko'payib bormoqda. O'qituvchining kasbiy malakasi, birinchi navbatda, quyidagilar bilan bog'liq; o'quv jarayoni borishida vujudga keladigan uning kasbiy muammolari va muammolarni hal qilish qobiliyatining shakllanganligi. G. M. Kodjaspirov tomonidan tuzilgan pedagogik lug'atda o'qituvchining kasbiy malakasi degan tushunchaga quyidagicha ta'rif berilgan– "o'qituvchi kerakli darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, uning pedagogik faoliyatining shakllanishini belgilaydigan asosiy unsurlardir; o'qituvchining pedagogik muloqoti va o'ziga xos shaxsiyati qadriyatlar, ideallar va pedagogik ong tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi". Kompetentlik atamasi «samaradorlilik», «erishish», «muvaffaqiyatlilik», «tushunish», «natijalilik», «ega bo'lish», «sifat», «miqdor» so'zlari yordamida ta'riflanadi, shu bilan



birga ko'pgina mualliflar uni tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. Dj. Raven kompetentlikni biror bir obyekt yoki obyektlar sinfiga ko'ra biror sohaga tegishliligi bilan baholash kerak - deb hisoblaydi. Natijada ma'lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo'ladi.

A. K. Markova o'qituvchining ishini ma'suliyatli deb biladi, agar pedagog yetarlicha malaka va bilimga ega bo'lsa pedagogik faoliyati juda yuqori darajada amalga oshiriladi, o'qituvchining shaxsiyati namunali bo'lsa talabalar bilan pedagogik muloqot yaxshi yo'lga qo'yiladi va talabalarni o'qitish va tarbiyalashda yaxshi natijalarga erishiladi. Bunda o'qituvchining malakasi uning professional bilim va ko'nikmalar bilan bog'liqligi, bir tomondan, boshqa tomondan professional pozitsiyalar, psixologik fazilatlar bilan bog'liqligi.

A. K. Markova, tadqiqoti natijasida kasbiy kompetentsiyaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi: maxsus, shaxsiy, individual, ijtimoiy. I. A. Zimnyaya, G. V. Selevko,

V. A. Slastenin "kompetentsiya" ni bilimga asoslangan hodisa sifatida, intellektual va shaxsan shartlangan tajriba, nazariy birlik ya'ni pedagogik faoliyatni amalga oshirish asosi sifatida amaliy tayyorgarlik deb biladi. Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish - bu ijodiy individuallikni rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarga moyillikni shakllantirish, o'zgarishlarga moslashish qobiliyatidir. E. F. Zeer nuqtai nazaricha, mutaxassisda bilim va tajriba miqdori, qancha qobiliyat mavjudligi, pedagogik faoliyatda aniqlashadi va bu miqdor professional funksiyalarini amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladi. Zamonaviy dunyoda professional malakali bo'lish uchun, o'qituvchi, bir tomondan, doimiy ravishda o'rganishi, o'qishi, o'z-o'zini tarbiyalashi va boshqa tomondan, pedagogik jihatdan o'zini anglashi kerak. O'zini anglash jarayonida o'qituvchi munosabatlarga kirishadi tayinlash-qaytarish.

N. D. Galskova chet tili o'qituvchisi ega bo'lishi kerak bo'lgan quyidagi kasbiy bilimlarni aniqlagan:

- til tizimi va asosiy lingvistik va lingvodidaktik kategoriyalar, shuningdek mamlakatning maqsadli til madaniyati, tarixi, zamonaviy rivojlanish muammolari;

- davlat umumiy ta'lim siyosati, shu jumladan chet tilida ham jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida umumiy ta'lim kontseptsiyasining asosiy qoidalari;
- uning rivojlanishining har bir o'ziga xos «davri» da o'quvchi shaxsiyatining psixologiyasi, ta'lim sharoitida chet tilini o'zlashtirish qonuniyatlari;
- jamiyat va fan o'qituvchiga qo'yadigan asosiy talablar, uning kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlari;
- chet tilini o'qitishning asosiy qonuniyatlari, o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarining xususiyatlari: hozirgi holati, maqsadlar, mazmun, metodlar, o'quv qo'lanmalar ularning tarixiy rivojlanishini.

V. A. Slastenin chet tili o'qituvchisining pedagoglarning kasbiy kompetentsiyasining asosiy qismlarini ajratib ko'rsatadi:

kommunikativ kompetentsiya (chet tilini professional yo'naltirilgan bilish);

lingvistik kompetentsiya (egalikni nazarda tutadi, jamiyat sifatida til haqidagi asosiy nazariy qoidalarni bilish hodisa, uning fikrlash, xalq madaniyati bilan aloqasi, kelib chiqishi va tilni rivojlantirish);

lingvistik va mintaqaviy vakolatlar (mamlakat madaniyati to'g'risida bilim o'rganilayotgan til, uning tarixi va zamonaviy rivojlanish muammolari, shuningdek hayot, hayot, o'yinlar, mashhur kitoblar, qo'shiqlar, filmlar va mahurat ta'lim mazmunini tanlashda ushbu bilimlardan foydalaning);

linguometodik kompetentsiya (yoshni bilish, talabalarning rivojlanish xususiyatlari, ularning jismoniy va aqliy rivojlanish). G. A. Kitaygorodskayaning fikricha chet tili o'qituvchisining kasbiy malakasi: uslubiy vakolat; psixologik va pedagogik kompetentsiya; ijtimoiy-psixologik kompetentsiya; til-ijtimoiy-madaniy kompetentsiya; pedagogik mahorat; professional aks ettirish; kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Shuni xulosa qilish mumkin, "professionallik" tushunchasi o'z ichiga nafaqat pedagoglar kompetentsiyasining tarkibiy qismlari professionallik, kommunikativlikni balki shaxsiy o'qituvchining salohiyati, uning kasbiy qadriyatlar tizimi, uning e'tiqodlari, munosabati, yaxlitligi, sifatli ta'lim berishi kabi sifatlarni ham oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кузьмина, Н.В. Педагогическое мастерство учителя как фактор развития способностей учителя/ Н.В. Кузьмина// Вопросы психологии. – 1984. - №1. – С. 20-26
2. Зеер Э.Ф. Профессиональное становление личности инженера-педагога / Э.Ф. Зеер. – Свердловск: Издательство УрГУ, 1988. – 120 с.
3. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраева А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015. – 120 бет
4. Утаев М.М. О профессиональной направленности обучения иностранному языку // Вестник педагогического университета (серия общественных и филологических наук). Душанбе, 2012, № 4(47). С.163-166. (на тадж. языке).

### INTERFERENCE OF THE MOTHER TONGUE IN THE ACQUISITION OF A FOREIGN LANGUAGE AMONG YOUNG DESIGNERS

*Djuraeva Nilufar Bakhtiyarovna  
Senior teacher of the “Uzbek and foreign languages” department  
Tashkent Institute of textile and light industry  
Yuldashalieva Hilola student of 1a-21group*

**Abstract.** The article deals with the issue of learning a foreign language, including the controversial issue of transference or interference, when the speaker or writer cannot convey ideas or structures that take place between two languages.

**Key words:** communicative approach, learner, mother tongue, phonetics, grammar competence, method of teaching.

The communicative approach is the foundation of current language instruction. Utilizing the same language, which is the English language, emphasizes the teaching of English. For the majority of learners, the idea of dropping the native tongue is

challenging. In that case, the student finds it challenging to study a foreign language independently of their mother tongue. While some teachers may lecture in the target language using their native tongue, the majority of instructors employ translation as professional competence. When using their mother tongue, non-native instructors find it simple to teach the target language, although native teachers of second languages may forget to do so. They discover that it is not the proper method of teaching the intended language.

As every student is aware, learning a new language is significantly hampered by our mother tongue (and any other languages we know to any considerable degree). The simple explanation is that our brains form new theories about how a new language functions using habitual patterns we are familiar with from our mother tongue. All that it affects, including phonetics, grammar, and semantics, reflects it.

Depending on how close your native language is to the language you're trying to learn, this interference can have both beneficial and bad effects. For instance, the grammar of fusional languages operates very differently from that of analytic languages (such as English). It is challenging to shake the mother tongue's impact. Due to the mother language effect, young designers also experience an inferiority complex. Non-native speakers can't communicate effectively and efficiently. Learners of second languages have a propensity to transmit everything from their native tongue to the second language. The students solely converse in their mother tongue and translate the target language into it. Due to a lack of experience in their second language, some learners struggle to talk in the target language. During school hours, pupils may only speak to one another in their native tongue. This could make it difficult to learn the target language. The infant begins to learn things by listening to the parents speak in the language that they use from the moment of birth. Learning is difficult because of the new language's sound structure. As children learn the parent language, imitation plays a significant part in language learning. The second language was once taught using the grammar-translation approach. The pupils learn grammatical principles effectively with this technique, but they are unable to communicate successfully in the target language. With this approach, the teacher translates each phrase into the student's native tongue, resulting in a lack of proficiency

in the second language. This allows for a restricted usage of the first language in the classroom. Pronunciation is the area of language learning that causes the most dispute. It has a significant role in learning second languages as well. The pronunciation used by the students is incorrect. To grow better at the target language in this situation, individuals can listen to the native speaker. The particular sound's articulation is not prioritized during teaching. In Indian classes, the instructor may not emphasize the language's accent. The language contains a huge variety of dialects. It is challenging to rehearse the entire speech pattern in a classroom setting. In Indian schools, the assignment is difficult. It is impossible to deny that pronunciation is given priority in communication together with grammar and vocabulary. Only the mother tongue's impact can explain why all of this occurs. The inaccurate pronunciation is a result of the parent language's impact. The segmental phonology of English presents certain challenges for speakers of second languages. Between English and Uzbek languages, there are significant variations in how stress and intonation are used. The tendency to think in one's native tongue is another issue that language learners encounter. This issue affects a lot of learners. Mother tongue impact also results from mother tongue thinking. To solve the majority of the issues, the young designer must think in the target language. Only when terms from the mother tongue are rarely used in the second language are their issues. Case-endings are used by non-native speakers to convey the meanings that prepositions in the majority of European languages convey. It might be challenging for non-native English speakers to use prepositions. Non-native speakers have difficulty not just learning a language but also recognizing it. When teaching or studying a language, the mother tongue plays a part. The second language's development might also involve the mother tongue. It has both beneficial and detrimental impacts on learning a second language. The learner's identity is related to speaking in their native tongue. The mother tongue has an impact on common knowledge language disparities could result in a negative transfer. The student of English is dominated by the regional language. At home and in their surroundings, they prefer to speak their mother tongue. They fail to communicate in the English language. To learn a language, they must practice using the intended language. There are few differences between the patterns of the mother tongue and the second language. It is not always

possible to compare the sentence structure, articles, and prepositions with those of other languages. They cannot attempt to use the target language to impress their native speech. This creates obstacles to language acquisition.

### **Conclusion**

A rising language is English. Nobody can ever claim to be an English language master. Everyone is a learner. The main distinction is that they are assigned to various learning levels. To remove the impact of their mother tongue, young designers must practice a lot. It is important to avoid relying too much on one's native tongue when learning another language, such as English. The students can individually design reading comprehension tasks, back-translation, and summary writing assignments that assist them in understanding how the linguistic evolution of English differs from that of their home tongue.

### **Used literature**

- 1.H. D. Brown, Principles of Language Learning and Teaching (4thed. Longman: San Francisco State University, 2000.
- 2N.Juraeva, F.Razikova, D.Shahobuddinova “The Importance Of Information And Communication Technologies In Learning Foreign Languages At The Textile Institute “. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed .Journal. Volume: 6 Issue: 12. December 2020.
3. L.Usmanova , N.Djuraeva, D.Saidvalieva, H. Bakirova «The Role Of Terms Of Specialty In Professionally Oriented Education». Journal of Hunan University (Nat.ural Sciences) Vol. 48. No. 11. November 2021.
4. N.B. Djuraeva. N.Abdanbekova.”Criteria for Forming Scientific Thinking of Uzbekistan Youth” International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences| e-ISSN: 2792-3983 | [www.openaccessjournals.eu](http://www.openaccessjournals.eu) | Volume: 1 Issue: 3

## ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТРАНАХ СЕВЕРНОЙ АФРИКИ (НА ПРИМЕРЕ ЕГИПТА)

*Ёзиева Шахрибону Гайратуллаевна*  
*Магистрант 2-курса Ташкентского Государственного*  
*Университета Востоковедения*

Образование – величайшее из земных благ, если оно наивысшего качества.

В противном случае оно совершенно бесполезно.

*Р. Киплинг*

Арабские страны, их становление как государство, развитие, формирование имеет очень глубокую и древнюю историю. В сегодняшнее время уделяется очень огромный интерес арабским странам. Области политики, экономики, туризма, образования с большим интересом изучаются со сторон политологов, ученых, аналитиков. Одним из наиболее исследуемых сфер арабских стран также является образование. Большинство из арабских стран на сегодняшний момент уделяют особое внимание развитию системы образования. Непосредственно создаются достойные условия для развития высшего образования, так как получение высшего образования очень важно для каждого человека, который хотел бы иметь свое место в обществе.

Когда речь идет о высшем образовании, то необходимо отметить, что в арабских странах высшее образование имеет глубокие и старинные научные корни. Например, из истории нам известно, что в самом арабском халифате очень высоко ценилось образование и наука. Развивались разные научные центры, действовавшие на основе греческой науки и культуры. Важный факт в том, что многие древние научные труды европейские страны получили лишь в арабских странах. Это свидетельствует о том, что роль переводчиков в арабской науке и ее развитие очень огромная.

В сегодняшнее время многие арабские страны в области образования ведут сотрудничество со странами Евросоюза и США. Высшее образование арабских



стран в настоящее время находится под сильным влиянием систем образования Франции и США. За последние годы особенно развивается взаимный обмен в сфере образования арабских стран с европейскими странами.

Когда речь идет о сфере образования, то важно отметить отдельно про Египет. Как нам известно, первые очаги мировой цивилизации зародились именно в Египте. Египет имеет одну из самых древних и наиболее самобытных систем образования в арабском мире. Отмечая про сферу образования, прежде необходимо остановиться на ряде исторических фактов в развитии науки и образования, которые не могли не повлиять на систему высшего образования. Так еще в VII веке в арабском халифате, в который помимо других территорий входили Иран, Сирия, Египет, развивались научные центры, действовавшие на принципах античной науки и философии Греции. Одним из самых известных именно была Александрийская школа в Египте. Как отмечается в научных источниках, в то время халифы очень хорошо осознавали какое глубокое значение имели античные науки и всячески поощряли перевод на арабский язык важнейших сочинений греческих авторов. Огромное число переводчиков, среди которых было много ассирийцев, осуществляли переводы с греческого языка на ассирийский, с ассирийского на арабский или непосредственно с греческого на арабский.

Образование в халифате развивалось под влиянием ислама. В средние века в арабском мире существовали две категории знаний: «арабская» (связанная с исламом) и «иноземная». Арабские науки были в основном гуманитарные: грамматика, лексикография, риторика и т.д. Иноземные науки включали географию, историю, медицину, астрономию, военное дело, математику и т.д.

В XII веке во всей Западной Европе были только два университета (в Салерно и Болонье), а в одной только мусульманской Испании действовало 70 библиотек и 17 высших учебных заведений.

Современное образование было введено под покровительством Османского паши Мухаммеда Али, правившего в 1805-1848 гг. В то время он начал двойную систему образования: одна служила проповедью в традиционных школах, а другая называлась медресе для элитных государственных служащих.

Под британским контролем в 1882-1920 годах возможности получения образования были значительно сокращены. В Египте британский правитель лорд Кромер сократил бюджет на образование, закрыл многие специализированные высшие учебные заведения и переориентировал учебную программу на профессиональные темы. Была введена плата за обучение, что снизило доступность для большинства египтян.

В число высших учебных заведений Египта относятся университеты, специализированные институты, колледжи, технические школы, которые дают специальное образование на уровне профессиональных тех училищ. Высшее образование в Египте длится от 2 до 7 лет. Специализированные учебные заведения готовят специалистов по различным профессиям в течении двух-трех лет, выдают диплом соответствующий специальности и присваивают квалификацию.

Министерство высшего образования контролирует высшее образование. Есть ряд университетов, обслуживающих студентов в различных областях. В действующей системе образования 17 государственных университетов, 16 частных университетов и 89 частных высших учебных заведений. Также в системе образования действует 51 государственное неуниверситетское учреждение: из них 47 являются двухгодичными средними техническими институтами, а четыре – 4-5 летними высшими техническими институтами.

Высшее образование в Египте управляется централизованной системой с учреждениями, имеющими небольшой контроль над решениями по учебной программе, разработкой программ и размещением сотрудников и преподавателей. Число студентов, поступающих в высшие учебные заведения,росло на 18% в год в период с 1992-1993 по 1997-1998 года. В высшие учебные заведения принимают лиц, имеющих дипломы полного среднего образования с оценками по профильным предметам не менее 75-90% от максимальной. Большинство мест являются бюджетными, но также есть и места платные, для тех, кто не добрал баллов. Как было выше отмечено, помимо государственных университетов в Египте существуют четыре частных с платным образованием. Среди них особо можно отметить Американский университет в Каире. Для иностранцев в Египте действует

лишь несколько платных факультетов, где учеба стоит несколько тысяч долларов в год. Вместе с тем Египте, наряду с Марокко, Мавританией, Суданом, Йеменом, Ираком, по оценкам ЮНЕСКО, входит в список 34 стран, где уровень неграмотности более 10 млн. человек.

Вместе с тем в системе высшего образования существует ряд проблем, которые непосредственно влияют на развитие. Одной из главных проблем высшего образования в Египте является спад его качества в некоторых аспектах, отставание от европейского образования, особенно в технических областях. Причиной тому является недостаточное финансирование и крайне нестабильная обстановка в регионе. Даже количество студентов, окончивших бакалавриат и продолжающих свое образование в магистратурах сравнительно невелико. Большинство из них либо сразу ищет работу, либо пытается поступить в магистратуру на Западе, так как с западным дипломом легче найти престижную работу. Так, если обращать внимание статистике, то в 2000 году за рубежом обучалось 6,4% всех арабских студентов, из них 13% магистров и 35% докторантов. В Египте в технический институт или университет можно попасть представив диплом о полном профессиональном образовании и после успешной сдачи вступительных экзаменов.

Кроме того еще существует ряд проблем в системе высшего образования, которые препятствуют развитию системы высшего образования в Египте. Хотя был достигнут значительный прогресс в увеличении человеческого капитала за счет улучшенной системы образования, однако качество образования остается низким и неравномерно распределенным. Из-за отсутствия достаточно качественного образования на базовом и среднем уровнях, спрос к частным репетиторским услугам все увеличивается. Теперь частные уроки стали больше обязанностью. Согласно Отчету о человеческом развитии Египта (2005 год), 58% опрошенных семей заявили, что их дети берут частные уроки. Кроме того, расходы на частное репетиторство в одной самой богатой семье более чем в семь раз превышает расходы самого бедного. Это тоже приводит к возникновению ряд проблем в развитии систем высшего образования, так как большинство студентов считаются

выходцами богатых семей, а бедные семьи постоянное частное репетиторство позволить себе не могут. Тем самым бедный слой населения так и остается без высшего образования. И увеличивается расслоение среди населения.

Среди существующих проблем также необходимо отметить, что Египет испытывает нехватку квалификационной и полуквалификационной рабочей силы. Даже при наличии высококвалифицированных рабочих, качество их подготовки требует лучшего. Низкие зарплаты, предлагаемые системой государственного образования в Египте привлекают низкоквалифицированных сотрудников, а квалифицированные рабочие предпочитают работать в западных странах. Из-за низкого качества преподавания педагогов в Египте у них отсутствует базовая психологическая подготовка, которая позволила бы им вести достойный диалог или контакт со студентами. Также среди проблем в системе высшего образования необходимо отметить про гендерное неравенство. Проблема гендерного неравенства существует не только в системе образования и не только в Египте, а во многих других арабских стран. Несмотря на большое число зачисленных женщин в высшие учебные заведения Египта, а также многих арабских женщин, обучающихся в Европе и США, патриархальные ограничения помешали многим женщинам получить высокий уровень образования в социальной и политической власти. В некоторых источниках отмечается, хотя проблема гендерное неравенство в сфере высшего образования в последние десятилетия изменилась в лучшую сторону.

В заключении надо отметить, что несмотря на существующие проблемы в стране, высшее образование в Египте постепенно и поэтапно переходит на новый уровень, стараясь при этом преодолевать существующие проблемы в системе высшего образования.

## КАСБ ТАНЛАШ МОТИВЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ

*Каримова Дилноза Мансуровна*

*Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз шаҳар 20-сонли мактаб психологи*

Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини рўёбга чиқариш ҳар томонлама камол топган, жамиятда турмушга мослашган, таълим ва касб-ҳунар дастурларини онгли равишда танлаш ҳамда кейинчалик пухта ўзлаштиришга қодир, давлат ва оила олдида ўз жавобгарлигини ҳис этадиган фуқароларни тарбиялашни назарда тутди[1. 6].

Инсоннинг касбий шаклланиши ва мутахассис сифатида камолга етишини унинг ҳаёт йўлидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Психологик адабиётларда таъкидлаб ўтилганидек, кишининг касбий шаклланиши бутун ҳаёти давомида кечадиган жараён бўлиб унинг ёшига ҳамда шахсининг тараққиётига мос ҳолда боради. Касбий фаолият соҳасидаги муваффақият ва мутахассиснинг маҳорат даражасига эришиш суръати унинг касб танлаш мотивлари билан ўзаро алоқадордир.

Касб танлаш ўспиринлар учун муҳим муаммолардан биридир. Танлов доираси қанчалик кенг бўлса, у шунчалик психологик жихатдан мураккаблашиб боради. Шахснинг субъектив мойилликлари ва у ёки бу фаолиятга қобилиятлилиги бир бутунликни ташкил этади. Қизиқиш ва мойиллик фаолият жараёнида шаклланади ва ўзгариб боради. Бироқ ўспиринларда яққол ифодаланган, барқарор ва фаол мойиллик ҳар доим ҳам кузатилмайди. Касб танлаш арафасида турган ўспиринларнинг мазкур соҳага қанчалик мос, мойилэканлиги фақатгина фаолият кузатув, назарий, тажриба жараёнидагина аниқланади.

Касб танлаш мотивларнинг шаклланишига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар жуда кўп бўлиб, улар бир-бири билан ўзаро мутаносибликка эга. Ўспириннинг касб танлашига таъсир этиш кучига кўра асосий ўринни дўстлари ва ўртоқлари билан бир-бирини тушуниш муносабатлари ташкил этади. Иккинчи ўринни тез таъсир этувчи оммавий ахборот воситалари- китоблар, газета, журнал,

кинофильм, телекўрсатувлар, айниқса, интернет эгаллайди. Учинчи ўринда педагогик жамоа, синф раҳбари, фан ўқитувчилари, таълим муассасаси директори ва ўринбосарлари, маҳалладошлари туради. Тўртинчи ўринга оиладаги бевосита маънавий-маърифий муҳитни қўйиш мумкин. Бешинчи ўринни ўқув фанларини ўзлаштириш жараёни эгаллайди. Яъни, ўспирин қанчалик юқори даражада ўзлаштиради ўқув фанлари унинг касб танлашига ижобий таъсир кўрсатиб ўз самарасини беради. Кейинги навбатда дарсдан ташқари тарбиявий ишлар, ижтимоий-фойдали ва ишлаб чиқариш меҳнатини кўрсатиш мумкин.

Ўспиринларда бирор ўқув фанига иштиёқ натижасида уларда ҳар хил касбларга қизиқиш пайдо бўлгач, танланган касбни ўзлаштириш билан боғлиқ фанга қизиқиш тобора ортиб бораверади. Натижада фан тўғарак машғулотларига ва факультатив курсларга қатнашишиштиёқи вужудга келади.

Ўспирин бу имкониятдан унумли фойдаланиши мақсадга мувофиқ, деб таъкидламоқчимиз. Касб танлаш ўспиринда касблар олами ва уларнинг инсонга ҳамда унинг хусусиятларига қўйиладиган талаблар ҳақида тасаввурлар бўлишини тақозо этади. Баъзан уларнинг ҳар иккиси ҳам ўспиринларда етишмаслиги мумкин.

Ўспиринларда касблар ҳақида яққол тасаввур бўлмаслиги сабабли, улар кўпроқ хатога йўл қўядилар. Танланган ёки танланиши зарур бўлган касб қандай шахсий фазилатларни талаб қилишини тушуниб етмайдилар. Ўз қобилиятларини оқилона баҳолай олмасликлари туфайли у ёки бу касбни эгаллаш учун қанчалик тез ва аниқ ҳаракат қила олишларини, бу ишга мослаша олишлари мумкинлигини билмайдилар. Бироқ ҳозир мазкур кўнгилсиз ҳолатларнинг олдини олиш ва бартараф этиш имкониятлари мавжуд. Булар: касбларни ўрганиш усулларини ишлаб чиқиш, уларни тавсифлаш ва аниқ қилиб ифодалаш; ўқитувчининг касблар бўйича батафсил тарғибот ишлари олиб бориши, касблар юзасидан маслаҳатлар бериш, ўспирин ва унинг ота-онаси билан бирга касбга йўналтириш тадбирларини кўриб чиқиши; ўспиринларни касбнинг асосий турлари билан таништириш; психодиагностик ва касб танлаш усулларининг амалиётга татбиқ қилишга мослаштирилган турларини ишлаб чиқиш; жойларда замон талабига мос касб танлаш хоналарини ташкил этиш; касб танлаш тарғиботи юзасидан ўспиринларни

оммавий ахборот воситаларига жалб қилиш ва психологик жиҳатдан тайёрлашдан иборат таълим концепциясининг асосий йўналишларидан биридир.

Ўспиринларнинг қизиқиши, майли, интилиши, қобиляти, истеъдодлари асосида танлаган касбларига тўғри йўналтириш улар учун катта ҳаётий масаладир. Касб танлаш жараёнида ўспиринларга ўқитувчилар, ота-оналар, жамоатчилик, ўз касбининг усталари, мураббийлар алоҳида эътибор беришлари, тўғри йўл-йўрик кўрсатишлари керак. Зеро, бу амалий фаолият фуқаролик жамияти ривожланишига хизмат қилади.

Психология фанида касбий шаклланиш жараёнини даврлаштиришнинг бир неча вариантлари ишлаб чиқилган. Бу борада рус олими Т.В.Кудрявцев шахсининг касбга муносабати ва фаолиятни бажариш даражаси мезонига кўра касбий шаклланишнинг қуйидаги босқичларини ажратиб кўрсатган:

- 1) касбий мойилликнинг пайдо бўлиши ва шаклланиши;
- 2) касбий таълим ва касбий фаолиятга тайёргарлик кўриш;
- 3) касбий фаолиятга киришиш, жамоада ўз ўрнини топишга фаол интилиш;
- 4) касбий меҳнатда шахсининг ўзини тўлиқ намоён этиши [2. 16].

Мазкур таснифда келтирилган ҳар бир босқичда касб танлашга ундаган мотивларнинг кучи ва сифати муҳим аҳамиятга эгалиги кўрсатиб ўтилган. Рус олими Е.А.Климов эса инсонни меҳнат субъекти сифатида талқин этиб касбий йўналган даврлаштиришни қуйидагича асослаб берган:

- 1) ўйиндан олдинги босқич (4 ёшгача бўлган давр) – кишининг кейинги ривожланиши ва меҳнатга киришуви учун асос бўлган идрок қилиш вазифаларини ўзлаштириш;
- 2) ўйин босқичи (5-8 ёш) – инсон фаолиятининг “асосий мазмуни”ни ўзлаштириш;
- 3) ўқув фаолиятини ўзлаштириш босқичи (8-12 ёш) – фаолиятни режалаштириш, ўзини-ўзи назорат ва таҳлил қилиш;
- 4) оптация босқичи (12-17 ёш) – касб-хунар таълими муассасаларида касб танлаш даври;



5) адепт босқичи (17-20 ёш) –танланган ихтисослик бўйича касбий тайёргарлик;

6) адаптант босқичи (20-23 ёш) –касбнинг ичига кириш ва унга кўникиш;

7) интернал босқич(23-26 ёш) –касбий тажриба тўплаш;

8) касбий маҳорат босқичи–меҳнат фаолиятини малакали бажариш;

9) обрў-эътибор босқичи – мутахассис томонидан юқори малакани ўзлаштириш;

10) устозлик босқичи –мутахассис томонидан касбий тажрибани шогирдларга бериш, ўз мактабини яратиш [3. 38].

Шахсда касбий ўзлигини англаш шаклланишини касбий маҳоратнинг вужудга келишидаги асосий мезонлардан бири сифатида ҳам бир нечта босқичларни ажратиш мумкин:

1.Касблар олами ҳақидаги аниқ–кўргазмали тасаввурларнинг пайдо бўлиш даври.

Бу давр 2,5-3 ёшдан бошланиб 10-12 ёшгача бўлган даврни ўз ичига олади. Тараққиёт давомида боланинг онгида касблар олами ҳақидаги турли-туман тасаввурлар шаклланиб боради. Бошланғич таълимда эса етакчи ўқув-билув фаолиятида ўқувчининг касблар ҳақидаги тасаввури ва тафаккури янада кенгайиб боради.

2.Ўзини касбий билиш даври.

Кўплаб касблар ҳақидаги тасаввурларни ўзлаштириб олгач, ўқувчи уларни у ёки бу шаклда қўллай олиши керак. Касблар ҳақида етарли билим, кўникма ва тайёргарликка эга бўлмаганлари сабабли баъзи ўқувчилар ўзларини бирор касбий соҳада намоён эта олмайдилар. Бироқ уларда янги етакчи фаолият–тенгдошлари билан мулоқот жараёнида ўзинибилишга бўлган эҳтиёж янада кучли намоён бўлади. Айнанмана шу эҳтиёж ўзини касбий соҳада ҳам аниқлашига таъсир кўрсатади.

3. Ўзини касбий аниқлаш даври.

Ушбу босқичда касбий ўзликни англаш якунланади. Бу давр мактабни тугатгандан кейин ҳам давом этиши мумкин. Ўқувчида касбни ўрганишнинг аниқ

йўналиши, барқарор қизиқишлар, касбнинг талабларига мос бўлган шахс хусусиятларининг шаклланиши кузатилади.[4. 65].

Касбий шаклланиш жараёнининг дастлабки ва айти дама ўта муҳим босқичи бўлажак касбни танлаш, яъни аниқ бир касбий қарорга келишигача бўлган даврни ўз ичига олади. Ёшларнинг касб танлашга тайёргарлик даражаси фақатгина ёш хусусиятига боғлиқ эмас, у маълум ёшга келиб ўз-ўзидан шаклланиб қолмайди.

Ўқувчи-ёшларни касб-хунарга йўналтириш – уларни шахсий мойиллик, лаёқат, қизиқишлари асосида ҳамда жамият талабларига мос ҳолда онгли касб танлашга тайёрлаш бўйича мақсадга йўналтирилган илмий-амалий фаолиятдир.

Шахснинг касбий шаклланишида ижтимоий вазиятлар, маънавий муҳит ва етакчи фаолият муҳим омил ҳисобланади. Касбий таълим оила ва таълим муассасаларида амалга ошириладиган касб танлангунга қадар давом этган таълим-тарбия негизида, яъни касб танлашга психологик тайёрлаш ҳамда меҳнат фаолиятига руҳан тайёргарликка кўмаклашадиган амалий восита, омил сифатида давом эттирилгач, у албатта ижобий натижа беради, деб таъкидламоқчимиз.

### **Адабиётлар**

- 1.Кудрявцев Т.В. Психология профессионального обучения и воспитания.- М.,1997.
- 2.Климов Е. А. Психология профессионального обучения и воспитания. - М., Просвещение, 1990.

## O'SMIRLIK DAVRIDA STRESSNING KECHISHI PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Ne'matullayeva Fayoza*  
*Termiz davlat universiteti Amaliy psixologiya yo'nalishi talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Sattorova M.D*

### **Annotatsiya:**

Hozirgi vaqtga kelib, eng dolzarb muammolardan bu o'smirlik davrida stressning kechishidir. Hayotimizning kundan kunga shiddatli kechishi, ijtimoiy muammolarning kun sayin zidlashuvi natijasida o'smirlarda ham stressli vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli ushbu maqolada o'smirlik davridagi o'ziga xos psixik zo'riqishlar asosida stress holatlarining yuzaga kelishi va uni bartaraf etish yo'llari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Hissiy zo'riqish, affekt, qo'rquv, o'zini ayblash, shubhalanuvchanlik

O'smirlik – bu inson hayotidagi qiyin va ayni paytda muhim bosqich. Bolalik tugaydi, bola teng huquqli ishtirokchi sifatida kattalikka kirishga tayyorlanmoqda.

Shubhasiz, o'smir hali jismonan yoki psixologik jihatdan haqiqiy balog'atga yetmagan, ammo shunga qaramay kattalar bilan teng huquqli bo'lishga intiladi. O'smirlik - bolalik va erta o'smirlik davri o'rtasidagi ontogenez bosqichi. U 10-11 yoshdan 13-14 yoshgacha bo'lgan davrni (V-VIII sinflar) qamrab oladi. O'smirlikning boshlanishi bir qator o'ziga xos xususiyatlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, ularning eng muhimi tengdoshlar bilan muloqot qilish istagi va xatti-harakatlarda o'z mustaqilligini, mustaqilligini va shaxsiy avtonomiyasini tasdiqlash istagini ko'rsatadigan belgilarning paydo bo'lishidir. Psixolog S. Xoll bu davrni “bo'ron va hujumlar davri” deb atagan, shaxsiy rivojlanishda ko'plab o'zgarishlar kuzatiladi va shaxsiy beqarorlikni asosiy xususiyat deb hisoblash mumkin.

Yolg'iz qolish, maqsadga erisha olmaslik, o'zi o'ylagan ishlarini eplay olmaslik kabi hissiy jarayonlar barchada ham yuz berishi mumkin. Bu kabi jarayonlarda insonlarda

ichki qo'rquv, stress, depressiya kabi holatlar yuzaga kela boshlaydi. <sup>25</sup>Biz bilamizki, stress hozirgi vaqtda juda ko'plab insonlarga xavf solayotgan jarayondir. Ushbu holatlar ayniqsa, yosh davrlariga solishtirib qaraydigan bo'lsak o'smirlik davrida ko'p uchraydi. Chunki, bu davr o'z nomi bilan krizisli davr, o'tish davri deyilishi ham bejiz emas. Shu o'rinda stress haqida qisqacha izoh berib o'tsak:

Stress — inson organizmining haddan tashqari zo'riqish, salbiy emotsiyalar yoki oddiygina zerikishga bo'lgan javob reaksiyasidir. Stress chog'ida inson organizmi yechim izlashga undaydigan adrenalin gormoni ishlab chiqaradi. Kichik miqdordagi stress hamma uchun kerak, chunki bu kishini fikrlashga, muammodan chiqish yo'lini topishga undaydi, stressiz hayot zerikarli bo'lar edi. Boshqa tomondan, o'smir shaxsida agar stress juda ko'p bo'lsa, tana zaiflashadi, kuchsizlanadi va muammolarni hal qilish qobiliyatini yo'qotadi. Ushbu muammoga bir qancha ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan. Stressning paydo bo'lish mexanizmlari batafsil o'rganilib chiqilgan va juda murakkabdir: ular bizning gormonal, asab va qon tomir tizimlarimiz bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, og'ir stresslar o'smirlarning nafaqat ruhiyatiga, balki sog'ligiga ham ta'sir qiladi. Stress immunitetni pasaytiradi va ko'plab kasalliklarga sabab bo'ladi (yurak-qon tomir, oshqozon-ichak va boshqalar). Shuning uchun o'smirlik davrida stressli vaziyatga qarshi tura olish va hayotga ijobiy qaray olishni o'rganishga to'g'ri keladi. <sup>26</sup>

Bizga ma'lumki, psixologik holatlardan biri bu hissiy zo'riqishdir. Hissiy zo'riqishlar inson psixikasining turli jabhalarini qamrab olishi mumkin. Bu, eng avvalo, umumiy hissiy fonda namoyon bo'ladi, ya'ni o'smir g'amgin, ma'yus, pessimist bo'lib qoladi. Uzoq muddat davom etgan stress ta'sirida o'smir normal holatdagiga nisbatan behalovat, muvaffaqiyatga nisbatan ishonchi sust bo'lib qoladi. Bunday kayfiyat fonida stressni his qilayotgan kishida kuchli hissiy portlash kuzatiladi. Mazkur portlashlar — ta'sirlanuvchanlik, nafrat, tajovuz, affekt shaklida bo'lishi mumkin. Uzoq davom etadigan yoki tez-tez takrorlanib turadigan hissiy zo'riqishlar o'smir xarakterini

<sup>25</sup> .E.G'oziyev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): - T.: "O'qituvchi", 1994. -224 b.

<sup>26</sup> Xaydarov.F.I.,Xalilova.N.I. Umumiy psixologiya.T.:Toshkent-2010

o'zgartirib yuborishi, hatto yangi xarakter sifatlarini vujudga keltirishi ham mumkin. Bu sifatlar – introversiya, o'z-o'zini ayblash, o'ziga bo'lgan bahoning pasayishi, shubhalanuvchanlik, tajovuzkorlik va boshqalar. Qo'rquv, xavotirlik, pessimizm, negativizm, yuqori darajadagi tajovuzkorlik kabi salbiy hissiy holatlar bir vaqtning o'zida ham stressning oqibati, ham stressning vujudga kelishi uchun imkoniyat yaratishi mumkin. O'quv faoliyati stresslari, imtihon bilan bog'liq stresslar, umumta'lim maktabi o'quvchilari, ayniqsa, psixik zo'riqishlari ichida yuqori o'rinda turadi. <sup>27</sup>Ko'p hollarda imtihon ruhiy zarba beruvchi omil sifatida nevroz kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omil sifatida e'tirof etiladi. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, imtihon stressi o'smirlarning asab tizimi, yurak-qon aylanish tizimi va immun tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday salbiy holatlar o'smir yoshidagi bolaning bilish jarayonlari hamda individual xususiyatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Natijada o'smir yoshidagi bolalar mehnati mahsulining natijadorligi pasayib, stressli holatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

#### **O'smirlarda stress alomatlari:**

-Amaliy nuqtai nazardan stress nima? Buni tushunish uchun stressing asosiy alomatlarini ko'rib chiqamiz:

-Doimiy bezovtalik, tushkun holatda yurish, ba'zida bu holatlar hech qanday sabablarsiz yuzaga keladi.

-Yomon, notinch uyqu.

-Depressiya, jismoniy zaiflik, bosh og'rig'i, charchoq, biron narsa qilish yoqmasligi.

-O'smirlarda diqqatning kamayishi, bu o'qish yoki ishlashni qiyinlashtiradi. Xotiradagi muammolar va fikrlash jarayonining sekinlashishi.

-Dam olish, ish va muammolarni bir chetga surib qo'ya olmaslik.

-Boshqalarga, hatto eng yaxshi do'stlarga, oila va yaqin kishilarga qiziqishning yo'qligi.

---

<sup>27</sup> Китаев-Смык Л.А. «Психология стресса». М. 1983. – С. 243

-Doimiy paydo bo'ladigan yig'lash, ko'z yosh to'kish, xafagarchilik, umidsizlik, o'z-o'ziga achinish hissi.

-Ishtahaning pasayishi — ba'zida esa aksincha: oziq-ovqatni ortiqcha yeb yuborish.

-Ko'pincha asabiy odatlar rivojlanadi: o'smir kishi labini tishlaydi, tirnoqlarini tishlaydi va hokazo.

-Oqibatlarini baholang.<sup>28</sup>

Agar boshqalar xatti-harakatini o'zgartirib bo'lmasa, ularga bo'lgan munosabatingizni o'zgartiring. Sizning stressingizga nima sabab bo'layotgani haqida o'ylab ko'ring. Ularni amaliy yechim bilan, vaqt o'tishi bilan yaxshilanadigan va hech narsa qila olmaydigan narsalarga ajrating. Yaxshilash mumkin bo'lgan narsalarga kichik qadamlar qo'yish orqali nazoratni o'z qo'lingizga oling. Mumkin bo'lgan narsalarni hal qilish uchun reja tuzing. Bu o'zingizga real umidlarni belgilash va muhim majburiyatlarni birinchi o'ringa qo'yishni o'z ichiga olishi mumkin. Agar o'zingizni haddan tashqari ko'p his qilsangiz, yordam so'rang va o'z zimmangizga olmaydigan narsalarga yo'q deb ayting. Kognitiv xulq-atvor terapiyasi (CBT) stressli vaziyatlar haqida fikringizni o'zgartirish orqali stressni kamaytirishga yordam berishini aniqlagan, qisqacha shaxslararo maslahat, bu sizga stressga nima sabab bo'layotgani haqida gapirish va yengish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'smirlarda qiyinchilik davri bo'lishi bu tabiiy holat. Undan o'tish, o'tishning yo'llarini bilish esa har bir insonning o'ziga bog'liq. O'smirlarga mas'ul bo'lgan o'qituvchilar, psixologlar, ota-onalar o'smirlarni to'g'ri tushunishi, ularni qo'llab-quvvatlashi va stressga tushgan holda ularga zarur choralarni ko'rishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.E.G'oziyev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): - T.: "O'qituvchi", 1994. -224 b.
- 2.Xaydarov.F.I.,Xalilova.N.I. Umumiy psixologiya.T.:Toshkent-2010

---

<sup>28</sup> Roziqova N.A. "Talim jarayonida pedagoglardagi stressga barqarorlikni rivojlantirish".O'quv qollanma.Toshkent ,2021 yil

3. Китаев-Смык Л.А. «Психология стресса». М. 1983. – С. 243

4. Roziqova N.A. "Talim jarayonida pedagoglardagi stressga barqarorlikni rivojlantirish". O'quv qollanma. Toshkent, 2021 yil

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI KASB - HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

*Mirxonova Dilfuza Fayziyevna  
Buxoro viloyati Romitan tuman 13-maktab psixologi*

Mukammal egallanmagan kasb o'z egasiga mukammal imkoniyatlar eshigini to'la qonli ochib berolmaydi. Qachonki inson kasbga mehr qo'ysagina kasb ham unga mehr ila javob qaytaradi. Ya'ni, kasbdoshlar, millat, kerak bo'lsa jahon miqyosida ham munosib o'rin topishda to'g'ri tanlangan mutahassislikning o'rni beqiyos. Bo'lg'usi mutahassislarni kasbiy tayyorlash, kasb-hunar oldiga qo'yiladigan talablarga mutanosib insonlar qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonning issiq iqlim sharoitining biologik-tibbiy jihatlari birmuncha o'rganilganligiga qaramay, ularning mehanizmlari, qishloq aholisining jismoniy rivojlanishi, mehnatkashlarning issiq sharoitlarga moslashishlari, mehnatni tashkil qilishning oqilona yo'llari, mehnat unumdorligini oshirishning samarali usullari, ekologiya o'zgarishiga o'xshash muammolarni o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan.

O'quvchilarni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashiga va ta'lim muassasalariga (kollej, kasb-hunar maktabi, texnikum, oiliy o'quv yurti) o'qishga yo'naltirishga tayyorlash bugungi kunda asosiy vazifalardan biridir. O'quvchilarga turli kasblar, mutaxassisliklar, ixtisosliklar haqida ma'lumot berish, ta'lim turlari va tanlangan kasb hamda mutaxassislikni qaysi o'quv yurtida olish mumkin, bundan tashqari kasblarni



insonning jismoniy ruxiy va shaxsiy sifatlariga talabini xisobga olgan holda tanlashga yordam berish lozimdir. Umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda kasbiy tushunchalar berish, kasb hunarga yo'llash tizimi hamda bosqichlarini tanlab olish muhim ahamiyatga ega. Bunda maktab raxbariyati oldida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini o'rganish, har bir fan o'qituvchisi darslarda o'quvchilarga mavzuga bog'lagan holda kasbiy tushunchalar berib borishi, natijaviy xulosalarga ko'ra kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini tashkil etishi kerak bo'ladi. Bugun har jihatdan omilkor, mas'uliyatli, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyoti nuchun ongli-faol ijtimoiy shaxsni tarbiyalash, uni o'z salohiyatiga mos kasbga yo'naltira olish nafaqat ta'lim tizimining, balki butun bir davlatning ham kelajak taraqqiyotiga daxldor bo'lgan muhim vazifalardan biridir.

Qiziqish va mayllar. Qiziqish deganda odamning u yoki bu fanga qaratilgan faol bilish faoliyati tushuniladi. Kasb tanlashga nisbatan olganda qiziqishlar bu odamning muayyan mehnat sohasiga ijobiy munosabati, uning bilishga va faoliyat ko'rsatishga bo'lgan intilishidir.

Qiziqishlar o'zining mazmuni, ko'lami, uzoq davom etishi va teranligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Qiziqishlarning mazmuni va ko'lami odamning bilim darajasini hamda har narsaga qiziquvchanligini aks ettiradi. Qiziqishlarning teranligi va uzoq vaqt davom etishi ularning barqarorligini ko'rsatadi.

Qiziqishlar o'z taraqqiyoti mobaynida bir nechta bosqichdan o'tadi. Dastlab ular vaqtincha, epizodik xarakterda bo'ladi hamda muayyan bir fanga nisbatan ijobiy munosabatda namoyon bo'ladi. Bunday qiziqishlar rivojlantirib borilmasa, ular tez orada susayib ketadi yoki mutlaqo so'nadi. U yoki bu fanning chuqur va muntazam ravishda o'rganib borilishiga, mehnat faoliyatining qiziqqan sohasiga sinchkovlik bilan kirishib ketilishiga qarab qiziqishlar mustahkamlanib, kuchayib borishi va asta-sekin barqaror qiziqishga aylanib qolishi mumkin. Bunday qiziqishlar ko'pincha o'sib, ulg'aya borib, maylga kishining muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan intilishiga hamda mazkur faoliyat turiga muvofiq keladigan mahorat va malakalarni takomillashtirib, doimiy ravishda o'z bilimini oshirib borish uchun intilishiga aylanadi.

Agar qiziqishlar “bilishni istayman” degan formula bilan ifodalanadigan bo‘lsa, mayllar “bajarishni istayman” degan formula bilan ifodalanadi. Hayvonlar to‘g‘risidagi kitoblarni o‘qishga bo‘lgan qiziqish hayvonot bog‘iga borib turishni yaxshi ko‘rish, “hayvonot olamida” deb ataladigan televizion ko‘rsatuvning birortasini qo‘ymay ko‘rib borish boshqa-yu, haqiqiy jonivorlarni har kuni parvarish qilish natijasida hosil qilinadigan bir olam quvonch boshqadir.

Kasb tanlashga yo‘llash –bu kasb ta‘limi psixologiyasining asosiy muammosi shaxsning kasbga yaroqliligini aniqlash, uni tayyorlash, mehnat faoliyatiga yo‘llash masalalaridir. Kasb tanlashga yo‘naltirish davlatning tadbir-choralari tizimidan iborat bo‘lib, inson tomonidan tanlanadi, o‘z hayot yo‘lining ilmiy asoslanganligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Kasbga yo‘naltirish - bu ta‘lim oluvchi bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik jarayon bo‘lib, u tarkibiga turli xildagi bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi ish usullarini qamrab olish lozim. Zamonaviy psixologiya amaliyotida kasb tanlashga aloqador bo‘lgan qator uslublar mavjud. Bu usullarni yuqori sinf o‘quvchilari uchun o‘quv yili davomida qo‘llab borilishi maqsadga muvofiqdir.

Tanlov bo‘yicha qabul qilish uchun insondan bir qator sifat ,bilim va malakalar talab etiladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin :

- bolaning faolligi va qiziquvchanligi;
- tahlil va sintez qila olish qobiliyati;
- o‘ziga adekvat –munosib baho bera olish;
- tafakkurni moslashuvchanligi va qo‘zg‘aluvchanligi;
- irodaning rivojlanganligi;
- xissiy yetuklik;
- kelajakni ko‘ra olish ;
- tasodifiy omillarga qarshi tura bilish;
- o‘z-o‘zini va tanlov vaziyatini rivojlantira olish ;
- yangi maqsad qo‘ya bilishi va maslahatlarni hal eta olish ;
- Harakatchanlik;

- Olingan yangi habar va ma'lumotlar asosida qabul qilinayotgan qarorni qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish va to'g'rilash;
- Tanlash tamoyili va qoidalarini shakllanganligi.

Shuningdek, kasbiy o'zligini belgilay olish qobiliyati o'z ichiga bir qancha bloklarni qamrab oladi:

1) axborot – ma'lumotli blok dunyodagi mavjud kasblar va mehnat bozoridagi xolatdan habardorlik:

2) motivatsion blok-maqsad va istaklarni aniqlash:

3) hulq-atvor blogi-ijtimoiy va kasbiy tajribani amalga oshirish tajribasini mavjudligi;

4) hissiy barqarorlik blogi;

5) shaxsiy va kasbiy sifatlar blogi.

Shaxsning kasbiy shakllanishi to'rt asosiy bosqichdan iborat:

1.kasbiy intilishlarning shakllanishi; 2.kasbiy ta'lim; 3.kasbiy moslashish  
4.shaxsning kasbiy faoliyatda qisman va to'liq o'zini-o'zi bag'ishlash.

Kasbiy ta'limning muhim vazifalaridan biri kasbiy tayyorgarlik bo'lib, bunda tayyorgarlik ikki xil ko'rinishda amalgam oshiriladi: mustaqil o'rganish va maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim olish orqali. Kasb tanlash qisqa vaqtda xal etiladigan ish bolmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davomiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub'ekting individual xususiyatlarida to'liq kechadi. O'quvchilarni kasb hunarga yonaltirish ishlarini takomillashtirish. Bunda kasb-hunarga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay bilish ko'nikmasiga ya'ni qiziqishiga mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborot yangiliklaridan habardor bo'lishi lozim. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish pedagog hodimlar tomonidan uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha bosqichlarda amalgam oshiriladi. Barcha kasblar o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini baholashga asoslangan shaxsiy intilishlar darajasini aks ettiradi. Qolaversa kasblar tanlovi kasbiy o'zligini anglash subektdan yuksak faollikni talab qiladi. O'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirish tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagi faoliyatlardan iborat:

- a) o'z ichiga kasbiy targ'ibot va tashviqotni olgan kasbiy ma'rifat ya'ni kasbiy axborot;
- b) u yoki bu soha kasbga bo'lgan shaxsqiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy diagnostikasi;
- v) kasb tanlashda mutahassislar tomonidan guruhii individual yordam ko'rsatishga qaratilgan kasbiy konsultatsiya;
- g) ko'proq muvaffaqiyatga erishish mumkin bolgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov
- d) ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalgam oshiriluvchi ijtimoiy kasbiy adaptatsiya;
- e) tanlangan kasbni o'rganish jarayonida burch, ma'suliyat kasbiy or-nomus, oriyat hislarini o'quvchilarda shakllantirishga qaratilgan kasbiy tarbiya;

f) Kasbiy ma'rifat ya'nikasbiy axborot o'quvchilarga kasblar olami kasblarning belgi va hususiyatlari kasb klassifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to'g'risidagi axborotlarni berishdan iborat bo'lib, ular asosida o'quvchi o'zini qiziqtirgan jamiyat uchun zarur bo'lgan kasbni tanlaydi. Turli metodikalar yordamida o'quvchilarni kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlab olish mumkin.

Kasb- bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonning kelajagini belgilab beradigan, o'ziga xos bo'lgan murakkab jarayon deb belgilashimiz mumkin. O'qituvchi pedagog psixologlardan esa ularni kasbiy motivatsiyasini oshirib, kasbiy qiziqish va layoqatlarini tanlangan kasbiga mos tushishini ta'minlash hamda ularni bu borada to'g'ri yo'lga yo'naltirishni talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rogov E.I Kasb tanlash: Professional bo'lish. –M. Vldos 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi Tashxis markazi “O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish” o'quv qo'llanmasi
3. 2.Toshimov R. G'oziev Ye. G'. “Zamonaviy individual va guruhii psixologiya”. Toshkent, ”Universitet” 1999y.
4. [WWW.instudy.uz](http://WWW.instudy.uz)
5. [www.info-tashxis.uz](http://www.info-tashxis.uz)

## O'QUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISHDA PSIXOLOGIK MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI

O.I. Yadgarova  
SamDChTI ilmiy darajali (PhD)  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida sog'lom psixologik muhitni yaratishda samarali ta'sir bera oladigan psixologik trerinig mashg'ulotlarning ayrimlari bayon etilgan. Shunindek, psixologik mashg'ulotlarning inson emotsional-hissiy sohasida va qadriyatlar tizimida yuzaga kelgan buzilishlarni korreksiya qilishidagi o'rni, motivatsion sohani rivojlantirish va psixologik resurslarni shakllantirishdagi ahamiyatli tomonlari yoritib berilgan.

Hozirgi davrda yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish mustaqil fikr yuritish imkoniyatlarini shakllantirish muammosi Respublikamizning ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Dunyo miqyosidagi hozirgi ijtimoiy - siyosiy hayot kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikrlash, yangi texnika va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish tufayli ular kelgusida o'z oldilarida vujudga kelishi kutiladigan muammolarni ijodiy ravishda hal qilish orqali xalq xo'jaligining rivojlanishiga, Respublikamizning ilg'or texnologiyali jahon davlatlari qatoridan munosib o'rin egallashiga hissa qo'shishga erishish mumkin. Davlat va jamiyat tomonidan yoshlarning, ta'lim muassasalari mutaxassislari hamda ota-onalarning oldiga qo'yilayotgan vazifalar bevosita psixologiya sohasida yaratilayotgan turli psixodiagnostik metodlar trening, diagnostika, psixoterapevtik suhbatlar, intervyu, anketa usuli, test usuli kabi psixologik metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Shu o'rinda aytish lozimki, bugungi kunda yoshlar orasida sog'lom psixologik muhitga bo'lgan talabning muhimligini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"

2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli qarorini ijrosini ta'minlash yuzasidan qilingan qarorlar, shuningdek, umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qilingan qarorlarda ko'rishimiz mumkin. Quyida qarorning ba'zilarini misol taqiqasida ko'rsatib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir.[1]

➤ o'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

➤ pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

➤ iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

Yuqoridagi buldirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, yoshlar o'rtasida psixologik nuhitni yaxshilash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu kabi masalalarda ishlashda mutaxassisga psixologik treninglardan foydalanish tavsiya etiladi. Psixologik trening tushunchasi to'xtalib o'tsak. Trening termini (ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, train, training) ko'plab ma'nolarga ya'ni: o'qitmok, tarbiyalamoq, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma'nolarga ega. Xuddi shunday ko'p ma'nolilik treningning ilmiy talqiniga ham mos keladi. Trening insonlarda mavjud bo'lgan xulq-atvori va faoliyatini boshqaruv modelini qayta dasturlash vositasidir. Trening shuningdek tashkilotni rejalashtirilgan faolligini oshirish uchun, kasbiy bilimlarini oshiruvchi, ko'nikmalarini yaxshilashga yo'naltirilgan, yoki tashkilotning maqsadli faoliyati talablariga mos keluvchi attityudlar modifikatsiyasi va jamoatning ijtimoiy xulq-atvorini tuzatish uchun zarurdir. Quyida emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni, qadriyatlar tizimida yuzaga kelgan buzilishlarni, xarakter aksentuatsiyasini psixokorreksiya qilishda, shuningdek

motivatsion sohani rivojlantirishda va psixologik resurslarni shakllantirishda foydalanish uchun tavsiya etiladigan ba'zi psixologik treninglarni o'tkazilish tartibini beramiz.

**“XAYR STRESS” trening mashg‘uloti.**[2] Mashg‘ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib \*emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni psixokorreksiya qilishda, ishtirokchilarni psixologik stress yoki zo‘riqishdan halos qilish, ruhiy engillikni vujudga keltirishda. Trener mashg‘ulot avvalida ishtirokchilarga stress (ruhiy zo‘riqish) o‘zi nima va u insonda qanday kechadi degan savollarga javob berishi lozim. Stresslarning insonga faollashtiruvchi va passivlashtiruvchi ijobiy hamda 10 salbiy ta’sirlarini tushuntirib o‘tishi ham mashg‘ulot samaradorligini oshiradi. Jarayon: mashg‘ulot stulda o‘tirib bajariladi. Ishtirokchilar ushbu mashqni bajarishdan oldin qorni och bo‘lmasligi, jismonan o‘ta charchamagan bo‘lishi, kasal bo‘lmasligi talab etiladi. Chunki, ushbu mashq yuqoridagi hollarda ortiqcha jismoniy zo‘riqish, bosh aylanishi kabi qo‘shimcha muammolarni yuzaga keltirishi mumkin, shuning uchun trener bunga e’tibor qaratishi joiz. Ishtirokchilar stulda joylashib iloji boricha o‘zlarini bo’sh qo‘yib, erkin o‘tirib olishlari kerak bo‘ladi. Mashq: ishtirokchilar qo‘llarini pastga tushirib musht qilib olishadi hamda iloji boricha mushtlarini qattiq siqishlari lozim, shundan so‘ng mushtlarini ochib yubormagan holda yanada mushtni qattiq siqib qo‘llarini sekin ko‘tarishlari kerak, musht shunday qattiq siqilishi ya’ni qaltiraydigan darajada qattiq siqilishi kerak. Qo‘llar sekin ko‘tarilib mushti ko‘zlar to‘g‘risigacha kelganda mushtni qattiq siqib 4-5 sekund yana ushlab turiladi so‘ngra qo‘llarni baland ko‘tarib mushtlar sekin ochib yuboriladi va kaftlarni sekin keng ochib qo‘llar yana pastga tushiriladi. Bu mashq 2-3 martadan ortiq bajarilishi mumkin emas, chunki u jismoniy zo‘riqishni paydo qilishi mumkin. Mashqni trener ham birgalikda ishtirokchilarga namoyish etib bajarsa u yanada samraliroq chiqadi. SHuningdek, trener ushbu mashqni ikkinchi marotaba bajartirayotganida ishtirokchilarda quyidagi ustanovkalarni tasavvurda hosil qilishni so‘rashi ham treningni yanada samaradorligini ta’minlaydi: Faraz qiling, hozir siz barcha charchoqalaringiz, tavshvish va muammolaringizni barchasini qo‘lingizga yig‘ib olayapsiz hamda ularni qo‘lingizga qattiq ushlab, siqib oldindiz (qo‘llar pasta musht qilindi); Endi bor kuchingizni yig‘ib ularni ko‘tarayapsiz (musht yanada qattiq siqib



balandga sekin ko‘tariladi); Endi ularni qattiq siqib yanchib tashladingiz va ular engil parga aylanib g‘oyib bo‘ldi (ko‘z to‘g‘risida musht 4-5 sekund musht qaltiraydigan darajada qattiq siqib ushlab turiladi va kaftlarni keng ochib qo‘llar tepaga ko‘tarilib sekin pastga tushiriladi). Mashg‘ulot so‘nggida trener ishtirokchilardan taassurotlari va fikrlarini olishi kerak, hamda ularga ruhiy zo‘riqish va stressni engish bo‘yicha qo‘shimcha tavsiyalar berishi ham mumkin

**“O‘tmish, bugun, kelajak” psixologik trening mashg‘uloti.** Mashg‘ulotni guruhiiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni, qadriyatlar tizimida yuzaga kelgan buzilishlarni, xarakter aksentuatsiyasini psixokorreksiya qilishda, shuningdek motivatsion sohani rivojlantirishda va psixologik resurslarni shakllantirishda foydalanish tavsiya etiladi.[4]

Ishtirokchilardan ikki varaq (yoki A4) qog‘ozni teng 3 qismga ajratish so‘raladi. Quyidagi tarzda.

| O‘tmish                                            | Bugun                                              | Kelajak                                            |
|----------------------------------------------------|----------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| Rasm tarzda tasvirlashi yoki matn yozilishi mumkin | Rasm tarzda tasvirlashi yoki matn yozilishi mumkin | Rasm tarzda tasvirlashi yoki matn yozilishi mumkin |

Birinchi qismga o‘smirlar o‘z o‘tmishlarini tasvirlashlari kerak (rasm shaklida chizishlari yoki bayon shaklida yozishlari ham mumkin, bunda o‘smir o‘ziga qulay tarzda va o‘ziga tushunarli qilib tasvirlashi maqsadga muvofiq). Ko‘rsatma berilgach, vaqt beriladi 5-10 minut.

Ikkinchi qismga o‘smirlar bugunini tasvirlashlari kerak. Ko‘rsatma berilgach vaqt beriladi 10-15 minut.

Uchinchi qismga o‘smirlar kelajagini tasvirlashlari kerak. Ko‘rsatma berilayotganda o‘smirlarga o‘z orzu va maqsadlarini, intilishlarini, kelajakda erishmoqchi bo‘lgan muvaffaqiyatlarini, o‘z kelajagini qanday ko‘rmoqchi ekanliklarini shu erda aks ettirish so‘raladi. Ko‘rsatma berilgach, vaqt beriladi 20-30 minut.

“O‘tmish hikmat bulog‘i, bugun oliy ne‘mat, kelajak esa oppoq qog‘oz”. O‘smirlar yozib bo‘lgach, ularga yuqoridagi hikmatli so‘zni aytish va ularning bu hikmatga bo‘lgan firk-mulohazalarini eshitish kerak.

**Kichik ma’ruza:**

*O'tmish* hikmat bulog'i bo'lib, undan faqat hikmat olish mumkin, boshqa narsa emas, agar inson bulog'dan suvdan boshqa narsa olish uchun uni kovlayversa suvni bulg'aydi. Shuning uchun inson o'z o'tmishidan hikmatdan boshqa hech narsa olmasligi kerak, agar inson o'z o'tmishidan afsus, alam, g'am tashvishlarni ham olsa o'ziga, o'zini ongini va qalbini, ruhiyatini xuddi tiniq suvni bulg'agandek yomon holatga keltirib qo'yadi. O'tmishdan faqat xulosa chiqaring boshqa narsa emas.

*Bugungi kun* esa sizga berilgan eng katta ne'mat, uni go'zal va yoqimli qilish hozir sizning qo'lingizda. Va uni siz uchun yoqimli bo'lishi sizning munosabatingizga bog'liq. SHuning uchun bugun hayotingizdan mamnun bo'lib, orzu maqsadlarga tinimsiz intilib yashash kerak. CHunki vaqt o'tkach, bugun o'tmishga aylanib qoladi va undan hech narsa olish imkoni qolmaydi, bugun esa bugundan ko'p foyda olib qolish mumkin.

*Kelajak* esa, bugundan boshlanadigan davr va u oq qog'ozdek toza, unga o'zingiz nimani istasangiz tasvirlashingiz mumkin. Hayotingiz go'zal, yoqimli va baxtli bo'lishini istasangiz unga faqat yaxshi narsalarni rejalashtiring. Orzu qilsangiz faqat yaxshilikni orzu qiling. Shuni yodda tutingi kelajakni tasvirini siz bugundan boshlagansiz, har kungi umringiz, qilayotgan ishlaringiz, olayotgan bilim va tajribalaringiz, oldingizga qo'yayotgan ezgu orzu-niyatlaringiz kelajagizni barpo etadi.

Amalga oshirilgan mashg'ulotning yana bir o'ziga hos, ta'sirli jihati shundaki, unda inson orzu qilishni o'rganadi, maqsadlarini oydinlashtiradi, ma'lum bir muddatga o'zini yorqin kelajagida tasavvur qilishga imkon topadi. O'z kelajagini o'zi xohlagandek tasavvur qiladi. Maqsadli inson, orzumand shaxs sifatida o'zini taniydi bu insondagi psixologik resurslarni kuchaytiradi, yashovchanlikni, intiluvchanlikni va motivatsiya hamda iroda kuchini oshiradi.

Psixologik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'zining orzu maqsadlariga ega va unga erishishni chin dildan istaydigan insonlarda iroda darajasi, jismoniy va ruhiy tetiklik, salomatlik darajasi 2-3 marta balandroq bo'ladi. Bunga ikkinchi jahon urushidagi nemis konslagerlarida psixoanalitik faylasuf Viktor Frankl tomonidan olib borilgan kuzatuvlar asosdir. [5] Uning kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, konslagerlarda qiynoq hamda turli murakkab yashash sharoitlariga faqatgina o'zining rejalashtirgan maqsad va intilishlari, ishonch va e'tiqodiga, shaxsiy qadriyatlar tizimiga ega insonlarga ko'proq omon qola

olganlar. Yoshlar o'rtasida psixologik muhitni yaxshilash va ularni o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, bugungi oldimizga qo'ygan maqsadlarimizdan biri bo'lgan, yuksak ma'naviyatli, yaratuvchan hamda sog'lom fikr egasi bo'lgan yoshlarni jamiyatga taqdim etadi degan fikrdamiz. Zero har tomonloma sog'lom qalb sohibi o'z vatani ravnaqi yo'lida yuksak marralarga erishishishi o'z isbotini topgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son [qarori](#)
2. Shaxs psixodiagnostikasining proektiv metodikalari. Psixologlar uchun qo'llanma. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi . Toshkent – 2015
3. Psixokorreksion trening mashg'ulotlari (Xulqi og'ishgan o'quvchilar bilan psixologik korreksion-rivojlantiruvchi treninglar): Uslubiy qo'llanma/ Tuzuvchi-muallif A.Sh.Abdullaev – T.: ....., 2017. – 71-b.
4. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. Psixologik treninglar ishlanmasi. Tuzuvchilar: S.H. Alimxodjayeva. F.I.Haydarov. Toshkent-2008 yil.
5. Горбушина О.П. Психологический тренинг. Секреты проведения. СПб.: Питер, 2007. - 176 с: ил. - (Серия «Практическая психология»).

## O'QUVCHILARDA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Mirtojiyeva Yulduzxon Nosirovna*  
*Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 4-maktab amaliyotchi psixologi*

**Kalit so'zlar:** shaxs, odam, qobiliyat, individ, temperament, qiziqish, xarakter, iqtidor, rivojlanish, korreksiya, emotsiya, iroda, rivojlanish, aniqlash

**Annotasiya:** Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri xalqimizning boy merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida barkamol avlodni tarbiyalashdir. Chunki, shaxsning har tomonlama kamol topishi va farovon yashashini ta'minlash, uning manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini yaratish va yangi sharoitga moslashtirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir.

Shaxs-qaytarilmas, u o'z sifatleri va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual psixologik xususiyatlari majmui yotadi. Shu o'rinda biz yuqorida ta'rif bergan shaxs tushunchasi bilan yonma-yon ishlatiladigan yana ikki tushunchaga izoh berish o'rinli deb hisoblaymiz. Bu — «individ» va «individuallik» tushunchalaridir. **«Individ»** tushunchasi umuman «odam» degan tushunchani to'ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mavjudligini tasdiqlaydi va uni bir tomondan, boshqa odamlardan farqlovchi belgi va xususiyatlarini o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, o'ziga va o'ziga o'xshashlarga xos bo'lgan umumiy va xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ — insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir.

**«Individuallik»** — yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o'ziga xos xususiyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsning individualligiga uning qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, irodaviy sifatleri, emosiyalari, xulqiga xos motivasiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shu qayd etib o'tilgan kategoriyalar shaxsdagi individuallilikni ta'minlovchi kategoriyalardir. Uning ma'nosi shundaki, bo'yi, eni, yoshi, sochining rangi, ko'z qarashlari, barmoq xarakatlari va shunga o'xshash sifatleri bir xil bo'lgan insonlarni

topish mumkin, lekin xarakteri, qobiliyatlari, temperamenti, faoliyat motivasiyasi va boshqalarga aloqador sifatlari majmui bir xil bo'lgan odamni topib bo'lmaydi.

*Qobiliyatlar* — shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko'rsatgichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

*Temperament* — insonning turli vaziyatlarda narsa, hodisa, xolatlar va insonlarning xatti-xarakatlariga nisbatan reaksiyasini tushuntirib beruvchi xususiyatlari majmuidir.(10.128)

*Xarakter* — shaxsning alohida insonlar va insonlar guruhi, o'z-o'ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan sifatlarini o'z ichiga oladi.

*Irodaviy sifatlari* — har birimizning o'z oldimizga maqsad qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishimizni ta'minlovchi ma'lum sifatlarimiz majmuini o'z ichiga oladi.

*Emosiyalar va motivasiya* esa atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalar, bizni o'rab turgan odamlar va ularning xatti-harakatlarini ruhan qanday qabul qilib, ularga bildiradigan hissiy munosabatlarimizni bildiruvchi sifatlarimiz bo'lib, ular ayni vaziyatlardagi real xolatlarimizdan va ularning ongimizda aks etishidan kelib chiqadi.

**Iqtidor** - bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Psixologik lug'atda "iqtidor" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi

1) iqtidor bu - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;

2) iqtidor bu - insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3) iqtidor bu - aqliy potensial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;

4) iqtidor bu - tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va ularning namoyon bo'lishi darajalari;

5) iqtidor bu - iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

**Umumiy qobiliyat egalari** yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi.

**Maxsus qobiliyat egalari esa**-biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar.

Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob axtarishligi;
- nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o'qish, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o'quv faoliyati;
- masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik;
- tafakkurning unumdorliligi ;

Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog'liq. Erta yosh davrlar - maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko'rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu "umumiy qobiliyat" o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ma'lum bir yo'nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo'layotganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Aniq namoyon bo'lgan, ya'ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e'tibor berilgan qobiliyat "aktual", atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat "potensial"qobiliyat deyiladi. Ko'pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Mosart, F.Galton, I.Mechnikov,

K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnis, V.Gyugo) erta yoshdayoq o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko'p hollarda bolalikda hych qanday iqtidorga ega bo'lmagan bolalar yetuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko'pincha atrofdagilar e'tibor bermasliklari mumkin. Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikning sabablari turlicha. Potensial qobiliyat haqiqatdan ham ma'lum bir vaqtgacha namoyon bo'lmagandir. Balki, ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o'zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari yetmagandir. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkoniyatlarni sezmaganlar, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar. Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya'ni, hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potensial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim deb hisoblaydi. Shaxsning qanday sifatleri va xarakter xususiyatlari, fe'l-atvoridagi va faoliyatidagi fazilatlari kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar bolaning kelajagini "bashorat" qilish imkonini beradigan qator qonuniyatlarni belgilab berganlar, lekin asoslangan prognozlar berishga hali erishilgani yo'q. Shu bilan birga jahon pedagogika va psixologiyasi sohasidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, bolaning imkoniyatlariga ishonchning pedagoglar va ota-onalarning mahoratiga yo'g'rilganligi mo'jizalar sodir etishga qodir. Ba'zi hollarda hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko'ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir.

Iqtidorli bola deb kimni aytilish mumkin?



**Iqtidorli bola** – u yoki bu faoliyat turida boshqalardan o'zining yorqin, ochiq-oydin, ba'zida mislsiz yutuqlari bilan ajralib turadigan boladir. Tabiiyki, qanday yutuqlar haqida gap yuritilayotganligi haqida savol tug'ilishi mumkin. Maxsus adabiyotlarda iqtidorli bolalar bir nechta kategoriyalarga ajratiladi:

- maxsus intellekt testlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bolalar (intellektual iqtidor);
- ijodiy qobiliyatlari yuqori bo'lgan bolalar (ijodiy iqtidor);
- biror bir sohada, faoliyat turida yutuqlarga erishgan bolalar (yosh musiqachilar, rassomlar, matematiklar, shaxmatistlar va boshq.), bu kategoriyadagi bolalarni ko'pincha talantli deyishadi;
- maktabda fanlarni yaxshi o'zlashtiradigan bolalar (akademik qobiliyat).

Intellektual iqtidor odatda maxsus testlar yordamida intellektual koeffitsiyent (IQ) ko'rinishda aniqlanadi. Zehn-zakovat saviyasi yuqori darajada rivojlangan kishilar faoliyatni o'ta nozik did, donolik bilan bajaradilar, fanda qilingan yangiliklari bilan nom qozonadilar.

Ijodiy qobiliyatlarga nisbatan esa ikki xil, bir-birini inkor etmaydigan yondashuvlar bor. Birinchi yondashuvda ijodiylik qobiliyat deb tasavvur qilinsa, ikkinchi bir yondashuvda ijodiylik shaxs xislati sifatida qaraladi va shu sababli har qanday yoshda, har qanday kasb-korda namoyon bo'ladi.

Akademik qobiliyatga ega bo'lganlar esa ta'limda ko'proq natijalarga erisha oladilar. Ular nazariy bilimlarni keng doirada, yengil o'zlashtira oladilar, o'ziga xos tafakkur va mustahkam xotiraga ega bo'ladilar. Akademik qobiliyatlarni aniqlash uchun odatda, maxsus standartlashtirilgan bilim testlaridan foydalaniladi.

Iqtidorli bolalarni aniqlash davomiy jarayon bo'lib, shaxsning rivojlanishini chuqur tahlil qilish bilan bog'liq. Bunda qator psixologik-pedagogik talablar mavjud:

- bolaning o'zini tutishi va faoliyatini kompleks baholash, bunda imkon qadar ko'proq bolaning qobiliyatlari va turli axborot manbalaridan foydalanish;
- identifikasiyalash (o'xshatish) jarayonining davomiyligi (turli vaziyatlarda bolaning o'zini tutishini kuzatish);

- bolaning qiziqish va layoqatlariga mos keladigan faoliyat doirasida o'zini tutishini tahlil etish (maxsus tashkil etilgan o'yin-mashg'ulotlarga jalb etish);
- bolaning faoliyatiga ekspert baho berish (rasmlari, yozgan she'rlari, texnik modellari, matematik masalalarni yechish usullari.), bunda yuqori malakali sohaga oid ekspert-mutaxassislarni ( matematiklar, filologlar, shaxmatist va muhandislar) taklif etish.
- har bir bolaning individualligini hisobga olgan va turli psixodiagnostik metodikalarni qo'llagan holda tashxis qilishning ko'p bosqichli va takroriy usullaridan foydalanish;
- tashxis ishlarini real hayot va faoliyat doirasida (kuzatish, suhbat, o'qituvchilar va ota-onalarning ekspert bahosi )amalga oshirish.

Iqtidorli bolalarni aniqlashda shu yosh davrdagi iqtidorning rivojlanishi darajasini, iqtidorning turli faoliyat doirasida amalga oshirish xususiyatlarini, bola rivojlanishining potensial imkoniyatlarini differensiasiya (tabaqalashtirish) qilish talab etiladi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. S.N.Alimxodjayeva, F.I.Haydarov, T.B.Samandarova, R.X.Valiyev “Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi”, Toshkent.; 2010 yil, 4-7 betlar
2. Gurevich K.M., Gorbacheva Ye.I. Umstvennoe razvitie shkolnikov: Kriterii i normativы. Znanie, 1989.
3. Shkolnyy test umstvennogo razvitiya (ShTUR). Praktikum po psixodiagnostike.-M.: MGU, 1990.
4. Rogov Ye.I. Issledovanie poznavatelnoy sfery podrostka. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa v obrazovanii.- M.: 1996.

## МУНДАРИЖА

|                                           |                                                                                                                         |     |
|-------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Кайпназарова Сарбиназ                     | Бошланғич синф ўқувчиларининг психологик хусусиятлари                                                                   | 4   |
| Baratova Baxriya<br>Suvonovna             | Umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologik xizmat ko'rsatishning samaradorligini oshirish                              | 7   |
| Мансурова Чарос<br>Насруллаевна           | Оилада соғлом турмуш тарзи маданиятини шакллантириш психологияси                                                        | 9   |
| Batirova Nilufar<br>Egamberganovna        | O'spirinlik davrida stress holati va uni bartaraf etishning psixologik jihatlari                                        | 14  |
| Imanova Umida<br>Madumarovna              | Hulqi og'ishgan o'quvchilar bilan ishlash, ular bilan korreksiya ishlarini olib borish                                  | 17  |
| Sharipova Shaxnoza<br>Ro'zmamatovna       | Inklyuziv ta'lim jarayonida oila va maktabning hamkorligi, jamoatchilikning o'rni                                       | 20  |
| Ibaydullayev Ibrohimjon<br>Orif o'g'li    | Maktab yoshidagi egizaklarning o'qishdagi kamchiliklarni korrektsiyalash yo'llari                                       | 26  |
| Усманова Зухра<br>Хайруллаевна            | Ўқувчи ёшларда ахлоқий ҳис-туйғуларни шакллантиришда мактаб ва оиланинг ўрни                                            | 30  |
| Norqobilova Surayyo<br>G'ulom qizi        | Giperaktiv o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonidagi muammolarini psixologik talqin etish                               | 34  |
| Саидова Хуршида<br>Равшановна             | Ўқувчи ёшларнинг психологик муаммоларини бартараф этишда ота-оналар ва яқин катталарнинг фаоллигини ҳамда ролини ошириш | 38  |
| Boratova Nasiba<br>Ismoilovna             | O'quvchi yoshlarni ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari                                                         | 44  |
| Soxibnazarova Maxsuda<br>Mahmudovna       | Bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari                                                                             | 47  |
| Kamolova Zuhra<br>Tufli qizi              | Shaxsda alturistik xulq-atvor tendensiyalarining shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillar                             | 51  |
| Xolturaev Asqarjon<br>Panjiyevich         | Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda o'quv faoliyatida natijaga erishish muammosining psixologik tahlili                  | 56  |
| Bekbosinova Gulzira                       | Mektepte inklyuziv bilimlendiriwdin orní hám ahmiyeti                                                                   | 61  |
| Ҳасанова Садоқат<br>Чориевна              | Ёшлар тарбияси учун масъулмиз                                                                                           | 67  |
| Saidova Mashhura,<br>Kuchkarova Dilfuza   | International evaluation in foreign language teaching specifications of programs and standards                          | 70  |
| Isakova Arofatxon,<br>Nabiyeva Maftunaxon | Sog'lom oila va sog'lom bola tarbiyasi                                                                                  | 74  |
| Дилфуза Саминовна                         | О креативной деятельности преподавателя                                                                                 | 77  |
| Дилфуза Саминовна                         | Работа со связным текстом в процессе обучения русскому языку                                                            | 80  |
| Толиб Ганиевич                            | Особенности эстетических чувств студентов русской филологии                                                             | 84  |
| Толиб Ганиевич                            | Система профессиональной ориентации студентов                                                                           | 87  |
| Eshonova Tursunoy                         | Bola nutqini rivojlantirish                                                                                             | 91  |
| Aliqulova Husnidaxon<br>Ma'rufovna        | Ijtimoiy muhit va ta'lim jarayonida hulq-atvor shakllanishining pedagogik va psixologik jihatlari                       | 96  |
| Norboyeva Nilufar<br>Orziqul qizi         | Креативность важнее знаний                                                                                              | 104 |
| Shukurulloyeva Sadoqat<br>Sodatullo qizi  | Ta'lim jarayonida o'quv motivatsiyasi va psixologik uslublarning o'rni                                                  | 108 |
| Лутфиддинова Зоҳида                       | Ўқувчи қобилиятларини аниқлаш ва ривожлантиришнинг психологик асослари                                                  | 112 |
| Abduxamidov Sardor<br>Mardonaqulovich     | Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarining yangi imkoniyatlari                                                      | 116 |

|                                                                         |                                                                                                                                        |     |
|-------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Turg'unova A'loxon<br>Ilxomjonovna                                      | Maktab o'quvchilarining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati                                                  | 121 |
| Turg'unova A'loxon<br>Ilxomjonovna                                      | O'smirlik davrida ijtimoiy qo'rquv holatlarining kelib chiqish sabablari va korreksiya qilishda amaliy tavsiyalar                      | 125 |
| Boymurodova<br>Dilshodaxon                                              | Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari                                                                                              | 128 |
| Sodiqova Feruzaxon                                                      | O'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonch hosil qilish                                                                                 | 130 |
| Oripova Mohigul                                                         | Oilada ota-ona va farzand farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mas'uliyat hissini shakllantirishdagi o'rnini                 | 134 |
| Matiboyeva Dilobatxon                                                   | O'quvchi yoshlarda to'siqlarni yengib o'tish ko'nikmasini shakllantirish                                                               | 138 |
| Yo'ldasheva Dilduzaxon                                                  | Orzu va maqsad-muvaffaqiyatga yetaklovchi yo'l                                                                                         | 142 |
| Qodirova Barnaxon                                                       | Yoshlarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish                                                                                       | 146 |
| Umarova Gul'nara                                                        | O'ziga ishonch insonni muvaffaqiyatga yetaklovchi asosiy yo'ldir                                                                       | 149 |
| Madvaliyeva Ziyodaxon                                                   | O'smirlik davrining psixologik xususiyati                                                                                              | 153 |
| Sattorova Nozigul                                                       | Bola shaxsni rivojlantirishda tarbiyaning o'rnini                                                                                      | 157 |
| Olimova Zohidaxon                                                       | O'z vaqtini rejalashtirish bo'yicha tavsiyalar                                                                                         | 161 |
| Sodiqova Feruzaxon                                                      | O'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonch hosil qilish                                                                                 | 164 |
| Abdunazarova<br>Shahnozaxon                                             | Stressiz turmush tarzi                                                                                                                 | 168 |
| Esonova Zulayxo                                                         | Psixologik konfliktlarda agressivlikni bartaraf etish                                                                                  | 172 |
| Xolmuminova Shoxida<br>Norqul qizi                                      | Boshlang'ich sinflarda zamonaviy texnikalardan foydalanishning ahamiyati va bola psixologiyasiga ta'siri                               | 176 |
| Egamberdiyeva Dilnoza                                                   | Yosh avlod tarbiyasida oilaning o'rnini                                                                                                | 180 |
| Eltazarova Gulchehra                                                    | O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning asosiy vazifalari                                                                                | 183 |
| Karimova Mardona                                                        | Hissiy zo'riqishlarini oldini olishning psixologik xususiyatlari                                                                       | 188 |
| Sharipov Alisher,<br>Axmadova Farangiz                                  | Irodaviy harakatlarining ahamiyati va uni maktabgacha tarbiya yoshi davrida rivojlantirish                                             | 192 |
| Sharipov Alisher,<br>Mahkamova Risolat                                  | O'smirlik davrida ota-ona bilan munosabatlardagi muammolar va ularning o'smir ta'lim-tarbiyasiga ta'siri                               | 196 |
| Bo'ronova Hilola                                                        | Shaxs statusining ayrim psixologik jihatlari                                                                                           | 200 |
| Toshmatova Ziroatxon,<br>Boltaboyeva Nigora,<br>Xayitboyeva Zurriyatxon | Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik to'g'riligini o'stirish                                                                  | 203 |
| Абдикеримова Гулназ                                                     | Ўқувчиларнинг касб танлашдаги айрим муаммолар ва ечимлар                                                                               | 209 |
| Исанова Гулноза                                                         | Болалар ва ёшларнинг оиладаги тарбияси                                                                                                 | 212 |
| Aliyeva Go'zalxon<br>Ne'matjonovna                                      | Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish | 216 |
| Umurzoqov Dilmurod                                                      | Bolada o'ziga ishonchni oshirishning amaliy psixologik usullari                                                                        | 220 |
| Samatova Malika<br>Toshtemirovna                                        | Bolalarda egoizm rivojlanishining oldini olish zarurati va imkoniyatlari                                                               | 225 |
| Туробова Шахноза<br>Умировна                                            | Совершенствование управления производственной средой на предприятии                                                                    | 229 |
| Muydinova Gulbahor<br>Yo'ldosh qizi                                     | Islom dinida ilmga munosabat va din insonni ilm olishda rag'bartlantiruvchi omil sifatida                                              | 231 |
| Abduvaxobova Mastura<br>To'ychiyevna                                    | Ijtimoiy muhit va ta'lim jarayonida xulq-atvor shakllanishining pedagogik va psixologik jihatlari                                      | 239 |
| Lutfullayev Abduvali                                                    | Virtual dunyo yoshlarimizni real olamimi                                                                                               | 242 |
| Ochilov Ulug'bek                                                        | Ma'naviy yuksalish yo'lidagi tahdidlar                                                                                                 | 247 |
| Усманова Шахло,<br>Содикназарова Саодат                                 | Стили руководства в деятельности тренера                                                                                               | 251 |

**Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази**

|                                 |                                                                                                                                                    |     |
|---------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Dilfuza Xalilova                | Bola shaxsining shakllanishida oila va oilaviy munosabatlarning psixologik hususiyatlari                                                           | 256 |
| Aliyev Dalerjon                 | Yolgo‘n nazariyasi, uning kelib chiqish sabablari va shakllari                                                                                     | 263 |
| Dildora Roxatova                | Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari. Uning sabab va yechimlari                                                                              | 268 |
| Туробова Шахноза Умировна       | Совершенствование управления производственной средой на предприятии                                                                                | 271 |
| Xoliqova Marjona                | Maqsud shayxzoda-ikki xalq dilbandi                                                                                                                | 276 |
| Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna | Ingliz tili mutaxassislarida kasbiy kompetensiya shakllanganligining ahamiyati                                                                     | 280 |
| Djuraeva Nilufar Bakhtiyarovna  | Interference of the mother tongue in the acquisition of a foreign language among young designers                                                   | 283 |
| Ёзиева Шахрибону Гайратуллаевна | Проблемы развития системы высшего образования в странах северной африки (на примере египта)                                                        | 287 |
| Каримова Дилноза Мансуровна     | Касб танлаш мотивларининг ижтимоий-психологик механизмлари                                                                                         | 292 |
| Ne‘matullayeva Fayoza           | O‘smirlik davrida stressning kechishi psixologik muammo sifatida                                                                                   | 297 |
| Mirxonova Dilfuza Fayziyevna    | Umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarni kasb - hunarga yo‘naltirishning psixologik - pedagogik samaradorligini oshirishdagi muammolari va yechimlari | 301 |
| Yadgarova Ozoda Ibragimovna     | O‘quvchi yoshlar o‘rtasida sog‘lom psixologik muhitni yaratishda psixologik mashg‘ulotlarining ahamiyati                                           | 306 |
| Mirtojiyeva Yulduzxon           | O‘quvchilarda individual xususiyatlarni rivojlantirish usullari                                                                                    | 312 |
| <b>МУНДАРИЖА</b>                |                                                                                                                                                    | 318 |

